

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**



Q.A. Isayev

GLOBAL SIYOSIY IQTISODIYOT

(O‘quv qo‘llanma)

TOSHKENT – 2025

UO‘K :
KBK
E

**Q.A. Isayev. Global siyosiy iqtisodiyot. (O‘quv qo‘llanma). – T.:
“Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” 2025, 279 bet.**

ISBN:

Global siyosiy iqtisodiyot fanidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanma talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, zamonaviy globallashuv sharoitida ro‘y berayotgan o‘zgarish, hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ularning ilmiy dunyo qarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

O‘quv qo‘llanma 70411901 – “Jahon iqtisodiyoti” (mintaqa va faoliyat turlari bo‘yicha) va 70411102 – “Tashqi iqtisodiy faoliyat” (tarmoqlar va faoliyat turlari bo‘yicha) magistratura bosqichi talabalari va shu sohaga qiziquvchi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

Учебное пособие по предмету «Глобальная политическая экономика» выполняет задачи формирования у студентов теоретических знаний, практических навыков, методологических подходов к изменениям, явлениям и процессам, происходящим в условиях современной глобализации, а также их научного мировоззрения.

Учебное пособие предназначено для студентов магистратуры по направлениям 70411901 – «Мировая экономика» (по регионам и видам деятельности) и 70411102 – «Внешнеэкономическая деятельность» (по отраслям и видам деятельности), а также для специалистов, интересующихся данной областью.

The textbook on Global Political Economy is designed to provide students with theoretical knowledge, practical skills, methodological approaches to changes, phenomena, and processes occurring in the context of modern globalization, as well as to develop their scientific worldview.

The textbook is intended for master's students in the fields of 70411901 – "World Economy" (by regions and types of activities) and 70411102 – "Foreign Economic Activity" (by industries and types of activities), as well as for professionals interested in this area.

UO‘K:
KBK

Taqrizchilar:

L.M. Tashpulatova - Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent.;

N.S. Ismailova - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” kafedrasi mudiri, i.f.n., professor.

ISBN

**Q.A. Isayev, 2025;
“Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2025.**

MUNDARIJA

MUQADDIMA.....	9
I BOB. GLOBAL SIYOSIY IQTISODIYOT FANINING NAZARIY ASOSLARI.....	11
1.1. Global siyosiy iqtisodiyotning zamonaviy ta'limdagi o'rni.....	13
1.2. Global siyosiy iqtisodiyotning mazmun va mohiyati	17
1.3. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy tahlil va yondashuvning ahamiyati.....	22
1.4. Global siyosiy iqtisodiyotda samaradorlikni baholash	25
II BOB. GLOBAL SIYOSIY IQTISODIYOT MASALASIDA O'ZARO BOG'LIQLIK TUSHUNCHASI	34
2.1. O'zaro bog'liqlik va koordinatsiya	34
2.2. Global siyosiy iqtisodiyotda xalqaro ijtimoiy tovarlardan foydalanish masalasi	39
2.3. Global darajadagi o'zaro bog'liqlikning oqibatlari, milliy iqtisodiyotlarga ta'sirini baholash	45
2.4. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, birlashmalar, federatsiyalarning boshqaruv amaliyoti	51
III BOB. GLOBAL IQTISODIY O'SISH MASALALARI	62
3.1. Iqtisodiy o'sish va rivojlanish tushunchalari.....	62
3.2. Investitsiyaning iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi.....	69
3.3. Tashqi omillar va innovatsiyaning iqtisodiy o'sishga ta'siri	74
3.4. Mehnat resurslarining ortishi va moliyaviy tizimlardan foydalanish hisobiga o'sishga erishish	78
IV BOB. PUL-KREDIT SIYOSATI.....	86
4.1. Pul-kredit siyosatning asosiy mazmun va mohiyati.....	86
4.2. Markaziy bank va tijorat banklari faoliyati	93
4.3. Moliyaviy mablag'larni muomalaga chiqarish tartib tamoyillari	98
4.4. Fiskal va monetar siyosat orasidagi bog'liqlik.....	107
V BOB. XALQARO MOLIVAVIY INTEGRATSIYA VA VALYUTA SIYOSATI	116
5.1. Xalqaro valyuta tizimlari faoliyati	116
5.2. Global moliyaviy ochiqlik siyosati	123
5.3. Valyuta ayirboshlash amaliyoti. Milliy va xalqaro valyuta munosabatlari.....	131
5.4. Valyuta inqirozi modellari. Kapital harakatini boshqarish	138
VI BOB. BYUDJET SIYOSATI VA UNING SAMARADORLIGI MASALASI.....	149
6.1. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari tarkibi	149
6.2. Byudjet daromadlari manbalarini oshirishda milliy ishlab chiqarishni kuchaytirish masalasi	158
6.3. Ochiq va erkin iqtisodiyotning byudjet samaradorligiga ta'siri.....	167

6.4. Fiskal siyosatni amalga oshirishining o‘ziga xos xususiyatlari	171
VII BOB. GLOBAL MIGRATSIYA SIYOSATI.....	181
7.1. Xalqaro ishchi kuchi bozorlari. Ishchi kuchining harakatlanishi	181
7.2. Jahon mamlakatlarining milliy migratsiya siyosati.....	186
7.3. Siyosiy qochqinlar muammosi	192
7.4. O‘zbekistonda migratsiya siyosati. Xalqaro mehnat bozorlari bilan hamkorlik	198
VIII BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MIKROSIYOSIY IQTISODIYOT TALQINI	207
8.1. Mikrosiyosiy iqtisodiyotning mazmun-mohiyati	207
8.2. Global dunyoda innovatsion g‘oyalar, startaplar uchun biznes muhiti va imkoniyatlari	210
8.3. Monopoliya va oligopoliya. Monopoliyaga qarshi kurashish amaliyoti.....	215
8.4. Erkin bozor va sof raqobat muhiti. Shaffoflik va inklyuziv iqtisodiyot	223
IX BOB. INVESTITSIYA SIYOSATI	232
9.1. Investitsiyaning mohiyati, shakllari va investitsiya oqimlari.....	232
9.2. Investitsiya muhitini yaratish. Ichki resurslarning investitsion samaradorligi.....	234
9.3. Tashqi investitsiya manbalari.....	237
9.4. Milliy investitsion dasturlar. Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyati. Fond birjasi	240
X BOB. GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ATROF-MUHIT HIMOYASIGA QARATILGAN SIYOSIY IQTISODIYOT	248
10.1. Atrof-muhitning global muhofazasi: milliy va xalqaro mezonlar.....	248
10.2. Global ekologik nazorat	253
10.3. Global ekologik holatni baholash.....	257
10.4. Atrof-muhit muhofazasi sohasida xalqaro hamkorlik.....	263
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	268

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	9
ГЛАВА I. ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ НАУКА ГЛОБАЛЬНОЙ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЭКОНОМИКИ ОСНОВЫ	11
1.1. Глобальная политическая экономика современный роль в образовании.....	13
1.2. Глобальная политическая экономика содержание и сущность	17
1.3. Значение экономического анализа и подхода в принятии управленческих решений.....	22
1.4. Оценка эффективности в глобальной политической экономике.....	25
ГЛАВА II. КОНЦЕПЦИЯ ВЗАИМОСВЯЗИ В ПРОБЛЕМЕ ГЛОБАЛЬНОЙ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЭКОНОМИКИ	34
2.1. Взаимозависимость и координация	34
2.2. Проблема использования международных социальных благ в политической экономии	39
2.3. Оценка последствий глобальной взаимосвязанности и ее влияния на национальные экономики	45
2. 4. Практика управления международными экономическими организациями, ассоциациями, федерациями	51
ГЛАВА III. ВОПРОСЫ ГЛОБАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА	62
3.1. Понятия экономического роста и развития	62
3. 2. Связь инвестиций с экономическим ростом	69
3. 3. Влияние внешних факторов и инноваций на экономический рост	74
3.4. Достижение роста за счёт увеличения трудовых ресурсов и использования финансовых систем	78
ГЛАВА IV. ДЕНЕЖНО-КРЕДИТНАЯ ПОЛИТИКА	86
4.1. Основное содержание и сущность денежно-кредитной политики	86
4.2. Деятельность Центрального банка и коммерческих банков	93
4.3. Принципы порядка выдачи финансовых ресурсов	98
4. 4. Взаимосвязь фискальной и денежно-кредитной политики	107
ГЛАВА V. МЕЖДУНАРОДНАЯ ФИНАНСОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ И ДЕНЕЖНО-КРЕДИТНАЯ ПОЛИТИКА	116
5.1. Деятельность международных валютных систем	116
5.2. Глобальная политика финансовой прозрачности	123
5.3. Практика обмена валюты. Национальные и международные валютные отношения.....	131

5. 4. Модели валютного кризиса. Управление движением капитала	138
ГЛАВА VI. БЮДЖЕТНАЯ ПОЛИТИКА И ВОПРОС ЭФФЕКТИВНОСТИ	149
6. 1. Структура доходов и расходов государственного бюджета	149
6 .2. Укрепление национального производства как источник увеличения доходов бюджета	158
6. 3. Влияние открытой и свободной экономики на эффективность бюджета	167
6. 4. Особенности реализации фискальной политики	171
ГЛАВА VII. ГЛОБАЛЬНАЯ МИГРАЦИОННАЯ ПОЛИТИКА	181
7.1. Международные рынки труда. Мобильность рабочей силы	181
7.2. Национальная миграционная политика стран мира	186
7.3. Проблема политических беженцев	192
7.4. Миграционная политика в Узбекистане. Сотрудничество с международными рынками труда	198
ГЛАВА VIII. МИКРОПОЛИТИЧЕСКАЯ ЭКОНОМИКА	207
8.1. Сущность микрополитической экономики	207
8.2. Деловая среда и возможности для инновационных идей и стартапов в глобальном мире	210
8.3. Монополия и олигополия. Антимонопольная практика	215
8.4. Свободный рынок и чистая конкурентная среда. Прозрачность и инклюзивная экономика	223
ГЛАВА IX. ИНВЕСТИЦИОННАЯ ПОЛИТИКА	232
9.1. Сущность, формы и инвестиционные потоки инвестиций	232
9.2. Создание инвестиционного климата. Эффективность инвестиций внутренних ресурсов	234
9.3. Внешние источники инвестиций	237
9.4. Национальные инвестиционные программы. Деятельность на рынке ценных бумаг. Фондовая биржа	239
ГЛАВА X. ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЭКОНОМИЯ ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ	248
10.1. Глобальная охрана окружающей среды: национальные и международные стандарты	248
10.2. Глобальный экологический контроль	253
10.3. Оценка глобального экологического состояния	257
10.4. Международное сотрудничество в сфере охраны окружающей среды.....	263
ЛИТЕРАТУРЫ.....	268

CONTENTS

INTRODUCTION	9
CHAPTER I. THEORETICAL SCIENCE OF GLOBAL POLITICAL ECONOMY BASICS.....	11
1.1 Global political economics modern role in education	13
1.2. Global political economy content And essence.....	17
1.3. The importance of economic analysis and approach in making management decisions.....	22
1.4. Assessing Performance in the Global Political Economy.....	25
CHAPTER II. THE CONCEPT OF INTERCONNECTION IN THE PROBLEM OF GLOBAL POLITICAL ECONOMY	34
2.1 Interdependence and Coordination	34
2.2. The problem of using international social goods in global political economy	39
2.3. Assessing the consequences of global interconnectedness and its impact on national economies.....	45
2. 4. Practice of management of international economic organizations, associations, federations.....	51
CHAPTER III. ISSUES OF GLOBAL ECONOMIC GROWTH	62
3.1. Concepts of Economic Growth and Development.....	62
3.2. The Relationship Between Investment and Economic Growth.....	69
3.3. The Impact of External Factors and Innovation on Growth	74
3.4. Achieving Growth Through Labor Resource Expansion and Financial Systems	78
CHAPTER IV. MONETARY POLICY	86
4.1. The main content and essence of monetary policy	86
4.2. Activities of the Central Bank and commercial banks.....	93
4.3. Principles of the procedure for issuing financial resources	98
4. 4. The relationship between fiscal and monetary policy.....	107
CHAPTER V. INTERNATIONAL FINANCIAL INTEGRATION AND MONETARY POLICY	116
5.1. Activities of international monetary systems.....	116
5.2. Global Policy of Financial Transparency.....	123
5. 3. Currency exchange practice. National and international currency relations.....	131
5. 4. Models of currency crisis. Capital management.....	138

CHAPTER VI. BUDGET POLICY AND EFFICIENCY ISSUES	149
6. 1. Structure of Government Revenue and Expenditures	149
6 .2. Strengthening Domestic Production to Increase Budget Revenues	158
6. 3. Impact of an Open and Free Economy on Budget Efficiency	167
6. 4. Specifics of Implementing Fiscal Policy.....	171
CHAPTER VII. GLOBAL MIGRATION POLICY	181
7.1. International labor markets. Labor mobility	181
7.2. National migration policies of the countries of the world.....	186
7.3. The problem of political refugees	192
7.4. Migration policy in Uzbekistan. Cooperation with international labor markets.....	198
CHAPTER VIII. MICROPOLITICAL ECONOMY IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION	207
8.1. The essence of micropolitical economy	207
8.2. Business Environment and Opportunities for Startups and Innovations	210
8.3. Monopoly and oligopoly. Antitrust practice	215
8.4 Free Market and Pure Competitive Environment. Transparency and Inclusive Economy	223
CHAPTER IX. INVESTMENT POLICY	232
9.1. The nature, forms and investment flows of investments.....	232
9.2. Creation of an investment climate. Efficiency of investment of internal resources	234
9.3. External sources of investment	237
9.4. National investment programs. Activities in the securities market. Stock exchange ...	239
CHAPTER X. POLITICAL ECONOMY FOR ENVIRONMENTAL PROTECTION	248
10.1. Global Environmental protection: national and international criteria.....	248
10.2. Global environmental control	252
10.3. Assessing the Global Environmental Condition	256
10.4. International cooperation in the field of environmental protection	262
REFERENCES.....	268

MUQADDIMA

Bugungi kunda mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiy etishida oqilona siyosiy iqtisodiyot olib borish birlamchi ahamiyat kasb etadi. Dunyoning aksariyat iqtisodchi olimlari fikriga ko'ra, samarali siyosiy islohotlarni amalga oshirish bevosita qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlar va ularning natijalari bilan bog'liq hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiyotini boshqarishdek muhim jarayonlarni samarali tashkil etish, jumladan oqilona byudjet siyosatini ishlab chiqish, soliq siyosatini takomillashtirish, moliya va bank tizimidagi islohotlarni jadallashtirish, ishchi kuchi resurslarini boshqarish, migratsiya, investitsiya, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, atrof-muhit muhofazasi masalalari bo'yicha qisqa va uzoq muddatli strategiyalarni shakllantirishda global siyosiy iqtisodiyot sohasini o'rganish, tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'lingizdagi «Global siyosiy iqtisodiyot» deb nomlangan mazkur o'quv qo'llanma iqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar, tayanch iqtisodiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, kelajakda davlatning iqtisodiyotga oid tarmoqlarida faoliyat olib borishni rejalashtirganlar, shuningdek, siyosiy iqtisodiyot sohasida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotganlar, pedagoglar, tadqiqotchilar uchun ham foydali bo'lishini hisobga olib tayyorlangan. Har bir bobdan o'rin olgan masalalar mantiqiy ketma-ketlikda, sodda tushuntirishlar hamda grafiklar orqali talqin etilgan. Shu bilan birga, materiallarni mustahkamlash maqsadida boblar va paragraflarning mazmunidan kelib chiqib, mavzuga oid keyslar, amaliy masalalar va misollar ham berib borilgan.

Mavzularning yoritilishidagi mazkur usul va yondashuvlar kitobxonga har bir bob bo'yicha nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quv qo'llanma zamonaviy siyosiy iqtisodiyot sohasida faoliyat yuritayotgan xalqaro ilmiy hamjamiyatlar vakillari, jumladan, olimlar, tadqiqotchilar va ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan adabiyotlar, ilmiy resurslar hamda amaliy ko'nikmalardan foydalangan holda fanga doir mavzularni yoritishda

yangi tajribalarni tatbiq etishni oldiga maqsad qilgan. Har bir mavzuni taqdim etish jarayoni oddiylikdan murakkablikka qaratilgan tamoyil asosida, umumiy nazariy tushunchalardan xususiy amaliy tajribalarga yo‘naltirilgan holda ishlab chiqilgan.

Tayyorlangan ushbu o‘quv qo‘llanma siz aziz talaba-yoshlar va izlanuvchilar uchun chuqur iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lishingizga, mazkur bilimlar asosida oqilona boshqaruv qarorlari, samarali siyosiy islohotlar olib borish jarayonlari mohiyatini tushunishingizga, mavjud murakkabliklar va muammolarga yechim izlashingizga, ularning tub mohiyatini anglab yetishingizga ko‘mak beradi, degan umiddamiz.

Mazkur o‘quv qo‘llanmani o‘qish davomida yuzaga chiqqan xatoliklar, ayrim tushuncha va kategoriyalarning asl mohiyati siz o‘ylagandek ravon bayon etilmagan bo‘lsa, muallif tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchilik sifatida baholab, uni quyidagi manzilga jo‘natishingizni iltimos qilamiz: **qobiliy.isaev@gmail.com**. Siz o‘quvchilar tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalar kitobning keyingi nashrlarini tayyorlashda xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Muallif mazkur o‘quv qo‘llanmaning dunyo yuzini ko‘rishida yaqindan ko‘maklashgan mutasaddilarga, qimmatli vaqtini ayamadan zaruriy taklif va tavsiyalarini bergan barcha ustozlarga hamda taqrizchilarga o‘zining samimiy minnatdorchiligini bildiradi!

I BOB. GLOBAL SIYOSIY IQTISODIYOT FANINING NAZARIY ASOSLARI

Birinchi bobda o'rganiladigan mavzularning qisqacha tasnifi quyidagilardan iborat:

- Global siyosiy iqtisodiyot fanining zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni va vazifalari;
- Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot jarayonlarida mazkur fanni o'rganishning ahamiyati;
- Global siyosiy iqtisodiyot fanining mazmuni va asosiy maqsadlari;
- Iqtisodiy boshqaruvning mohiyati. Iqtisodiy bilimlarning boshqaruvdagi ahamiyati;
- Iqtisodiy boshqaruv vositalari va institutlari faoliyati bilan tanishish;
- Iqtisodiy qarorlar samaradorligini baholash, oqilona qarorlar ishlab chiqishning xalqaro tajribalari.

KIRISH

«Siyosiy iqtisodiyot dunyoda yuz berayotgan har bir iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni sinchkovlik bilan kuzatib borish, har bir voqeaga oqilona yondashuv asosida ilmiy va tahliliy fikrlarini shakllantirish, mamlakat siyosiy islohotlariga bevosita aloqador oqilona qarorlar chiqarish tajribasidir. Iqtisodni siyosatsiz, siyosatni esa iqtisoddan ayro holatda tushunish imkonsizdir. Boshqaruvdagi shaxs iqtisodiy bilimlarni u yoki bu darajada bilishi birlamchi zarurar ekanligini tushunishi lozim. Zero, iqtisodiy bilimlar millionlab odamlarning yaxshi yashashini ta'minlashdagi ilm va tadqiqot sohasini tashkil qiladi. Siyosiy iqtisodiyot bilan shug'ullanish yuksak tafakkur va ulkan bilim va tajriba talab qilishi bilan xarakterlanadi».

Jon Meynard Keyns, amerikalik iqtisodchi.

Bugungi zamonaviy iqtisodiy tizimlarning faoliyati, ularning xususiyatlari, o'zgaruvchanligi, yangi sohalarining rivojlanishi natijasida murakkablik darajasining ortib borishini kuzatish mumkin. Bu esa o'z navbatida yangi bilim va malakalarni o'rganish, shakllantirish va yangi tadqiqot faoliyatini olib borishning ahamiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqotlar esa bevosita amaliyot bilan bog'liqligini saqlagan holda rivojlantirib borilishi bugungi kunning talabi ekanligi ko'pchilik uchun ma'lum. Nima uchun iqtisodchilar bir vaqtning o'zida ham ilmiy tadqiqotchilar, ham amaliyotchilar bo'lishlari lozim? Buning javobi oddiy: iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ilmiy asoslanganlik va amaliy tajribada mavjud bilimlarning o'rnini benihoya muhimligi uchun. Masalan, iqtisodchilar inflyatsiyani jilovlash bo'yicha chuqur tahlillar olib borish jarayonlarida bir qancha xulosalar ishlab chiqish lozim bo'ladi.

Natijada, naqd pul emissiyasini qisqartirish hamda eksportni rag'batlantirish lozimligi haqidagi umumiy xulosalar ishlab chiqildi. Boshqa bir guruh iqtisodchilar esa mamlakatdagi jarayonlarning boshqa murakkab jihatlarini tahlil qilishi asosida, inflyatsiyaning yuqori ekanligini qisqa muddat uchun ijobiy jarayonlar deb baholashdi. Nazariy jihatdan yuqori iste'mol narxlari, ko'proq foiz tushumlari hamda yuqori qo'shilgan foyda miqdoriga sabab bo'lishi ma'lum. Bu esa, ishlab chiqarishda ishtirok etadigan biznes subyektlari uchun nisbatan qulay sharoit bera oladi deyish mumkin. Demak ushbu jarayonda hukumat qanday qaror qabul qilishi lozim? Bu esa navbatdagi muhim savollarga yo'l ochadi. Naqd pul hajmini nazorat qilishning amaliyotda samarali usullari qanday? Inflyatsiyaning qaysi miqdorida ishlab chiqarish haqiqatdan ijobiy ta'sirga ega bo'ladi? Yuqori narxlarning aholi turmush darajasiga ta'siri masalasini qanday hal etish mumkin? va yana boshqa ko'plab o'rinli savollar paydo bo'ladi.

Iqtisodiyotning bosh g'oyasi cheklangan resurslardan unumli foydalangan holda, biz insonlarning doim o'zgaruvchi, o'sib boruvchi ehtiyojlarimizni qondirishga erishish, uning eng samarali yo'llarini topishdan iboratdir. Shu sababdan, o'rganilayotgan nazariy tadqiqot natijalarining amaliy ta'sirlarini sinab ko'rish, ushbu ta'sirning qanchalik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Albatta, har

bir jarayonlar bo'yicha sinovlar o'tkazish murakkab va uzoq vaqt va ko'p resurslarga sabab bo'ladigan jarayondir. Shuning uchun, voqelikda sodir bo'lgan va bo'layotgan tajribalarga asoslangan bilimlarni o'zlashtirish, tayyor sinov natijalariga ega bo'lishni anglatadi. Bu esa juda qimmatli axborotlarni tahlil qilish deganidir.

Global siyosiy iqtisodiyot fani boshqa iqtisodiy sohalar kabi ilmiy asoslanganlik, amaliy tajribalar va ko'nikmalarga tayangan holda, chuqur tahliliy faoliyat orqali yangi bilimlar va tushunchalarni hosil qilishga xizmat qiladigan yo'nalishdir. Mazkur makro darajadagi masalalar bilan shug'ullanishi barobarida, mikro darajadagi subyektlar manfaatlari va xohish-istaklari asosida iqtisodiy islohotlar va rivojlanish strategiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Siyosiy iqtisodiyotning bosh maqsadi mamlakatda iqtisodiy barqaror rivojlanishni ta'minlashdan iboratdir. Iqtisodiy barqarorlik esa o'z ichiga barcha iqtisodiy sohalarni o'rganish, tahlil qilish va asosli xulosalarga ega bo'lishni taqozo etadi.

1.1. Global siyosiy iqtisodiyotning zamonaviy ta'limdagi o'rni

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimi o'z oldiga ulkan maqsadlar va murakkab vazifalarni qo'ygan bo'lib, tezlashib borayotgan ilmiy, texnologik va innovatsion rivojlanish jarayonlarida faol o'zgarishlarni amalga oshirishga intilmoqda. Bugungi ta'limga qo'yilayotgan talablar, bevosita jamiyatning har tomonlama taraqqiy etishi, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yangi ehtiyojlarni qondirishi, bu boradagi nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni doimiy shakllantirib borishdan iborat ekanligini ko'rish mumkin. Hozirgi mutaxassislar avvalgidek keng qamrovli nazariy bilimlarni egallashga ko'p vaqt va resurslarini sarflashdan ko'ra, ma'lum bir mutaxassislikka ixtisoslashgan holda, resurslarini o'sha yo'nalishdagi bilim va malakani egallashga sarflash, har bir o'zgarishlarga tez moslashuvchan ko'nikmalarni shakllantirishga harakat qilishmoqda. Iqtisodchilar ko'proq ilmiy tadqiqotlarning nazariy jihatlari bilan cheklanmay, ularning amaliy natijalarini bilish, mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi hamda xususiy sektor bilan kuchli integratsiya jarayonlariga hissa qo'shishni maqsad qilayotganliklarini

kuzatishimiz mumkin.

Axborot texnologiyalari taqdim qilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, iqtisodiy muammolarga amaliy yechimlar ishlab chiqish, xususiy sektor va davlat tashkilotlari uchun tahliliy loyihalarni amalga oshirish, yangi iqtisodiy modellar, makroiqtisodiy bashoratlar, ichki hamda tashqi iqtisodiy-siyosiy qarorlarda zaruriy nazariy va amaliy bilimlarni beradigan fan global siyosiy iqtisodiyot fanidir.

Mazkur fanga tegishli ilmlarni egallashning ahamiyatini dunyo iqtisodchi olimlari, bo'lajak iqtisodchilar, siyosatchilar hamda ijtimoiy faol hisoblangan har bir soha vakillari egallashi zarurligini ta'kidlashadi.

Iqtisodiyot mamlakatni boshqarishda muhim hisoblangan ilm sohasi ekanligi ko'pchilik uchun ma'lum. Iqtisodiy bilimlar orqali, murakkab xo'jalik munosabatlari tartibga solinishi va hamma uchun manfaatli, adolatli qarorlar qabul qilinishiga erishish mumkin.

2008 yilda yuz bergan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, 2020 yilda boshlangan koronavirus pandemiyasi kabi global ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy xarakterga ega voqealarning ko'lamini, sabablari, oqibatlari, jamiyat a'zolarining har bir guruhiga keltirgan ta'sirini baholash, tahlil qilish va oqilona xulosalarga erishishda, siyosiy iqtisodiyot faniga doir bilim va tafakkurning ahamiyati muhim hisoblanadi.

Global siyosiy iqtisodiyot fanini o'rganish, bevosita bir qancha boshqa iqtisodiy fan sohalarini o'rganishni taqozo etadi. Chunki global siyosiy iqtisodiyot mamlakat rivojlanishi, farovonlikni ta'minlash, iqtisodiy xavfsizlik, ichki va tashqi iqtisodiy yo'nalishlarni belgilash uchun zaruriy qarorlar qabul qilish bilan shug'ullanadi. Bu qarorlarni ishlab chiqish, ularning ta'sirini oldindan baholay olish, o'sha ta'sirlar natijasida yutadigan va yutqazadigan tomonlarning manfaatlarini inobatga olish ancha murakkab jarayondir. Xususan, birlamchi zaruriy bilimlar iqtisodiy nazariya fani, iqtisodiy ta'limotlar tarixi, iqtisodiy maktablar shakllantirgan nazariyalar, moliyaviy iqtisodiyot, makroiqtisodiyot fanlardan egallanishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, siyosiy bilimlar, siyosiy

tafakkurni o‘stiruvchi har bir fan sohalariga tegishli bilimlarni o‘zlashtirish tavsiya etiladi.

Iqtisodiy bilimlar egallashni maqsad qiluvchilar tomonidan fanning qiziqish bilan o‘rganilishiga birinchi sabab sifatida uning mamlakat iqtisodiy taqdirini hal qilishga aloqador islohotlarni tushunishga oid bilimlarni o‘rganish ekanligi bilan izohlagan bo‘lsak, ikkinchi muhim sabab sifatida siyosiy jarayonlarning ko‘lami va yo‘nalishlarini belgilashda ishtirok etishi bilan tushuntirish mumkin.

Fanning o‘rganishdagi ahamiyati, uning jamiyat rivojlanishidagi rolini tushunishda, bir qancha olimlar va ekspert iqtisodchilar fikriga e’tibor berishni lozim deb hisoblaymiz.

Milton Fridman: *«Aksariyat iqtisodchilar fundamental iqtisodiy bilimlar doirasida mushtarak qarashlarga ega, ammo siyosiy iqtisodiyotga kelganda ulardan qiziqarli bahslarni kuzatish mumkin. Iqtisodiy bilim asosidagi qarorlar, bizni hayotimizni o‘zgartirishga sabab bo‘ladigan muhim qarorlardir».*

Berniye Sanders: *«Iqtisodiy farovonlikka erishish, biz erishayotgan ulkan yutuqdir. Shu bilan birga, biz ijtimoiy masalalar va atrof-muhit himoyasi haqida yanada ko‘proq bosh qotirishimiz, eng to‘g‘ri siyosiy iqtisodiyot yo‘nalishlarini belgilashimiz nihoyatda dolzarb masalaga aylandi».*

Mark Zandi: *«Iqtisodiy turg‘unlik davrida siyosiy iqtisodiyotning ahamiyatini ko‘pchiligimiz tushunmaymiz. Ammo inqirozlar davrida, mazkur soha markaziy ahamiyatga ega ekanligini ko‘ramiz».*

Gavin Devias: *«O‘tgan asrda biz eng ko‘p qiziqarli munozaralarni monetaristlar hamda keynschilar orasida kuzatdik. Ular ilgari surgan fikrlar asosida yashadik. Endi esa, yuz berayotgan inqirozlar barchasi o‘zgarayotganini ko‘rsatmoqda. Biz endi eski bilimlar bilan yangi iqtisodiy qarorlar chiqara olmaymiz».*

Jon Delaney: *«Siyosiy iqtisodiyot sohasi bu xuddi biznes kabidir. Unda barcha narsa murosa qilish yo‘llarini izlashdan iborat».*

Elvira Nabiullina: *«Bugungi mamlakatlar jumladan, Rossiya siyosiy iqtisodiyotidagi asosiy nuqta, ishlab chiqarishdagi samaradorlikni oshirishga*

qaratilgan bo'lishi lozim. Samaradorlik bu barcha iqtisodiy sohalarga tegishlidir».

Nima uchun ba'zi davlatlar rivojlangan, ba'zilari esa rivojlanayotgan davlatlar hisoblanadi, ba'zi guruh davlatlar esa kambag'al davlatlar qatoriga kiradi degan savolga javob izlash jarayonida, rivojlanishning shartlari, uning iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va boshqa sabablari haqida fikr yuritish lozim bo'ladi. Barcha mamlakatlar uchun universal rivojlanish modeli mavjud emas. Shu nuqtai nazardan siyosiy iqtisodiyotda, tahlil va tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilim va o'rganishning ahamiyati donishmandlar tomonidan doim ta'kidlab kelingan. Aflotun shunday deb yozgan edi: «Agar biror kishi ta'limni e'tiborsiz qoldirsa, u umrining oxirigacha cho'loq yuradi».

Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan iqtisodchilardan T.V. Shuls, ta'limga qilinadigan investitsiya eng samarali sarmoya yotqizish ekanligini izohlashi bilan, bu sarmoya bir necha avlodlar hayoti davomida foyda olib keltiruvchi oqilona biznes deb ta'riflaydi.

Inson kapitali nazariyasi bo'yicha tadqiqot olib borgan yetuk olimlardan Gari Beker fikriga ko'ra, iqtisodiy bilimlarni egallash bugungi yoshlar, ayniqsa hukumat ishida faol ishlashni istaydiganlar hamda xususiy kompaniyalarda boshqaruvchilikni orzu qiladiganlar uchun birlamchi zaruriy bilimlardan ekanligini ta'kidlaydi. Global siyosiy iqtisodiyot masalasi, bevosita barcha iqtisodiy islohotlarning mazmunini o'zida jamlaydi hamda ta'lim sohasini isloh qilishda muhim ahamiyatga ega degan fikrni bildirgan.

Jeymas Xekman farazlariga muvofiq, kelajakdagi ta'limning qudrati ilmiy yangilik va kashfiyotlar bilan belgilanadi. Ilmiy kashfiyotlar esa moliyaviy rag'batlarga bog'liqdir.

Ilmga va ta'limga katta sarmoya kiritadigan davlatlar, kelajakda taraqqiyot masalasida raqobat qilishga qodir bo'lishlarini bashorat qilish mumkin deb ta'kidlaydi olim.

Mazkur o'quv qo'llanma, aynan mamlakat iqtisodiyotining butun bir kompleks tizim sifatida o'rganib, har bir sohaning ahamiyati, ularni iqtisodiy

asoslarga ega siyosiy instrumentlar bilan boshqarish amaliyoti va tajribalarini tushuntirishni maqsad qiladi. Zero, butun iqtisodiy bilimlarning bosh maqsadi, mavjud resurslardan eng oqilona foydalanish usullari orqali, uzoq va doimiy jarayon hisoblangan taraqqiyot hodisasini qo'llab-quvvatlash, bu yo'nalishdagi zaruriy iqtisodiy bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanadi.

1.2. Global siyosiy iqtisodiyotning mazmun va mohiyati

Global siyosiy iqtisodiyot fani iqtisodiy bilimlar orasida tarixan katta qiziqish va e'tibor bilan o'rganib kelinganligini e'tirof etish mumkin. Fanning ilmiy adabiyotlarda, yangi terminologiya lug'atlarida paydo bo'lishi XVIII asr oxirlari va XIX asr boshlariga to'g'ri keladi. Ushbu fan, dunyo tarixida davlatchilik shakllanishi davridan beri mavjud bo'lib rivojlanib kelganligi, ko'plab olimlar tomonidan tasdiqlangan. Binobarin, davlatchilikning shakllanishi murakkab siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning boshlanishi hamda ushbu jarayonlar mohiyatini tushunishni talab qiladi. Fanning ilmiy jihatdan rivojlanishi dunyoda yuz bergan birinchi eng yirik iqtisodiy tushkunlik sifatida ko'riladigan hodisa, ya'ni buyuk inqiroz davridan keyin avj olganini ko'rish mumkin. Chunki inqirozlar bevosita oqilona siyosiy iqtisodiyot yuritish orqali, siyosiy iqtisodiyot instrumentlari vositasida oldi olinishi, ta'sirlari yumshatiladi, qayta tiklanish islohotlari amalga oshirilishiga erishish mumkin. Buyuk inqiroz monetarist iqtisodchilar hamda keynschilik iqtisodiy maktabining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Monetaristlar bevosita markazlashgan bank va moliyaviy institutlar orqali iqtisodni nazorat qilish, qo'llab-quvvatlashni nazarda tuta, keynschilar davlat aralashuvining eng oqilona tartibi va yo'nalishlarini aniqlashga katta xizmat qilganlarini kuzatish mumkin.

Hukumatlarning siyosiy iqtisodiyoti soliqqa tortish darajasini belgilash tizimini, davlat byudjetlarini, pul massasi va foiz stavkalarini, shuningdek, mehnat bozori, milliy mulkchilik va hukumatning iqtisodiyotga aralashuvining boshqa ko'plab sohalarini qamrab oladi. Siyosiy iqtisodiyotning aksariyat omillarini hukumatning soliqqa tortish va sarflash bo'yicha harakatlari bilan bog'liq soliq-

byudjet siyosatiga yoki pul massasi va foiz stavkalari bo'yicha markaziy bank harakatlariga oid pul-kredit siyosatiga bo'lish mumkin.

Bunday siyosat ko'pincha Xalqaro Valyuta Jamg'armasi yoki Jahon Banki kabi xalqaro institutlarning ta'siriga, shuningdek, siyosiy e'tiqodga va partiyalarning siyosatiga ta'sir qilishi bilan tavsiflanadi.

Global siyosiy iqtisodiyot – bu iqtisodiyotning xatti-harakatiga ta'sir o'tkazish yoki uni boshqarish uchun mo'ljallangan harakatlar va qarorlar majmuidir. Siyosiy iqtisodiyot odatda hukumat tomonidan amalga oshiriladi va boshqariladi. Siyosiy iqtisodiyot misollariga davlat xarajatlari va soliqqa tortish, boylarni kambag'allarga daromadlarni qayta taqsimlash va pul ta'minoti to'g'risida qarorlar kiradi. Siyosiy iqtisodiyot samaradorligini pozitiv (ijobiy) va normativ deb nomlanadigan ikki usuldan biri bilan baholash mumkin.

Pozitiv (ijobiy) iqtisodiyot, qanday natijalar eng yaxshi ekanligi to'g'risida baho bermasdan, iqtisodiyot va siyosiy iqtisodiyot qanday ishlashini tasvirlashga harakat qiladi. Ijobiy iqtisodiy farazlarning ajralib turadigan xususiyati shundaki, ular sinovdan o'tkazilishi yoki tasdiqlanishi yoki rad etilishi mumkin. Masalan, «pul taklifining ko'payishi narxlarning o'sishiga olib keladi» degan gipoteza ijobiy iqtisodiyot sohasiga tegishli, chunki uni pul taklifi va narxlar darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish orqali tekshirish mumkin.

Normativ iqtisodiyot - iqtisodiyot va siyosiy iqtisodiyot samaradorligini baholash uchun qiymat baholaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Binobarin, me'yoriy iqtisodiy farazlarni sinab ko'rish mumkin emas. Masalan, «inflyatsiya darajasi juda yuqori» degan gipoteza me'yoriy iqtisodiyot sohasiga tegishli, chunki u qiymat baholashga asoslangan va shuning uchun uni tekshirish, tasdiqlash yoki rad etish mumkin emas. Iqtisodchilar o'rtasidagi kelishmovchiliklarning aksariyati me'yoriy iqtisodiy farazlarga tegishli ekanligini aniqlash orqali yuzaga keladi.

Global siyosiy iqtisodiyot fanini tushunishda juda ko'plab konsepsiyalar va tushunchalar mavjud bo'lib, ularning har biri ma'lum bir sohani sharhlash va mohiyatini tushuntirishga xizmat qiladi. Soddaroq qilib tushunish uchun, fanning asosiy maqsadlari, uning amal qiluvchi vositalari va muassasalari haqida qisqacha

to'xtalib o'tamiz:

1. Global siyosiy iqtisodiyotning maqsadlari. *Global siyosiy iqtisodiyotning maqsadlari siyosiy iqtisodiyot nimaga erishishga intilishi kerakligi va shuning uchun me'yoriy iqtisodiyot sarlavhasi ostiga tushishi kerakligi to'g'risida baho berishdan iborat. Global siyosiy iqtisodiyotning tegishli maqsadlari to'g'risida juda ko'p kelishmovchiliklar mavjud bo'lsada, ularning bir nechtasi umuman olmasa ham, keng ma'qullashadi.*

Global siyosiy iqtisodiyot fani oldiga qo'ygan maqsadlari bir qanchani tashkil qiladi (ba'zan bunda qarama-qarshilikni ham kuzatish mumkin): aholining turmush darajasini yaxshilash, barqaror o'sishni ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish, to'liq ish bilan ta'minlash, narxlar barqarorligini saqlash, daromadlarning adolatli taqsimlanishiga erishish, qashshoqlikni qisqartirish va boshqalar. Ushbu maqsadlar odatda, hukumatlar tomonidan qabul qilingan hujjatlar matnida orqali belgilab qo'yiladi hamda davlatlarning rivojlanish dasturlarida nazarda tutiladi. Masalan, AQShda 1978 yilda qabul qilingan «To'liq Bandlik va Muvozanatlashgan O'sish» deb nomlangan rasmiy Aktida federal hukumatning asosiy vazifalari sifatida to'liq bandlikka erishish, ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, aholi real daromadlarini oshirish, muvozanatlashga o'sishni ta'minlash, muvozanatlashgan Federal Byudjetni tasdiqlash, milliy manfaatlarga asoslangan tashqi savdoni rivojlantirish, savdo balansini takomillashtirish, narx barqarorligini saqlash kabi vazifalar belgilangan.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tomonidan tuzilgan «Yevropa Ittifoqi Shartnomasi»ning 3-qismida, quyidagi ustuvor vazifalarni ta'minlash orqali Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarda barqaror rivojlanishga erishish maqsad qilinadi: muvozanatlashgan iqtisodiy o'sish, barqaror va raqobatbardosh narx ko'rsatkichlari, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini rivojlantirish, to'la bandlikka qaratilgan ijtimoiy manfaatlarni ta'minlash, yuqori darajadagi atrof-muhitni himoya qilish va sifatli hayot darajasiga erishish. Bundan shuni ko'rishimiz mumkinki, hukumatlar siyosiy iqtisodiyotida oldiga qo'ygan maqsadlari ko'p sonli bo'lib, albatta, ularning barchasiga bir vaqtning o'zida erishish murakkab va

mushkul vazifadir.

2. Global siyosiy iqtisodiyotning vositalari. *Global iqtisodiy siyosatni amalga oshirish ma'lum vositalardan foydalanishni taqozo etadi. Vositalar turfa xil bo'lib, ularni ko'p guruhlarga ajratib o'rganish mumkin. Hozircha, ularni umumiy qilib an'anaviy siyosiy iqtisodiyot yuritish vositalari sifatida monetar siyosat (rasmiy foiz stavkalarini belgilash va nazorat qilish) va fiskal siyosat (davlat xarajatlari va soliq yig'implari darajasini belgilash)ga ajratish mumkin. Siyosiy iqtisodiyot yuritish deganda asosan shu ikkita yo'nalish nazarda tutiladi. Ammo boshqa muhim makroiqtisodiy instrumentlar ham mavjud bo'lib, ular soliq tizimini takomillashtirish, subsidiyalar, dotatsiyalar, ijtimoiy xavfsizlikka qaratilgan to'lovlar, sog'lom raqobat, savdo siyosati va boshqa ko'plab yo'nalishlarni qamrab oladi.*

3. Muassasa va institutlar. *Institutlar bozor muvozanatiga va siyosat vositalarining samaradorligiga bevosita ta'sir qiladigan muassasalar hisoblanishadi. Iqtisodchi olim Nobel mukofoti sovrindori Duglas Nort (1993), Institutlar – bu insonlarning o'zaro ta'sirini tuzadigan inson tomonidan ishlab chiqilgan cheklovlar. Ular rasmiy cheklovlardan tashkil topgan (qoidalar, qonunlar, konstitusiyalar), norasmiy cheklovlar (xulq-atvor normalari, konvensiyalar va o'z-o'zini belgilaydigan xulq-atvor me'yorlari) va ularning ijro etilish xususiyatlari ekanligini ta'kidlab o'tadi. Ular birgalikda jamiyatlarning va xususan iqtisodiyotning rag'batlantiruvchi tuzilishini belgilaydilar.*

Mahsulotlar, mehnat va kapitalni tashkil etishning so'nggi xususiyatlari bozorlar (ya'ni bankrotlik to'g'risidagi qonunchilik, ish bilan bandlikni tartibga soluvchi qoidalar va shartnomalar, monopoliya va raqobat to'g'risidagi qonunchilik) yoki siyosiy iqtisodiyot qarorlari doirasi (ya'ni byudjet protseduralari, davlat nizomi, hukumat qarorlari, davlat loyihalari va strategiyalari) markaziy bank (valyuta kursi rejimi, raqobatni tartibga soluvchi qoidalar va boshqalar) muassasalar sifatida qaraladi. Xususi bo'lmagan nodavlat notijorat tashkilotlari, kasaba uyushmalari kabi nodavlat tashkilotlar, uyushmalar, ammo mehnat bozorlari faoliyatiga ta'sir qiluvchi tashkilotlar ham shular jumlasiga kiradi.

Ushbu doirada institutlar o'ziga xos ijtimoiy kapitalni ifodalaydi. Ular doimiy mavjud bo'lmashligi mumkin, ya'ni rivojlanishi, isloh qilinishi yoki yopilishi mumkin, ammo ular ijtimoiy ehtiyojlar, fikrlar va xohish-istaklarni aks ettirish, ro'yobga chiqarishda muhim muassasa sifatida ishtirok etishadi.

Siyosiy iqtisodiyotning bosh g'oyasi bu murosaga erishish yo'llarini aniqlashdir.

Siyosiy iqtisodiyotning bosh g'oyasi bu iqtisodiy muvozanat va barqarorlikni ta'minlash va shu yo'nalishdagi izlanishlar, islohotlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Ushbu maqsadlarga erishish esa muros qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ya'ni mamlakatda mavjud resurslar va imkoniyatlar cheklanganligi uchun ko'p sonli islohotlarni amalga oshirishda oqilona tanlovlar qilish lozim bo'ladi.

Ma'lum bir mamlakat hukumati o'z oldiga bir nechta iqtisodiy natijalarga erishishni maqsad qiladi deb hisoblaymiz. Masalan, ishsizlik darajasi, inflyatsiya ko'rsatkichi va joriy hisoblar balansi kabi uchta o'zgaruvchi tanlab olindi ($n=3$) va har bir o'zgaruvchi uchun alohida maqsadlar qo'yildi. Jumladan, mamlakat hukumati ishsizlik darajasini 5% atrofida, inflyatsiyani esa 2% miqdorida saqlash, joriy hisoblarda balansga erishishni maqsad qilgan. Ushbu ustuvor vazifalarni yo'qotishlar (xarajatlar) funksiyasi orqali jamlab, ularning har biri bo'yicha farqlar va erishilishi maqsad qilingan ko'rsatkichlarni aniqlash mumkin bo'ladi.

Mamlakat hukumati islohotlar amalga oshirish uchun p mustaqil instrumentidan foydalanmoqchi. Instrumentlar soni bir nechta tashkil qilishi mumkin, xususan bu holatda hukumat ikkita islohot instrumentini qo'llashni maqsad qiladi, demak $p=2$, bular fiskal muvozanatlash va qisqa muddatli foiz stavkalari instrumentlari. Bunda siyosiy iqtisodiyot p instrumentlarni qo'llash vazifasini bajaradi hamda yo'qotishlar funksiyasi minimallashtiriladi deb hisoblaymiz.

Agar $p=n$ bo'ladigan bo'lsa, barcha maqsadlar amalga oshadi, sababi barcha maqsadlar uchun teng miqdorda siyosiy islohotlar instrumenti mavjud bo'lgani uchun. Bizni misolda esa $p < n$, barcha uchta qo'yilgan maqsadlar bir vaqtda

amalga oshmasligini ko'rsatmoqda. Bunda bitta maqsadni ikkinchisiga nisbatan murosa qilish orqali siyosiy islohotlar amalga oshirilishi mumkin. Uchta maqsaddan bittasi ikkinchisiga nisbatan voz kechib turiladi. Masalan, hukumat joriy hisoblarda defitsit bo'lishiga rozi bo'ladi, qachonki mamlakatda ishsizlikni 5%ga qisqartirish hamda inflyatsiyani 2% atrofida saqlashni ta'minlash uchun.

Bundan chiqadigan xulosa shuki, hukumat n ta siyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun, eng kamida shuncha miqdorga teng siyosiy islohotlar elementini qo'llashi lozim bo'ladi. Bu narsa fanda ***Tinbergen qoidasi*** deb ataladi.

Ushbu qoida orqali islohotlarni amalga oshirishga yaqqol misol bu Markaziy bankning bitta maqsadi uchun, ya'ni narxlarni barqaror saqlash maqsadi uchun, o'zida mavjud bir dona instrumentdan foydalanishi (ya'ni asosiy foiz stavkasi, ushbu stavka narxlarga samarali ta'sir o'tkazadi deb hisoblaymiz) orqali samarali natijaga erishishini keltirish mumkin. 1990-yillarda ko'plab mamlakatlar markaziy banklari ushbu instrumentni qo'llash orqali inflyatsiyani qisqartirishda katta natijalarga erishishgan edi.

Biroq mamlakatlar juda ko'p maqsadlarni amalga oshirishga harakat qilishadi, ammo instrumentlar soni cheklangan. Shuning uchun hukumat islohotlar bo'yicha mavjud instrumentlarni taqsimlashni oqilona amalga oshirishga intiladilar.

1.3. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy tahlil va yondashuvning ahamiyati

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish juda mas'uliyatli vazifa hisoblanganligi uchun, odatda bu jarayonlar bir nechta bosqichda amalga oshiriladi. Qarorlar qabul qilish turli sohalarga ko'ra farq qilinishi va ko'lami maqsadi jihatidan ajralib turishini ta'kidlash lozim. Qabul qilingan qarorning oqibati millionlab uy xo'jaliklarining iqtisodiy va ijtimoiy turmush darajasiga ta'sirini baholash muhim ahamiyatga egadir.

Iqtisodiy qarorlar qabul qilinishining quyidagi oltita yo'nalishda amalga oshirilishini maqsadga muvofiq deb hisoblash mumkin:

1. Iqtisodiy islohotlar va boshqaruv tizimini ishlab chiqish asosiy yo'nalishlarni belgilash. Iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda, mamlakat tanlagan iqtisodiy rivojlanish yo'li asosiy yondashuvni belgilovchi faktor bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Germaniya iqtisodiy yo'li erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan bo'lsa ham, mamlakat siyosiy iqtisodiyoti faol ijtimoiy yo'naltirilgan yondashuv asosiga qurilganligini ko'rish mumkin. Oxirgi o'n yillikda tez rivojlangan yirik iqtisodiyotlardan Hindiston hamda Braziliya siyosiy iqtisodiyotida ijtimoiy tabaqalanish hamda keskin kapitalizm tamoyillarining amal qilishini kuzatish mumkin. Bu esa iqtisodiy rivojlanish hamda iqtisodiy farovonlik tushunchalarining orasidagi tafovutni ko'rsatadi. YaIM, YAMM, Milliy Daromadlar, Xalqaro biznes reytinglari, Xalqaro kredit reytinglari mamlakatning iqtisodiy qudratini ko'rsatgani bilan, jini koeffitsiyenti, inson taraqqiyot indeksi kabi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni inobatga olish siyosiy iqtisodiyotni oqilona tashkil qilishning bosh maqsadi bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

2. Monetar siyosatni takomillashtirish bo'yicha iqtisodiy qarorlar qabul qilish.

Mamlakatlar moliyaviy barqarorlik hamda banklar faoliyatini muvofiqlashtirishda monetar siyosatdan foydalanishadi. Markaziy bank asosiy moliyaviy boshqaruv muassasasi sifatida, mamlakatdagi foiz stavkalar darajasini nazorat qilib boradi. Foiz stavkalari bevosita banklar faoliyatiga bog'liq bo'lib, ularni moliyalashtirishda muhim instrument vazifasini bajaradi. Shuningdek, foiz stavkasi inflyatsiyani jilovlash va narx darajasini barqaror saqlashga ta'sir o'tkazadi. Bundan tashqari biznes subyektlari uchun tadbirkorlik sharoitlarini boshqarishda ahamiyatga ega.

Monetar siyosat mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yoki uni o'zgartirib yuborishga sabab bo'ladigan muhim siyosiy iqtisodiyot sohasi deyish mumkin. Masalan, mamlakatdagi pul massasini nazoratga olish, bevosita inflyatsiyani boshqarishdagi birlamchi qadam hisoblanadi.

Markaziy bank, pul emissiyasini malakasiz tashkil qilishi natijasida iste'molchilar yuqori narxlar tufayli real daromadlarida salbiy o'zgarishga duch

kelishlari mumkin.

3. Milliy valyutani ishlab chiqarish hamda uni boshqarish monetar siyosatning navbatdagi vazifalaridan hisoblanadi. Ammo valyuta nazorati, uni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan pul siyosati, xalqaro valyuta munosabatlarini tahlil qilish va milliy valyutaning xalqaro to'lovlar tizimida faol ishtirokini ta'minlash muhim vazifalardan hisoblanadi. Banklarning milliy valyuta bilan ishlash jarayonlari, milliy valyutaga nisbatan likvidlik darajasining saqlanishi, inqiroz davridagi moliyaviy-siyosiy iqtisodiyotning yo'nalishlarini belgilab beradi. Shuningdek, milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan qadrsizlanishi yoki qadrini oshishi natijasida yuz beradigan jarayonlarni tadqiq etish siyosiy iqtisodiyot yuritishdagi muhim funksiyalardan hisoblanishini aytish mumkin.

4. Muammolarga yechim taqdim etish. Siyosiy iqtisodiyotda boshqaruv qarorlari qabul qilishning navbatdagi muhim vazifalaridan biri iqtisodiyotda ishlamayotgan jihatlarni isloh etishdan iborat. Hech bir davlatda mukammal iqtisodiy jarayonlar sodir bo'lmaydi, balki doimiy ravishda turli sohalaridagi muammolar bo'y ko'rsatadi. Masalan, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida narxlarning beqarorligi eng tez takrorlanadigan jarayondir. Narxlar beqarorligi, oylik yoki hatto kunlik tartibda davom etib boradi. Yoki, Monopoliya bilan bog'liq muammolarni keltirish mumkin. Monopoliya sog'lom raqobatga putur yetkazadi, natijada faol biznes muhiti faoliyati buziladi. Bu esa, tadbirkorlarni qisqarishi hamda iste'molchilarga sifatsiz va qimmat tovar yoki xizmatlar yetib borishiga sabab bo'ladi. Shu sababdan, hukumatlar doimiy ravishda, monopoliya elementlari mavjud sohalar, tashkilotlarni aniqlab, ularni sog'lom raqobatga zarar berishlarini oldini olishga qaratilgan harakatlarni ta'minlashga intilib kelishadi.

5. Xalqaro hamkorlik masalalari. Bugungi kunda mutlaqo yopiq iqtisodiyotlar mavjud emas. Aksariyat ekspertlar fikriga ko'ra, xalqaro iqtisodiy hamkorlik kengaygan sari, mamlakatda iqtisodiy barqarorlik ta'minlanib boradi. Xalqaro iqtisodiy bloklarga, ittifoqlarga, uyushmalarga qo'shilish, tashkilotlarga a'zo bo'lish bevosita erkin xalqaro hamkorlik sari qo'yilgan qadamni anglatadi. Global siyosiy iqtisodiyot fanining boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi

vazifalaridan biri ham, aynan manfaatli tashqi hamkorlik masalalarini tahlil qilishdan iborat. Jumladan, O'zbekiston misolida, Yevro Osiyo Iqtisodiy Ittifoqiga hamda Jahon Savdo Tashkilotiga qo'shilish kabi masalalarda chuqur tahliliy xulosalarga erishish, eng oqilona qaror qabul qilish kabi jihatlardan muhim ahamiyatga egadir.

6. Ijtimoiy himoya masalalari. Hukumat ham ishlab chiqaruvchi hamda boshqaruvchi hisoblanadi. Uning ishlab chiqaradigan mahsulotlari ijtimoiy tovarlar deb atash mumkin. Ijtimoiy tovarlar, ijtimoiy jihatdan nochor hisoblangan guruhlarini qo'llab-quvvatlashni hamda barcha guruhlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan tovarlardir. Masalan, quriladigan, bog'cha, maktab, universitet, kasalxona, oziq-ovqat zaxiralari, nogironlar uchun markazlar, kambag'allar uchun yordam paketlari, iqtisodiy jihatdan kam foyda keltiruvchi, ammo ijtimoiy yoki siyosiy ahamiyatga ega sohalar uchun subsidiya, dotatsiya va boshqa to'lov transferlari ajratish shular jumlasidandir.

1.4. Global siyosiy iqtisodiyotda samaradorlikni baholash

Ushbu bobda samaradorlikni baholashda qaysi jihatlariga e'tibor berilishi, qaysi indikatorlar va yondashuvlar ahamiyatli ekanligi haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan. Samaradorlik tushunchasi juda keng tushuncha bo'lib, odatda haqiqiy samaradorlik to'g'ridan-to'g'ri raqamlarda ifodalanmaydi. Balki ma'lumot ko'rsatkichlar umumlashtirilgan holda, ma'lum bir soha faoliyatining qanchalik samarali yoki aksincha samarasiz ishlayotganligini aniqlash imkoni mavjud. Iqtisodiyotda samaradorlik ko'p takrorlanadigan va har bir sohaga tegishli ravishda aniqlanadigan ma'lumot hisoblanadi.

Iqtisodiy samaradorlik iqtisodiy holatni nazarda tutadi, chunki har bir manba har bir shaxs yoki subyektga eng yaxshi usulda xizmat qilish uchun optimal ravishda taqsimlanib, chiqindilarni va samarasizlikni kamaytiradi. Iqtisodiyot iqtisodiy jihatdan samarali bo'lganda, bir tashkilotga yordam berish uchun qilingan har qanday o'zgarishlar boshqasiga zarar yetkazishi mumkin. Ishlab chiqarish nuqtai nazaridan tovarlar, ishlab chiqarishning o'zgaruvchan manbalari kabi, eng

past narxlarda ishlab chiqariladi.

Iqtisodiy samaradorlik – bu iqtisodiyotdagi har bir kam manbadan foydalanilishi va ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida eng ko'p iqtisodiy mahsulot ishlab chiqaradigan va iste'molchilarga foyda keltiradigan tarzda taqsimlanishi hisoblanadi.

Iqtisodiy samaradorlik bo'yicha fikrlarning ikkita asosiy standartlari mavjud bo'lib, ular navbati bilan hukumatlar tomonidan buzilishlarni (va hukumatning ishtirokini kamaytirish orqali kamayadi) va bozorlar tomonidan buzilishlarni (va davlatning ishtirokini oshirish orqali kamayadi) ta'kidlaydi.

Ular ba'zida raqobatlashadi, ba'zida bir-birini to'ldiradi yoki hukumat ishtirokining umumiy darajasi haqida bahslashish, yoki hukumatning aniq ishtiroki ta'sirini aniqlashga urinadi. Keng ma'noda, ushbu dialog iqtisodiy liberalizm yoki neoliberalizm sharoitida amalga oshiriladi, ammo bu atamalar ma'lum qarashlarga murojaat qilish uchun, ayniqsa, iqtisodiy erkinlik va uning darajasi, davlatning bu boradagi rolini aniqlashdagi muhim omillar sifatida ko'rilishi mumkin.

Samaradorlikni aniqlash jarayoni kompleks baholash va tizimli tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Siyosiy iqtisodiyot doirasida asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Davlat byudjeti samaradorligi:

• Byudjet manbalarini takomillashtirish masalasi

Byudjet manbalari sifatida asosan soliqlar va boshqa yig'imlar tashqi qilgani holda, uning subyektlarini xususiy sektor vakillari tashkil qiladi. Tadbirkorlar va investorlar sonining oshib borishi byudjet shakllanishi manbasining oshishini anglatadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar soliq to'lovchilar sonini oshirishga ko'proq biznes subyektlarini ro'yxatga olish yo'nalishida islohotlar olib boradilar. Rivojlangan mamlakatlarda esa, optimal soliq va yig'imlar miqdorini begilash orqali byudjet manbalarini takomillashtirishga bo'lgan harakatlarni ko'rish mumkin.

• Byudjetga tushumlarning shaffofligi, yetarliligi

Davlat byudjeti miqdori har yili prognoz asosida ishlab chiqiladigan miqdor

hisoblanib, odatda ushbu miqdor haqiqiy byudjet tushumlariga deyarli teng miqdorni tashkil qiladi. Shaffoflik tushunchasi, barcha soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini adolatli va halol bajarishini anglatadi. Shuningdek, shaffoflik deganda, byudjet mablag'larining markazlashgan tartibda yoki mahalliy darajada kerakli hisoblarga o'z vaqtida yig'ilib borilishini tushunish mumkin. Ya'ni hukumat tegishli tashkilotlarining ishlash samaradorligi va korrupsiya miqdori kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Yetarlilik tushunchasi esa, minimal darajada hukumatning boshqaruv faoliyatini amalga oshirishi, ijtimoiy hayotni barqaror saqlashi uchun yetarli miqdorda bo'lishi nazarda tutiladi. Byudjet miqdori bevosita iqtisodiy rivojlanish va Yalpi Ichki Mahsulot miqdoriga mutanosib ravishda o'zgarib boradi.

- ***Davlat byudjeti xarajatlari samaradorligi***

Byudjet xarajatlarining samarali sarflash masalasi har bir hukumat oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanib, doimiy ravishda bahs va munozarali mavzulardan hisoblanadi. Buning asosiy sababi, iqtisodiy subyektlar o'rtasida mablag'larning qancha miqdorda taqsimlanishi va qanday samarali taqsimlanishga erishish masalasi doim muhim ahamiyat kasb etishi tufaylidir.

- ***2. Soliq siyosati samaradorligi***

- **Optimal soliq stavkalari**

Soliq to'lovlarini optimallashtirish mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiya uchun jozibador iqtisodiy muhit tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega. Progressiv, ya'ni daromadga mutanosib o'sib boruvchi yoki regressiv daromadga nisbatan o'sib bormaydigan soliq stavkalaridan foydalanish, shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'ini belgilash tartibi bo'yicha iqtisodchilar orasida ko'plab munozaralarni kuzatish mumkin. Optimal soliq stavkasi atamasi, soliq miqdorining tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatiga mutanosib ekanligiga e'tibor qaratishni anglatadi. Universal soliq siyosati mavjud emas, shunday ekan, har bir sohaga nisbatan belgilanadigan soliqlarning ta'sirini aniqlash, samarali miqdorini belgilashga erishish masalasi siyosiy iqtisodiyot doirasidagi muhim vazifalardan ekanligini tushunish mumkin.

• Imtiyozli to'lovlar va yig'imlar

Hukumatlar tomonidan ijtimoiy qatlamni qo'llab-quvvatlash maqsadida, soliq imtiyozlari hamda ba'zi soddalashtirilgan yig'imlarni joriy qilish amaliyoti mavjud bo'lib, har bir mamlakatning iqtisodiy holati va siyosiy ambitsiyalariga ko'ra belgilanishi mumkin. Iqtisodchilar tomonidan ushbu yondashuvning qanchalik samara berishini aniqlash va zarur holatlarda yangi imtiyozlar ishlab chiqish yoki mavjudlarini bekor qilish masalasini ko'tarish talab qilinadi.

3. Faol ijtimoiy yo'naltirilgan siyosiy iqtisodiyot

Xalqaro tajribada eng ko'p muhokama qilinayotgan mavzu, hukumatlarning qanchalik ijtimoiy sohalarni qo'llab-quvvatlashi, bu borada qaysi yo'nalishlarda islohotlar qilinishi lozimligi haqidagi qarashlardir. Yevropa ittifoqi tomonidan ilgari surilayotgan siyosiy iqtisodiyotning asosini ijtimoiy transferlarni shakllantirish masalasi tashkil qiladi. Ikkinchi muhim masala, atrof-muhit himoyasini ta'minlash, toza energiya ishlab chiqarishga o'tishdan iborat. Faol ijtimoiy islohotlar nima uchun bugungi kunda ko'plab xulq-atvor va atrof-muhit iqtisodchilari tomonidan dolzarb masalasi sifatida o'rganilayotganligi, tadqiqotlar uchun katta e'tibor va mablag'lar sarflanayotganining asosiy sabablaridan biri, bozor iqtisodiyotining muhim kamchiliklaridan bir bo'lmish daromadlar bo'yicha nomutanosiblik hamda iqtisodiy-ijtimoiy tabaqalanishning oldini olish hisoblanadi.

4. Davlat aralashuvi masalasi

Iqtisodiy ta'limotlar vakillari orasida bahsli hisoblangan mavzulardan biri bu davlatning bozorga aralashuvi masalasidir. Bugungi kunga kelib, ko'pgina rivojlangan davlatlar aralash iqtisodiyot tizimiga o'tishni boshlaganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Aralash bozor iqtisodiyoti bu bir tarafdin erkin bozor tamoyillariga asoslangan iqtisodiy muhit bilan boshqa tomondan davlatning ba'zi sohalarga faol aralashuvi va tartibga soluvchi, nazoratchi rolini bajarishidir. Yirik iqtisodiy inqirozlar, shuningdek, yirik sarmoyadorlar tomonidan siyosiy jarayonlarni nazoratga olish va o'z manfaatlari yo'lida foydalanishning oldini olish maqsadida, shuningdek, mamlakatdagi nochor guruhlarining manfaatlarini himoya qilish maqsadida hukumatning boshqaruvida iqtisodiy aralashuvini ko'plab

ekspertlar zaruriy ehtiyoj sifatida baholashadi.

Ammo, aralashuv darajasini qanday belgilash lozim, qaysi sohalarga va qanday yondashuv yordamida buni amalga oshirish kerak degan asosiy savolga javob izlash muhim ahamiyatga ega. Chunki aksariyat liberal iqtisodiyot vakillari davlatning aralashuvini salbiy baholashlari, bunga asosiy sabab esa, sog'lom raqobat shikastlanishi va lobbizm elementlari rivojlanishi ehtimoli nuqtai nazaridan yondashadilar.

Fanni o'rganish jarayonida, davlat aralashuvining ahamiyati, o'rni uning ijobiy hamda salbiy jihatlari, zaruriy me'yorlari haqida batafsil to'xtalib, bu mavzuda chuqur tahliliy bilimlar shakllantirilib boriladi.

Quyidagi ro'yxat orqali, zamonaviy siyosiy iqtisodiyot sohasidagi tadqiqotlar, islohotlar qaysi yo'nalishlarda amalga oshirilishini ko'rish mumkin. Zamonaviy adabiyotlarda ushbu iqtisodiy hamda ijtimoiy xarakterga ega yo'nalishlar doimiy tahlil qilib boriladi.

- Moliyaviy siyosat. Byudjet siyosati. Soliq siyosati.
- Investitsiya siyosati. Davlat aralashuvi.
- Ishchi kuchi resurslarini boshqarish. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti.
- Tashqi savdo siyosati. Eksport siyosati va bojxona.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Global siyosiy iqtisodiyot – mamlakat boshqaruvida iqtisodiy bilimlar asosida siyosiy islohotlarni amalga oshirish, qarorlar qabul qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan bilimlarni o'rgatuvchi iqtisodiy bilimlar sohasi.

Ilmiy farazlar – yangi ilmiy g'oyani, ilmiy yangilikni anglatuvchi, tekshirilishi lozim bo'lgan tushuncha, gipoteza.

Iqtisodiy tadqiqot – iqtisodiy bilimlar asosida qabul qilingan usullar vositasida yangi ilmiy tushuncha yoki bilimlarni shakllantirishga qaratilgan faoliyat.

Iqtisodiy vositalar – siyosiy iqtisodiyotni qo'llashda foydalaniladigan ilmiy,

nazariy va amaliy metodlar.

Siyosiy islohotlar – mamlakatda har tomonlama farovonlikni ta'minlashni, barcha uchun manfaatli qarorlarga asoslangan faoliyat, jarayonlar.

Iqtisodiy murosa – siyosiy iqtisodiyotda qaror qabul qilishda biror maqsadga erishish uchun resurslar va manfaatlar orasida oqilona taqsimotga erishish faoliyati.

Yalpi talab – barcha tovar va xizmatlarga bo'lgan talab miqdorining umumlashgan qiymatini anglatuvchi miqdor ko'rsatkichi.

Yalpi taklif – barcha tovar va xizmatlarga bo'lgan taklif miqdorining umumlashgan qiymatini anglatuvchi miqdor ko'rsatkichi.

Monetar siyosat – markaziy bank tomonidan moliyaviy instrumentlar vositasida narxlar barqarorligi, iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga qaratilgan islohotlar majmui.

Fiskal siyosat – soliq va boshqa majburiy to'lovlarni tartibga solish, samarali tashkil qilish orqali davlat tomonidan olib boriladigan harakatar majmui.

Foiz stavkalari – markaziy bank va moliya institutlari tomonidan qo'llaniladigan, tartibga soluvchi instrument.

Pozitiv iqtisodiyot – qanday natijalar eng yaxshi ekanligi to'g'risida baho bermasdan, iqtisodiyot va siyosiy iqtisodiyot qanday ishlashini tasvirlashga harakat qiluvchi iqtisodiy nazariya.

Normativ iqtisodiyot – iqtisodiyot va siyosiy iqtisodiyot samaradorligini baholash uchun qiymat baholaridan foydalanishni o'z ichiga oladigan iqtisodiy nazariya.

Axborot nomutanosibligi (information asymmetry) – guruhlar orasida ma'lumotning to'g'ri va adolatli taqsimlanmasligi. Bir guruh ikkinchisiga nisbatan ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi hisobiga ustunlikka ega bo'ladi.

Ma'naviy zararlar (moral hazard) – jamiyat a'zolari tomonidan hamma yaratilgan bir xil imkoniyatlardan ba'zi guruhlarning foyda keltirmaslik evaziga bir xilda foydalanishi.

Ijtimoiy tovarlar – boshqa tovarlar kabi olib sotilmaydigan tovarlar. Masalan ekologiya, toza havo, ichimlik suvi ta'minoti. Xamma uchun bepul va odatda cheklanmagan tovarlar.

Yo'qotish funksiyasi – cheklangan vositalardan samarali foydalanish orqali hukumat oldiga qo'ygan siyosiy islohotlarni oqilona bajarishini ko'rsatuvchi funksiya.

Tizimli islohotlar – mamlakatda biror soha bo'yicha kompleks islohotlarni amalga oshirish jarayoni.

Oqilona tanlov – bir nechta tanlov orasidan eng samarali tanlovni amalga oshirish. Iqtisodiyotda tahlil va hisob-kitobga asoslangan tanlov.

Samaradorlik – mavjud resurslardan maksimal foydalanish ko'rsatkichi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Global siyosiy iqtisodiyot fanining zamonaviy ta'limdagi o'rnini tushuntiring.
2. Global siyosiy iqtisodiyot fanini o'rganishning zamonaviy metodlari va usullari nimalardan iborat?
3. Pozitiv va normativ iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
4. Global siyosiy iqtisodiyotning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
5. Global siyosiy iqtisodiyot amaliyotida asosiy vositalar nimalardan iborat ekanligini tushuntiring.
6. Global siyosiy iqtisodiyotni amalga oshirishda ishtirok etuvchi institutlar va ularning faoliyatini sharhlang.
7. Yo'qotishlar funksiyasi mohiyati va qo'llanilishining nazariy va amaliy mohiyatini sharhlang.
8. Monetar siyosatga ta'rif keltiring. Uning qo'llanilishi mohiyatini amaliy misollar bilan tushuntiring.
9. Fiskal siyosatga ta'rif keltiring. Uning qo'llanilishi mohiyatini amaliy misollar bilan tushuntiring.
10. Iqtisodiy qarorlar qabul qilish amaliyoti bosqichlari nimalardan iborat?

11. Iqtisodiy qarorlar samaradorligini va ta'sirlarini baholashning nazariy va amaliy qo'llanilishini tushuntiring.

VAZIYATLI TOPSHIRIQ – KEYS

O'zbekistonda inflyatsiyani jilovlash va narxlar barqarorligini ta'minlash masalalari

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki mamlakatdagi monetar siyosatni amalga oshiruvchi asosiy moliyaviy vakolatli organ hisoblanadi. Davlat statistika qo'mitasi keltirgan ma'lumotlarga muvofiq, oxirgi 4 yilda inflyatsiya darajasi 13-15% atrofida ekanligi ta'kidlanadi. Markaziy bank asosiy stavka miqdorini 13% dan 16% gacha ko'tarib borganini ko'rish mumkin. Shuningdek, Markaziy bank oxirgi 8-10 yil mobaynida muomaladagi naqd pul massasini nazoratga olishga intilib kelmoqda. Bu borada qilingan siyosiy islohotlar, naqd pulsiz to'lov shakllarini rivojlantirish hamda milliy valyuta emissiyasini qisqartirish bo'lganligi bizga ma'lum. Biroq, so'nggi yillarda inflyatsiyaning yuqori darajasi saqlanib qolmoqda. Bu esa aksariyat iste'molchilarning real daromadlari qisqarishiga, kambag'al qatlam sonining kamaymay qolayotganligiga, ishlab chiqaruvchilar uchun esa, import tovarlari narxi oshishiga sabab bo'lmoqda.

Mazkur holat bo'yicha iqtisodiy tahlil olib boring, mavjud vaziyatga tegishli ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash hamda siyosiy iqtisodiyot vositalari va usullari asosida oqilona yechimlar taklif qiling.

Quyidagi yo'nalishlarda xulosalarni shakllantiring:

- Umumiy monetar siyosat va uning samaradorligiga baho bering.
- Olib borilgan siyosiy iqtisodiyot borasida amalga oshgan ijobiy hamda salbiy natijalarning sabablari va iqtisodiy asoslarini aniqlang.
- Oxirgi ikki yildagi tendensiyalarni sharhlang.
- Ushbu masalaga aloqador institutlar hamda vakolatli tashkilotlar faoliyati ta'sirini aniqlang.
- Xalqaro tajribada ushbu masalada amalga oshiriladigan amaliy islohotlarni o'rganing hamda ulardan foydalanish masalasini ko'rib chiqing.

O'zbekistonda inflyatsiyani jilovlash, narxlar barqarorligiga erishish bo'yicha yakuniy xulosalar va amaliy tavsiyalarni keltiring.

II BOB. GLOBAL SIYOSIY IQTISODIYOT MASALASIDA O‘ZARO BOG‘LIQLIK TUSHUNCHASI

Ushbu bobda o‘rganiladigan mavzularning qisqacha tasnifi quyidagilardan iborat:

- O‘zaro bog‘liqlik tushunchasi, uning ahamiyati, vujudga kelishi sabablari hamda shakllanish jarayonlari;
- O‘zaro bog‘liqlikning mahalliy, mintaqaviy va global jihatdan rivojlanishi va uning zamonaviy yo‘nalishlari;
- Global o‘zaro bog‘liqlik hodisasi va uning milliy iqtisodiyotlarga ta‘sirini tahlil qilish va baholash;
- Global ijtimoiy tovarlar konsepsiyasi, ijtimoiy tovarlar ishlab chiqarish masalalari;
- Ijtimoiy tovarlar masalasidagi global hamkorlik, bugungi bosqichlari, ustuvor vazifalari;
- Xalqaro tashkilotlar, iqtisodiy birlashmalar faoliyati, federatsiyalar boshqaruvining hamkorlik va koordinatsiya o‘rnatishdagi ahamiyati.

2.1. O‘zaro bog‘liqlik va koordinatsiya

Avvalgi boblarda biz siyosiy iqtisodiyotning nazariy jihatdan tushunishda tadqiqot va islohot masalalarida hukumatning pozitsiyasi va mas‘uliyatini, uning oldida turgan ustuvor vazifalarni tahlil qilishga urindik va bunda asosiy vazifalarni bajaruvchilar sifatida qaror qabul qiluvchilar (siyosatchilar)ni ta‘kidlab o‘tdik. Shuningdek, nazariy jihatdan yondashuvimizda, tashqi muhit va ta‘sirilar bilan bog‘liqlikning darajasi ichki iqtisodiy qarorlarga ta‘sir etishda kichik hajmda deb hisobladik. Ya‘ni tashqi omillarni siyosiy iqtisodiyotga ta‘sirini sezilmas va ahamiyatsiz deb qabul qildik. Biroq, oxirgi 30 yil mobaynida istisodiy siyosat sohasi yuz berayotgan o‘zgarishlar doirasida, uchta asosiy hodisa tufayli yangi tendensiyalar ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

1. *Globalizatsiya jarayoni tufayli yuzaga kelayotgan xalqaro o‘zaro bog‘liqlik hodisasi.*

2. Mintaqalarda o'sib chiqayotgan yangi iqtisodiy jadal rivojlanayotgan mamlakatlarning ta'siri bilan bog'liq jarayonlar. Jumladan Osiyo, Janubiy Amerika, Yevropa qit'asidagi rivojlanayotgan mamlakatlar bilan birga ta'sir doiralarining mintqa va global darajada o'zgarishi.

3. Mintaqaviy hudud yoki shahar ko'rinishidagi iqtisodiy markazlarning paydo bo'lishi hamda ularning o'tkazayotgan ta'sirlari.

Ushbu hodisalarning yuz berishi, siyosiy iqtisodiyotda jarayonlarni boshqarish va unda ishtirok etishda yagona hukumat ko'rinishidagi ishtirokchining yetarli emasligi, shuningdek, paydo bo'layotgan ehtiyojlarni qondirish borasida boshqa ishtirokchilarning ahamiyati oshib borayotganligi bilan izohlanadi. Bu jarayonda ikkita muhim savol paydo bo'ladi:

Birinchidan, siyosiy iqtisodiyot doirasida ishtirok etuvchi individual subyektlar mamlakatlar o'rtasidagi gorizontal bog'liqlik jarayonida qanday yo'l tutishadi? Siyosiy intitutlar ya'ni hukumat boshqaruv idoralari va markaziy banklar milliy jamiyatlar uchungina aloqador bo'lib, mahalliy muammolar va vazifalar bilan shug'ullanishadi. Global jihatdan samarali hisoblanadigan fikrlar va vazifalarga qanday javob berishi esa murakkabligini saqlab qoladi. Mamlakatning qo'shnilari bilan yoki asosiy iqtisodiy hamkorlari bilan hamkorligi darajasida siyosiy iqtisodni tashkil qilishi, xalqaro talab va ehtiyojlarga nomuvofiq, balki faqat bir nechta mamlakat manfaatlari uchungina tegishli bo'lib qolishi jiddiy masala hisoblanadi. Masalan, iqtisodiy inqiroz yuz bergan davrda, har bir mamlakat iqtisodni barqaror saqlashga va salbiy oqibatlarni kamaytirishga kirishib ketadi. Bu jarayonlarda mamlakatlar ijtimoiy xarajatlarni oshirishga majbur bo'lishadi, ammo bir vaqtni o'zida tashqi qarzdagi salbiy o'zgarishlarni nazorat ostida saqlashga intilishadi. Shu bilan birga, hukumatlar milliy valyutalarning qadrsizlanishini oldini olish uchun chora-tadbirlar ko'rishi kuzatiladi. Hamkor mamlakatlarning barchasi o'xshash islohotlar o'tkazishi natijasida, umumiy hamma uchun bo'ladigan natija samarali bo'lmaydi. Ya'ni bir vaqtda barcha mamlakatlarning milliy valyutalari qadrining xorijiy valyutalarga nisbatan saqlanib qolishi amalga oshmaydi va bunda hamkor mamlakatlardan hech kim ijobiy natijaga erishmasligi sodir bo'ladi. Nihoyat,

umumlashtirilgan holdagi qo'yiladigan savol quyidagicha: xalqaro hamkorlik barcha uchun optimal natija olib kelishi uchun hamda siyosiy majburiyatlar va demokratik tamoyillarga hurmat saqlagan holda qanday tashkil qilinishi lozim?

Ikkinchidan, qanday qilib vertikal bog'liqlik turli hukumatlar o'rtasida munisipial, hududiy, milliy, mintaqaviy va global darajalarda barcha ishtirokchilar uchun optimal shaklda amalga oshirilishi mumkin? Qarorlar qabul qilinishi jarayoni hukumatning quyi bo'g'ini uchun ko'proq inobatga olinishi lozimmi yoki yuqori bo'g'ini uchunmi? Institutsional shakl tashkil qilinishi va samaralai islohotlar uchun beriladigan imtiyozlar qanday taqsimlanishi ham keyingi muhim masaladir.

O'zaro bog'liqlik tushunchasi iqtisodiy ochiqlik tushunchasiga ekvivalent hisoblanmaydi, ushbu tushunchalar balki bir-biriga aloqador ikki xil tushunchalar hisoblanadi.

1) Ochiqlik

Iqtisodiy ochiqlik tushunchasi deganda, mahalliy ishtirokchilarning faoliyatiga va qaror qabul qilishiga xorijiy hamkorlarning ta'siri qanchalik ekanligini ko'rsatuvchi konsepsiya tushuniladi. Uning ko'lamini o'lchashning standart usuli jami mamlakat ichkarisida va tashqarisida ishlab chiqarilgan va savdo aylanma mablag'larida xorijiy ishlab chiqarish va xorijiy savdo aylanmasining ulushini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Masalan, YaIM ga nisbatan eksport va import hajmini solishtirish orqali yoki jami mavjud hissa ulushining xorijiy hissadagi ulushiga hajmini aniqlash orqali. Bunda mamlakat tashqarisida shakllantirilgan iqtisodiy boylikning proporsiyasi aniqlanadi deyish mumkin. Ochiqlik xalqaro savdo, xalqaro kapital harakati, migratsiya va boshqa ko'rinishdagi ayirboshlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Savdo ochiqligi xalqaro savdo va YaIM orasidagi o'zaro nisbat orqali aniqlanadi. Umumiy hisoblashning formulasi quyidagicha ko'rinishga ega:

$$(X+M)/(2GDP)$$

Bu yerda X va M mos ravishda eksport va importni belgilaydi, hamda GDP esa bu YaIM dir. Barcha ko'rsatkichlar bir xil valyutada, joriy qiymatda hisoblanadi (masalan so'mning joriy qiymatida).


Ochiqlikning keyingi ko'rsatkichlaridan biri bu **moliyaviy ochiqlik** hisoblanadi. Moliyaviy ochiqlikning qiymatini aniqlash uchun mamlakat tashqarisidagi mavjud boyliklarning (biznes va mulklar) va majburiyatlarning yig'indisini YAIM ga bo'lish lozim bo'ladi.

Uning umumiy formulasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$(A+L)/(2GDP)$$


Bu yerda A (asset) – mavjud qimmatliklar, L (liabilities) – mavjud majburiyatlar. GDP (Gross Domestic Product) – Yalpi ichki mahsulot.

Mazkur ko'rsatkichlarni hisoblash biroz murakkab jarayon hisoblanadi, sababi statistika ma'lumotlarining o'z vaqtida va to'g'ri jamlanishi murakkablikka ega jarayon bo'lganligi tufaylidir. Bundan tashqari ma'lumotlarning yetarliligi masalasi ham mavjud. Quyidagi rasmda, uchta mamlakatning savdo ochiqligi bo'yicha 1990 yildan 2017 yilgacha bo'lgan davr uchun ko'rsatkichlar keltirilgan. Mazkur ma'lumotlarga muvofiq, 1990 yillarda savdo ochiqligi ko'rsatkichi yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin, O'zbekiston uchun 2016 yildan boshlab ko'rsatkichning yuqorilagani qayd etilgan.



2.1.1-rasm. 1990-2017 yillar mobaynida O'zbekiston, Qozog'iston va Rossiya uchun savdo ochiqligi ko'rsatkichlari

Ushbu rasm orqali dunyo mamlakatlarning savdo ochiqligi bo'yicha mavjud ko'rsatkichlar keltirilgan bo'lib, 0 dan 350 foizgacha bo'lgan o'lchovda belgilangan.



2.1.2-rasm. Dunyo mamlakatlari bo'yicha savdo ochiqligi ko'rsatkichlarining umumiy ko'rinishi

2) O'zaro bog'liqlik

Xalqaro savdo, migratsiya, kapital harakati va moliyaviy ochiqlik mamlakatlarni bir-biriga o'zaro bog'liqlik asosida rivojlanishiga olib keladi. Bir mamlakatdagi moliyaviy jihatdan chuqur islohotlar amalga oshirilishi, qo'shni mamlakatning eksporti oshishiga olib kelishi mumkin. Yoki mamlakatda foiz stavkalarining qisqarishi boshqa hamkor mamlakat uchun kapital harakatining o'zgarishi natijasida ijobiy yoki salbiy tashqi ta'sirlarni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda ko'plab olimlar fikriga muvofiq, mamlakatlar o'rtasidagi global iqtisodiy aloqalar to'liq integratsiyalashmagan. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, chegara effekti (border effect) ga asosan, ishchi kuchi bozori hamda kapital va tovarlar bozori mamlakatlar orasida, mamlakat ichidagiga qaraganda kam integratsiyalashganini ko'rsatmoqda. Bu ta'sir birinchi marta AQSH va Kanada o'rtasidagi savdo aloqalari tahlilida qayd etilgan, ya'ni Shimoliy Amerika Erkin Savdo Hududi (NAFTA) doirasida amalga oshiriladigan savdo hajmini tahlil

qilgandan, Mak Kallum tomonidan 1995 yilda tadqiqot olib borilgan, Kanadaning ichida provinsiyalar o'rtasidagi savdo hajmi, qo'shni AQSH dagi yonma-yon joylashgan provinsiyaga taqqoslaganda 22 marta ko'proqni tashkil qilgan. Keyingi tadqiqotlarga ko'ra, 2005 yilda olimlar Mayer va Zignagolar tomonidan tadqiqot natijalariga muvofiq, Yevropa Ittifoqida ham ushbu holat kuzatilgan. Yevropa Ittifoqi tashkil qilingach, savdo va iqtisodiy hamkorlik kelishuvlariga asosan barcha turdagi ichki tariflar bekor qilingani va boshqa boshqaruv to'siqlari olib tashlangani bilan, bir mamlakat ichidagi savdo aloqalari hajmi, qo'shni mamlakat bilan qilingan savdo hajmidan 10 barobarga ko'proqni tashkil qilgan. Chaney (2014) tomonidan ta'kidlanishicha, tarif va boshqa nazorat usullari va elementlarini bekor qilgan bilan savdoning eng samarali darajasi ta'minlanib qolmaydi, bunda axborot yetishmasligi va huquqiy to'siqlar tufayli ko'zga ko'rinmas ammo jiddiy baryerlar saqlanib qoladi.

Kapital harakati ham huddi shu kabi xususiyatga egadir. Mahalliy qilingan investitsiyalar va sotib olingan qimmatli qog'ozlarning hajmi xalqaro bozorlarga qilingan investitsiyalar va xalqaro bozorlardan olinadigan hissalaridan ko'proqni tashkil qiladi. Rey va Koyerdasiyerlar olib brogan tadqiqot natijasi ma'lum qilishicha, 2013 yilda AQSH investorlari tomonidan sarflangan 77 foiz mulk portfoliosi AQSH ning o'zida mahalliy bozorlar uchun sarflangan. Vaholanki, AQSH ning dunyodagi mulkka sarflanadigan kapitallar hajmidagi ulushi 33 foizni tashkil qiladi. Kapital harakatining mahalliy va xalqaro miqyosdagi hajmi Yevropa Ittifoqining alohida olingan mamlakatlari uchun nisbatan pastroq ko'rsatkichni qayd etgan, biroq Avstraliya, Yaponiya va Kanada uchun yuqori ko'rsatkichni ko'rsatgan.

2.2. Global siyosiy iqtisodiyotda xalqaro ijtimoiy tovarlardan foydalanish masalasi

O'zaro bog'liqlik jarayoni savdo, kapital harakati, ishchi kuchi migratsiyasi kabi iqtisodiy va moliyaviy jarayonlar amalga oshmagan taqdirda ham mamlakatlar orasida sodir bo'lishi mumkin. Bugungi kundagi bunga eng yorqin misol sifatida iqlim o'zgarishini keltirish mumkin. Dunyodagi eng yopiq iqtisodga ega bo'lgan mamlakatlar ham havoga zaharli moddalarni chiqarishga hissa qo'shadi. Bundan

ma'lum bo'ladiki, iqlimga ta'sir o'tkazish bu xalqaro jihatdan mas'uliyatni ham paydo qiladi. Boshqa bir misol bu internet tizimining rivojlanishi bilan o'zaro fikr va g'oyalarning ayirboshlanishi jarayonidir. Internetda g'oyalarning tarqalishi mualliflik huquqi yoki patent olinishi shart bo'lmagan holatda ham tezlik bilan dunyoning barcha nuqtalarigacha yetib borishi imkoni mavjud. Bu orqali insonlar har qanday holatda ham o'zaro muloqotni amalga oshirishlari mumkin bo'ladi, bu esa global masshtabda o'zaro bog'liqlikni keltirib chiqaradigan omillardan biri hisoblanadi. Buni bugun aksariyat mamlakatlarning hukumati anglab yetgan hamda ma'lumotlarni to'sish emas, balki nazorat qilish, tahrirlash, tozalash va to'g'ri talqin etishga harakat qilishmoqda.

O'zaro bog'liqlik mamlakatlar o'rtasida hamkorlik qilinishining zaruratini asosan quyidagi ikkita sabab bilan keltirib chiqaradi. Birinchi sabab, global ijtimoiy tovarlar bilan ta'minlanish zarurati sababi orqalidir. Ikkinchi sabab, mamlakat olib boradigan tashqi siyosatini optimallashtirishning zarurligi tufayli, ya'ni tashqi siyosatda qo'shni mamlakat, xalqaro savdo, moliyaviy hamkorlik orqali mamlakatga doimiy ta'sirlar amalga oshadi.

Global ijtimoiy tovarlar

Hozirda dunyo bo'ylab atrof-muhitni himoya qilish, bioxilma-xillikni saqlash, xalqaro moliyaviy holatni barqaror saqlash masalalarida global ijtimoiy tovarlar tushunchasi vujudga keldi. Bu tushuncha avvalgi ijtimoiy tovarlar tushunchasiga global so'zining qo'shilishi bilan, mazkur konsepsiyaning zamonaviy talqiniga aylandi. Ma'lumki ijtimoiy tovarlar tushunchasi iqtisodiyotda iste'mol tahlilida zarur bo'ladigan standart tushunchalardan hisoblanadi.


Ijtimoiy tovarlar siyosiy iqtisodiyot jarayonlarini tahlil qilishda muhim konsepsiya bo'lib, bozorning samarali ishlashining va bozor qulashi holatini (market fail) o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tovarlar tushunchasini tushunish uchun tovar va xizmatlar iste'moli uchun zaruriy bo'lgan ikkita muhim xususiyatni ko'rib chiqish lozim. Bular:

- ***Istisno (excludability);***
- ***Raqobat (rivalry).***

Istisno (excludability) deganda iste'mol qilishda ishtirokchilarning ba'zilarini istisno qilish ya'ni ularni qamrab olmaslik ma'nosi tushuniladi. Misol uchun xususiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan bozorga chiqarildigan tovar va xizmatlardan hamma birdek foydalana olmaydi. Iste'mol qilishda barcha iste'molchilar birdek naflilikka ega bo'lishmaydi. Biroq, ba'zi tovarlar borki, ularni iste'mol qilishdan ba'zi guruhlarini to'sib bo'lmaydi, hamma birdek foydalanishi mumkin. Masalan, havodan nafas olish, bepul televideniye xizmati, manzarali tabiatni tomosha qilish, mavjud xavfsizlikdan birdek foydalanish kabi tovar va xizmatlar. Mazkur turdagi tovar yoki xizmatlar ijtimoiy tovar yoki xizmatlar deb ataladi.

Raqobat (rivalry) deganda esa, iste'molchilar orasida tovar yoki xizmatdan foydalanishda bo'ladigan raqobat tushuniladi. Xususiy kompaniyalar tomonidan tovar va xizmatlarning do'konlarga yuborilishi, iste'molchilar tomonidan ularni iste'mol qilishda o'zaro raqobatlashuv mavjud bo'ladi. Misol uchun havzada baliq tutishni oladigan bo'lsak, iste'molchilar bunda yashirin yoki ochiq raqobatga ega bo'lishadi. Biror zamonaviy texnologik tovar turini ishlab chiqarishda ham, tovar soni cheklanganligi hisobiga iste'molchilar tovarni sotib olishda bellashadilar. Ammo ko'chani yorituvchi chiroqlar yoki ko'chalarni qo'riqlanishi kabi ijtimoiy tovar va xizmatlar uchun raqobat mavjud emas. Iste'molchilar bellashmagan holda ushbu tovarlarni iste'mol qilishlari mumkin.

Ijtimoiy tovarlar esa istisno qilish va raqobatlashish mavjud bo'lmagan tovarlar hisoblanadi. Ushbu ikki tushuncha bir-biridan mustaqil tushunchalar hisoblanadi.



2.2.1-rasm. Iqtisodiy ochiqlik ko'rsatkichi bo'yicha 2019 yilda mamlakatlarning ijobiy va salbiy ko'rsatkichlarga ega mamlakatlarning soni

Nima uchun ijtimoiy tovarlarni tahlil qilish muhim hisoblanadi? Birinchidan, mamlakat siyosiy iqtisodiyotida ijtimoiy tovarlar doimiy xarajat bilan ifodalaniladi. Hatto havoning tozaligini saqlash uchun, tabiat qimmatliklarini asrash uchun ham davlat xarajatlari doim mavjud bo'lib keladi. Hamma uchun xavfsizlikni ta'minlash, tekis yo'llar, ko'cha chiroqlari, park va hiyobonlar hamma iste'mol qilishi uchun shakllantirilgani holda, uning sarf xarajatlari hammaning zimmasiga tushmaydi. Bu esa, ijtimoiy jihatdan notenglikni keltirib chiqaruvchi holat, ammo uni nazorat qilish va tenglikni ta'minlash murakkab holatdir. Masalan tabiat ne'matlaridan foydalanish uchun hamma bir xil imkoniyatga ega bo'lsa ham, hamma birdek uni asrab-avaylashga hissa qo'shmaydi. Bu esa ijtimoiy faollikni hamda ijtimoiy ogohlikni targ'ib qilishni taqozo etadi. Bir mamlakat ichida ijtimoiy tenglikni ta'minlash murakkab ekan, demak bu masalani global jihatdan ham tahlil qilish va e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bir mamlakat boshqa mamlakatga nisbatan atrof-muhitga ko'proq zarar keltirishi mumkin. Shuningdek, dunyo iqlimini saqlash borasida ham barcha hukumatlar birdek harakat qilmasligi va e'tibor bermasligi ma'lum.

Istisno, raqobat va ijtimoiy tovarlar tushunchasi


	Istisno qilinadigan	Istisno qilinmaydigan
Raqobatlashadigan	Tijoriy tovarlar (oziq-ovqat, kiyim-kechak, avtomobil)	Umumiy tovarlar (ochiq daryodagi baliqlar, tabiat manzaralari)
Raqobatlashmaydigan	Klub tovarlari (ixtiolar, ilmiy yangiliklar)	Ijtimoiy tovarlar (toza havo, ko'cha chirog'i)

Ijtimoiy tovarlarni xalqaro jihatdan tahlil qilishda global ijtimoiy tovarlar tushunchasi shakllantiriladi. Amaliyotda global ijtimoiy tovarlarni tahlil qilishda uchta asosiy qiyinchiliklar mavjuddir. Birinchisi, global ijtimoiy tovarlarni belgilash va o'lchashda xalqaro jihatdan bir o'lchov va tushunchaga kelish masalasi. Ikkinchisi, ularni ishlab chiqarishning eng maqbul instrumentlari va qoidalari nimalardan iborat ekanligiga oydinlik kiritish zarurati. Uchinchisi, tenglik va shaffoflik nuqtai nazaridan kelib chiqib, kimlar va qanchadan moliyaviy mablag'lar ajratishi lozimligi masalasi. Xalqaro hamjamiyatning ijtimoiy tovarlar bo'yicha hamkorlikning bugungi eng dolzarb va rivojlanib borayotgan yo'nalishi global isish hodisasi atrofida yuz bermoqda. Mazkur hodisa havoga zaharli gazlarni chiqarish hisobiga butun dunyo iqlimiga bo'layotgan ta'sirlar bilan ifodalanadi. Atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha xalqaro sammit yig'ilishlari, xususan so'nggi Parij sammitida havoga zaharli gazlar chiqarishga soliqlar joriy qilish hamda zaharli gazlar chiqarishga global limitni taqsimlash masalasi ko'rib chiqildi. Biroq ko'pgina mamlakatlar tomonidan tanqidiy yondashuv bilan qarshi olindi. Buning asosiy sababi esa, mamlakatlarning milliy manfaatlariga nisbatan ta'sirlarning mavjudligi ko'rsatilmoqda. Ushbu masalada boshqa bir jihatdan hamkorlik masalasi bu yangi toza energiya manbalari, samarali va toza energiya ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni ko'paytirish orqali xalqaro hamkorlik asosida o'zaro bog'liqlik shakllanadi.

O‘zaro bog‘liqlikni paydo qiluvchi, faqatgina iqtisodiy bo‘lmagan jihatlar bilan tushuntiriluvchi sabablardan biri bu mamlakatlarning qashshoqlikka qarshi siyosiy iqtisodiyotidagi yetarli samaradorlikka erisha olmasligidir. Rivojlanayotgan mamlakatlar siyosiy iqtisodiyotida qashshoqlik masalasi iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim nuqtalardan biri ekanligi shubhasizdir. Qachonki mamlakat qashshoqlikni qisqartirish, uning sabalarini bartaraf etish borasida samarali islohotlar olib bormas ekan, buning natijasi xalqaro jihatdan ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Mamlakatda qashshoqlik ko‘payishi ijtimoiy muammolarni ko‘payishi va ijtimoiy norozilik paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Natijada mahalliy jihatdan rivojlangan muammolar boshqa mamlakatlar ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy hayotiga ta‘sir o‘tkazishi amalga oshadi. Xalqaro qochoqlar sonining ortishi, xalqaro jinoyatlar sonining ko‘payishi hamda xalqaro xavfsizlikka putur yetishi qashshoqlikning oqibatlarini sifatida shakllanishi mumkin.

Demak, rivojlanayotgan mamlakatlarda mavjud qashshoqlik muammosi va boshqa jiddiy ijtimoiy muammolar xalqaro jihatdan hamkorlik asosida hal etilishiga erishish, xalqaro hamkorlikdan ko‘zlanadigan maqsadlardan biri bo‘lishi lozim. Donor mamlakatlar va tashkilotlar qashshoqlikni tugatish va salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun moliyaviy mablag‘larni rejali safarbar qilishlari, ilmiy va texnologik jihatdan ijtimoiy yordam ko‘rsatishlari faqat yordam olayotgan mamlakat uchun emas, balki global xavfsizlik va iqtisodiy siyosiy barqarorlik uchun ham muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy tovarlarning mohiyatini tushunishda ularning xususiy tovarlar (xususiy kompaniyalar tomonidan sotish va foyda ko‘rish maqsadida ishlab chiqarilgan tovarlar) bilan chegarasini belgilab olish lozim. Bunda xususiy tovarlar, ijtimoiy tovarlar, shuningdek ularning orasida to‘liq ijtimoiy bo‘lmagan tovarlar ham mavjuddir. Quyidagi chizma orqali shu tafovutlar tasvirlangan.



2.2.1-rasm. Xususiy va ijtimoiy tovarlar tavsifi

Global ijtimoiy tovarlar bo'yicha xalqaro hamkorlikda eng muhim omillardan biri shubhasiz xalqaro savdo aloqalaridir. Savdo orqali ko'plab hamkorlik munosabatlari huquqiy jihatdan tartibga solinadi. Jumladan JST – Jahon Savdo Tashkilotining barcha 166 a'zo mamlakatlari tomonidan 60 ga yaqin ko'p tomonlama kelishuvlar imzolangan bo'lib, o'zaro hamkorlikni olib borish va ziddiyatli vaziyatlarni hal etishda huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Iqtisodiyotda qattiq qonunlar bilan tartibga solish samarali hisoblanmaydi, balki o'zaro kelishuvlarga asosan nisbatan yumshoq ko'rinishdagi chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

2.3. Global darajadagi o'zaro bog'liqlikning oqibatlari, milliy iqtisodiyotlarga ta'sirini baholash

Global darajadagi o'zaro bog'liqlikning milliy iqtisodiyotlarga turlicha ta'siri mavjudligi, ular keltirib chiqaradigan oqibatlar, siyosiy iqtisodiyot jarayonlarida tahlil va tadqiqotlarni talab etadi. Bugungi globallashuv, iqtisodiy integratsiyaning tobora kengayib, integratsion tuzilmalar faoliyatining jadallashib borishi, har bir hukumatning milliy manfaatlar borasida oqilona qarorlar qabul qilishga undaydi. Global bog'liqlikning eng asosiy oqibatlaridan biri bu chegaraviy “oqib o'tish” hodisasi hisoblanadi. Bir mamlakatda yuz beradigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar boshqa qo'shni mamlakatning chegarasidan uning ta'sirlarini oqib o'tishiga sabab

bo‘ladi. Ushbu ikki tomonlama yoki hududiy sodir bo‘ladigan oqib o‘tish jarayoni iqtisodiy bog‘liqlik sababli yuzaga keladi. Quyidagi uchta misol orqali yaxshiroq tushuntirish mumkin:

- 2008 yilda Irlandiya hukumati bank depositlari uchun kafolat summasining chegaraviy qiymatini 20 ming yevrodan 100 ming yevroga oshirdi. Bu esa boshqa Yevropa mamlakatlarining ham xuddi shu miqdorda kafolat summasi chegarasini oshirishlariga sabab bo‘ladi. Chunki boshqa mamlakatlar, o‘z hamkorlarini Irlandiya banklariga o‘tib ketishidan havotirga tushgan edilar.

- 2015 yilning yoz oylarida Yaqin Sharq mintaqasidan ko‘p sonli qochoqlar uchun Germaniya hukumati chegaralarini ochganligi, qo‘shni Avstriya hududiga ham ko‘plab qochoqlarning kirib kelishiga sabab bo‘ldi.

- AQSH Federal Zaxirasi tomonidan 2015 yilning dekabrda, asosiy stavka miqdorining oshirilishi rivojlanayotgan mamlakatlardan sof kapitalning oqib chiqib ketishiga va beqaror milliy valyutalarning qadrsizlanishiga sabab bo‘ldi.

Yuqoridagi kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin, bulardan keladigan xulosa, bir mamlakatdagi qabul qilingan qarorlar boshqa mamlakatlar ijtimoiy va iqtisodiy holatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Odatda, oqib o‘tish hodisasi siyosiy iqtisodiyotda qaror qabu qilishda inobatga olinmaydi. Chunki boshqa mamlakatlar tomonidan qilinadigan qarorlardan xabardor bo‘lmaslik va kelajakdagi hodisalarni bashorat qilish murakkab hisoblangan. Buni nazorat qilish bo‘yicha esa, mamlakatlar rasmiy yoki norasmiy ko‘rinishdagi koordinatsiyani yo‘lga qo‘yish bilan qisman tadbirlar amalga oshirishlari mumkin.

Ushbu jihatdan, qarorlar qabul qilishda koordinatsiyaning mavjudligi va o‘zaro hamkorlikka asoslanganligini tushunish uchun, “Mahbus dilemmasi”dan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur dilemmaning mohiyatiga ko‘ra, ikkita mahbus o‘zaro hamkorlik asosida qilgan qarorlari har qanday individual qarordan afzal hisoblanadi.

Xalqaro muvofiqlashtirish muammolarini keltirib chiqaradigan o‘zaro bog‘liqlikning ko‘plab misollari mavjud. Global siyosat bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarni sanitariya, energetika xavfsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, global

moliyaviy barqarorlik va soliqqa tortish kabi turli sohalarda topish mumkin. Ular makrosiyosiy iqtisodiyot sohasida ham keng tarqalgan bo'lib, ularda ko'p qirrali darajalarda (XVF orqali) yoki mintaqaviy darajalarda (masalan, Yevro hududi moliya vazirlarining yevro guruhi yoki Sharqiy Osiyodagi ASEAN + 3 makroiqtisodiy tadqiqotlar idorasi [AMRO] tahlil qilish lozim bo'ladi.

Mahbus dilemmasi

Mahbusning dilemmasi birinchi marta Rand korporatsiyasi tomonidan 1950 yilda taqdim qilingan (Taker, 1950/1980).

Jinoyat sodir etilgandan so'ng, ikki gumonlanuvchi qamoq jazosini kutmoqda. Hech kim o'zining aybdorligini tan olmaydi. Ishonchli dalillar bo'lmasa, sudya quyidagi qoidani o'rnatadi: agar ikkala gumon qilinuvchidan biri o'zining aybsizligini da'vo qilsa va boshqasini qoralasa, u ozod qilinadi va boshqa gumon qilinuvchi 10 yillik qamoq jazosiga mahkum etiladi; agar ikki gumonlanuvchi bir-birini ayblasa, ular birgalikda aybdor deb topiladi va mahkum qilinadi, ammo ularning sudya bilan hamkorlik qilish istagi mukofotlanadi va ular faqat 5 yilga hukm qilinadi; nihoyat, agar ikkalasi ham aybsizligini tasdiqlashda davom etsa va bir-birini ayblamasa, ikkalasi ham 1 yil qamoqda o'tirishadi.

Shunday qilib har bir mahbusning taqdiri uning qaroriga ham bog'liqdir uning sherigining gumon qilinuvchining qaroriga binoan, bu muammoni hal qiladi. Kvadrat shaklida 2×2 matritsasi ikkita mahbusning qarorlari bilan bog'liq bo'lgan to'lovlarni $(x; y)$ shaklida beradi, bu yerda x 1 asirga mukofot va y 2 mahbusga mukofot hisoblanadi.

Dilemmaning mohiyati juda keng, bu orqali ko'plab muammolarning mohiyatini tushunish imkoni mavjud bo'ladi. Odatda iqtisodiy hamkorlik o'zaro bog'liqlikning tabiiy sodir bo'ladigan jarayoni sifatida, bir qancha hamkor mamlakatlarning qarorlar qabul qilishida kelishmovchilik yoki turli qarashlarni ilgari surishlari samarali natijaga olib kelmaydi. Dilemmaning maqsadi esa o'zaro kelishuv asosida qaror chiqarish har ikki tomonning ham eng optimal natijaga erishishi imkonini beradi. Buning birlamchi sharti esa kelishish va hamkorlik qilish. Har qanday boshqa qarorlar iqtisodiy jihatdan kam samarali ekanligini ko'rish

mumkin.

2.3.1-jadval

Mahbus dilemmasi matritsasi

Mahbus 1	Mahbus 2	
	Boshqalarni rad etish	Boshqalar bilan hamkorlik
Boshqalarni rad etish	$(-5, -5)$	$(0, -10)$
Boshqalar bilan hamkorlik	$(-10, 0)$	$(-1, -1)$

Ushbu matritsada har bir mahbusning hamkorlik qilishi yoki hamkorlikni rad etishi kabi ikkita imkoniyati borligi belgilangan hamda har bir qaror uchun ikkita jami to'rtta natijaga erishishi mumkinligi ko'rsatilgan. Bitta mahbus uchun optimal yechimni ko'radigan bo'lsak, masalan uning qiymatini 1 deb olsak, boshqa qarorlarning natijalari, boshqa ishtirokchining qaroriga bog'liq bo'ladi. Agar ikkinchi mahbus birinchi mahbus bilan hamkorlik qilishni rad etsa, birinchi mahbus ham rad etishi u uchun oqilona bo'ladi (birinchi ustun), ya'ni natija: $-5 > -10$. Agar ikkinchi mahbus hamkorlik qilishga qaror qilsa, birinchi mahbus hali ham rad etishi mumkin (ikkinchi ustun), chunki natija u uchun foydali ko'rinishga ega: $0 > -1$. Ikkala ishtirokchi uchun ham rad etishning natijasi 5 yillik qamoq jazosi hisoblanadi. Bu Nash muvozanati deb nomlanadi (Nobel mukofoti sovrindori Jon Nash nomi bilan ataladi) va hamkorlik qilmaslikka asoslangan natijalarni aks ettiradi. Ammo bu muvozanat optimal hisoblanmaydi. Chunki agar ikkala ishtirokchi ham birga birga hamkorlik qilishni tanlasa ya'ni hamkorlikka asoslangan muvozanatni tanlasa, unda ikkala ishtirokchi ham faqat 1 yillik jazoga ega bo'ladi.

Soddaliligi va samaradorligi uchun mazkur model xalqaro savdo va siyosiy iqtisodiyotda keng qo'llaniladi. Bunda rasmiy hamkorlikning doim ham zaruriy ekanligini ko'rsatmaydi. Bunday o'yin, o'yinchilarning biri rad qilsa, ikkinchisi hamkorlik qilmasdan javob beradi degan oddiy qarshi javob qoidasi bilan cheksiz u qayta-qayta o'ynalganda, barqaror kooperativ yechimga olib kelishi mumkin ekanligini tushuntiradi.

Rasmiy jihatdan talqin qiladigan bo'lsak, hamkorlikdan olinadigan foydalarni

quyidagicha sharhlash mumkin bo‘ladi. Ikkita mamlakat mavjud, bular biri tanlangan mamlakat va ikkinchisi xorijiy mamlakat. Ularni Y va Y^* bilan belgilaymiz (Y^* - xorijiy mamlakat). O‘zaro bog‘liqlik natijasida ushbu ikki mamlakat faqatgina mahalliy chiqarilgan qarorlar ya’ni x va x^* bog‘liq bo‘lmay, balki qo‘shnilarning qaroriga ham bog‘liqdir.

Ya’ni:

$$Y = H(x, x^*) \text{ va } Y^* = H^*(x^*, x) \quad (2.1)$$

Bu yerda Y va Y^* lar – yo‘nalishli vektorlar hisoblanadi, x va x^* lar esa skalyarlar. Har bir mamlakatda, hukumat ijtimoiy farovonlik funksiyasi $U(Y)$ ni maksimallashtirishga harakat qiladi. Alohida harakat qilganda, mahalliy qaror qabul qiluvchi berilgan x^* asosida V ni maksimallashtiradi. Bunda quyidagi formulaga ega bo‘lamiz:

$$\max V(x, x^*) \text{ va } \max V^*(x^*, x) \quad (2.2)$$

Birinchi darajali hosilasini oladigan bo‘lsak:

$$1) \quad \frac{\partial V(x, x^*)}{\partial x} = 0 \quad (2.3)$$

$$2) \quad \frac{\partial V^*(x^*, x)}{\partial x^*} = 0 \quad (2.4)$$

Bundan kelib chiqadigan natijaga ko‘ra, mamlakatning optimal siyosiy qarorlari, qo‘shni mamlakat yoki boshqa bir hamkor mamlakatning qaroriga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu (2.3) va (2.4) tenglamalar ikkita reaksiya funksiyalarinig hosil qiladi. Ushbu ikkita reaksiya funksiyasining har biri, qo‘shni mamlakatning qarorlariga nisbatan optimal reaksiyani ko‘rsatishga xizmat qiladi:

$$x = F(x^*) \text{ va } x^* = F^*(x) \quad (2.5)$$

Yuqoridagi matritsa orqali tahlilga ko'ra, hamkorlik uchun ko'plab jiddiy sabab va oqibatlar borligini taxmin qilishi mumkin. Biroq, hech bo'lmaganda o'zaro bog'liqlikni boshqarishga qodir bo'lgan umumiy institutlar bo'lmagan taqdirda, milliy siyosatni muvofiqlashtirishga qarshi kuchli amaliy dalillar asosida o'rganilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ba'zi mualliflar hatto oddiy nazariyalar chalg'ituvchi va muvofiqlashtirish aslida zararli bo'lishi mumkinligini ta'kidladilar.

Masalan, odatda odatdagidek valyuta ittifoqi a'zosining fiskal kengayishi eksportga ijobiy ta'sirining qarama-qarshi ta'siri va ularning investitsiyalariga salbiy ta'siri tufayli boshqa a'zo davlatlarga noaniq ta'sir ko'rsatishi mumkin (odatda yuqori foiz stavkalari orqali). Monetar siyosat cheklangan bo'lsa yoki bir vaqtning o'zida bir nechta davlatlar kuchli moliyaviy tuzatishlarni amalga oshirganda, fiskal ajralishlar endi noaniq bo'lib qoladi va ular aslida katta miqdorda bo'lishi mumkin (3-bobga qarang).

Ikkinchidan, hukumatlar va boshqa milliy siyosat institutlari faqat o'z fuqarolari uchun javobgardir. Shuning uchun ular murakkab vaziyatlarda milliy manfaat talab qiladigan siyosiy qarorlar tanlovi oldida qolishadi. AQSH pul-kredit siyosati boshqa mamlakatlardagi o'sish va inflyatsiyaga ta'sir qilishi mumkin, ammo Federal rezerv qonuni faqat AQSH iqtisodiyoti uchun maqsadlarni belgilaydi. To'g'ri, siyosatni muvofiqlashtirishga nazariy yondashuvi, kooperativ muvozanat Nash muvozanatidan ustun bo'lganligi sababli, oxir-oqibat barcha mamlakatlar bundan foyda ko'rishadi.

Uchinchidan, hukumatlar birgalikda harakat qilish to'g'risida kelishuv mavjud bo'lsa ham ma'lum masalalarda turli qarashlarda bo'lishlari va kelishilgan hamkorlik asosida vazifalarni amalga oshirishdan bosh tortishlari mumkin. Global o'zaro bog'liqlik tufayli hamkorlik o'rnatish, ichki qarorlar qabul qilishda qo'shnilar va hududiy hamkorlar bilan rasmiy va norasmiy kelishuvlarga asoslanish optimal yechimlar belgilash va oqilona qarorlar chiqarishda muhim ahamiyatga egadir. Bu birlamchi o'rinda, mavjud noaniqliklar va boshqa risklarni oldini olish va ehtimoliy oqibatlarni yumshatishga xizmat qiladi.

2.4. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, birlashmalar, federatsiyalarning boshqaruv amaliyoti

O‘zaro bog‘liqlikning global miqyosda mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy barqarorligini ta‘minlashda muhim omil ekanligini ta‘kidlab o‘tdik. O‘zaro bog‘liqlikning shakllanishi zarurati global ijtimoiy tovarlarni ishlab chiqarish va bunda teng manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi. Xalqaro hamkorlikni samarali tashkil qilishda xalqaro tashkilotlar va federatsiyalarning o‘rni muhim hisoblandi. Tashkilotlar tijoriy, notijorat, davlat va nodavlat, ijtimoiy yo‘naltirilgan, kongillilar tashabbusiga asoslangan kabi yo‘nalishlarda faoliyat yuritishadi.

Xalqaro hamkorlikda o‘zaro bog‘liqlikni to‘g‘ri tartibga solishda mamlakatlarning boshqaruv uslubi, tashkiliy tuzilishi kabi omillarni tahlil qilish lozim bo‘ladi. Markazlashgan boshqaruvga asoslangan hukumatlar hamda mustaqil hududlarning birlashishi asosida tashkil topgan federatsiya boshqaruvi turli yondashuvlarni talab qilishi bilan tavsiflanadi. Dunyodagi 30 ga yaqin mamlakat, dunyo aholisining 40 foiziga egalik qiluvchi federatsiyalar (konfederatsiyalar) ko‘rinishidagi mamlakatlar bo‘lib, aksariyat siyosiy qarorlarning yuzaga kelishi submilliy darajadagi boshqaruv bo‘limlari orqali amalga oshadi. Mazkur mamlakatlardan yirik hisoblanganlari AQSH, Braziliya, Hindiston, Avstraliya, Germaniya hisoblansa, kichik bo‘lgan mamlakatlar Belgiya va Shvetsariyalardan yanada desentralizatsiya bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Ya‘ni mamlakatni boshqarishda markazlashgan emas balki uning aksi, ko‘proq quyi bo‘g‘in vakillari ishtirokida yuz berishi bilan xarakterlanadi.

Samarali hukumat tamoyili

Xalqaro hamjamiyat va institutlar tomonidan bugungi kunda hukumatlarni samarali ekanligini belgilashda bir qancha me‘zonlar mavjud. Ushbu ko‘rsatkichlar va tamoyillar quyidagilardir:

- 1. Tenglik va adolat;**
- 2. Samaradorlik;**
- 3. Shaffoflik va ochiqlik;**

4. Inklyuzivlik;

5. Desentralizatsiya va qarorlar qabul qilishda ishtirok etish imkoniyati;

6. Huquqiylik va qonun ustuvorligi.

Xalqaro koordinatsiyaning institutsional tuzilmasi yuqori darajadagi barqaror hamkorlikni ta'minlashga birlamchi ahamiyatga ega. E'tibor beradigan bo'lsak, dunyodagi eng yirik ikkita moliyaviy tashkilotlar XVF – Xalqaro Valyuta Fondi va JB – Jahon Bankining tashkil topishi hatto ikkinchi jahon urishi tugamasdan amalga oshgan edi. Bu esa mamlakatlardagi global iqtisodiy barqarorlik, global moliyaviy ehtiyojlarni qondirish, to'lov balansini normallashtirish, qayta qurish va global iqtisodiy tiklanish uchun moliyaviy ko'mak berish o'sha davr uchun va hozirgi kungacha ham asosiy zarurlardan ekanligini bilishimiz mumkin. JST – Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning 1995 yilda tashkil etilganini ko'ramiz. Biroq, uning faoliyati asl ma'noda 1948 yilda tashkil etilgan Tarif va Savdo bo'yicha Umumiy Kelishuv (GATT)ning faoliyatining davomi ekanligini ko'ramiz. JSTning tashkil etilishi asosan o'zaro nizolarni hal etish mexanizmining takomillashtirilishi bilan amalga oshdi. Xalqaro aloqalarda nizolarni tartibga solish, milliy huquq tizimlarini umumiy bir tizimga moslashtirish va qonuniy asosni shakllantirish birlamchi ehtiyoj ekanligi ma'lum.

Shuningdek, OECD tashkiloti 1947 yilda Amerikadan iqtisodiy va moliyaviy ko'makni Yevropaga yetkazish maqsadida ishlab chiqilgan Marshall rejasini amalga oshirish maqsadida tashkil qilingan edi va bugungi kungacha yirik tadqiqot o'tkazuvchi tashkilotlarda birigi aylandi. Bundan tashqari yuzlab tashkilotlar sog'liqni saqlash, transport, ta'lim va maorif sohalarida faoliyat olib borish uchun tashkil qilingan va o'z faoliyatini yuritib kelishmoqda.

**Yirik xalqaro tashkilotlarning faoliyat yuritishi qoidalari, maqsadi,
huquqiy vositalari va moliyaviy imkoniyatlari**

Sektor (institut va tashkilot)	Saylash qoidalari	Institutsional faoliyati ko'lam	Huquqiy vositalari	Moliyaviy imkoniyatlari
Savdo (GATT, 1947 + WTO, 1995)	Bir mamlakat, bir ovoz imkoniyati, sodda yoki malakali bitim va shartnomalarni qo'llash	Nisbatan zaif, nizolarni hal etishda samarali	Arbitraj va nizolarni hal etish kelishuvi (Huquqiy Organ tomonidan)	Birlamchi emas
Xalqaro moliyaviy hamkorlik (IMF – International Monetary Fund, 1945)	Belgilangan ovoz berish orqali, soda va malakali bitimlar asosida, yillik konsensus asosida	Kuchli institutsional kyondashuv, G7 va G20 tomonidan ko'maklar	Standartlarni o'rnatishda cheklangan imkoniyatlar, IMF yordamida bilvosita ta'sir o'tkazish	Donor mamlakatlar va yordam so'rovchi mamlakatlar moliyaviy hamkorligi
Moliyaviy rivojlanish tashkilotlari (World Bank – Jahon Banki, 1945)	IMF kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun ko'proq imkoniyatlar	IMF bilan bir xil	Deyarli mavjud emas	2007-2009 yillardan beri qisqarib bormoqda. Boshqa moliyaviy tashkilotlarning mavjudligi va rivojlanayotgan davlatlarning imkoniyatlar oshganligi tufayli
Markaziy Banklar	O'lchangan ovoz berish huquqi	Markaziy Banklar	Bilvosita	Bilvosita

hamkorligi (BIS, 1930)		faoliyati orqali		
Mehnat bo'yicha hamkorlik (ILO - International Labor Organisation, 1919)	Hukumatlar, ish beruvchi va ishlovchilar o'rtasidagi tenglik. Bir mamlakat bir ovoz tamoyili. Yirik mamlakatlar uchun doimiy Kengashdan o'rin berilishi	Nisbatan zaif	Nisbatan zaif	Nisbatan zaif, moliyaviy imkoniyatlar cheklangan. Asosiy maqsad moliyalashtirish emas.
Moliyaviy barqarorlik (FSB, 2009)	Konsensus asosidagi qarorlar	Huquqiy jihatdan taqiqlash imkoni yo'q ammo ta'sir o'takzish imkoni mavjud	Mavjud emas	Mavjud emas

Global hamkorlikda moliyaviy mablag'larning harakati eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanganligi uchun moliyaviy koordinatsiyani tartibga solish zarurati doim mavjud bo'ladi. Shu maqsadda, Xalqaro Makonlashtirish Banki (International Settlement Bank) 1930 yilda urushning oqibatlarini bartaraf etish maqsadida tuzilgan edi. Bugungi kunda esa markaziy banklarning uyushgan hamkorlik tashkiloti vazifasini bajarmoqda. Banklar faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solishda yana bir muhim kelishuv bu Bank Boshqaruvining Bazel Qo'mitasi (BIS), minimum standartlashtirilgan kapital qiymatlarini belgilashda ishtirok etadi.

Bundan tashqari Moliyaviy Barqarorlik Kengashi (FSB – Financial Stability Board) 2008-2009 yillardagi moliyaviy inqiroz sababli paydo bo'ldi va xalqaro moliyaviy munosabatlarni tadqiq etish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash borasida faoliyat yuritishni maqsad qiladi.

Global hukumat

Global hukumat tushunchasi oxirgi bir necha o'n yillikda shakllanib borayotgan tushuncha bo'lib, dunyoni yaxlit bir mamlakat sifatida tushunish va tasavvur qilish orqali jarayonlarni tahlil qilishga imkon beradi. Biroq, ta'kidlash lozimki amalda global hukumat mavjud emas va uning bo'lishi murakkab holatdir. Nisbiy jihatdan bir nechta birlashmalarni global hukumat tarzida nazariy jihatdan tadqiq etish mumkin bo'ladi. Jumladan Kuchli Yettilik (G7) davlatlarini olib qaraydigan bo'lsak, 1975 yilda tashkil topgan va xalqaro siyosiy va iqtisodiy qarorlar qabul qilishda markaziy rol o'ynaydigan hukumatlarning birlashmasi hisoblanadi. Kuchli Yigirmalik (G20) davlatlari birlashmasi 1975 yilda tashkil topdi, hamda rivojlanayotgan mamlakatlar bilan integratsiyaning amalga oshirilishida faollik va hamkorlikni maqsad qiladi. Nima uchun aynan tanlangan yigirmalik mamlakatlari global mavzularni muhokama qilishi haqida gapiradigan bo'lsak, ushbu G20 mamlakatning iqtisodiy qudrati va siyosiy ta'sir instrumentlarining global darajada asosiy qismini tashkil qilishi hisoblanadi.

Iqtisodiy birlashmalar va ittifoqlarning turlari va shakllari

Erkin savdo zonalari - (*free economic zone*). Ushbu ko'rinishdagi birlashmalar biznes vakillari uchun qulay sharoitlarni yaratish hisobiga kapital oqimini ko'paytirishni maqsad qiladi, hamda erkin savdodan manfaatli foyda ko'rish, investitsiyalarni chorlash asosiy maqsadlar qatoriga kiradi. Masalan, AQSH, Kanada va Meksika 1992 yildan beri Shimoliy Amerika erkin savdo shartnomasi (NAFTA) doirasida erkin iqtisodiy hudud shakllantirgan bo'lsa, uchinchi mamlakatlar importiga bir xil bojxona to'lovlarini qo'llamaydi. Erkin savdo zonasini boshqarish juda murakkab, chunki ushbu tarif farqlari firibgarlikni rag'batlantiradi hamda biznes etikasiga amal qilmaganlarning manfaatiga xizmat qilishi mumkin bo'ladi. Mahsulotni ushbu hududning qaysi bir mamlakatlaridan kelib chiqqan deb hisoblash shartlarini belgilaydigan kelib chiqish qoidalarini belgilanishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari erkin iqtisodiy hududlar pul yuvish vositasi bo'lib xizmat qilishi ham uning tartibga solinishida murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Bojxona ittifoqlari

Bojxona ittifoqida dunyoning boshqa mamlakatlaridan olib kiriladigan barcha mahsulotlarga tegishli bir xil bojxona to'lovlari, qaysi mamlakatga kirgan va boradigan davlatidan qat'iy nazar belgilanadi. Masalan, Koreya televizorlari yoki boshqa xo'jalik texnika jihozlari Antverpen yoki Barselona tomonidan import qilinadimi, baribir bir xil boj undiriladi yoki Pragada yoki Rimda sotilishidan qat'iy nazar boj va to'lovlar bir xil miqdorda qoladi.

Bojxona ittifoqini boshqarish ancha sodda, ammo u qatnashuvchi mamlakatlardan 1957 yildagi Rim shartnomasi bo'yicha yevropaliklar singari umumiy tashqi tarifni qabul qilishni talab qiladi. Ammo bojxona ittifoqi ichki chegara nazorati olib tashlanishini talab qilmaydi. 1992 yildagi yagona bozorga qadar ichki qonunchilikka muvofiqligini tekshirish uchun Yevropa ichidagi import bojxona nazorati ostida bo'lgan.

Yagona global bozor

Yagona global bozor tovarlarning harakatchanligi, xizmat ko'rsatish erkinligi hamda ishchilar va kapitalning harakatchanligi uchun to'siqlarni olib tashlash bilan tavsiflanadi. Bu me'yoriy hujjatlarni, xususan texnik yoki sog'liqni saqlash standartlariga muvofiqligini talab qiladi, ularning nomutanosibligi tovar va xizmatlar savdosiga to'sqinlik qiladi va shuning uchun umumiy qoidalarni qabul qilish yoki milliy qoidalarni o'zaro tan olish lozim bo'ladi. Yevropa Ittifoqi hududida yagona bozor 1992 yilda joriy qilingan. Xizmatlarni bepul ko'rsatishni amalga oshirish murakkab jarayonligicha qolmoqda. Mahalliy qonun qoidalar kamsituvchi bo'lmagan taqdirda ham, ular chet el provayderlarining mahalliy bozorlarga kirishiga to'sqinlik qilmoqda.

Valyuta Ittifoqi

Valyuta Ittifoqi umumiy pul birligini, yagona pul-kredit siyosatini va shu sababli umumiy markaziy bankni qabul qilishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, soliq siyosati emas, balki boshqa bir nechta siyosat sohalarida siyosatni muvofiqlashtirish lozimligi bilan tavsiflanadi.

Yevropa tadqiqotchilari ta'rifiga ko'ra shartnomaning yagona bozor, fiskal va

siyosiy iqtisodiyotni muvofiqlashtirish va yagona valyutaga taalluqli qoidalarini nazarda tutadigan Iqtisodiy va Valyuta Ittifoqi (EMU) ni nazarda tutadi. Ushbu ittifoq 1999 yilda 11 ta a'zo davlat bilan boshlangan bo'lsa, 2018 yilga kelib bu raqam 19 tani tashkil qildi. Biroq Polsha va Chexiya kabi sharqiy Yevropa mamlakatlari to'liq ittifoqqa qo'shilishmadi, balki Yevropa Ittifoqi doirasida yagona valyuta yevroni muomalaga kiritgani holda, milliy valyutalarini ham muomalada saqlashmoqda. 2010–2012 yillardagi Yevrozona inqiroziga javoban Valyuta Ittifoqi kuchaytirilgan iqtisodiy, fiskal va moliyaviy kuzatuv tartiblari bilan to'ldirildi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

O'zaro bog'liqlik – mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanishi va haamkorlik qilishi jarayonlarida, bir-biri bilan savdo, moliyaviy, migratsion, investitsion hamkorligi natijasida yuzaga keladigan munosabatlar va ularning bir-biriga bog'liqligi.

Koordinatsiya – ikki yoki undan ortiq mamlakatlarning ma'lum sohalarda yaqinlashuvi asosida paydo bo'ladigan hamkorligining hududiy va mintaqaviy jihatdan amalga oshirishi jarayoni.

Ijtimoiy tovarlar - barcha uchun iste'mol qilish imkoni mavjud, odatda tekin bo'lgan tovarlar bo'lib, uning ishlab chiqarilishiga hamma birdek hissa qo'shmasligi bilan tavsiflanadi.

Global ijtimoiy tovarlar - ijtimoiy tovarlarning global jihatdan hamkorlik asosida asrab avaylanishi, ishlab chiqarilishi.

Global hukumat - amalda mavjud bo'lmagan, ammo iqtisodiy tahlil uchun nazariy jihatdan mavjud bo'lgan global yaxlit hukumat.

Mahbus dilemmasi - ikki mahbus misolida, ikki hamkor tomonning qaror qabul qilishida qanday natijalarga erishishi mumkinligini ko'rsatuvchi model.

Nash muvozanati - ikki hamkor mamlakat o'rtasida ikki tomon uchun ham manfaatli hisoblangan natijani aniqlashga xizmat qiluvchi o'yinlar nazariyasidagi tenglik holati.

Chegara effekti - mamlakat ichida yuz bergadigan jarayonlarning

chegaradosh mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hodisalar.

Oqib o'tish hodisasi - bir mamlakat hududida yuz beradigan iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy jarayonlar natijasida uning ta'sirining qo'shni mamlakat chegarasidan o'tib kirishi hodisasi.

Global institutlar - faoliyati ko'lami va hududi bo'yicha yirik hisobangan, global darajada faoliyat yuritadigan tashkilotlar.

Xalqaro moliya tashkilotlari - Xalqaro miqyosda moliyaviy munosabatlarni tartibga solishni maqsad qiladigan, moliyaviy ko'mak berish bilan faoliyat olib boradigan yirik muassasa.

Xalqaro savdo tashkilotlari - xalqaro savdoni tartibga solish, erkin va ochiq savdo va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qiladigan, nizolarni hal etishda huquqiy asosga ega yirik muassasa.

Federalizm nazariyasi - federatsiyalarni boshqarish, ularning tuzilishi xususiyatlarini o'rganuvchi soha.

Erkin iqtisodiy zona - bizneslarni jalb qilish, investitsiya va kapital oqimini taklif qilish maqsadida tashkil qilinadigan, soliq va boshqa turdagi to'lovlardan holi bo'lgan iqtisodiy hudud.

Yagona bozor - integratsion hududda mamlakatlarning barcha chegara nazorati va cheklovlarni bekor qilishi bilan umumiy bozorni yaratishga qaratilgan birlashma.

Valyuta Ittifoqi - integratsion ittifoqlarga a'zo mamlakatlar tomonidan yagona valyutaning muomalaga kiritilishini ko'zlaydigan va bu orqali samarali moliyaviy valyuta munosabatlarini rovojlantirishni maqsad qiladigan birlashma.

Bojxona Ittifoqi - odatda bir mintaqada joylashgan mamlakatlar o'rtasida tuziladigan, bojxona bojlarini bekor qilish va bojxona nazoratini kamaytirish hissobiga teng manfaat hamkorlik qilishga qaratilgan birlashma.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. O'zaro bogliqlik tushunchasi, uning ahamiyati va vujudga kelishi

sabablarini tushuntiring.

2. O‘zaro bog‘liqlikning mahalliy, hududiy, mintaqaviy va global jihatdan shakllanishi va amal qilishi jarayonini sharhlang.

3. Xalqaro hamkorlik va koordinatsiya orqali yuzaga keladigan iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar hamda oqibatlar nimalardan iborat bo‘lishi mumkin?

4. Ijtimoiy tovarlar tushunchasi, mohiyati va o‘zaro bog‘liqlikdagi ahamiyati nimalardan iborat?

5. Global iqtisodiy hamkorlikda global ijtimoiy tovarlar tushunchasi, uning ahamiyatini bayon qiling.

6. O‘yin nazariyasiga muvofiq, mahbus dilemmasini tushuntiring. Nash muvozanatining mohiyati nimadan iborat?

7. Xalqaro savdo tashkilotlarining faoliyati, huquqiy asoslari va nizolarni hal etish masalalarini sharhlang.

8. Xalqaro Moliyaviy tashkilotlar faoliyati, ularning asosiy maqsadlari va bugungi kundagi vazifalari nimalardan iborat?

9. O‘zbekistonning xalqaro hamkorlik masalalari, erkin iqtisodiy hududlar va boshqa imtiyozli birlashmalardagi faoliyatini qisqacha tushuntiring.

10. O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va birlashmalar bilan a‘zolik va hamkorlik masalalari qaysi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda?

VAZIYATLI TOPSHIRIQ - KEYS

O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga qo‘shilish masalasining iqtisodiy foydalari va istiqbollari

O‘zbekiston Respublikasi oldida turgan muhim vazifalardan biri xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirish, yangi bozorlarni kashf qilish, erkin va ochiq iqtisodiy hamkorlik masalalarini mahalliy va xalqaro darajada takomillashtirishdan iboratdir. Jumladan Jahon Savdo Tashkilotiga a‘zo bo‘lish orqali, mamlakatning teng manfaatli hamkorlik asosida belgilangan huquqiy normalar va umumiy qoidalarga amal qilib faoliyat yuritishi, ulkan tashqi bozorga oson kirib borishini ta‘minlaydi. Buning natijasida, yuqori qiymatli texnologik mahsulotlarning mamlakatga kirib

kelishi arzonlashadi va bir qancha sarf xarajatlar kamayadi. Jumladan eksport va import uchun bojlar, tarif to'lovlari yoki kvota miqdorlari bekor qilinadi.

Ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiyoti uzoq muddat yopiq iqtisodiyot tajribasini shakllantirdi hamda erkin va ochiq tashqi iqtisodiy va savdo aloqalaridan tiyilib keldi. Ammo bugungi siyosiy islohotlar va globalizatsiyaning chetlab bo'lmaydigan ta'sirlari natijasida erkin hamkorlikdan yuqori iqtisodiy foyda ko'rish imkoniyati paydo bo'lmoqda.

Mazkur natijaga erishish esa eng yirik xalqaro savdo tashkilot JST ga a'zo bo'lish masalasi bilan bog'liq. Ushbu tashkilotning hozirda 166 ta a'zosi mavjud, lekin O'zbekiston ularni orasida yo'q. 1994 yildan beri mamlakat kuzatuvchi maqomini olganiga qaramay, shu kunga qadar to'liq a'zo bo'lish amalga oshirilmadi. Jahon savdo tashkiloti O'zbekistonni tashkilotga qo'shilish jarayonida har tomonlama qo'llab-quvvatlashga tayyor. Bu haqda JST Bosh direktori o'rinbosari Alan Vulf O'zbekiston Respublikasi bosh vazirining o'rinbosari – Investitsiyalar va tashqi savdo vaziri Sardor Umurzoqov bilan bo'lgan videokonferensiyada ma'lum qildi (19-aprel, 2020 yil).

O'zbekistonning a'zolikka kirishidagi mavjud to'siqlar va qilinishi lozim bo'lgan ishlarni tahlil qilish hamda a'zolik tufayli ko'riladigan istiqbolli iqtisodiy foydalarni hisoblash bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Bunda JST ga a'zolikka qabul qilinish shartlari va bosqichlarini birma-bir o'rganish lozim bo'ladi.

Mustaqil topshiriq orqali javob izlanishi lozim bo'lgan tadqiqot savollari quyidagilardan iborat:

1. JST ga a'zo bo'lishning iqtisodiy foydalari haqida umumiy tushunchalarni shakllantirilish va siyosiy iqtisodiyot orqali zaruriy islohotlar ro'yxatini tuzish.

2. A'zo bo'lishda qo'yiladigan talablar va bosqichlarni tahlil qilish. O'zbekiston uchun ushbu talablarni bajarishda mavjud imkoniyatlar va to'siqlarni aniqlash va ta'sir etuvchi sabalar, omillarni tadqiq qilish.

3. JSTga a'zolikning mahalliy ishlab chiqarishga hamda milliy iqtisodiy manfaatlarga muvofiqligini ta'minash masalasi.

4. Hukumat tashkilotlari va vakolatli organlari faoliyatining JST ga a'zo

bo'lishidagi ishtiroki va ta'sirini baholash.

Mazkur tadqiqot savollariga javob izlashda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning O'zbekiston uchun bergan tahliliy hisobotlari, prognozlar hamda statistik ma'lumotlari asosida tahliliy yondashuv amalga oshirilishi lozim. O'zbekistonning JST bilan bugungi kundagi hamkorlik aloqalarining borishi, uning oxirgi 10 yildagi natijalaridan foydalanish tavsiya etiladi. A'zo bo'lishdan ko'riladigan iqtisodiy foydalarning bayonotida aniq guruhlar asosida qayd etilishi so'raladi. Masalan, iqtisodiy foydalarning qaysi guruhlarga ta'siri, a'zolik masalasida qaysi tashkilot yoki hukumat organlarining faoliyati ko'proq aloqadorligi bo'yicha xulosalar berilishi lozim.

III BOB. GLOBAL IQTISODIY O'SISH MASALALARI

Ushbu bobda o'rganiladigan mavzularning qisqacha tasnifi quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiy o'sishning mohiyati, iqtisodiy o'sish nazariyalari, asosiy tushunchalar;
- Iqtisodiy o'sishni boshqarish siyosati, o'sishning asosiy ko'rsatkichlari, o'sishga erishish islohotlari va jarayonlari tahlili;
- Investitsiya omili va jarayonlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri va o'zaro bog'liqligi masalalari;
- Texnologik va innovatsion rivojlanishning iqtisodiy o'sish maqsadlari bilan aloqadorligi;
- Iqtisodiy o'sishning mehnat resurslari hamda siyosiy iqtisodiyot islohotlari orqali boshqarilishi;

3.1. Iqtisodiy o'sish va rivojlanish tushunchalari

Ko'plab iqtisodchi olimlar, iqtisodiy o'sish jarayonlarini, eng muhim siyosiy iqtisodiyot vazifalaridan biri sifatida keltiradi. Iqtisodiy o'sish bu har bir mamlakat maqsad qiladigan va bu uchun barcha tizimlarni ishlab chiqish, takomillashtirish hamda resurslarni safarbar qilish tadbirlarini amalga oshiradilar. Sodda qilib aytadigan bo'lsak, iqtisodiy o'sish bu doimiy davom etadigan va markaziy o'rinni egallovchi siyosiy iqtisodiyot fanining maqsadi hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sishni ma'lum bir daraja yoki nuqta debmas, balki doimiy davom etuvchi va o'zgarib boruvchi jarayon deb hisoblash mumkin. Bunga ko'ra bir nechta muhim savollar yuzaga keladi. Mamlakatlar doimiy rivojlanish jarayonida bo'lsa, qanday qilib rivojlangan yoki rivojlanmagan mamlakatlar kategoriyasini ajratish mumkin? Rivojlanish agar ma'lum bir darajani tashkil qiladi deb hisoblasak, unda qanday o'lchov va meyorlar bilan buni belgilash to'g'ri bo'ladi? Iqtisodiy rivojlanish juda keng tushuncha, uni sharhlash uchun makroiqtisodiy yoki xalqaro darajadagi tahlillar hamda ko'rsatkichlar lozim bo'ladi. Iqtisodiy o'sishni umumiy qilib ikki

ko‘rinishda ya’ni miqdor va sifat darajasidagi iqtisodiy o‘shishga ajratish mumkin. Miqdoriy iqtisodiy o‘shish raqamlarda namoyon bo‘luvchi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda asosan aks ettirilsa, masalan, Yalpi ichki mahsulot (YaIM), aholi jon boshiga YaIM, YamM, To‘lov balansi, Milliy daromad, qashshoqlik darajasi, ishsizlik, inflatsiya, asosiy foiz stavkasi va boshqalar.

Iqtisodiy o‘shish - bu umumiy nazariy ta’rifga ko‘ra iqtisodiyotdagi tovarlar va xizmatlar qiymatining oshishi hisoblanadi. Iqtisodiy o‘shish xususiy sektor uchun ko‘proq foyda olinishi hamda ko‘proq soliqlar tushumi hisobiga hukumatning ijtimoiy siyosatida keng islohotlar imkoniyatining oshishi bilan izohlanadi. Yirik ishlab chiqaruvchi tashkilotlar qimmatli qog‘ozlarining ya’ni aksiyalarining oshishi evaziga, investitsiya mablag‘lari ko‘payadi. Bu kompaniyalarga sarmoya kiritish va ko‘proq xodimlarni yollash uchun kapital mablag‘larining ko‘payishini anglatadi.

Ko‘proq ish o‘rinlari yaratilishi bilan daromadlar oshadi. Iste’molchilar qo‘shimcha mahsulot va xizmatlarni sotib olish uchun ko‘proq daromadga ega bo‘ladi. Iste’molchilar tomonidan xaridlar hajmining oshishi esa, yuqori o‘shishga olib keladi. Shu sababli, barcha mamlakatlar ijobiy iqtisodiy o‘shishni ta’minlashni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Natijada esa, tizimli ravishda iqtisodiy o‘shishni ta’minlash uchun islohotlar olib borish, mavjud muammolarni yechimini topish talab qilinadi.

Dunyo mamlakatlari iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlarini aniqlash va hisoblashda, odatda, yillik va har chorakda amalga oshiriladigan hisob-kitob tadbirlarini amalga oshiradi. Iqtisodiy o‘shishning miqdoriy jihatdan eng keng qo‘llaniladigan ko‘rsatkichi bu YaIM hisoblanadi. YaIM - bu mamlakat hududida bir yil mobaynida ishlab chiqariladigan jami tovar va xizmatlarning bozorda mavjud narxga nisbatan qiymati hisoblanadi. YaIM ni nominal va real turlariga ajratish mumkin. Nominal qiymati bu barcha hisoblangan miqdorni bildirsa, real qiymati esa inflatsiyani inobatga olib, aholining sotib olish quvvatiga moslangan qiymatni tashkil qiladi. Bu esa YaIMning real qiymatining amaldagi tahlillar uchun qo‘llanilishi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Ko‘pgina tadqiqot institutlari, jumladan iqtisodchi olimlar YaIMni iqtisodiy

o'sishni belgilashda yetarli bo'lmagan fan va bir yoqlama hisoblangan ko'rsatkich deya tanqid ostiga olishadi. Jahon banki o'sishni o'lchash uchun YaIM o'rniga yalpi milliy daromaddan foydalanadi. Bu chet elda ishlayotgan fuqarolar tomonidan yuborilgan daromadlarni o'z ichiga oladi. Bu masalan, Filippin, Meksika, Bangladesh, Pokiston, O'zbekiston kabi ko'plab rivojlanayotgan bozor mamlakatlari uchun muhim daromad manbaini tashkil qiladi. Mamlakatlar bo'yicha yalpi ichki mahsulotni taqqoslash bu mamlakatlar iqtisodiyotining hajmini pasaytirishini kuzatish mumkin. YaIM pullik bo'lmagan xizmatlarni o'z ichiga olmaydi. Bu bolalarni parvarish qilish, ixtiyoriylik haqini to'lash yoki qora bozorda noqonuniy faoliyatni o'z ichiga olmaydi. Bundan tashqari unda ekologik xarajatlarni hisobga olinmaydi. Masalan, plastmassaning narxi arzon, chunki u chiqindilarni yo'q qilish xarajatlarini o'z ichiga olmaydi. Natijada, YaIM bu xarajatlar jamiyat farovonligiga qanday ta'sir qilishini o'lchamaydi. Mamlakat ekologik xarajatlarni hisobga olganda, uning turmush darajasi yaxshilanadi. Buni esa qiymat jihatdan hisoblash va umumiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirishda foydalanish murakkabligini bildiradi.

Xuddi shu kabi, jamiyatlar ko'pincha miqdoriy o'lchagan narsalarini qadrlashadi. Masalan, Skandinaviya mamlakatlari Jahon iqtisodiy forumining Global raqobatbardoshlik to'g'risidagi hisobotida yuqori o'rinni egallaydi. Ularning byudjetlari iqtisodiy o'sishning qo'zg'atuvchilariga qaratilgan. Bu jahon darajasidagi ta'lim, ijtimoiy dasturlar va yuqori turmush darajasini inobatga olish orqali o'lchanadi. Bu omillar iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, malakali va motivatsiyali ishchi kuchini yaratadi. Bu mamlakatlarda kuzatish mumkinki, soliq stavkalari nisbatan yuqori hisoblanadi. Ammo ular daromadlarni iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli qurilish bloklariga sarmoya kiritish uchun ishlatadilar. Rayan Eylerning "Xalqlarning haqiqiy boyligi" kitobida AQShning iqtisodiy tizimiga individual, ijtimoiy va ekologik darajadagi faoliyatga baho berish orqali o'zgartirishlar kiritilishi taklif qilingan. Undagi muhim mushohadalarga e'tibor berilsa, bu iqtisodiy-siyosiy tahlil AQSH siyosatidan farq qiladi. U iste'mol va harbiy xarajatlarni ko'paytirish orqali qarzni qisqa muddatli o'sishni

moliyalashtirish uchun ishlatilishi bilan tavsiflansa, bu faoliyat yalpi ichki mahsulotda namoyon bo‘ladi deyish mumkin.

Tahlilchilar iqtisodiyotning qaysi bosqichida ekanligini bilish uchun iqtisodiy o‘shishni kuzatadilar. Eng yaxshi bosqich - bu kengayish bosqichidir. Bu vaqtda iqtisodiyot barqaror o‘shish jarayonida bo‘ladi.

2007-2008 yillardagi iqtisodiy va moliyaviy inqiroz natijasida yuzaga kelgan "buyuk retsessiya" va undan keyingi rivojlangan dunyodagi o‘rtacha o‘shish davri yana siyosiy iqtisodiyot bahslarining birinchi pog‘onasiga qo‘ydi. Tovarlar va xizmatlarning uzoq muddatli ishlab chiqarilishi, asosan, potensial taklif bilan belgilanadi, ularning o‘shish sur‘ati boylik va farovonlik maqsadlariga mos kelishi lozim bo‘ladi.

Iqtisodiy o‘shishni tahlil qilish har bir mamlakat iqtisodiy rivojlanishini tushunish uchun muhim hisoblanadi. 1913 yilda Argentinaning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) har bir kishiga Ispaniyanikidan 70% yuqori edi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Gananing ushbu ko‘rsatkichlari Janubiy Koreyadan deyarli 50% ga yuqori edi. 1970 yilda Italiya yalpi ichki mahsuloti har bir kishiga Irlandiyadan 60% ko‘proq edi. Shunga qaramay, 2016 yilda Ispaniya yalpi ichki mahsuloti jon boshiga Argentinaga qaraganda qariyb 80%, Koreyada Ganaga qaraganda to‘qqiz barobar ko‘p darajaga yetdi. Irlandiyada esa Italiyadan deyarli ikki baravar ko‘p hajmni tashkil qildi. Rivojlanish va rivojlanmaganlik o‘nlab yillar mobaynida doimiy ravishda o‘shib borayotgan tafovutlardan kelib chiqadi. Masalan, yiliga bitta foizlik o‘shish farqi (2% tendensiya bilan taqqoslaganda) 50 yildan ortiq vaqt davomida daromadlar 63% gacha farq qilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Agar ikki foizlik farq uchun 50 yildan keyin farq 164%ga yetishi hamda uch foizlik ko‘rsatkich uchun bu 326%ni tashkil qiladi.

Odamlar uzoq muddatli o‘shishdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuqori daromadlar orqali yoki bilvosita sog‘liqni saqlash, ta‘lim, xavfsizlik va infratuzilma kabi jamoat mahsulotlariga kengroq kirish orqali foyda ko‘rishadi. Ularning bu foyda olish qobiliyati daromadlarning taqsimlanishiga bog‘liq. Bugungi kundagi rivojlanishdagi tengsizliklar haqidagi xavotirlarning oshishi inklyuziv o‘shishni ustuvor vazifa qilib

qo'ydi. Odamlar, shuningdek, atrof-muhitga zarar yetkazish kabi o'sishning ba'zi oqibatlaridan aziyat chekishlari ham bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, o'sishni beqaror qilib qo'yishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun o'lchov muammolarini hal qilish iqtisodiy o'sish jarayonlarini boshqarish uchun juda muhimdir. Buni esa nafaqat moddiy, balki axloqiy, ijtimoiy, ekologik va hatto falsafiy o'lchovlarni hisobga olgan holda, YaIMga qaraganda, turmush darajasini yaxshiroq baholashni ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni aniqlash va qabul qilish orqali buni amalga oshirish mumkin.

Shunday bo'lsa-da, o'sish - ayrim uy xo'jaliklarining turmush darajasini boshqalarning ahvolini pasaytirmasdan oshirish imkonini beradigan yagona mexanizm, shuning uchun ham bu iqtisodiy o'sish va o'sish siyosatiga qaratiladi. Bunda o'sish va "pasayish" tarafdorlari tomonidan ko'tarilgan muammolarning ahamiyatini tushunish mumkin.


Rivojlanishning miqdoriy tahlil qilishda taniqli iqtisodchi olimlardan Angus Maddison (1997) aholi jon boshiga YaIMning uzoq muddatli o'sishining to'rtta asosiy omilini ajratib ko'rsatdi: (a) texnik taraqqiyot; (b) ishlab chiqarish kapitalining to'planishi (ya'ni, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan infratuzilma va mashinalar), bu har jihatdan texnik taraqqiyotni o'z ichiga oladi; (v) nou-xau, ta'lim darajasi va mehnatning umumiy tashkil etilishini takomillashtirish; va (d) savdo, sarmoya, iqtisodiy va intellektual almashinuv orqali millatlar integratsiyasining ortishi.

O'sish hisobini yuritishning boshlang'ich nuqtasi ishlab chiqarish funksiyasi bo'lib, u t davridagi yalpi ichki mahsulotni t (chorak yoki yil davomida o'zgaruvchan oqim) ishlab chiqarish omillari bilan bog'laydi, odatda kapital zaxirasi K (ishlab chiqarish uchun mavjud uskunalar va binolar), mehnat N (ishlagan soatlar) va texnologiya A deb belgilanadi, natijada ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Y_t = f(K_t, N_t, A_t)$$

Kapital K_t aksiyadorlik (yoki hissadorlik) o'zgaruvchisidir (*stock variable*), chunki u bir davrdan ikkinchisiga uzatiladi: t davrida iqtisodiyot oldingi davrlarda sotib olingan mashinalar va binolarni meros qilib oladi va uning ishlab chiqarish quvvati asosan ular tomonidan belgilanadi. Bu har qanday vaqtda mamlakatlar o'rtasidagi daromadlar farqini tushuntirish uchun katta yo'lni ochib beradi: tabiiy resurslarni ishlab chiqaruvchilar, boy davlatlar esa birinchi navbatda katta kapitalga ega bo'lganligi bilan tavsiflanadi. Kapitalning evolyusiyasi odatda $K_t = -\delta K_t + I_t$ kabi tenglama bilan tavsiflanadi, bu yerda δ - kapitalning amortizatsiya darajasi va I - kapital xarajatlarining belgilanishi (asosiy kapitalning yalpi shakllanishi). Shunday qilib, kapitalning bir qismi har bir davrda kamayib boradi (eskirishi natijasida), bir qismi esa yangi kapitalni sotib olish orqali yangilanadi yoki ko'payadi. Amaliy tadqiqot natijalarida, K odatda doimiy inventarizatsiya usuli deb hisoblanadi ya'ni, kapitalni almashtirish xarajatlari hisobidan o'tgan investitsiya oqimlarini yig'ish orqali va ma'lum bir vaqtdan keyin eskirgan uskunalar va binolardan voz kechilishi orqali yangilanadi. Agar kapitalning katta qismidan voz kechilsa (masalan, imkoniyatlar oshgani uchun) yoki eskirishi tezlashsa (texnik taraqqiyot tufayli) yuqoridagi mushohadalar teskari ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Ammo hozircha ko'pchilik mamlakatlarda kapitalni o'lchashning bundan afzalroq usullarini qo'llash murakkab hisoblanadi va mamlakatlar shu usullardan keng foydalanadi.

N , ishchi kuchi, odatda, mehnatga layoqatli aholining mahsuli, faollik darajasi, bandlik darajasi va ish vaqti bilan ishlagan soatlar soni bilan aniqlanadi.



3.1.1-rasm. Iqtisodiy o'sish jarayonlari tahlili va hodisalarning o'zaro bog'liqligi

Iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda texnologiyaning o'rni va ta'sirlarini inobatga olish hamda jarayonlarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Texnologiya ishlab chiqarishga turli yo'llar bilan ta'sir qilishi mumkin. Neytral texnologik rivojlanish shuni ko'rsatadiki, texnik taraqqiyot ishlab chiqarishda ishlatiladigan ishchi kuchining ko'payishiga teng (va shuning uchun kapitalning cheklangan unumdorligini oshiradi) deb hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, Xarrodning betarafligi texnik taraqqiyot degan qarama-qarshi taxminga asoslanadi, uning mohiyatiga ko'ra, ishlab chiqarishda ishlatiladigan kapital miqdorining ko'payishiga teng bo'ladi. Neytrallik holatini biz ikki turga ajratamiz, bular Solow va Harrod turlaridir. Solow neytral texnik taraqqiyotda ishlab chiqarish funksiyasi $Y_t = F(K_t, A_t, N_t)$, Harrod-neytral texnik taraqqiyotda esa ishlab chiqarish funksiyasi $Y_t = F(A_t, K_t, N_t)$ sifatida yozilishi mumkin.

3.2. Investitsiyaning iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi

Iqtisodiy o'sish mavzusi bevosita investitsiya mavzusi bilan chambarchas bog'liqdir. Biroq investitsiyaning iqtisodiy o'sish va taraqqiyotga ta'sirini aniqlash va baholash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Buning asosiy sababi, investitsiyaning aynan qaysi sohalarga yo'nalishi, uning samaradorligi darajasi kabi muhim jihatlarini tushunish talab qilinadi.

Avvalambor, investitsiya deganda nisbatan keng iqtisodiy va moliyaviy munosabatlar tushuniladi. Biror soha va faoliyatni amalga oshirish yoki mavjud faoliyatni rivojlantirish maqsadida sarflanadigan sarmoyalarning barchasi turli ko'rinishdagi investitsiyani tashkil qiladi. E'tibor beradigan bo'lsak, bu jarayon doimiy va to'xtovsiz davom etib keladi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, investitsiya bu birlamchi zaruriy jarayondir, hamda u iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi asosiy omillardan ekanligini ta'kidlash lozim.

Demak, investitsiya bu ko'proq foyda olish, rivojlanish uchun sarflanadigan mablag'lar hisoblanadi. Bu ta'rif eng sodda va keng ta'rif hisoblanadi. Investitsiyaning asosiy uchta turini farqlash mumkin, bular:

- 1) to'g'ridan to'g'ri investitsiya;
- 2) bilvosita amalga oshiriladigan investitsiya;
- 3) portfel (qimmatli qog'ozlar savdosi ko'rinishidagi) investitsiya.


To'g'ridan-to'g'ri investitsiya mavjud mablag'larni aynan moddiy qimmatliklarni jumladan, bino inshoot, texnologiya, yer va boshqa turdagi mulklarni sotib olish yoki o'zlashtirish orqali amalga oshadi. Portfel investitsiyasi esa, investitsion banklar, fondlar va mulkdorlar tomonidan qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi hissalarini sotib olish, shartnomalar yoki valyuta savdosi kabi kelishuvlarni xarid qilish bilan amalga oshadi.

Yalpi ichki mahsulotning (YaIM) o'sish sur'ati iqtisodiyotning qanchalik tez o'sayotganligini ko'rsatadi. Ko'rsatkich mamlakat iqtisodiyotining oxirgi choragini o'tgan chorak bilan taqqoslaydi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasida 156,7 trln so'm asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan.

Ulardan 13,6 trln so‘mi O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar, 143,1 trln so‘mi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar, 76,3 trln so‘m boshqa xorijiy investitsiyalarni tashkil etgan¹.

Investitsiyalar – yalpi talabning (AD – Aggregate Demand) tarkibiy qismi. Shuning uchun, agar investitsiyalar ko‘paysa, bu AD va qisqa muddatli iqtisodiy o‘shishni kuchaytirishga yordam beradi. Agar zaxira quvvati bo‘lsa, unda investitsiyalarning ko‘payishi va ADning o‘shishi iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini oshiradi. Investitsiyalar iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga ta’sir qiladi, chunki u yalpi talabning tarkibiy qismi hisoblanadi va eng muhimi, iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatiga ta’sir qiladi (LRAS -Long Run Aggregate Supply - uzoq muddat uchun yalpi taklif egri chizig‘i).



3.2.1-rasm. Real YaIM va LRAS egri chizig‘i orasidagi bog‘liqlik


Biroq, agar iqtisodiyot to‘liq quvvatga yaqin bo‘lsa, AD ning ko‘tarilishi inflyatsiyani keltirib chiqaradi va real yalpi ichki mahsulotning o‘shishiga olib

¹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>

keldimaydi, ammo ADga investitsiyalardan tashqari ta'sir qiluvchi boshqa omillar ham bor. Masalan, agar iste'mol xarajatlari kamaygan bo'lsa yoki eksport kamaygan bo'lsa, unda investitsiyalarning o'sishi ADni ko'paytirmasligi mumkin. Investitsiyalar ADning eng katta komponenti emas (taxminan 16%); ADning eng katta komponenti - iste'mol xarajatlari (taxminan 66%).

Agar iqtisodiyotning zaxira quvvati bo'lsa, investitsiyalarning ko'payishi ham ko'paytiruvchi ta'sirga (*multiplier effect*) olib kelishi mumkin. Investitsiyalarning boshlang'ich o'sishi iqtisodiy o'sishni oshiradi, lekin agar firmalar ko'proq sotish va foyda ko'rsalar, ular keyingi investitsiyalarga qayta sarmoya kiritishga tayyor. Bundan tashqari, investitsiyalar evaziga ish bilan ta'minlangan uy xo'jaliklari sarflash uchun ko'proq daromadga ega bo'lishadi. Shunday qilib, 2 milliard funt sterling miqdoridagi sarmoya yalpi ichki mahsulotning 3 milliard funt sterlingga yakuniy o'sishiga olib kelishi mumkin.

Agar investitsiyalar samarali bo'lsa, u iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishi kerak. Masalan, malaka va ta'limga sarmoya kiritish mehnat unumdorligini oshirishi mumkin. Yangi texnologiyalar va kapitalga sarmoya kiritish iqtisodiyotning hosildorligini va ishlab chiqarish quvvatini oshirishi mumkin; bu uzoq muddatli umumiy ta'minotni (LRAS) o'ngga siljitishga yordam beradi. LRASning o'sishi uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun zarur; u inflyatsiyasiz iqtisodiy o'sishni oshirishi mumkin. Agar sarmoya ishlab chiqarishning sezilarli o'sishiga olib kelsa - bu iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli tendensiyasi o'sishiga olib kelishi mumkin



3.2.2-rasm. AD/AS orqali LRAS va ADning o'sishining amalga oshishi jarayoni

Investitsiyalar inflyatsiyasiz real YaIMning oshishiga olib kelishi mumkin. Investitsiyaning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash jarayonini amalga oshirishning muhim vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Bu avvalambor investitsiya turiga bog'liq hisoblanadi. Masalan, sanoat salohiyatini oshirishga davlatning noto'g'ri sarmoyasi samarasiz bo'lishi va iqtisodiyotda hosildorlikni oshira olmasligi mumkin. Xususiy sarmoyalar yoki chet eldan investitsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ancha samarali bo'lishi mumkin, chunki xususiy firmalar investitsiyalarning eng samarali turlari haqida ko'proq ma'lumotga ega.

- Ba'zi mamlakatlarda jamoat infrastrukturasida - yo'llar, ko'priklar, infratuzilmada ta'minot cheklovlari bo'lishi mumkin. Bu jamoat mollari erkin bozor tomonidan to'liq ta'minlanmaydi; shuning uchun yetkazib berishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun davlat sarmoyasi talab qilinishi mumkin. Masalan, yo'llardagi tirbandlik biznes va iqtisodiy faoliyat uchun katta to'siqdir.

- Uzoq muddatli istiqbolda investitsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini

oshirish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Investitsiyalarsiz iqtisodiyot yuqori iste'mol darajasiga ega bo'lishi mumkin edi, lekin bu muvozanatsiz iqtisodiyotni keltirib chiqaradi. Joriy hisob kamomadi va kelgusidagi o'sish istiqbollari kam sarmoya kiritiladi.

Endi esa iqtisodiy o'sish jarayonlarining investitsiyaga bo'ladigan ta'siri haqida qisqacha mulohazalarni ko'rib chiqamiz. Ushbu jarayonda quyidagi fikrlarni inobatga olish lozim bo'ladi.

Iqtisodiy o'sish sur'atlari investitsiyalar darajasiga ham ta'sir qiladi. Ishbilarmonlik sarmoyasi juda o'zgaruvchan bo'ladi. Agar korxonalar iqtisodiy prognozlarining yaxshilanishini ko'rsalar, kelajakdagi talabni qondirish uchun investitsiyalarni ko'paytiradilar. Shunday qilib, iqtisodiy o'sish sur'atlarining yaxshilanishi investitsiyalarning sezilarli o'sishiga olib kelishi mumkin. Ammo, agar iqtisodiy tanazzul va iqtisodiy o'sish sur'ati pasaysa, biznes investitsiyalarni kamaytiradi.

Akselerator nazariyasi shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar darajasi iqtisodiy o'sish tezligiga bog'liq. Ammo, bundan tashqari, iqtisodiy o'sish sur'atlaridan tashqari, investitsiyalar darajasi ham foiz stavkasiga, biznesga bo'lgan ishonchga, texnologik taraqqiyotga va hukumat qarorlariga bog'liq.

Iqtisodiyot o'sib borayotgan sarmoyalar, odatda, tejashdan kelib chiqmaydi: bu tijorat banklari tomonidan yaratilgan jamg'armalar hisoblanadi. Tushkunlikka tushgan davrda, foyda kutish kutilmaganda, banklar kredit bermaydilar. Bunday sharoitda investitsiyalar taqsimlanmagan daromadlardan kelib chiqishi kerak bo'ladi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiyotning energiya va mexanizatsiyadan foydalangan holda hosildorlikni oshirishi mumkin bo'lgan qismlaridan kelib chiqadi: bu ishlab chiqarish va axborot texnologiyalaridan foydalanadigan ba'zi xizmatlarni anglatadi. Bu shuni anglatadiki, barcha sarmoyalar o'sishga teng emas: infratuzilma, ta'lim va yo'llarga investitsiyalar, odatda, faqat foiz stavkalari (ya'ni qarz olish xarajatlari) bo'yicha daromad keltiradi. Agar so'nggi o'n yilliklarda turmush darajasini ko'targan rivojlanayotgan iqtisodiyotlarga qarasangiz, ularning barchasi ishlab chiqarishga sarmoya kiritganligini kuzatish mumkin.

Mamlakat iqtisodiyotning o'sishiga olib kelishi uchun iqtisodiyotning real aktivlariga sarmoya kiritish uchun jamg'armalarni to'plashi yoki safarbar qilishi kerak. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bilan to'ldirilgan daromaddan tejash investorlarning kapitalni shakllantirishga olib kelishi mumkin bo'lgan mamlakatning jismoniy aktivlariga investitsiyalarni amalga oshirishlari uchun investitsiya qilinadigan mablag'larni bo'shatadi, bu esa iqtisodiyotning o'sishiga yoki kapitalning ko'payishiga olib keladigan real sektorni rivojlantiradi. Har qanday iqtisodiyotning jamg'armalari va sarmoyalari o'sishi uchun istalgan maqsadga erishish uchun o'zaro ijobiy aloqada bo'lish kerakligini inobatga olish lozim.

3.3. Tashqi omillar va innovatsiyaning iqtisodiy o'sishga ta'siri

Iqtisodiy o'sishga erishish va taraqqiyotni ta'minlash ko'plab tashqi omillarga ham bog'liq ekanligini ta'kidlash lozim. Ushbu integratsiya jarayonlari, xalqaro savdo, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, eksport va import munosabatlari, migratsiya kabi muhim omillarni kiritish mumkin. Xususan, innovatsiya va yangi texnologik izlanishlar, yangiliklar va ixtirolarning iqtisodiy o'sishga, yuqori qiymatli tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga ta'siri katta ekanligini e'tirof etish lozim.

Innovatsiya - bu iste'molchilarga, korxonalarga va umuman iqtisodiyotga foyda keltiradigan iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, innovatsiya tovarlar va xizmatlarni yaxshilaydigan yoki ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va qo'llashni tavsiflaydi.

18-asrda bug' dvigateli texnologiyasining rivojlanishi innovatsiyaning klassik namunasidir. Bug' dvigatellarini fabrikalarda ishlatish mumkin edi, bu ommaviy ishlab chiqarishga imkon berdi va ular temir yo'l transportida inqilob qildi. Yaqinda axborot texnologiyalari kompaniyalar o'z mahsulotlarini va xizmatlarini ishlab chiqarish va sotish usullarini o'zgartirib, yangi bozorlarni va yangi biznes modellarini ochdi.

Ushbu doirada Yevropa Markaziy Banki EMBning amalga oshirayotgan islohotlari va tadbirlarini ham misol qilish mumkin. EMBning maqsadi - narx

barqarorligini saqlash. Foiz stavkalarini belgilab, EMB iqtisodiyotni moliyalashtirish shartlariga va pirovardida tovar va xizmatlarga umumiy talabga ta'sir qiladi. Chu bilan birga, innovatsiyalarga bog'liq bo'lgan iqtisodiyotning uzoq muddatli o'sish potentsiali EMBning o'z vakolatiga erishish qobiliyatiga ham ta'sir qiladi. Innovatsiya makroiqtisodiy muhitga chuqur ta'sir ko'rsatganligi sababli, EMB uning rivojlanishini kuzatib boradi va innovatsiyalarni qo'llab - quvvatlaydigan iqtisodiy va ijtimoiy old shartlarni o'rganadi.

Innovatsiyaning asosiy afzalliklaridan biri uning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasidir. Oddiy qilib aytganda, innovatsiya yuqori mahsuldorlikka olib kelishi mumkin, ya'ni bir xil kirish ko'proq mahsulot ishlab chiqaradi. Hosildorlik oshishi bilan tovar va xizmatlar ko'proq ishlab chiqariladi - boshqacha aytganda, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari oshadi.

Yevropa juda ko'plab innovatsiyalarning vatani bo'lsada va innovatsion mintaq bo'lishi barobarida, mintaqaning innovatsion salohiyatini yanada oshirish uchun aniq imkoniyatlar mavjud va bu imkoniyatlar hali to'liq foydalanilgan emas. Butunjahon iqtisodiy forumining global raqobatbardoshligi indikatori bo'yicha Yevro hududining faqat uchta mamlakati dunyoning birinchi o'nta davlati qatoriga kiradi. Shuningdek, yevro hududi va boshqa yirik rivojlangan iqtisodiyotlar o'rtasida tadqiqotlar va ishlanmalar (R and D – Research and development - ilmiy tadqiqot va taraqqiyot) xarajatlarida doimiy farq bor.

Bundan tashqari, yevro hududida innovatsiyalarning tarqalishi sekin ko'rinadi. Yaqinda o'tkazilgan EMB tadqiqotlari, masalan, eng unumdor va kam ishlab chiqaruvchi firmalar o'rtasida unumdorlikning sezilarli farqini ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, yaxshi ishlaydigan chegara firmalari juda innovatsion bo'lsa-da, aksariyat firmalar hali innovatsiyadan yetarli darajada unumli foyda ko'rmaydi.

Innovatsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflanadigan mablag'larning ko'payishi va ta'limga sarmoya kiritish, shuningdek, tadbirkorlarga biznesni osonroq boshlashiga va muvaffaqiyatsiz korxonalarning bozordan tezroq chiqib ketishiga imkon beradi. Bundan tashqari, kompaniyalar o'z xodimlariga sarmoya kiritish va o'z ilmiy-

tadqiqot ishlarini olib borish orqali yangiliklarni yengillashtirishi mumkin.

Bir qancha yirik tadqiqotchi olimlar ikki asr mobaynida berilgan 9 million AQSH patentini tahlil qilish uchun katta ma'lumotlardan foydalangan. Garchi Silikon vodiysi startaplar innovatsiyalarning manbai ekanligiga ishonsa-da, tadqiqotchilar aniqladilarki, tashkil etilgan firmalar ham yuqori sifatli patentlash faoliyati bilan baholanadi. Shuningdek, ular xususiy va davlat firmalari innovatsiyaga o'z hissalarini qo'shdilar, universitetlar va ba'zi davlat tuzilmalari ham juda innovatsion degan xulosaga kelishdi.

Ushbu tahlilning birinchi bosqichi yuqori sifatli innovatsiyalarni yaratish edi. Tadqiqotchilar buni ma'lumotlar bazasidagi barcha patentlarning matnlarini solishtirish va muhim so'zlarning paydo bo'lish jadvalini tuzish orqali qilishdi. Agar patent matni va undan oldingi matnlar o'rtasida juda kam o'xshashlik bo'lsa, patent yangi yangilik bo'lishi mumkin edi. Agar keyingi patentlardagi so'zlar o'xshash bo'lsa, patent boshqa patentlar yaratgan muhim yangilik bo'lishi mumkin. Stenford GSB moliya professori tadqiqotchi olim Seruning fikriga ko'ra: "Ikkala mezonga javob beradigan patentlar, ya'ni yangi, muhim va yuqori sifat" deb hisoblangan. Tekshiruv sifatida, tadqiqotchilar yuqori sifatli patentlar ro'yxatini iqtisodiy tarixchilar tomonidan muhim deb topilgan patentlar bilan solishtirishdi. Ular topganidek, ikkita ro'yxat bir-biriga juda o'xshash edi. Tadqiqotchilar yuqori sifatli innovatsiyalarning ushbu o'lchovidan foydalanib, qaysi subektlar vaqt o'tishi bilan yangiliklarga hissa qo'shganligini va bu hodisalar qanday ilmiy imkoniyatlar bilan izchil bog'liqligini o'rganishdi.

Iqtisodiy o'sishga erishishning ikki yo'li bor: aholi sonini ko'paytirish yoki odamlarni yanada samaraliroq mehnat qilishiga erishish lozim, - deydi Stenford GSB iqtisod professori Edvard Lazear. XX asrda iqtisodiy o'sish juda katta edi. Har 33 yilda turmush darajasi ikki barobar oshdi, lekin bu XXI asr uchun qiyin maqsadga aylandi. Aholining sekin o'sishi va hozirgi aholining qarishi, kelgusida ko'p ishlarni bajarish uchun mahsuldorlikni oshirish kerakligini anglatadi.

Hosildorlik ish haqining o'sishiga bog'liq, lekin oxirgi yillarda hosildorlik pasaygani sari ish haqi ham pasaymoqda - deydi Lazear. 90 yillarning oxirida

hosildorlik yiliga qariyb 3% ga oshdi; hozir bu faqat uchdan bir qismini tashkil qilmoqda. Shunday qilib, ish haqi bir xil darajada bo'lishi ajablanarli emas. Ammo tekis ish haqining og'rig'i butun aholiga teng taqsimlanmaganligini inobatga olish kerak.

So'nggi 30 yil ichida yuqori ma'lumotli ishchilarning mahsuldorligi va ish haqi oshganini ko'rish mumkin. Ammo aholining kam ma'lumotli qatlamlari uchun buning aksi bo'lgan holat yuz bermoqda. Bunga ko'ra o'sgan tarmoqlar - bu yuqori ma'lumotli ishchilar, qisqargan tarmoqlar - kam ma'lumotli kishilar asosida faoliyat yuritadi. Ammo sun'iy intellekt va boshqa texnologiyalar rivojlanishi yangi imkoniyatlarni taqdim qilmoqda va bu jarayonlar biz o'ylagandek hammani ishdan bo'shatmaydi - deydi Lazear. Ishchi kuchining ishtiroki bilan o'lchanadigan bo'lsak, yangi texnologiyalar ishning mohiyatini o'zgartirganda, umuman ish o'rinlari yo'qolmaydi. Uning so'zlariga ko'ra, sanoat inqilobi kabi tub o'zgarish hech qachon bo'lmagan edi, biroq shu davrlar mobaynida doimiy ishchi kuchi miqdori va tarkibi oshib borgan.

Innovatsiya rivojlanishning barcha bosqichlarida muhim ahamiyatga ega; Xususan, texnologiyalarni yaratish va tarqatish barcha iqtisodiyotlarda iqtisodiy o'sish va farovonlik uchun muhim ahamiyatga ega. Innovatsiyaning har xil turlari turli bosqichlarda o'z rolini o'ynaydi (masalan, oldingi bosqichlarda, qo'shimcha innovatsiyalar ko'pincha xorijiy texnologiyalarni qabul qilish bilan bog'liq). Muvaffaqiyatli innovatsion tajribalar va rivojlanish uchun potensial boshqacha imkoniyatlar paydo bo'ladi. Ayniqsa, bu imkoniyatlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yuksalishi, global qiymat zanjirlarining rivojlanishi, ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlarning global innovatsion tizimdagi ahamiyatining oshishi, xizmat ko'rsatishga asoslangan iqtisodiyotning o'sishi, savdo va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kompaniyalar uchun ochiqlik natijasida yanada kengaydi.

Bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsion siyosatning asosiy vazifasi - inklyuziv o'sishni rag'batlantirish va yirik ijtimoiy muammolarni hal etuvchi tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Bir qator rivojlanayotgan iqtisodiyotlar, xususan, Xitoy global innovatsion

tizimning muhim ishtirokchilariga aylandi. Xitoy, Hindiston va Koreya kabi Osiyo iqtisodiyotining ko'tarilishida ilmiy-tadqiqot ishlari muhim rol o'ynaganligi to'g'risida ilmiy va amaliy faktlar yetarlidir (Ang va Madsen, 2017). Bundan tashqari, ko'plab rivojlanayotgan iqtisodiyotda texnologiya chegarasida turgan va raqobatlashish uchun yangilik kiritish kerak bo'lgan sanoat yoki firmalar mavjud. Dunyoning eng yirik 1400 R&D (Research and development) investitsion kompaniyalari ro'yxatiga kiritilgan Yevropa Ittifoqi R&D ko'rsatkichlari jadvalida 100 dan ortiq 2011 yilda rivojlanayotgan va rivojlanayotgan iqtisodiyotga mansub bo'lgan edi.

1. Joriy operatsiya hisobi yoki joriy hisob - bu mamlakatning operatsion hisobvarag'i bo'lib, unda tovarlar va xizmatlar eksporti, dividendlar yoki pul o'tkazmalari va boshqa joriy transferlar kabi ishchi kuchi va kapitaldan tushgan daromadlar tasvirlanadi. Nosimmetrik tarzda, u xalqaro savdoning tovarlar va xizmatlar importi, ishchi kuchi va kapital daromatlari va boshqa joriy transferlar bilan bog'liq barcha to'lovlar to'g'risida hisobot beradi. Kapital hisobvarag'ida qarzni hisoblash va investitsiya grantlari singari kapital o'tkazmalari kuzatiladi.

2. Moliyaviy hisob xorijiy aktivlarni - xususiy va davlat qimmatli qog'ozlarini, qarz mablag'larini, ko'chmas mulkni hamda jahon bozoridagi (kapitalning chiqib ketishi) barcha ichki aktivlarni sotish (kapital oqimi) jarayoni amalga oshadi.

Agar sarmoyaviy investitsiyalar natijasida xorijiy kompaniyaning ulushi 10% dan oshsa, bu samarali nazoratni amalga oshirishga imkon beradi. Kapitalning kirib kelishi va chiqib ketishining yana bir misoli - valyuta zaxiralarini boshqarish doirasida ichki markaziy bank tomonidan xorijiy qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish amalga oshiriladi. Ta'rifga ko'ra, valyuta zaxiralari xorijiy valyutadagi qimmatli qog'ozlar va markaziy bankda saqlanadigan depozitlardan (oltindan tashqari) iborat. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar yoki valyuta zaxiralari sifatida tasniflanmagan qimmatli qog'ozlarni xalqaro sotish va sotib olish portfel investitsiyalari deb ataladi.



5.2.2-rasm. Xalqaro kapital harakatining o'lchovi, 1870-2016 yillar orasida

Mazkur rasmga e'tibor beradigan bo'lsak, unda rivojlangan mamlakatlar hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda 2016 yilgacha bo'lgan kapital harakatining ko'rsatkichini ko'rishimiz mumkin. Noldan birligacha bo'lgan shartli hisoblash ko'rsatkichida rivojlangan davlatlarning 0.5 va 1 orasidagi o'sishi aks ettirilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa eng yuqori ko'rsatkichning 0.5 ga yaqinlashgani ko'rsatilgan.

Agar bozor yetarlicha faol bo'lsa, valyutalar o'rtasidagi arbitraj vaqtning har bir nuqtasida valyuta kursining o'ziga xosligini va valyuta kurslari o'rtasidagi tranzitivlikni ta'minlaydi. Masalan, agar yevro 1,2 AQSH dollari va AQSH dollari 110 yapon iyenasi ga teng bo'lsa, u holda evro $1,2 \times 110 = 132$ iyenaga teng bo'lishi kerak, aks holda, uchta valyutada ham pulni almashtirish orqali oson foyda olish mumkin bo'ladi. Bu esa bozorning to'liq samarador emasligini yoki valyutalar haqidagi ma'lumotlar to'liq emasligini bildiradi.

Qisqa qilib aytganda, arbitraj bu valyutalar farqidan olinadigan foyda. Jahon valyuta bozorlaridagi valyutalarning ayirboshlash kursi, yoki valyutaning sotib olish narxi bir xil bo'lishi lozim. Odatda shunday bo'ladi. Biroq ba'zi hollarda farq paydo

bo'lishi mumkin, buning sabablarini esa yuqorida ta'kidlab o'tdik. Agar mana shu farq paydo bo'lsa, masalan, Tokioda bir yevro 129 iyenaga teng bo'lsa, Frankfurtda esa 130 bo'ladigan bo'lsa, brokerlar bu farqdan katta foyda olishlari mumkin bo'ladi. Ammo ushbu farq holatlari kam uchraydi va qisqa muddatda bo'lishi mumkin.

Bozorda sotish narxi va sotib olish bahosi o'rtasidagi farq tufayli, arbitraj hech qachon mukammal bo'lmaydi, bu moliya vositachilariga to'lanadigan to'lovni ifodalovchi va bozorning likvidliligiga bog'liq bo'lgan (ya'ni chastotasi va bitimlar hajmi) jarayondir. Ushbu to'lovdan tashqari, istalgan vaqtda butun dunyo bo'ylab ma'lum bir valyuta uchun yagona narx mavjud bo'ladi va barcha ikki tomonlama narxlarning matritsasiga mos keladi. Biroq, valyutaning narxi yetkazib berish sanasiga bog'liq: valyuta 24 soat ichida yetkazib berilganda, operatsiya "spot" deb nomlanadi va tegishli narx bu spot kursidir. Valyuta kechiktirilgan sanada yetkazib berilganda, operatsiya "oldinga" deb nomlanadi va tegishli narx forward kursi hisoblanadi.

Spot va forward bozorlari asosida ko'plab valyuta hosilalari rivojlandi. Masalan, valyuta svopi - bu ma'lum vaqt oralig'ida ikki xil valyutada ko'rsatilgan pul oqimlarining almashinuvi. Call opsiyani o'z egasiga kelajakda ma'lum bir sanada (yoki opsiyon xususiyatiga qarab, ushbu sanadan oldin istalgan vaqtda) chet el valyutasini oldindan kelishilgan narxda sotib olish huquqini beradi, lekin majburiyat yuklamaydi. Put opsiyani esa uni sotish huquqini beradi. Valyuta derivativlari shartnomalari kelishilishi mumkin, ammo ba'zi eng standart formatlar bozorda sotiladi. Variantning qiymati uning ishlash muddati davomida valyuta kursining o'zgaruvchanligi bilan ortib borishini ko'rsatish mumkin. Opsionlarning bozor bahosi shu bilan kutilayotgan valyuta o'zgaruvchanligini aniqlashga imkon beradi. Tegishli ko'rsatkich yopiq o'zgaruvchanlik deb ataladi.

Valyuta bozori 1990 yillardan keying davrda uchta muhim hodisa tufayli yangi bosqichga ko'tarildi: xalqaro savdoning rivojlanishi, kapital harakatining liberallashtirish va moliyaviy tavakkalchilikni boshqarish uchun yangi global moliyaviy uslublar natijasida sezilarli darajada kengayib borishi hodisalari. Bazell (Shveysariya) da joylashgan davlat tashkiloti Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS)

zimmasiga markaziy banklarga xizmat ko'rsatish va jahon moliya bozorlarini kuzatib borish vazifasi qo'yilgan. BIS ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yilda valyuta operatsiyalari kuniga 5,066 milliard dollarni tashkil etdi, shundan 1 652 mlrd. Bu taxminan 18 kunlik jahon ishlab chiqarishi va 72 kunlik xalqaro tovar savdosini namoyish etdi.

Bozor joylashuv jihatidan ham (tovar aylanmasining 56% London yoki Nyu-Yorkda amalga oshiriladi) va sotiladigan valyutalar bo'yicha ham (yevro / AQSH dollari, yen / AQSH dollari va ingliz funti / AQSH) yuqori darajada zich joylashgan bo'ladi. Dollarning bugungi kundagi hajmi birgalikda bozorning yarmidan ko'pini hosil qiladi, masalan 2018 yilda barcha savdolarining 23 foizini tashkil qildi. Dollar transport vositasi sifatida markaziy rol o'ynaydi (ya'ni, uchinchi valyutalar o'rtasidagi operatsiyalar uchun vositachi sifatida qo'llaniladi).

Dollar xalqaro likvidlik zahirasi sifatida ham markaziy rol o'ynaydi. Dunyo bo'ylab Markaziy banklar va tijorat banklari AQSH dollarini naqd yoki qisqa muddatli xazina (valyuta zaxirasi) majburiyatlari shaklida ushlab turadilar. Ikkinchidan, likvid (sotilishi oson) va tavakkalsiz (defolt xavfi bilan) xalqaro valyuta hisoblanadi. Xalqaro banklarning qarz berishi hajmiga e'tibor berilsa, dollarning ulushi eng yuqori ekanligini ko'rish mumkin, bu esa dollarni asosan tashqi moliyalashtirish valyutasiga aylantiradi.

Bruno va Chin olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, xalqaro miqyosda dollar aktivlari va majburiyatlarining keng mavjudligi, banklar balanslari AQShning pul-kredit siyosatidagi transchegaraviy bank kreditlash kanali orqali boshqa mamlakatlarning kreditlariga ta'sir qilishini nazarda tutadi. Federal rezerv foiz stavkasini pasaytirganda nafaqat AQShda, balki boshqa hamkor mamlakatlar kredit shartlari ham o'zgaradi, ya'ni yumshatiladi. Bu esa AQSH pul-kredit siyosatining ushbu translyatsiya kanali valyuta kursi kanaliga teskari yo'nalishda harakat qilishini anglatadi.

5.3. Valyuta ayirboshlash amaliyoti. Milliy va xalqaro valyuta munosabatlari

Valyuta ayirboshlash xalqaro savdo va boshqa iqtisodiy munosabatlarning

amalga oshishi, import va eksport jarayonlarini bajarish uchun zaruriy vosita hisoblanadi. Bu nafaqat tashqi iqtisodiy faoliyat uchun, balki mamlakatlar maxalliy ishlab chiqarish va savdo jarayonlari uchun ham muhimdir. Masalan ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda, ularning integratsiyasi yoki hamkorlik darajasiga qarab xorijiy valyutalarga bo'lgan ehtiyoj shakllanadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi bilan doimiy savdo aloqalari o'rnatgan mamlakatlar yevro va milliy valyutalarining ayirboshlashi jarayonini amalga oshiradi. Rossiya bilan savdo hamkorligini olib boruvchi MDH mamlakatlari esa Rossiya rubli bilan milliy valyutalarining ayirboshlashi amaliyotini doimiy bajaradi. Valyuta ayirboshlash amaliyoti banklar orqali amalga oshadi. Shuningdek banklarga tegishli moliyaviy xizmat ko'rsatish shaxobchalari orqali valyutalarni bir valyutadan boshqasiga almashtirish mumkin. Bu esa valyuta sotib olish yoki sotish jarayoni deyiladi.

Barcha valyutalar kesishgan nuqtada kotirovka qilinadi, ya'ni bitta valyutani sotib olish uchun boshqasini sotish kerak bo'ladi. Kesishgan nuqta esa doim o'zgarib turadi, bu o'zgarish valuta bozoridagi valyuta munosabatlari, valyuta savdosi va kunlik boshqa operatsiyalarga bog'liq. Bir kesishgan nuqtada, masalan, EUR/USD, birinchi valyuta "asosiy valyuta", ikkinchisi "kotirovka valyutasi" deb nomlanadi. Boshqacha aytganda, bitta EUR (tayanch valyuta) olish uchun qancha AQSH dollarini (narx valyutasi) berish kerak degan savolga javob bo'ladi.

AQSH dollari, asosan eng keng ishlatiladigan, barcha kesishgan qiymat (nuqta) uchun asosiy valyuta vazifasini o'taydi. Buning sababi va mohiyati haqida avvalgi boblarda aytib o'tgan edik, ya'ni AQSH dollarining qanday qilib xalqaro valyuta zahiralari vazifasini bajaruvchi muhim valyuta ayirboshlash instrumentiga aylanishi haqida. Endi esa, aytib o'tganimiz, evro va AQSH dollarining ayirbolashi amaliyotini ko'rib chiqamiz. Bu jarayonni amalda ko'rsatish uchun misol keltiraylik. Agar EUR/USD kotirovkasi 1.13 bo'lsa, demak, siz 1 yevro sotib uchun 1.13 AQSH dollarini sotishingiz kerak bo'ladi. Barcha valyuta keishish nuqtasi ikkita narx bilan ko'rsatilgan bo'ladi. Asosiy valyutani sotish narxi (taklif narxi) va asosiy valyutani sotib olish narxi (so'raladigan narx deb ataladi).

Agar siz yevroni AQSH dollariga nisbatan sotib olish amaliyotini ko'rib

chiqadigan bo'lsangiz. Siz ommaviy axborot vositalari orqali yoki nashr jurnallarida ko'rishingiz mumkin bo'lgan narx o'rtacha narx deb ataladi bu ma'lum vaqtdagi taklif va so'rov o'rtasidagi narx. Chunki valyutaning real narxi doimiy o'zgarib turadi. Ikkita valyuta sotilganda, ular juft valyutalar ayirboshlanishi deb ham ataladi. Amaliyotga qaraydigan bo'lsak, ba'zi juftliklar boshqalarga qaraganda ancha tez-tez savdo qilinishini ko'rishimiz mumkin, jumladan EUR/USD, USD/JPY, USD/GBP va EUR/GBP bilan birgalikda valyuta ayirboshlash bozorida (FX – Foreign Exchange)da eng ko'p sotiladigan juftliklar qatoriga kiradi. Bu yerdagi valyutalarning qisqartmasi mos ravishda EUR – yevro, USD - AQSH dollari, JPY - Yaponiya iyenasi, GBP - Buyuk Britaniya funt sterlingi (pound).

To'lov balansi mamlakatdagi valyuta oqimi va munosabatlarini hisoblash va tahlil qilishda muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Agar moliyaviy hisob konvertatsiya qilinmasa, valyuta kursi markaziy bank yordamida osonroq tuzatilishi mumkin. Biroq, agar kompaniyalar va uy xo'jaliklari chet el aktivlarini sotib olish va sotishda erkin valyuta bozoriga ega bo'lsa, valyuta kursi doimiy ravishda bozor muvozanatiga mos kelishi kerak. Valyuta kursi moslashuvchan bo'lsa, u valyuta bozoridagi muvozanatga erishish uchun sozlanishi lozim bo'ladi. Markaziy bank chet el valyutasini sotish yoki sotib olish jarayonlariga aralashmasa, bozorni bozorni tartibga solish ba'zi hollarda murakkab bo'lishi mumkin.

Valyuta zaxiralari Markaziy bank tomonidan saqlanadigan chet el valyutasi hamda chet el qiymatidagi qimmatli qog'ozlar va depozitlardan (hamda oltindan) iborat bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar yoki valyuta zaxiralari deb tasniflanmagan qimmatli qog'ozlarni xalqaro sotish va sotib olish portfel investitsiyalari deb ataladi. Moliyaviy hisob shuningdek, boshqa sarmoyalar deb nomlangan toifani o'z ichiga oladi, ular asosan bank kreditini tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyatda barcha operatsiyalarni moliyalashtirish kerakligi sababli, har qanday operatsion hisob balansining o'zgarishi qolgan boshqa hisoblar tomonidan qoplanishi kerak. Biroq, odatda barcha narsalar yaxshi o'lchanmagan va odatda xatolar va kamchiliklar deb nomlangan sezilarli statistik farqlarga ega bo'ladi. 5.3.1-jadvalda AQSH, yevro hududi va Xitoyning 2018 yildagi to'lov

balansi sarhisob qilingan. Ko'rsatkichlar jami YaIM ga nisbatan foizlarda aks ettirilgan.

Ko'rishimiz mumkinki, AQSH da joriy hisob va moliyaviy hisobda manfiy ko'rsatkichni tashkil qildi. Ushbu defitsit AQSH aksiyalari va obligatsiyalarini chet eldan sotib olish (kapitalning sof oqimi) hisobidan moliyalashtirildi. Yevro hududida va Xitoyda, aksincha, joriy hisobvaraqa profitsitga ega bo'lib, kapitalning sof chiqishi bilan qoplandi.

5.3.1-jadval

AQSH, Yevro hudud va Xitoy iqtisodiyotlarining to'lov balansi tahlili.

Jami YaIMga nisbatan foizlarda

	AQSH	Yevro hudud	Xitoy
Joriy hisob (current account)	-2.4	3.4	1.7
Kapital hisobi (capital account)	0.0	-0.1	0.0
Moliyaviy hisob (sof kapital oqimi)	-2.0	3.6	0.2
Xatolar va kamchiliklar	0.4	0.3	-1.5
(1) + (2) – (3) + (4)	0.0	0.0	0.0

Manba: ECB, BEA, SAFE, OECD tashkilotlari ma'lumotlari

Agar mamlakatning xorijiy aktivlari ya'ni chet elda ishlab topadigan mablag'lari ko'proq qiymatni tashkil qilsa, mamlakat odatda buni chet elda tovarlar va xizmatlar uchun sarflaydi. Natijada norezidentlardan qarz olishga yoki ularga moliyaviy aktivlarni sotishni amalga oshiradi. Bunday sharoitda tashqi balans joriy hisobvaraqdagi defitsitni kapitalning ekvivalent sof importi bilan, ya'ni moliyaviy hisobvaraqqning bir xil kattalikdagi taqchilligi bilan to'ldirilishini talab qiladi. O'zgaruvchan stavka rejimida bunga valyuta kursini to'g'rilash orqali erishiladi, bu ham joriy, ham moliyaviy hisobga ta'sir qiladi hamda ularni bir-biri bilan muvozanatga keltiradi. Masalan, norezidentlarning ichki ehtiyojlari aktivlar orqali qoplashga yetarli emas deb topilsa, bunda mamlakatning milliy valyutasining xorijiy valyutaga nisbatan kursi pasayadi.

Odatda, nazariy jihatdan belgilangan valyuta kursi rejimida valyuta kursi pasayishi mumkin emas deb hisoblaniladi. Yuqoridagi holatda esa, Markaziy bank

bozorni tozalashga kirishishi kerak bo'ladi. Bu jarayon amalda, bankning valyuta zaxiralaridan aktivlarni sotishi lozim bo'ladi. Tahlil qilinadigan jarayonda nosimmetrik ravishda, sof kapital oqimi mexanik ravishda joriy hisobot tanqisligini o'z ichiga oladi. Demak, markaziy bank intervensiyalari (bozorga aralashuvi) va ichki pul-kredit siyosati bir-biriga chambarchas bog'liq ekanligini bilish mumkin.

Markaziy bank valyuta zaxiralarini sotganda, ichki pul muomalasini kamaytiradi, chunki ayirboshlash uchun to'plangan naqd pul muomaladan olinadi. Aksincha, tashqi zaxiralarning ko'payishi pul massasini kengaytiradi. Bu o'z navbatida ichki foiz stavkasiga ta'sir qiladi. Chet el zaxiralari harakatining pul massasiga ta'sirini bartaraf etish maqsadida Markaziy bank ochiq bozorda g'aznachilik veksellarini sotib olish orqali valyuta aralashuvlarini sterilizatsiya qilishni yoki shu maqsadda qisqa muddatli qog'ozlarni (sterilizatsiya zayomlarini) chiqarishni tanlashi mumkin. Valyuta ittifoqi doirasida qat'iy valyuta kursini valyuta intervensiyalari orqali himoya qilish uchun alohida tadbirlar talab qilinmaydi.

Xorijiy aktivlarning sof pozitsiyasi

Mamlakat joriy hisob-kitoblar defitsitini to'plaganida, u bir yildan keyingi yilga ishlab topganidan ko'proq mablag' sarflaydi va shuning uchun butun dunyoga nisbatan majburiyatlarni ko'paytiradi. Amalda bu shuni anglatadiki, chet elliklar mamlakatdagi xususiy va davlat qimmatli qog'ozlarining tobora ortib borayotgan miqdoriga ega: Ular mahalliy kompaniyalardagi ulushlarini ko'paytiradilar yoki ular mahalliy agentlarga ko'proq kredit berishadi.

Oldingi misol shuni ko'rsatadiki, AQSH tovarlari narxlarining raqobatbardoshligi 2010-2018 yillarda Yaponiyaga nisbatan yomonlashgan yoki shunga teng ravishda AQSH mahsulotlarining xarid qobiliyati Yaponiyadan import qilinadigan tovarlarga nisbatan oshgan. Biroq, Qo'shma Shtatlarning ko'plab boshqa savdo sheriklari borligi masalasni murakkablashtiradi. Masalan, o'sha davrda AQSH dollari Xitoy valyutasiga nisbatan nominal va real qiymatida qadrsizlanganligini kuzatish mumkin. Raqobatbardoshlik va sotib olish qobiliyatining keng ko'lamini olish uchun real kursni chet ellik sheriklar valyutalarining o'rtacha og'irligi bilan hisoblash kerak bo'ladi.

Qachonki bir mamlakatning joriy hisob kamomadini hisoblansa, u bir yildan keyin daromadidan ko‘proq mablag‘ sarflashini inobatga olish lozim bo‘ladi va shuning uchun xorijiy qarz beruvchilar va hamkorlar oldidagi majburiyatlarini oshiradi. Amalda, bu shuni anglatadiki, chet elliklar mamlakatning qimmatli qog‘ozlarini, xususiylarini, xususiylarini va davlatning ko‘payib borayotgan miqdoriga ega bo‘lishadi. Ular mahalliy kompaniyalardagi o‘z ulushlarini ko‘paytiradilar yoki ular mahalliy agentlarga ko‘proq kredit berishadi. Agar mamlakat tashqi aktivlarga qaraganda ko‘proq tashqi majburiyatlarga ega bo‘lsa, u salbiy xorijiy aktivlarning salbiy pozitsiyasiga ega deb hisoblaniladi. Buni tahlil qilishda sof xorijiy aktivlarning ulushini aniqlash va hisoblash orqali amalga oshiriladi.

T davrdagi Sof Xorijiy Aktivlar (SXA) – Net Foreign Asset (NFA), ya’ni NFA_t jami aktivlar A va jami majburiyatlar L orasidagi farq hisoblanadi, milliy valyutada uning ko‘rinishini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$NFA_t = A_t - L_t$$

t yilning oxirida masalan $t+1$ davr uchun, NFA mazkur uchta omilga bog‘liq bo‘ladi:

- 1) Narx o‘zgarishlari va qabul qilinadigan foiz stavkasi asosidagi A_t ning o‘shishiga;
- 2) Narx o‘zgarishlari va to‘lanadigan foiz stavkasi asosidagi L_t ning o‘shishiga;
- 3) $t+1$ yil uchun savdo balansi ko‘rsatkichi ya’ni TB_{t+1} .

Bu yerda biz jami aktivlar xorijiy valyutaga nisbatan denominatsiya qilingan deb hisoblaymiz, hamda barcha majburiyatlar esa milliy valyutaga nisbatan denominatsiya qilingan deb hisoblaymiz. Biz mahalliy aktivlarning milliy valyutadagi narxlarining o‘zgarishini inobatga olmaymiz. t yil oxiridagi nominal ayirboshlash kursini S_t deb belgilaymiz (bunda milliy valyutadagi qiymat birligini xorijiy valyutada ham bir xil birlik deb olamiz). t davrning oxiridagi A_t ning xorijiy valyutadagi qiymati quyidagiga teng bo‘ladi: $A_t \times S_t$. Aktivlar uchun nominal foiz stavkasini esa i_A deb belgilaymiz. $t+1$ davrning oxiridagi A_t ning xorijiy valyutadagi qiymatini esa $(1+i_A)A_t \times S_t$ hamda uning milliy valyutadagi qiymatini $(1+i_A)A_t \times S_t / S_{t+1}$. Majburiyatlarning qiymati milliy valyutada denominatsiya qilinganligini aytib o‘tdik, demak $t+1$ davrning so‘nggidagi L_t majburiyatlarning qiymati $(1+i_l) L_t$ ga teng bo‘ladi, bu yerda i_l majburiyatlar uchun bo‘ladigan foiz


stavkasi hisoblanadi.

Umumiy qilib, $t+1$ davrning oxiridagi NFA (Sof Xorijiy Aktivlar) quyidagiga teng bo'ladi:

$$NFA_{t+1} = (1+i_A) A_t \times S_t / S_{t+1} - (1+i_l) L_t + TB_{t+1}$$

Savdo qoldig'ining yig'indisi oshishi bilan NFA ham oshadi. Shuningdek NFA, aktivlarga qo'yiladigan foiz stavkasi majburiyatlardan oshadigan bo'lsa ham ko'payadi. Nihoyat, tahlillarimizning so'nggidagi asosiy xulosalardan biri shundan iboratki, milliy valyutaning qadrsizlanishi xorijiy valyutaga nisbatan qaytadan qiymatga ega bo'ladi ($S_{t+1} < S_t$), chunki u xorijiy aktivlarga nisbatan denominatsiya qilingan edi.

Xalqaro kapital harakatchanligi nazariy jihatdan uchta asosiy muhim xususiyatga ega hisoblanadi. Birinchidan, kapital import qiluvchi mamlakatlar uchun investitsiya xarajatlarini kamaytiradi, shu bilan birga kapital eksport qiluvchi mamlakatlar uchun jamg'armalarning rentabelligini oshiradi. Ikkinchidan, bu mamlakatga vaqt o'tishi bilan iste'mol darajasini yumshatishga yordam beradi. Uchinchidan, bu portfelni diversifikatsiyalashga imkon beradi, chunki aktivlar miqdori odatda katta miqdorni tashkil qiladi. Bu, qoida tariqasida, saqlovchilarning ma'lum daromad olish xavfini kamaytiradi. Masalan, ichki narxlarning ijobiy zarbasi ko'pincha milliy valyutaning qadrsizlanishi bilan birga keladi. Xorijiy aktivlarning haqiqiy qiymati (mahalliy tovarlar bo'yicha) o'zgarmaydi, ichki aktivlar esa pasayadi. Bu turli xil afzalliklarga ega bo'lib, lekin kapitalning beqarorligi bilan bog'liq ba'zi murakkabliklar va risklar doim saqlanib qolishini inobatga olishni taqozo etadi.



5.3.1-rasm. Sof xorijiy aktivlar pozitsiyasining AQSH, Yaponiya va Yevro hududi uchun ko'rsatkichlari. YaIMga nisbatan foizdagi qiymati

Rasmdagi ma'lumotlarga ko'ra, sof xorijiy aktivlarning o'zgarishi bo'yicha AQSH ijobiy ko'rsatkichni qayt etganini hamda 1995-2000 yillardan Yaponiya va Yevro hududi uchun pasayish yuz berganini kuzatish mumkin.

5.4. Valyuta inqirozi modellari. Kapital harakatini boshqarish


Valyuta inqirozi tushunchasi (Currency crisis) jahon iqtisodiyotida yuz bergan va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan global moliyaviy va iqtisodiy sabablarga asoslangan inqirozlar va bu inqirozlarni boshqarish jarayonlari uchun lozim bo'ladigan nazariy ahamiyatga egadir. Valyuta inqirozini o'rganish va uni tahlil qilish, bir qancha olimlar tomonidan shakllantirilgan valyuta inqirozi modellari bilan amalga oshrilishi mumkin. Bevosita bu jarayonlar kapital harakatini boshqarish bilan bog'liq ekanligini inobatga olish lozim.

Valyuta inqirozining mohiyatini tushunishda bir qancha ilmiy yondashuvlar hamda ilmiy nazariyalarning mazmunini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Ushbu nazariyalardan biri bu Optimal Valyuta Hududi nazariyasi hisoblanadi (OCA

– Optimum Currency Area). Mazkur nazariyasi 1961 yilda Robert Mundell tomonidan kiritilgan va Ronald McKinnon (1963) va Piter Kenen (1969) tomonidan rivojlantirilgan. Bu nazariya valyuta kursini belgilash xarajatlari pul mustaqilligini yo‘qotishdan kelib chiqadi (oldingi bo‘limda muhokama qilingani kabi), foyda esa valyuta kursining o‘zgaruvchanligidan kelib chiqadi. (valyuta ittifoqi yoki dollarlashtirish holatida) valyuta operatsiyalari bo‘yicha xarajatlarni bartaraf etish imkoni paydo bo‘ladi.

Mundell ilgari surgan mushohadalarning ahamiyati shundaki, u pul geografiyasini to‘liq qayta ko‘rib chiqishga olib keladigan mintaqalarga ham, mamlakatlarga ham tegishli jihatlarni ochib bergan. Mundell o‘zining 1961 yilgi maqolasida, AQSH-Kanada chegarasidagi mintaqaviy iqtisodiyotning o‘xshashligi tufayli, valyuta ittifoqi mantiqiyroq bo‘lishi mumkin, degan taklifni ilgari suradi.

O‘sha paytda, ko‘pchilik valyutalar Bretton-Vuds kelishuvi bo‘yicha belgilangan kurslarga ega edi, lekin Kanada dollari nisbatan o‘zgaruvchan valyuta hisoblanar edi. O‘zgaruvchan valyuta kurslarining tarafdorlari va muxoliflari o‘rtasida munozara ko‘paygan va qiziqarli nazariyalar paydo bo‘la boshlagan. Kanadalik iqtisodchi Mundell, eski paradigmalarni chetga surib, valyuta inqirozi yoki valyuta samaradorligi masalalarini faqat alohida-alohida hal qilish mumkin, deb taklif qildi. U moliyaviy integratsiyaning ahamiyati haqida fikr yuritib, pul ittifoqlarining ahamiyati haqida izlanishlar olib bordi.



5.4.1-rasm. Monetar ittifoqining xarajatlari va daromadlari tahlili

Umuman olganda, mamlakatlar o'rtasida ko'proq integratsiyalashuv ularning zanjirlar yoki chegaralararo kapital ta'sirlari orqali nosimmetrik inqirozlarga ta'sirini oshiradi. Biroq, ko'proq integratsiya (shu jumladan, moliyaviy integratsiyasi) mamlakatlarning ixtisoslashuvini kuchaytirishi mumkin, bu esa ko'proq assimetrik ta'sirlarga olib keladi. Valyuta kursini belgilash maqsadga muvofiq bo'lmagan integratsiyaning chegaraviy darajasi "daromad" va "xarajatlar" o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka mos keladi deb xulosa qilinadi. Narxlarning moslashuvchanligi, ishchi kuchining harakatchanligi yoki inqirozga uchragan mamlakat to'laydigan soliqlar miqdorini avtomatik ravishda pasaytirish orqali daromadlarni barqaror ushlab turadigan mamlakat byudjetining mavjudligi kabi omilga e'tibor berish lozim. Xususan, yanada moslashuvchan narxlar va ish haqi valyuta kursining sozlash vositasi sifatida foydaliligini pasaytiradi. Bunda "xarajatlar" qismi pastga siljiydi va integratsiyaning o'rtacha darajasidan past bo'ladi. Narxlar va ish haqi juda moslashuvchan bo'lgan iqtisodiyotda valyuta kursining ahamiyati muhim hisblanmaydi. Qizig'i shundaki, kichikroq davlatlar katta mamlakatlarga qaraganda ko'proq ixtisoslashgan bo'ladilar (shuning uchun "xarajat" qismi yuqori), lekin ular pul birligi bo'lgan taqdirda tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishdan ham ko'proq foyda ko'rishadi ("daromad" qismi ham yuqori). Katta davlatlar bilan taqqoslaganda, bu ularga moliyaviy integratsiyadan foyda keltirishini tushunish mumkin.

Valyuta ayirboshlashning turli rejimlarining mohiyatini yoritish uchun quyidagi nazriyani o'rganib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

S_{ij} ni i valyuta va j valyuta o'rtasidagi nominal ayirboshlash kursi deb hisoblaymiz, mos ravishda bu ko'rsatkichlar i valyutaning narxini va j valyutaning narxini belgilaydi. (agar i valyuta j valyutaga nisbatan qadri oshsa S_{ij} ning qiymati ham oshadi). P_i bu i mamlakatdagi narx indeksi, P_j esa j mamlakatdagi narx indeksini bildiradi. Bundan kelib chiqib, kki tomonlama real valyuta ayirboshlash kursi quyidagiga teng bo'ladi:

$$Q_{ij} = S_{ij} \frac{P_i}{P_j} \quad (5.1)$$

Q_{ij} ning o'sishi valyutaning qadri oshishining real qiymatini ko'rsatadi va i

mamlakatga nisbatan j mamlakatdagi nisbiy narxlarning o‘shida aks etadi. Bunga aksincha ravishda, j mamlakat i mamlakatga nisbatan valyuta qadrsizlanishiga uchraydi.

Endi esa α_{ij} ni, j mamlakatning i mamlakatdagi tashqi savdo ulushi deb hisoblaymiz, hamda $\sum_j \alpha_{ij} = 1$ ga teng deb olamiz. Bundan biz i mamlakatning nominal samarali ayirboshlash kursini aniqlashimiz mumkin, buning uchun bu ko‘rsatkichni savdo hamkorlarining ikki tomonlama valyuta ayirboshlash kursining o‘rtachasi deb olamiz:

$$S_i = P_j S_{ij}^{\alpha_{ij}} \quad (5.2)$$

Xuddi shu kabi, i mamlakatning real samarali valyuta ayirboshlash kursi quyidagiga teng bo‘ladi:


$$Q_i = P_j Q_{ij}^{\alpha_{ij}} \quad (5.3)$$

Uzoq muddatda, milliy valyuta bozor kursi bo‘yicha bir xil valyutaga aylantirilganda, savdo qilinadigan tovarlarning narxi iqtisodiy jihatdan integratsiyalashgan mamlakatlarda turlicha bo‘lishi lozim degan eski nazariya bugun asosga ega emas. Darhaqiqat, agar tovarlar sotilishi mumkin bo‘lsa, uning narxi butun mamlakatlar bo‘yicha bir narx qonuniga ko‘ra tenglashtirilishi kerak. Agar ba’zi narx farqlari saqlanib qolsa, bu transport xarajatlari, tariflar va boshqa savdo to‘siqlari, yoki nomukammal axborot yoki monopolistik hokimiyat kabi bozor kamchiliklari tufayli bo‘lishi mumkin. Biroq, agar narx farqlari tizimli bo‘lsa, ular barqaror bo‘lib qolishi yoki asta-sekin rivojlanishini ko‘rsa bo‘ladi. Agar amaliyotda bu narsaga erishilmasa ham, real valyuta kursi Devid Xyum ilgari aniqlagan makroiqtisodiy sozlash mexanizmiga asoslanib, umumiy darajadagi barqaror darajaga qaytishi kerak.

XXI asr to‘lovlar balansining o‘zini o‘zi barqarorlashtiradigan o‘ziga xos narx mexanizmi sifatida vujudga kelgan. Xyumning so‘zlariga ko‘ra, narx raqobatbardoshligi oshgan mamlakat odatda joriy hisobini yaxshilaydi. Ruxsat

etilgan nominal kurs rejimida u valyuta (yoki oltin) zaxiralarini to'planishiga xizmat qiladi. Agar agar sun'iy aralashuv ta'sir qilinmasa, zaxira to'planishi pul taklifini va bu orqali narxlarning umumiy darajasini oshiradi. Natijada, haqiqiy valyuta kursi boshlang'ich darajasiga qaytguncha ko'tariladi(o'zgaradi). Narxlarning o'ziga xos mexanizmi oltin standartning ishlashini belgilab berdi va narxlarning nisbiy o'zgarishini makroiqtisodiy sozlash mexanizmi sifatida tan olishga olib keldi. Bu nazariyani rivojlantirgan iqtisodchi olim Kassel edi, uning tadqiqotlari muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'ldi. Umumiy qilib aytganda, hisob balansining qoldig'i joriy hisob balansiga kelgunga qadar asta-sekin nominal va real kursning ko'tarilishiga olib kelishi kerak.

Ikki mamlakatda narxlar darajasini tenglashtirish xaridorning mutlaq xarid qobiliyati pariteti deb ataladi (*absolute purchasing power parity*), narx farqlarining barqarorligi esa nisbiy sotib olish qobiliyati pariteti bilan belgilanadi. Valyuta kursining sotib olish qobiliyati pariteti darajasi - bu ikki mamlakatda narxlarni tenglashtirish darajasi degan ma'noni beradi. Past inflyatsiya bilan nisbiy narx darajasi vaqt o'tishi bilan barqaror siljiydi, shuning uchun PPP (*Purchasing Power Parity*) kursi (ya'ni, bir marta ifodalangan narxlarni tenglashtirishga imkon beradigan nominal kurs) muammosiz harakat qiladi va kuzatilgan valyuta kursi uchun benchmarkni taklif qiladi. Agar u PPP darajasidan kuchliroq bo'lsa va qarama-qarshi holatda kam baholangan bo'lsa, u PPP bo'yicha ortiqcha baholanishini bildiradi.



5.4.2-rasm. Balassa – Samuelson effekti (2018 yil uchun AQShning YaIM aholi jon boshiga nisbatan va real ayirboshlash kursi)

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda savdo qilinmaydigan tovarlar narxi yuqori bo‘ladi. Eng rivojlangan mamlakatlarda bu farqlar cheklangan bo‘ladi va XQQ (Xarid qilish qobiliyati) uzoq muddatli istiqbolda saqlanib qoladi. Biroq, savdo qilinmaydigan tovar sektorlaridagi narx farqlari rivojlanish darajasi har xil bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasida juda katta farq qiladi, bu esa XQQni tahlil qilishni biroz murakkablashtiradi. Bu esa Balassa-Samuelson effektining mohiyatini ochib beradi.

Shu paytgacha biz valyuta rejimini o‘zgartirish masalasini chetga surib, valyuta kursining barqaror rejimini tanlashga e’tibor qaratdik. Lekin biz ko‘rdikki, ma’lum bir vaqtda mamlakat uchun mos bo‘lgan ko‘rsatkichlar abadiy barqaror qolmaydi. Hukumatlar valyuta kurslari rejimini o‘zgartirishi mumkin yoki hech bo‘lmaganda valyuta kursini to‘g‘rilanishi lozim bo‘ladi.

Iqtisodchilar tez -tez valyuta inqirozlari uchun murakkab tushuntirishlar orqali tahlil qilib, keyingi inqirozni bashorat qila olish imkoniyati cheklangan. Buning sababi shundaki, inqirozlarning tabiati vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turadi, bu 1990 yillardagi xalqaro moliyaviy integratsiya va valyuta siyosatining xalqaro kapital

oqimining liberallashuvi va keyinchalik yalpi moliyaviy oqimlarning rivojlanishi va ba'zi risklarni paydo qilganligi bilan izohlanadi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Moliyaviy barqarorlik – resurslarni qayta taqsimlashni va moliyaviy tavakkalchilikni boshqarishni ta'minlagan holdagi moliyaviy tizimning o'z funksiyalarini samarali bajaradigan, moliya bozorida (uning segmentlarida) haddan tashqari o'zgaruvchanlik bo'lmagan, hisob–kitoblarning uzluksizligi ta'minlangan va shuningdek salbiy shoklar ta'sirini bartaraf eta oladigan va stress holatidan qayta tiklana oladigan, shuningdek, moliya tizimining favqulotda holatlarda faoliyat ko'rsata oladigan moliya tizimining holatidir.

Moliyaviy savodxonlik – to'g'ri moliyaviy qarorlarni qabul qilish, shuningdek shaxsiy moliyaviy barqarorlikka erishish uchun zarur bo'lgan moliyaviy bilim, ko'nikma, munosabat va hatti-harakatlarning jamlanmasi.

Milliy valyutadagi pul massasi - o'z ichiga pul massasi (M1) hamda milliy valyutadagi boshqa depozitlarni oladi.

Valyuta - turli xil davlatlarning pul birligining umumiy nomi. Valyuta u yoki bu mamlakat ichki hududida qabul qilingan milliy valyuta, boshqa mamlakat tomonidan chiqarilgan xorijiy valyuta va bir necha mamlakatlar tomonidan qabul qilingan kollektiv valyuta (masalan, yevro) bo'lishi mumkin.

Valyuta bozori - valyuta oldi-sotdi operatsiyalari jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar. Valyuta bozori operatsiyalari faqat bu bilan cheklanmay, turli xil moliyaviy vositalardan foydalangan holda, valyuta narxini kelishuv paytida belgilab, kelajakda valyuta yetkazib berishni nazarda tutish kabi murakkab operatsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Valyuta kursi - bir mamlakat valyutasining boshqa bir valyutaga ayirboshlash mumkin bo'lgan qiymati. Masalan chet el valyutasining O'zbekiston Respublikasi valyutasiga nisbatan qiymati.

Valyuta operatsiyalari - valyuta qimmatliklariga bo'lgan mulk huquqining va boshqa huquqlarning o'tishi bilan bog'liq operatsiyalar, valyuta qimmatliklaridan

to'lov vositasi sifatida foydalanish, valyuta qimmatliklarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish, jo'natish va o'tkazish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish, jo'natish va o'tkazish, rezidentlar va norezidentlar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi valyutasidagi operatsiyalar kiradi.

Valyuta siyosati - Markaziy bankning iqtisodiy o'sishni ta'minlash, to'lov balansini boshqarish, ishsizlikni kamaytirish va inflyatsiyaning milliy valyutaga, valyuta kursiga, valyuta operatsiyalariga ta'sirini pasaytirish maqsadida olib boradigan chora-tadbirlari.

Valyuta zahiralar - hukumatning to'lovlilik qobiliyatini belgilovchi konvertatsiya qilinadigan valyutadagi hukumat zahiralar va fondlari.

To'lov balansi - ma'lum vaqt davomida rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi barcha iqtisodiy bitimlarni aks ettiruvchi statistik hisobot.

Valyuta arbitraji - valyuta bozorlarida valyuta narxlari orasida sodir bo'ladigan farq hisoblanadi. Bir bozorda boshqa bozorga nisbatan muayyan bir valyutaning boshqa bozordagi narxining farq qilish. Bu esa valyutaning tezkor savdosidan foyda qilish imkonini beradi.

Opsion - moliyaviy derivativ bo'lib, ikki tomon o'rtasidagi shartnomani anglatadi. Bu shartnoma qimmatli qog'ozlar savdosi, mulk yoki valyuta ayirboshlash bo'yicha bo'lishi mumkin. Risklarni kamaytirish maqsadida foydalaniladi.

Iqtisodiy bashoratlash - muayyan metodlar orqali kelajak uchun jarayonlarning o'zgarishi bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish va xulosalar ishlab chiqish uslubi.

Monetar Ittifoq - mamlakatlarning moliyaviy integratsiyasining keng tarqalgan ko'rinishi bo'lib, odatda, yagona valyuta tizimi yoki yagona moliyaviy boshqaruv tizimi asosida birlashishi hisoblanadi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Xalqaro integratsiya tushunchasi va xalqaro moliyaviy integratsiya tushunchalarini sharhlang, ularning mohiyatini ochib bering.

2. Moliyaviy integratsiyaning turlari, usullari va amaliy shakllanish jarayonlarini tushuntiring.
3. Xalqaro valyuta munosabatlarining amal qilish jarayonlari va ahamiyati nimalardan iborat?
4. Moliyaviy ochiqlik siyosati deganda qanday nazariyalar tushuniladi?
5. Moliyaviy ochiqlik va moliyaviy integratsiya jarayonlarining rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribalaridagi ahamiyatini tushuntiring.
6. Valyuta tizimlarining mazmun-mohiyati, asosiy vazifalari va shakllanish jarayonlari qanday?
7. Xarid qilish qobiliyati va valyuta ayirboshlash kursi bilan bog'liq moliyaviy munosabatlar nimalardan iborat?
8. Valyuta ayirboshlash kursi rejimlari va valyuta kursi harakatlanishi usullari qanday ko'rinishlarga ega?
9. Valyuta inqirozi jarayoni, kelib chiqish sabablari va valyuta inqirozini boshqarish nazariyalarini tushuntiring.
10. Valyuta kursi rejimlari, kurs rejimini o'rnatish, to'lov balansining ta'siri, valyuta intervensiyasi sabablari hamda sof xorijiy aktivlar nazariyasi mohiyatini yoritib.

VAZIYATLI TOPSHIRIQ - KEYS

Moliyaviy integratsiya va iqtisodiy o'sish

Yevropa moliyaviy integratsiyasi

The screenshot shows the ECB website with the title 'Moliyaviy integratsiya'. The header includes the ECB logo and navigation links: Haqida, OAV, Tushuntiruvchilar, Tadqiqot Va Nashrlar, Statistika, Pul-Kredit Siyosati, Evro, To'lovlar Va Bozorlar, Karyera. The main text discusses the level of monetary integration in the Euro area, mentioning that a high level of integration is achieved through a system of exchange rate mechanisms, which is a characteristic of a single currency area. It also mentions that the ECB's monetary policy supports the integration of the Euro area.

Bir necha o'n yillar oldin boshlangan Yevropadagi moliyaviy integratsiya hali ham davom etayotgan jarayon bo'lib, uning yutuqlari va ba'zi kamchiliklari moliyaviy birlashish va hamkorlik jarayonlarini tahlil qilishda muhim amaliy misol hisoblanadi.

1957 yilda imzolangan va Yevropa hamjamiyatini tashkil etuvchi Rim shartnomasi moliyaviy xizmatlar uchun yagona Yevropa bozorini yaratishning asosiy tamoyillarini o'z ichiga olgan edi. 1985 yilda "Yagona bozor" dasturi minimal uyg'unlikka asoslangan umumiy strategiyani, "yagona pasport"ni, shuningdek moliyaviy tizimni birlashtirish masalalarini o'zaro tan olishni ta'minladi. Standartlarni to'liq uyg'unlashtirishga intilish o'rniga, Yevropa hamjamiyati darajasidagi minimal uyg'unlik asosiy maqsadga aylandi. Yagona pasport va o'zaro e'tirofga ko'ra, bitta mamlakatda litsenziyasini olgan moliyaviy firma Yevropa Ittifoqining boshqa a'zolarida bemalol ishlay oladi va faqat litsenziyani bergan davlat organi nazorati ostida bo'lishi kerakligi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. 1999 yildan boshlab, moliyaviy integratsiya yevro va moliyaviy xizmatlar bo'yicha harakat rejasi (FSAP – Financial Service Action Plan) joriy etilishi bilan bu integratsiya yangicha tusga ega bo'ldi.

Umumiy valyutaning qabul qilinishi moliyaviy integratsiyaga katta qadamlardan biri bo'ldi deyish mumkin. Bu nafaqat Yevropa Ittifoqidagi valyuta xavfini sezilarli darajada kamaytirdi, balki qarz oluvchilar va investorlarga qarz olish va investitsiya imkoniyatlaridan foydalanishni osonlashtirdi. Integratsiyaning ikkinchi muhim rag'batlantiruvchisi Yevropa hukumati tomonidan boshlangan moliyaviy xizmatlar bo'yicha harakat rejasi bo'ldi. Uning maqsadi 2005 yilga kelib butun Yevropa Ittifoqi bo'ylab moliyaviy xizmatlar bozorida erkinliklarni samarali amalga oshirishga imkon beradigan qonuniy asosni to'ldirish edi.

Bu ikki tashabbusning ta'siri bozor segmentiga qarab juda katta farq qiladi. Yevro va Moliyaviy Xizmat ko'rsatish harakatlari rejasi (FSAP - Financial Service Action Plan) ulgurji bank xizmatlari, xususan, yevro hududidagi pul bozorlari uchun kuchli katalizator bo'lib xizmat qildi. Bundan farqli o'laroq, chakana bank sektori unchalik yaxlit emasligini inobatga olsak, qisman mijozga yaqinlik masalasi

haligacha hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chakana to'lovlar, investitsiya va sug'urta xizmatlari yuqori darajada bo'linmagan shaklda ekanligi ba'zi masalalarni yechilmay qolishiga sabab bo'lmoqda.

Yaqinda Yevropa hukumati bozor ishtirokchilari va boshqa moliyaviy hamkorlikdan manfaatdor tomonlar bilan hozirda 25 dan ortiq mamlakatni o'z ichiga olgan Yevropa Ittifoqi bo'ylab moliyaviy xizmatlarni integratsiyalashtirish siyosati to'g'risida yangi munozarani boshladi.

Yuqoridagi hodisalar va jarayonlarni o'rganish asosida quyidagi bir qancha ilmiy savollar va mushohadalar yuzaga chiqadi. Ushbu savollarga javob berish asnosida, Yevropa moliyaviy integratsiyasi jarayonlarini chuqur tahlil qilish va bugungi kungacha bo'lgan tizimli islohotlarni o'rganish talab etiladi.

1. Yevropa Ittifoqining yagona moliyaviy tizimga integratsiya qilishi jarayonlari qanday boshlanga edi, bundagi asosiy sabablar va muhim omillar nimalardan iborat bo'ldi?

2. Moliyaviy intergatsiyaning asosiy instrumentlari va maqsad hamda vazifalari, uning real jarayonlarda aks etishida qanday ahamiyat ega bo'ldi?

3. Moliyaviy ochiqlik, yagona valyuta kursi rejimi, yevroga o'tish, rivojlangan va nisbatan past rivojlangan Yevropa mamlakatlarining integratsiyasidagi farqlar qanday ko'rinishga ega bo'ldi?

4. Bugungi keng bahs va munozaralarda, Yevropa moliyaviy integratsiyasining asosiy kamchiliklari va kelajakdagi ahamiyati qanday baholanmoqda?

VI BOB. BYUDJET SIYOSATI VA UNING SAMARADORLIGI MASALASI

Ushbu bobda o'rganiladigan mavzularning qisqacha tasnifi quyidagilardan iborat:

- Davlat byudjetining mohiyati, uning tarkibiy qismlari: byudjet daromadlari va xarajatlari;
- Byudjet (fiskal) siyosatning nazariy asoslari, asosiy maqsadlari va vazifalari;
- Byudjet siyosatining shakllanishi, fiskal siyosat bo'yicha yangi qarashlar va yondashuvlar;
- Byudjet siyosati samaradorligi, fiskal qoidalar va fiskal institutlar;
- Fiskal siyosat va monetar siyosatning o'zaro bog'liqligi, samaradorlik masalalaridagi bahs-munozaralar va ularning natijalari;
- Fiskal kengayish va uning asosiy sabablari hamda natijalari;
- Keynsning fiskal siyosatni tashkil qilish va tadbqiq etishdagi nazariy va ilmiy yondashuvlari;
- Davlat xarajatlari va tashqi qarz samaradorligi masalasi, byudjet kamomadi va prognozi.

6.1. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari tarkibi

Davlat byudjeti u davlatning o'z funksiyalarini bajarishi, barqaror iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muvozanatni ta'minlash hamda barcha sohalarni tartibga solish uchun soliqlar va turli majburiy yig'imlar hisobidan shakllantiriladigan va sarflanadigan mablag'lar hisoblanadi. Davlat byudjeti ikkita muhim tarkibiy qismdan tashkil topadi:

- 1) byudjet daromadlari (manbalari);
- 2) byudjet xarajatlari yoki sarflari.

Byudjet daromadlarini shakllantiruvchi manbalar sifatida birinchi guruh mamlakatda faoliyat yurituvchi biznes subyektlari, bular mahalliy va xorijiy barcha tadbirkorlar hisoblanishadi. Hukumatlar tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashining

asosiy maqsadlaridan biri ham aynan soliq to'lovchilar sonini oshirish hisoblanadi. Ikkinchi guruh sifatida mamlakatda mehnatga yaroqli, ish bilan ta'minlangan aholi qismi tashkil qiladi. Yangi ish o'rinlarining tashkil qilinishi bevosita tadbiroklarning ko'payishi yoki bizneslarning investitsiya hisobiga kengayishi bilan bog'liqdir. Ish o'rinlari ko'payishi esa, hukumat uchun yangi soliq to'lovchilar oshishiga olib keladi. Demak, davlat byudjetining hajmi mamlakat iqtisodiy qudrati va rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Byudjetning hajmi esa, siyosiy iqtisodda ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga bo'ladigan sarflar, harbiy soha va xavfsizlikni saqlashga bo'ladigan xarajatlarni hajmini belgilaydi. Davlat byudjetini boshqarish, samarali taqsimlash, manbalarini ko'paytirish, optimal sarflarni belgilash kabi muhim siyosiy va iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanuvchi yo'nalish fiskal siyosat deb yuritiladi. Fiskal siyosat tushunchasini rivojlantirgan olim sifatida Jon Meynard Keynsni keltirish lozim. Keyns tomonidan buyuk inqiroz davridagi tahlillarga asoslangan fikrlari, inqiroz kelib chiqishiga iste'mol sarflaridagi va yalpi talabning biznes uchun investitsiyalar tarkibidagi taqchillik tufayli yuz berishini ilgari surgan. Olimning nazariyasi yalpi talabning tarkibiy qismlari iste'mol sarflari, biznes uchun investitsiya sarflari, davlat xarajatlari va sof eksportdan iborat bo'ladi.

Quyidagi jadvalda davlat byudjetining asosiy qismi hisoblangan daromadlar qismining tarkibiy tuzilishini kuzatish mumkin. Unga muvofiq jami daromadlari ikki guruhga asosiy va kapital daromadlariga bo'lish mumkin. Asosiy daromadlar esa yana ikki qismga soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarga bo'linadi.

Davlat byudjeti daromadlarining tarkibiy qismlari

Davlat byudjeti			
Asosiy daromadlar			Kapital daromadlar
Soliq daromadlari		Soliqdan tashqari daromadlar	
To'g'ri soliqlar	Egri soliqlar		
■ Daromad solig'i ■ Korporativ soliqlar ■ Mol-mulk solig'i ■ Xarajatlardan soliqlar ■ Ko'chmas mulkdan to'lovlar	■ Sotuvdan soliqlar; ■ Bojxona yig'implari; ■ Aksiz solig'i ■ Xizmatlar solig'i ■ Ko'ngilochar faoliyatdan soliqlar	■ Olingan foizlar ■ Foyda va dividendlar ■ To'lovlar va jarimalar ■ Tashqi ko'maklar ■ Maxsus baholash uchun yig'implar	■ Berilgan kreditlarning qoplanishi ■ Investitsion tushumlar ■ Tashqi qarzlar ■ Ijtimoiy yordamlar ■ Resurslar eksportidan tushumlar

Fiskal siyosatda oqilona tanlov masalasi hamda qarorlar qabul qilish masalasi siyosiy iqtisodiyot doirasida dolzarb masalalardan hisoblanadi. Qarorlar qabul qilishda olib boriladigan tahlillar va fikrlarni oqlash uchun keltiriladigan sabablar doim bahs munozara markazida bo'lib kelgan. Albatta byudjet bu ulkan mablag' degani va bu mablag'larni oqilona sarflash masalasi mamlakatning butun siyosiy iqtisodiyotini belgilashda, amalga oshirilishda birlamchi ahamiyatga egaligi bilan izohlanadi. Byudjetning to'g'ri pozitsiyasi, moliya sohasidagi aniqlik va tejamkorlik, qarzlarni to'plash va ba'zi mamlakatlarda qarzlarni qayta tuzish to'g'risidagi nizolar siyosiy iqtisodiyot muhokamalarining markaziy mavzularidan hisoblanadi. Siyosatning katta yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizliklari ko'pincha moliyaviy qarorlar bilan bog'liq. Ta'limotlar vaqt o'tishi bilan ham o'zgarib turadi: fiskal siyosat 1970 yillarda siyosatning yakuniy vositasi sifatida qaraldi, faqat 1980

va 1990 yillarda uning ahamiyati kamaydi. 2009 yildagi global tanazzul va an'anaviy pul-kredit siyosati duch kelgan qiyinchiliklar, fiskal siyosatning dolzarbligini oshirdi deyish mumkin.

2010 yillar sezilarli darajada fiskal tahlillarning jonlanishini keltirib chiqardi, ammo Yevropaning bir qator davlatlari tomonidan yuzaga kelgan suveren qarz inqirozlari ham fiskal makon chegaralarini sinash bilan bog'liq xatarlar haqida bong urishni boshlashdi. Yevropada markaziy mavzulardan biri bu valyuta ittifoqini shakllantirishning moliyaviy oqibatlari va keltirib chiqaruvchi o'zgarishlarning ta'srini baholash edi. Bir tomondan, mustaqil pul-kredit siyosatidan mahrum bo'lgan hukumatlar, barqarorlashtirish maqsadida ko'proq fiskal vositaga tayanishga moyil bo'lishadi. Boshqa tomondan, inflyatsiyaga qarshi bo'lgan valyuta ittifoqida qatnashish natijasida qarzni monetizatsiya qilish majburiyatidan xalos bo'lishlari mumkindir. 2010-2012 yillarda Yevropaning suveren inqirozlarida ta'kidlanganidek, valyuta kurslari o'rnatilgandan keyin tashqi qarzlar masalasi qarz ancha xavfli ahamiyat kasb etishni boshladi. Shu sabablarga ko'ra, yevro hududi fiskal siyosat samaradorligini, markazlashtirmaslik va muvofiqlashtirishni taqozo etuvchi tahlillar va izlanishlarga ehtiyojni paydo qildi.

Bundan yarim asr avval fiskal tanlovlar asosan ixtiyoriy xususiyatga ega bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ular fiskal qoidalar, masalan, defitsit chegaralari va mustaqil fiskal kengashlar kabi muassasalar tomonidan tobora shakllanib bormoqda. Hukumatlar va parlamentlar yakuniy qarorni qabul qilish uchun doimiy majburiyatlarni his qilishlari lozimligi ta'kidlanmoqda.

Mavzuni chuqur tushunish va tahlil qilishda fiskal siyosatning amaldagi asoslarini tashkil etuvchi qoidalar va institutlarni taqdim etish va muhokama qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek fiskal siyosatda eski va yangi qarashlarning vujudga kelishi va davriy o'zgarishlarini muhokama qilish bilan mavzuni atroflicha tushuntirish imkoni mavjud bo'ladi.

1980 yillarning oxirlarida juda kam mamlakatlar fiskal qoidalarini joriy qilish va ular bilan shug'ullanishlarini ko'rish mumkin edi. Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) ma'lumotlariga ko'ra faqat Germaniya, Indoneziya, Yaponiya, Malayziya, Singapur

mamlakatlari ushbu mamlakatlar ro'yxatiga kirgan. Masalan, AQSH faqat 2015 yilga kelib keng joriy qilishni boshlagan bo'lsa, xuddi shu yili 93 mamlakatda mazkur qoidalar amal qilayotganligi aniqlandi. Ularning ko'pchiligi byudjet balansini, xarajatlar darajasini, daromadlarni yoki davlat qarzini tartibga soluvchi bir nechta ko'rsatmalardan iborat tizim ishlab chiqishgan edi.

Fiskal qoidalar - bu byudjet agregatlari bo'yicha sonli cheklovlar orqali soliq siyosatiga cheklovlar qo'yadigan qonun doirasida shakllantiriladigan qoidalardir. Ular kamomadni, qarzni yoki davlat xarajatlarini nazorat qilishni, samarali boshqarishni maqsad qilib qo'yadi. Mazkur qoidalar nominal ko'rinishda (masalan, moliyaviy defitsitning mutlaq chegaralari, birlamchi defitsit yoki davlat sektorining tejash-investitsiya balansi kabi), real shaklda (masalan, davlat xarajatlarining real o'sish sur'atlari ko'rsatkichlari), yoki tuzilish nuqtai nazaridan (masalan, davriy ravishda tuzatilganlik ko'rsatkichlari va minimal yillik tuzatishlar kabi) ko'rinish va xususiyatga ega bo'lishadi. Qoidalar, odatda, siyosiy iqtisod jarayonidan kelib chiqadigan va ortiqcha xarajatlarga olib keladigan va moliyaviy javobgarlikdan chetga chiqadigan xatoliklarni tuzatishga qaratilgan.

Elbadavi, Shmidt-Xebel va Soto (2015) ta'kidlashicha, aholi jon boshiga YaIMning yuqoriligi, demokratik institutlar, hukumat idoraviy tuzilmalari, siyosiy barqarorlik kabi muhim omillar fiskal siyosatni samarali qabul qilinishiga yordam beradi. Fiskal tuzilmalarni loyihalash bo'yicha fiskal qoidalarni tahlil qilgan olimlar Kopits va Simanskiy (1998) eng yaxshi fiskal qoidalar uchun sakkizta mezonni aniqlagan:

- aniq keltirilgan ta'rif va tavsiflar;
- ochiq davlat hisoblarining mavjudligi;
- oddiylik va soddalilik tamoyili;
- moslashuvchanlik - xususan yuzaga keladigan ekzogen shakllarga nisbatan moslashuvchanlik darajasi;
- mamlakat siyosiy iqtisodiyotning maqsadlariga mutanosibligi;
- tashqi ta'sirlar, sanksiyalar va cheklovlarga nisbatan ta'sirga egaligi;
- davlat umumiy siyosatining boshqa maqsadlari va qoidalariga muvofiqligi;

- boshqa mamlakatlar siyosatlarini bilan hamkorlik imkoniyatlarining mavjudligi.

Ushbu mezonlar byudjet siyosatining xalqaro jihatdan samaradorligi va siyosiy iqtisodiyot doirasida muvofiqligi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarni tashkil qiladi, hamda ular potensial jihatdan chuqur tahlillarni talab qiladi.

6.1.2-jadval

Davlat byudjeti daromadlarining tarkibiy qismlari

O'zgaruvchilar	Ijobiy ta'sirlari	Salbiy ta'sirlari
Davlat qarzlari ko'effitsiyenti (ko'rsatkichlari)	Barqarorlikka to'g'ridan-to'g'ri ta'siri. Aniqlash va monitoring qilishning qulayligi.	Qarz va kamomad orasidagi munosabat siyosiy iqtisodiyot maqsadlarida murakkablik keltirib chiqaradi.
Moliyaviy balans	Tadbiq etishning aniq ko'rsatmalari mavjudligi. Aniqlash va monitoring qilishning qulayligi.	Hukumatning investitsion maqsadlari qisqarishiga sabab bo'lishi mumkin.
Tizimli balans	Tadbiq etishning aniq ko'rsatmalari mavjudligi.	Noaniqlik tufayli tizimli kamodadni paydo bo'lishi. Aniqlash va monitoring qilishning murakkabligi.
Joriy balans	Barqarorlashtirish imkoniyatining borligi.	Barqaror rivojlanishga bevosita aloqador emasligi.
Boshlang'ich balans	Investitsiya uchun rag'batni oshiradi.	Barqaror rivojlanishga qisman aloqador ekanligi.
Davlat xarajatlari (nominal va real)	Barqaror rivojlanish maqsadlari uchun aniqlash va monitoring qilishning qulayligi.	Barqaror rivojlanishga bevosita aloqador emasligi. Taqsimlash qarorlariga ta'sir o'tkazishi. Hukumat uchun soliq sarflarini davlat xarajatlariga aylantirib qo'yishi mumkin.

Mezonlar orqali fiskal siyosatning tashkil qilinishidan boshlab uning amal

qilishi, samaradorligi masalasi hamda ilmiy va nazariy jihatdan asoslanganligini aniqlash va baholash imkoni mavjud bo‘ladi.

Bundan 20-30 yillar avval, iqtisodchilar o‘rtasidagi byudjet siyosatiga nisbatan mavjud fikr va munosabatlarni quyidagi to‘rtta asosiy tamoyillar orqali umumlashtirib tushuntirish mumkin bo‘ladi:

1. Ixtiyoriy byudjet siyosatida barqarorlikni ta‘minlash vositasi sifatida pul-kredit siyosati ustunlik qiladi, chunki ixtiyoriy fiskal stimulni qo‘llash, ta‘sir qilish va olib tashlashdagi nisbatan nafaol uslublar mavjuddir.

2. Mamlakatdagi siyosatchilar davriy rejalarni to‘g‘ri belgilab olishgan taqdirda ham, ixtiyoriy fiskal rag‘batlantirish deyarli samarasiz (Rikardio maktabi qarashlari) yoki nisbatan biroz samarasiz natijaga olib kelishi mumkin (buni yuqori foiz stavkalari va xususiy investitsiyalarning ko‘payishi bilan izohlash mumkin).

3. Fiskal siyosatdagi barqarorlashtirish masalasi siyosiy iqtisodiyotning muhim va nozik jihati ekanligi doim inobatga olinishi lozim, byudjet-soliq siyosatining eng asosiy ustuvor yo‘nalishi uzoq muddatli soliq balansi bo‘lishi kerak.

4. Siyosatchilar byudjet samaradorligini asosli tahlil qilishlari lozim, byudjet kamomadini qoplash va oldini olishda byudjet hujjatini tasdiqlashdan avval mushohada yuritish maqsadga muvofiqdir.

Siyosiy iqtisod sohasida, fiskal siyosatni tadbiq etishda, siyosatchilar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu hukumatning iqtisodiyotga qanchalik jalb qilinishi kerakligi va qanchalik darajada xususiy sektor sohasiga aralashuvini belgilashni hal qilishdan iborat. Hukumatning aralashuvi darajasini aniqlash murakkabligi uchun, umumiy jihatdan fiskal o‘lchovlarning bir qancha normalarini belgilab olish lozim bo‘ladi.

Fiskal siyosatning roli to'g'risida «eski» va «yangi» qarashlar

	«Eski qarashlar»	«Yangi qarashlar»
Samaradorlik	Qo'shimcha salbiy ta'sirlarga nisbatan cheklangan (Investitsiyani siqib chiqaradi)	Yuqori samaradorlikka erishish mumkin (investitsiyani qo'llab-quvvatlaydi)
Barqarorlashtirish roli	Odatda ko'proq monetar siyosat tomonidan boshqariladi	Monetar siyosatga qo'shimcha bo'lishi mumkin.
Fiskal hududlar	Cheklangan. Asosiy maqsad uzoq muddatli fiskal balansni ta'minlash bo'lishi kerak	Ulkan imkoniyatlar beradi, ayniqsa foiz stavkasi past bo'lgan darajasida. Stimul uzoq muddat uchun mavjud bo'ladi.
Xalqaro koordinatsiya	Umumiy jihatdan samarasiy	Samarali vosita bo'lishi mumkin

Ushbu normalarni shakllantirishda esa, ko'plab bahs-munozaralar doimiy davom etishini inobatga olgan holda, aksariyat ekspertlarning umumiy ravishda uchta o'lchovlarni ajratib ko'rsatishganini ko'rish mumkin bo'ladi. O'lchovlarning belgilanishi hamda ularning ta'siri mamlakatlar bo'ylab turlicha bo'lishi barcha uchun ma'lum holatdir. Demokratik tamoyillar keng amal qiladigan mamlakatlarda hukumatning aralashuvi masalasi nisbatan kam darajada ekanligini kuzatish mumkin. Yoki aksincha ma'muriy boshqaruv tizimi nisbatan kengroq amal qiladigan tizim uchun hukumatning ta'siri kuchli ekanligi uchun, fiskal siyosatning samaradorligi ham nisbatan past bo'lishi kuzatiladi. Yirik iqtisodiyotlarda, fiskal o'lchovlarni belgilashda, kichik darajadagi ta'sirlar ham katta miqdordagi iqtisodiy natijalarga olib keladi.

Fiskal o'lovlarining umumiy tavsifi

Fiskal o'lovlarining turlari	Xarakteristikasi	Maqsadi
Soliq siyosati	■ QQS va maxsus iste'mol soliqlarini qisqartirish; ■ Hududlar va sohalar bo'yicha korporativ soliq stavkalarini pasaytirish.	Iste'mol va investitsiyani qo'llab-quvvatlash
Xususiy sektorni rag'batlantirish	■ Foiz stavkasi uchun subsidiyalar; ■ Ish beruvchilarning ishchilar uchun to'laydigan ijtimoiy sug'urta to'lovlarini qoplab berish.	Firmalarni inqirozdan himoya qilish va investitsiya qilishga undash
Ishlovchilarni qo'llab-quvvatlash	■ Ishchi xodimlarni ijtimoiy sug'urta to'lovlaridan ozod qilish; ■ Qisqa muddatli ishchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash; ■ Davlat sektoriga ishchilarni ishga yollashni samarali tashkil etish.	Ishsizlikka qarshi kurashish va ishchilar ijtimoiy xarajatlarini optimallashtirish

Davlat byudjeti bir vaqtning o'zida uchta asosiy vazifani bajaradi: taqsimlash, qayta taqsimlash va barqarorlashtirish (stabilizatsiya). Quyidagi uchta muhim maqsad va vazifa doirasida yuzlab boshqa vazifalar belgilanadi va yuzaga keladi. Ushbu uchta asosiy vazifa o'zaro bog'liq va umumiylikka ega bo'lishiga qaramay, barqarorlikni ta'minlash vazifasi bosh markaziy o'rinni egallaydi. Bunda barcha tarmoq va sohalarni barqarorlashtirish, ular orasidagi muvozanatni ta'minlash, makroiqtisodiy balansga erishish kabi masalalar turibdi. XIX asrlar boshlarida mamlakatlar oldida turgan muhim vazifalardan infrastrukturani barpo qilish, shaharlarni qurish, qishloqlarni obod qilish kabilar ustuvor bo'lganligi sababli,

taqsimlash vazifasi birlamchi o'rinda ko'rilgan. Qayta taqsimlash esa doim muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Bu qadimdan mavjud bo'lgan bo'lib, biroq XIX asrga kelib (1842 yilda Britaniyada) o'sib boruvchi (progressive) daromad solig'i turlarining hamda ijtimoiy sug'urtalash (1889 yilda Germaniyada) ishlab chiqilishi va tadbiriq etilishi bilan mamlakat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Qayta taqsimlash orqali yirik mulkdorlar va tadbirkorlar tasarrufida jamlangan boyliklardan bir qismini ijtimoiy zaif qatlam vakillariga qayta taqsimlash, yoki ijtimoiy ko'makka muhtoj sohalarga yo'naltirish amalga oshiriladi.

Davlat byudjetini boshqarishning markaziy tushunchasi bu barqarorlashtirish, muvozanatlashtirish deyish mumkin. Jumladan global iqtisodiy soha va tarmoqlarni muvozanatga keltirish, masalan, ishsizlik darajasini muvozanat miqdorida saqlashga urinish hamda deflyatsiya yoki inflyatsiya natijasida iqtisodiy tarmoqlar faoliyati buzilishini oldini olish XX asr boshlaridagi muhim siyosiy iqtisodiyotdagi kashfiyotlar sirasiga kiradi. Barqarorlashtirish bu faqatgina qabul qilinadigan qarorlar ta'siri bilan aniqlanmaydi. Hukumatning makroiqtisodiy roli davlat harajatlarning YaIMdagi ulushining o'sib borishi bilan ortib boradi. AQSH da jami davlat xarajatlari I jahon urushidan avval 2 foizni tashkil qilgan. 1995 yilga kelib ushbu ulush 20 foizga yetgan bo'lsa 70-yillarda esa 30 foizni tashkil qilgan. 2008 yilgi moliyaviy inqirozga qadar esa 30 va 40 foiz orasida o'zgarib turgan edi. Keyin 40 foizlik chegaradan ortiq qiymatga yetganini ko'rish mumkin.

6.2. Byudjet daromadlari manbalarini oshirishda milliy ishlab chiqarishni kuchaytirish masalasi

Ta'kidlanganidek, davlat byudjetining muhim qismi bu daromadlar qismidir hamda uning asosiy ulushini soliqlar tashkil qiladi. Mamlakatning byudjet daromadini oshirish global siyosiy iqtisodning vazifalaridan biri sifatida muhim ahamiyatga egadir. Xalqaro amaliyotda ushbu vazifani bajarishda bir qancha yo'nalishlar mavjud:

- Ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, rezident va norezident tadbirkorlar sonining oshishi hisobiga soliq to'lovchilarning ko'payishi;

- Davlat aktivlari, qimmatli qog'ozlarni sotuvga qo'yish, davlat mulklarini foydalanishga berish, davlat xizmatlarini taqdim etish;
- Milliy yer osti boyliklarini, qimmatli metallar, minerallar va yoqilg'i enegetika mahsulotlarini ichki bozorda sotish va tashqi bozorga eksport qilish;
- Davlat qarzlar va ijtimoiy yordamlar. Moliyaviy institutlar, investitsion banklar, davlat va xususiy investitsion fondlar, ijtimoiy yordam jamg'armalari, beg'araz iqtisodiy ko'maklar olish orqali byudjet kamomadini to'ldirish yoki byudjet daromadlarini oshirish.

Mazkur yo'nalishlar orqali hukumat byudjet balansini ta'minlashni asosiy maqsad qiladi. Byudjet balansi esa daromadlar va xarajatlar qismining tengligi bilan tavsiflanadi. Biroq, tabiiyki amaliyotda matematik tenglik kuzatilmaydi, ya'ni doimiy ravishda byudjet daromadlari yoki xarajatlari qismining oshishi balansni o'zgartiradi. Shunga qaramasdan, byudjet rejasi va prognozi hukumat tomonidan har yili tasdiqlanadi va unda aniq daromad va xarajat qismlari, ularning miqdori ko'rsatiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, byudjet bu muhim hujjat bo'lib, odatda bir yillik muddat uchun tuziladi. Davlat byudjetini ishlab chiqishda hukumatning ko'plab tashkilotlari (deyarli barchasi qisman bo'lsa ham) ishtirok etadi. Ushbu hujjatni tasdiqlashda esa, moliya vazirligi asosiy tashkilot sifatida faoliyat yuritadi. Zero, moliya vazirligining asosiy vazifalaridan biri ham aynan byudjetni shakllantirish, uning prognozini ishlab chiqish hisoblanadi. Moliya vazirligi hukumatning asosiy pul mablag'larini sohalar bo'ylab yo'naltiruvchi vakolatli idorasi sifatida, sarflanadigan mablag'larni byudjet rejasi bo'yicha amalga oshirishni maqsad qiladi. Bundan tashqari byudjet loyihasini shakllantirishda iqtisodiyot vazirliklari, statistika idoralarining ham ishtiroki muhim ahamiyatga egadir.

Byudjet mablag'lari ortib qolishi (profitsit) va byudjet kamomadi (defitsit)

Davlat byudjeti odatda bir yil muddat uchun rejalangan hujjat hisoblanishini belgilab o'tdik. Amaliyotda, odatda rejalangan ishlar va sarflanishi belgilangan mablag'lar miqdori tasdiqlangan byudjet rejasidan oshib (yoki kamayib) ketishi holati kuzatiladi. Buning sabablari esa, narxlarning o'zgaruvchanligi, qo'shimcha kutilmagan xarajatlarning yuzaga kelishi, tabiiy texnogen hodisalar, prognozdag

kamchiliklar, siyosiy hodisalar (masalan, saylovlar, hukumat almashinuvi)ni asosiy sabablar deyish mumkin. Buning natijasida eng ko‘p kuzatiladigan holat bu byudjet mablag‘larinig kamomadi ya’ni defitsit kelib chiqishidir. Mablag‘larning xarajatlardan ortib qolishi esa profitsit holati deb yuritiladi. Xalqaro tajribada byudjet mablag‘larining kamomadi odatiy kuzatiladigan jarayondir.

Byudjet mablag‘lari cheklanganligi, ammo mablag‘ sarflanadigan sohalarining ko‘pligi hisobidan, byudjet mablag‘larini samarali taqsimlash lozimligi birlamchi masalalardandir. Harbiy sohaga sarflanadigan ulushning belgilanishi birlamchi o‘rindagi xarajatlardan hisoblansa, ijtimoiy sohalar hisoblanadigan sog‘liqni saqlash, infrastrukturani rivojlantirish, ta’limni qo‘llab-quvvatlash kabi sohalar birlamchi ravishda mablag‘ bilan ta’minlanishi lozim bo‘ladi. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda ham byudjetning doimiy defitsit bilan bajarilishini kuzatishimiz mumkin. Bu holat kamomad miqdoriga qarab salbiy ta’sirga ega yoki ega emasligini xulosa qilish mumkin. Masalan, byudjeti bir necha yuz milliard AQSH dollardan iborat hukumat uchun bir necha o‘n milliard kamomad jiddiy salbiy ta’sir olib kelmaydi deb hisoblanadi.

Bu boradagi tahlillar mablag‘lar oldindan rejalashtirilsa kamomad nimadan kelib chiqadi degan savol paydo bo‘ladi. Odatda bir necha foizgacha kamomadni bo‘lishi umumiy jihatdan normal holat hisoblanganligi, ushbu farq keyingi yil byudjet rejasiga kiritilib hal etilishi mumkin. Biroq kamomadning oshib ketishi keyingi yillar uchun davlat xarajatlari miqdori va tarkibiga ta’sir ko‘rsatadi, hukumat xarajatlarni qisqartirishi, soliqlar yukini oshirishi (odatda bu kam yuz beradi), tashqi qarz olishi yoki ijtimoiy ko‘maklarga murojaat qilishiga olib keladi. Yirik kamomadga odatda, iqtisodiy inqirozlar yoki kutilmagan tabiiy va texnogen holatlar sababchi bo‘lishi mumkin. Masalan, 2020 yilda boshlangan pandemiya sababli ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy xarajatlar rejadagidan bir muncha oshishiga olib keldi. Uni qoplash masalasi hukumatlarning zaxira mablag‘laridan foydalanish, tashqi qarzlarga murojaat qilish va boshqa xarajatlarni qisqartirish evaziga amalga oshirilganini kuzatish mumkin.

Byudjet xarajatlarini ishlab chiqishda turli hukumat tashkilotlari ishtirok

etadilar. Markaziy bosh tashkilotlar sifatida vazirliklar, jumladan moliya vazirligi ishtirok etadigan bo'lsa, mahalliy jihatdan ham boshqaruv organlari, masalan hokimiyatlar va ularning qoshidagi moliyaviy institutlar (soliq idoralari, moliya bo'limi) ham faol ishtirok etadilar.

Davlat byudjetining 2024 yil 1-yarim yillik daromadlari 2023 yilning mos davriga nisbatan 18,3 foizga oshib 121,0 trln so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, daromadlarning 80,6 foizini soliqlar, 19,4 foizini esa soliqsiz tushumlar va boshqa daromadlar tashkil qildi.

Hisobot davrida Davlat budjeti jami xarajatlari 149,8 trln so'mni shundan ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan xarajatlar 74,1 trln so'mni tashkil etdi.

O'tgan yarim yillikda Davlat budjetidan ajratilgan subsidiyalar miqdori 15 351 mlrd so'm bo'ldi. Shundan 2 947 mlrd so'mi ijtimoiy ahamiyatga ega subsidiyalar uchun ajratildi.

Byudjet xarajatlari tarkibi va maqsadlarini tahlil qilish jarayonida, ikkita muhim kategoriyani belgilab o'tish lozim bo'ladi.

Birinchisi kapital xarajatlari, bu asosan infrastrukturani yaxshilash va qurishga, ilmiy soha va innovatsiyaga, shuningdek boshqa rivojlanishga aloqador ijtimoiy sohalarga sarflarni anglatadi.

Ikkinchisi joriy xarajatlar hisoblanadi. Bunga boshqa barcha davlat xarajatlarini kiritish mumkin. Davlat xarajatlari tahlilida olingan davlat qarzlarining foizlarini to'lab borish amaliyotini ta'kidlash lozim bo'ladi. Tashqi qarz uchun belgilangan foizining miqdori qarzning hajmiga bog'liqdir, hamda uzoq muddat uchun undan maqsadli foydalanishda ko'riladigan foydalarni inobatga olish lozim.

Ammo qisqa vaqt uchun hukumatning ushbu ikki tushunchani ya'ni foiz stavkasini va qarz samaradorligini nazorat qilish ancha mushkul vazifadir. Buni hisoblashning samarali usularidan biri boshlang'ich xarajatlar tushunchasini kiritish orqali amalga oshirish mumkin.

2025–2027 yillar uchun konsolidatsiyalashgan byudjet parametrlari prognozlari global iqtisodiy noaniqliklar va geosiyosiy ziddiyatlar tufayli tashqi xatarlar saqlanib qolinishi inobatga olinib ishlab chiqilgan.

Bunda, hukumat tomonidan tashqi va ichki ta'sirlarga moslashuvchan fiskal siyosat olib borilishi maqsad qilingan bo'lib, buning natijasida 2027 yilga borib O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjeti daromadlari 2022 yildagi YaIMning 28,8 foizidan 26,6 foizigacha, xarajatlari 32,3 foizidan 29,6 foizigacha pasayishi prognoz qilingan.

Fiskal maqsadlardan kelib chiqib, 2025–2027 yillarda konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi YaIMga nisbatan 3 foiz, bunda Davlat budjeti va DMJ budjetlari taqchilligi 2 foiz miqdorida prognoz qilingan.


6.2.1-jadval

Konsolidatsiyalashgan byudjet jamlanma parametrlari, trln so'm²

		Ijro		Kutilma	Prognoz		
		2022	2023	2024	2025	2026	2027
I.	Konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari	286,5	321,9	377,7	431,1	496,5	565,0
	Davlat byudjeti daromadlari	201,9	231,7	271,0	308,5	353,8	406,1
	DMJ daromadlari*	37,7	47,0	54,8	66,5	81,8	94,1
	TTJga tushumlar	8,6	11,3	20,8	22,2	24,5	26,2
	Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalariga tushumlar	38,3	32,4	31,3	33,8	36,5	38,6
II.	Konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlari	321,7	381,0	434,8	480,3	551,9	629,1
	Davlat byudjeti xarajatlari	236,7	281,1	317,7	344,6	395,6	453,7
	DMJ xarajatlari*	38,3	43,3	52,3	62,9	77,4	89,7
	TTJ mablag'larining sarflanishi	8,1	36,9	21,2	20,3	21,5	22,9
	Byudjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larining sarflanishi	33,6	31,2	28,6	33,8	36,5	38,6
	Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	5,7	9,3	16,5	18,8	21,0	24,2
III.	DMJga transfertlar	27,7	30,7	34,0	54,4	52,1	53,5
IV.	Konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligi	-35,2	-59,2	-57,2	-49,3	-55,5	-64,1
V.	Davlat byudjeti va DMJ taqchilligi	-35,4	-46,2	-44,5	-32,4	-37,5	-43,2

“*” – budjetlararo transfertlarsiz

² O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyoy va moliya vazirligi hisoboti



**6.2.1-rasm. 2025 yil uchun konsolidatsiyalashgan byudjet tarkibi
(mlrd.so'm)³**


6.2.1-rasm orqali O'zbekiston Respublikasining davlat konsolidatsiyalashgan byudjet daromadi va xarajatlarning 2025 yilda o'zgarishini ko'rish mumkin.

Mazkur qiymatlar davlat daromadlari qiymatiga yaqin miqdorni tashkil qilishini kuzatish mumkin. Davlat byudjeti rejasi va uni bajarishning asosiy tamoyili bu balansga erishish hisoblanadi. Byudjetning prognozi ham aynan daromad va xarajatlarni muvofiqlashtirish asosida hisoblanadi.

Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) aynan boshlang'ich davlat xarajatlari kategoriyasi asosida xarajatlarni maqsadli sarflash metodikasini qo'llaydi.

Yevropa Ittifoqi tarkibidagi mamlakatlarning tajribasida davlat xarajatlari va daromadlaini hisoblashda kutiladigan xarajat va daromadlar tushunchasi qo'llaniladi. Ya'ni byudjet rejasini tuzish va boshqarish uchun xarajatlar to'langan yoki daromadlar olingan vaqt deb belgilanmaydi. Balki xarajatlarning bo'lishi va daromadlarning tushishi jarayon sifatida oldindan qayd etiladi.

³ <https://www.imv.uz/>



6.2.2-rasm. Yillar kesimida byudjet taqchilligi, YaIMga nisbatan foizda⁴

6.2.2-rasmda 2022-yil byudjet taqchilligi YaIMga nisbatan 3,5% darajasida bo‘lgan. 2023 yil taqchillik eng yuqori darajaga yetib, 5% ga oshgan. 2024-yil byudjet taqchilligi 4% gacha kamaygan, bu esa barqarorlashtirish choralarining qo‘llanilganidan dalolat beradi. 2025 yildan 2027 yilgacha taqchillik darajasi 3% atrofida barqarorlashgan va o‘zgarishsiz saqlanib qolgan.

2023 yilda byudjet taqchilligi eng yuqori nuqtaga chiqqan bo‘lsa-da, keyingi yillarda siyosiy iqtisodiyot va fiskal choralari natijasida pasayish kuzatilgan. 2025 yildan boshlab taqchillik 3% darajasida barqarorlashishi kutilmoqda, bu esa byudjet intizomi va barqaror rivojlanish yo‘nalishida harakat qilinayotganini ko‘rsatadi.

Hukumat parlamenti davlat byudjetining boshlang‘ich rejasini tasdiqlashni amalga oshiruvchi davlat organi hisoblanib, ushbu ma’suliyatli vazifani tahlil va prognozlariga asoslanib amalga oshiriladi. Bu esa siyosiy iqtisodiyotning muhim vazialarida birini aks ettiradi.

Bu jarayon nisbatan murakkab tadqiqotlar olib borish va muhokamalar o‘tkazish asosida shakllanadigan jarayon hisoblanadi. Har bir sohaga mas’ul hisoblangan vakillar o‘z rejalari va prognozlarini asoslab berishlari va uni yuqori turuvchi tashkilotlarga taqdim qilishlari lozim. Shundan so‘ng, byudjet uchun umumiy reja hosil qilinadi va parlamentga tasdiqlash uchun yuboriladi. AQSH federal byudjeti rejasini tuzish uchun o‘rtacha olti oy muddat talab qilinadi.

Byudjet rejasining bosh go‘yasi bu muvozanat (balans)ga erishishdir.

⁴ <https://www.imv.uz/>

Daromadlar va xarajatlar miqdorining o‘zaro balans asosida muvofiqlashtirish asosiy vazifa sifatida ko‘riladi. Buni fiskal balans yoki moliyaviy balans deb ham yuritiladi. Balansning ijobiy yoki salbiy saldogga ega bo‘lishi prognozi rejada aks ettirilishi mumkin. Davlat xarajatlarning oshishi kutilayotgan holatda byudjet kamomad bilan bajarilishi belgilanadi, aksincha bo‘lsa byudjet profitsit bilan bajariladi.

Tarkibiy kamomadni o‘lchash va prognoz qilish masalasi

Tarkibiy davlat balansi (davriy moslangan) byudjet balansi bu YaIMga nisbatan belgilangan miqdorda hisoblanuvchi muvozanat qiymati hisoblanadi. Uni hisoblashning asosiy maqsadi yuz berishi kutiladigan kamomadni aniqlashdan iborat. Kamomadning nisbiy qiymatini oldindan hisoblash, yil oxiriga qadar paydo bo‘ladigan kamomadni aniqlash va uni qoplashga oldindan tayyorlanishga imkoniyat beradi. Uning qiymatini hisoblashda ishlab chiqarish orasidagi farqni baholashdan boshlanadi, bu haqiqiy ishlab chiqarilgan qiymat bilan ishlab chiqarish quvvatining orasidagi farqning foiz ko‘rinishidagi qiymatidir. Moliyaviy balansning o‘rtacha sezuvchanligi ko‘rsatkichi ya’ni s (YaIM ga nisbatan foizda) yordamida ishlab chiqarishdagi farq qiymati hisoblanadi. Agar y bu ishlab chiqarilgan miqdorning logarifmi bo‘lsa, $\bar{y}$ esa ishlab chiqarish quvvatini belgilasa, sezuvchanlik quyidagi aniqlash imkoniga mavjud bo‘ladi:

$$\varepsilon = \frac{ds}{d(y-\bar{y})} > 0 \quad (6.1)$$

Bu yerda d differensiallik operatorini bildiradi. Natijani aniqlashning so‘nggi bosqichi, davriy komponentni $\varepsilon = (y - \bar{y})$ moliyaviy balans qiymati s dan ayirish orqali tarkibiy (davriy moslangan) balansni aniqlash mumkin.

$$s^* = s - \varepsilon (y - \bar{y}) \quad (6.2)$$

s^* ning qiymati ishlab chiqarishning potensial miqdorini hisoblashda tanlangan metodga bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari, sezuvchanlik parametri ε ning hisoblanishidagi aniqlik va barqarorligiga ham bog‘liqligini inobatga olish lozim bo‘ladi.

Fiskal siyosatdagi o'zgarishlarni aniqlash uchun sikl – davriy jarayonlar moslashtirilgan balansni hisoblash muhim hisoblanadi. Bu orqali moliyaviy balansning qiymati va ishlab chiqarish quvvatlarini imkoniyatiga ko'ra ishlab chiqarish hajmining qancha bo'lishini o'lchash mumkin. Moliyaviy balansni tashkil etilishi sikllik va diskretion komponentlardan iborat bo'ladi hamda siklli moslashgan balansning o'zgarishiga teng qiymatni tashkil qiladi:

Global moliyaviy balans (Global Fianacial Balance) = sikllik balans + sikllik moslashuvchan balans

Sikllik moslashuvchan balans tarkibiy balans deb ham ataladi. Yevropa Ittifoqi fiskal siyosatida ushbu ikki tushuncha orasida qisqa farqlar mavjud: tarkibiy balans birorta daromad yoki xarajat turidan tozalangan bo'ladi. Masalan mulk va qimmatliklar savdosi yoki bankning qayta kapitalizatsiya qilinishi kabi kategoriyalar.

Tarkibiy balans = sikllik moslashgan balans – bir kirim yoki chiqim turi

Davlat qarzlar masalasi va tahlili

Kirimlar, xarajatlar va balanslar, bularning barchasi iqtisodiy mobilizatsiya ya'ni resurslar harakati va oqimi hisoblanishi bizga ma'lum. Ularning ishlab chiqarilishi har yili ma'lum muddat sifatida amalga oshiriladi. Davlatning mulklari va majburiyatlari esa bir davrdan ikkinchi davrga nisbatan o'zgarib boradi. Ularning har yil boshidagi rejalashtirilgan qiymati avvalgi yil oxiridagi qiymatiga teng bo'ladi. Masalan, davlat qarzining belgilangan qiymati 1 yanvardagi holati, 31 dekabrda holati bilan bir xil bo'ladi. Bir yil oxirida yuz bergan defitsit qarzni oshishiga sabab bo'ladi, hamda profitsit esa qarzni yopib borish imkoniyatini paydo qiladi.

Tashqi qarzning yig'ilib borishi defitsitning o'sishiga olib keladi, bu esa kamomadni yopishda tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilish orqali hal qilinishi lozim. Jumladan, obligatsiya chiqarish hisobiga qo'shimcha qarz mablag'lari jalb qilish hamda xalqaro tashkilotlardan kreditlarga buyurtma berish orqali ushbu jarayon boshqarilishi mumkin. Hukumat obligatsiya chiqarish orqali tashqi qarz bilan bog'liq kamomadni qoplanishi quyidagicha amalga oshadi:

Davr oxiridagi qarz miqdori (t davr uchun) = Bir davr oxiridagi qarz miqdori (t-1) + (t) davr uchun moliyaviy kamomad

Soddaroq qilib belgilaydigan bo'lsak, agar D kamomadni belgilaydigan bo'lsa, B (bond) obligatsiyani bildiradi:

$$B_t = B_{t-1} + D_t$$

Bundan kelib chiqadiki, oshgani sari mutanosib ravishda qarz miqdori oshib boraveradi. E'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihati shundaki, obligatsiyaning qiymati ma'lum belgilangan qiymatda saqlanib qoladi ya'ni bozor narxi unga ta'sir o'tkazmaydi. Aks holda xususiy korporatsiyalar chiqaradigan obligatsiyalar kabi uning bozor narxi o'zgarishi foizlarga ta'sir qilinishi mumkin edi.

Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatda ishlab chiqarishni qo'llab quvvatlash bir vaqtning o'zida byudjet daromadlari manbalari ko'payishi nuqtai nazaridan ijobiy ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Tashqi qarzni qoplash va foizlarni to'lash masalasida ham ushbu omilning ahamiyati yuqoridir.

6.3. Ochiq va erkin iqtisodiyotning byudjet samaradorligiga ta'siri

Bugungi iqtisodchilarning aksariyat qismi ochiq iqtisodiyotning har qanday yopiq tizimdan afzalligini, samaradorlik va ijtimoiy-iqtisodiy foydalilik nuqtai nazaridan ustunligini ta'kidlashadi. Binobarin, bozor iqtisodiyotining markaziy konsepsiyasi bu erkin harakatlanuvchi ishtirokchilar, shaffof axborot va halol (sof) raqobat tushunchalarida aks etadi.

Iqtisodiy erkinlik va ochiqlikning fiskal siyosat uchun qanday ta'sirlari bor, hamda uning ijobiy ko'rsatkichlari qanday ko'rinishda namoyon bo'ladi degan muhim savollarga javob berishdan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Avvalgi boblarda tahlil qilganimizdek, iqtisodiyotning ochiqligi va erkin iqtisodiy va siyosiy ichki muhitning shakllanishi bir vaqtning o'zida ichki ishlab chiqaruvchilar hamda investorlar uchun asosiy biznes imkoniyatlaridan biri hisoblanadi. Ochiqlik resurslarning harakatini osonlashtiradi, ma'lumot almashinuvga yo'l ochadi, shuningdek hukumatga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Davlat byudjetining daromadlari soliqlarga bog'liq ekan,

birlamchi ravishda tadbirkorlar sinfining rivojlanishi daromadlar hajmining oshishiga olib keluvchi omildir. Fiskal siyosatning boshqa maqsadlaridan biri bu muvozanatni ta'minlash yoki barqarorlashtirishdir. O'tkan asrning eng yorqin iqtisodchilaridan biri F. Taylorning xulosasiga ko'ra, fiskal siyosatga qaraganda monetar siyosat umumiy iqtisodiy jarayonlarga tez ta'sir ko'rsatadi. Biroq barqarorlashtirish masalasida byudjet siyosati asosiy vazifani bajaradi.

Ochiq iqtisodiyotda talabning ta'siri

Jon Keyns tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, o'zining "Ishsizlik, foizlar va pul haqida umumiy nazariya" deb nomlangan asarida byudjet siyosatining yalpi talabga ta'sirini aniqlashdagi muhim tushunchalarni ishlab chiqdi. Keyns nazariyasiga ko'ra, qisqa davr uchun narx nisbatan o'zgarmas bo'ladi. Tovar va xizmatlarning taklifi elastikligi mavjud bo'ladi, yalpi talab esa jami ishlab chiqarish hajmini belgilaydi. Talab yetarli bo'lmagan taqdirda, bu kapital va ishchi kuchining to'liq foydalanmasligiga sabab bo'ladi. Demak, fiskal siyosatning asosiy maqsadi, yalpi talabni shu darajada ushlab turish kerakki, uning qiymati ish bilan ta'minlanganlikning umumiy muvozanat nuqtasiga yaqin bo'lishi kerak. Talabning pasayishi bilan yuz beradigan salbiy ta'sirlar hamda shoklarda hukumat davlat xarajatlarini oshirishi yoki soliq yig'imlarini qisqartirishi bilan vaziyatni tartibga soladi.

Ushbu tadqiqot asosiy ikkita tamoyilga bog'liq bo'ladi: narxni o'zgarmas deb qabul qilganimiz uchun, agar narx o'zgarsa makroiqtisodiy muvozanat ta'minlanmay qoladi, ikkinchidan esa, davlat xarajatlari oshishiga muvofiq xususiy sektor xarajatlari ham oshishi kuzatilmaydi. Yalpi talab miqdorining oshib borishi, ishlab chiqarishning oshishiga olib keladi. Yalpi talab hajmini oshishi va ishlab chiqarish hajmi oshishi orasidagi farqni aniqlovchi ko'rsatkich Keyns ko'paytiruvchisi (keynesian multiplier) deb nomlanadi.

Keyns ko'paytiruvchisining tahlili

Uy xo'jaligining iste'moli C ni ushbu xo'jalikning joriy daromadining chiziqli funksiyasi deb belgilaymiz:

$$C = aY + b \quad \text{bunda } a, b > 0$$

Parametr a bu yerda qo'shimcha iste'mol qiymatini anglatadi. Uning ma'nosi, iste'molchi daromadining qo'shimcha bir dollarga oshishi natijasida, ushbu iste'molchi a miqdorda sarflaydi va $1-a$ miqdorda jamg'aradi. Agar $a = 0.8$ deb olsak, iste'molchi har bir o'lchovdagi qo'shimcha daromadning **80** foizini iste'mol qiladi. Uy xo'jaligini kompaniya egasi deb olsak, har bir foydani daromad sifatida qabul qilamiz.

Tasavvur qilamiz, taklif mutloq elastik hisoblanadi desak, demak ishlab chiqarish hajmi yalpi talabga belgilangan o'zgarmas narx bilan moslashadi. Yopiq iqtisodiyot uchun ishlab chiqarilgan mahsulotning bozor muvozanati quyidagicha bo'ladi:

$$Y = C + \bar{I} + \check{G}$$

Bu yerda $\bar{I}$ yalpi investitsiya, $\check{G}$ esa davlatning talabi hisoblanadi. Ikkisi ham ekzogen omillardir.

Yopiq iqtisodiyot misolida tahlil qilish esa, vaziyatni soddalashtirish uchundir. Bilamizki, ko'pgina nazariy tadqiqotlar uchun yopiq iqtisodiyot muhiti tanlab olinadi, buning asosiy sababi esa, ko'plab boshqa ta'sir qiluvchi omillarning ta'sirini o'zgarmas deb baholash uchundir.

Hukumatning davlat xarajatlarini bir birlikka ko'paytiradi deb hisoblaymiz va soliqlarni o'zgartirmaydi deb olamiz. Bu birlamchi galda ishlab chiqarish hajmini oshishiga olib keladi va xo'jaliklar uchun taqsimlanadigan daromadlarni ham oshishiga sabab bo'ladi. Bir birlik deganda bir yevroga (yoki dollar) daromad oshadi. Uning 80 senti esa iste'mol uchun sarflanadi, bevosita bu daromad va ishlab chiqarish hajmini oshiradi. Jarayonning so'nggida, yalpi ishlab chiqarish hajmi quyidagiga teng bo'ladi:


$$1 + a + a + \dots = 1 + 0.8 + 0.8 \times 0.8 + 0.8 + \dots = 1 / (1 - a) = 1 / (1 - 0.8) = 5.$$

Yoki quyidagi tenglamani yechish bilan ham bir xil natijaga ega bo'lish mumkin:

$$\Delta Y = \Delta G / (1-a)$$

Biz ko'rib chiqqan misolda ko'paytiruvchi ko'rsatkich nisbatan katta ekanligini ko'rish mumkin, bu esa fiskal siyosatni qattiqroq choralar qo'llash bilan

amalga oshirish lozimligini bildiradi. Ammo ko‘plab boshqa faktorlar mavjud bo‘lib, ko‘paytiruvchini kamayishiga bilvosita sabab bo‘lishi mumkinligi inobatga olinadi. Yalpi talab egri chizig‘i pastka qarab kamayib boruvchi qiymatga egadir, sababi inflyatsiyaning mahsulot yoki xizmatga bo‘lgan talabga salbiy ta‘sir o‘tkazadi. Yoki buning boshqa sababi boylik effekti bilan izohlanishi mumkin. Markaziy bank tomonidan o‘rnatiladigan asosiy stavkaning ortishi bilan daromaddagi kuzatiladigan pasayish sodir bo‘ladi. Fiskal kengayish (bu davlat sarflarining ortishi yoki soliqlarni ekzogen qisqarishi) talab chizig‘ini o‘ng tarafga siljitadi, natijada ishlab chiqarish ortadi. Agar taklif egri chizig‘ining qiyalik ko‘rsatkichi kichik bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmiga muvofiq taklif shunga moslashadi. Chizmada ko‘ringanidek, E1 dan E2 ga o‘tishi bilan amalga oshadi.




6.3.1-rasm. Yalpi talab va yalpi taklif doirasida Keynes fiskal kengayishining ta‘siri

Ushbu tahlil orqali biz Yalpi talab (AD) egri chizig‘ini iqtisodiyotning talab qismini yig‘indisini bildirishini belgiladik. Uni Hicks va Hensen tomonidan ishlab chiqilgan IS–LM modeli orqali tushuntirish mumkin. Ushbu model ikkita egri chiziqni qamrab oladi: *ishlab chiqarish hajmi* va *foiz stavkasi*. IS chizig‘i mahsulot bozoridagi muvozanatni tasvirlaydi, LM chizig‘i esa pul bozorining muvozanatini belgilaydi. Ikki omil ham berilgan mahsulot narxiga ko‘ra:

- IS egri chizig‘i mahsulot va foiz stavkasining kombinatsiyasini beradi

natijada mahsulot bozori muvozanati hosil bo‘ladi. U pastga egilgan chunki yuqori foiz stavkasi mahsulotga talabning pasayishiga olib keladi. Berilgan pul massasi uchun LM egri chizig‘i kombinatsiyasini beradi pul bozoridagi muvozanatni keltirib chiqaradigan ishlab chiqarish va foiz stavkasini ko‘rsatadi;



6.3.2-rasm. Yalpi talab va yalpi taklif doirasida Keynes fiskal kengayishining ta'siri

- Belgilangan pul massasi bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlik va foiz stavkasi pulga bo‘lgan talabga bog‘liq bo‘lib, u ishlab chiqarishning ortib boruvchi funksiyasi bo‘lishi kerak (ishlab chiqarish hajmi oshgani sayin, operatsiyalar uchun ko‘proq pul kerak bo‘ladi) va foiz stavkasining pasayishi funksiyasi (foiz stavkasi o‘sishi bilan xususiy agentlar) naqd pul o‘rniga foizli aktivlarni saqlashni afzal ko‘rishadi.

6.4. Fiskal siyosatni amalga oshirishining o‘ziga xos xususiyatlari


Fiskal siyosatning umumiy qoidalari barcha mamlakatlar uchun xos bo‘lib, undan iqtisodiy barqarorlik maqsadlarida foydalanishadi. Mazkur qoidalar samarali fiskal siyosatni tashkil qilishni belgilab beruvchi muhim yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur qoidalarga to‘xtalib o‘tishdan oldin valyuta kursi rejimlarining tahlili hamda ularning ta’sirini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda ikki

ko‘rinishdagi valyuta kursini ajratish va tadqiq etish lozim, bular o‘zgaruvchan ayirboshlash kursi va o‘zgarmas (o‘rnatilgan) ayirboshlash kursi. Mazkur tahlilni amalga oshirish borasida Mundell-Fleming iqtisodiy modeliga murojaat qilamiz. Modelning g‘oyasi ochiq itisodiyot sharoitida IS-LM modelining kengayishi sodir bo‘ladi hamda ayirboshlash kursi rejimini Keynes ko‘paytiruvchisini aniqlashdagi asosiy aniqlovchi faktor sifatida belgilaydi. O‘zgaruvchan (yoki moslashuvchan) ayirboshlash kursida fischal ko‘paytiruvchi ko‘rsatkichining pasayishi va xatto nolga tenglashishi kuzatiladi. Bunda faqat bire nechta shartlar mavjud. Shulardan biri, kichik mamlakat misolida olib qarasak kapitalning erkin harakatlanishi to‘liq ta‘minlangan bo‘lishi lozim. Ayirboshlash kursining oshishi (valyuta qadrining oshishi) tufayli fischal kengayish jarayoni sodir bo‘ladi. Mundell-Fleming modeli kichik mamlakat misolida makrosiyosiy iqtisodiyotning samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi, bunda ta‘kidlanganidek asosiy shart kapitalning mukammal harakat qilishi ta‘minlangan sharoit mavjud hisoblanadi. Kapitalning mukammal harakat qilishi deganda, mamlakatdagi foiz stavkasi dunyo bozoridagi foiz stavkasidan ko‘p uzoqlashmaydi yoki katta farqqa ega bo‘lmaydi deb tushuniladi. Aks holda, kapital tashqariga chiqib ketishi yoki mamlakatga kirib kelishi hajmida keskin o‘zgarish sodir bo‘lishi mumkin. Ya‘ni asosiy foiz stavkasining kamayishi ko‘proq investitsiyaning (shu orqali kapitalning) oqib kirishiga sabab bo‘ladi yoki aksincha foiz stavkasi oshishi mamlakatdan kapital ko‘proq oqib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

1. O‘zgaruvchan ayirboshlash kursi

Ushbu tahlilda mamlakatda o‘zgaruvchan ayirboshlash kursi mavjud deb hisoblaymiz va shunga muvofiq tadqiqot olib bormiz. Shuningdek, markaziy bank pul taklifi miqdorini o‘zgarmas hajmda belgilaydi va buning natijasida ayirboshlash kursini faqat bozor aniqlab beradi deb tasavvur qilamiz. IS egri chizig‘ini o‘ngga siljitish orqali fiskal kengayish ishlab chiqarish hajmi daromadning oshishiga olib keladi. Ya‘ni pulga bo‘lgan talabning oshishi ammo pul taklifining o‘zgarishsiz qolishi foiz stavkasini yuqoriga harakatlanishiga sabab bo‘ladi. Bu jarayonda kapital mamlakat ichkarisiga oqib kirishni boshlaydi, shu sababli ayirboshlash kursining

oshishig'ia ya'ni milliy valyuta qadrlining ko'tarilishi yuz beradi. Bu holat mamlakatning eksport raqobatbardoshligini kamaytiradi. Natijada, mamlakatda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga bo'lgan talab kamayadi, IS egri chizig'i ortga qarab harakatlanadi va chapga siljiydi. Chunki ochiq iqtisodiyotdagi bozor muvozanati LM chizig'i bilan xalqaro foiz stavkasining arbitraj holatidagi kesishuvi orqali aniqlanadi. Yochim shunda ko'rinadiki, ayirboshlash kursining oshib borishi darajasi Yalpi talabning o'zining avvalgi holatiga ya'ni fiskla kengayishdan oldingi darajasigacha davom etadi (6.4.1-rasm). Bu holatda IS egri chizig'i va fiskal siyosat ishlab chiqarish hajmini belgilashda ta'sirga ega bo'lmaydi deb hisoblash mumkin.



6.4.1-rasm. O'zgaruvchi ayirboshlash kursi holatida fiskal kengayish


2. Cheklangan kapital harakati

Qachonki kapital erkin harakatlanishi cheklangan bo'lsa, biz kuzatgan natijalar amalga oshmaydi. Balki buning teskarisi sodir bo'lishi kuzatiladi. O'zgaruvchan valyuta ayirboshlash rejimida joriy hisob balansining (current account balance) kamayishi fiskal siyosat sababli sodir bo'ladi. Ayirboshlash kursining pasayishi yuz berishi orqali, mamlakatning eksport raqobatbardoshligi ortadi, natijada dastlabki talab hajmining ortishi fiskal siyosat orqali amalga oshadi.

3. Belgilangan (o'zgarimas) ayirboshlash kursi

Endi yuqoridagidan biroz boshqa holatni ko'rib chiqamiz, bunda ayirboshlash

kursi belgilangan (o'zgarmas) deb hisoblaymiz. Buning ma'nosi shundaki, markaziy bank xorijiy ayirboshlash kursiga ta'sir ko'rsatadi, xorijiy valyutani sotib olish va sotishni amalga oshiradi. Kapitalning mamlakatga kirib kelishi fiskal siyosat tadbirlari bilan ketma-ketlikda amalga oshadi, bunda markaziy bank milliy valyuta bilan xorijiy valyutaning savdosini amalga oshirgani uchun, xorijiy valyuta zahirasi shakllantiradi. Ushbu zahira pul taklifini oshiradi va LM egri chizig'ini o'ngga siljishiga olib keladi. Bu monetar kengayishning endogen ko'rinishi fiskal siyosatning ijobiy ta'sir ko'rinishini bildiradi (6.4.2-rasm). Natijada fiskal siyosat kuchli ta'sirga ega bo'ladi, bu jarayonda monetar siyosat esa samarasiz deb hisoblanadi.



6.4.2-rasm. Belgilangan (o'zgarmas) ayirboshlash kursi holatida fiskal kengayish

Yuqoridagi mushohadalarni umumlashtirib quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin. O'zgaruvchan va o'zgarmas ayirboshlash kursi holati, kapitalning yuqori va past darajadagi harakatida qanchalik samarali ekanligini ko'rish mumkin bo'ladi.

Kichik mamlakatda ochiq iqtisodiyot sharoitida fiskal siyosatning qisqa muddatli samaradorligi

	Kapitalning yuqori darajadagi harakatida	Kapitalning past darajadagi harakatida
O'zgaruvchan ayirboshlash kursi	<i>Samarasiz</i>	<i>Yuqori samaradorlik</i>
O'zgarmas ayirboshlash kursi	<i>Yuqori samaradorlik</i>	<i>Qisman samaradorlik</i>

O'zgaruvchi ayirboshlash kursida qachonki kapital yuqori darajada harakatlansa samarasiz hisoblanadi, kapitalning nisbatan sekin harakatida esa yuqori samarali natija beradi. O'zgarmas ayirboshlash kursi holatida esa kapital tez harakatlanadigan sharoitda yuqori samara bersa, kapitalning sekin harakatlanishi sharoitida kam samarali ekanligini ko'rish mumkin bo'ladi.

Monetar uyushma sharoitida fiskal siyosatning ta'siri va fiskal islohotlarning tarqalishi.


Bir xil xususiyatlarga ega ikki mamlakat, mamlakat A va mamlakat B monetar uyushma U ni tashkil qilishdi deb hisoblaymiz. Mundell-Fleming modelini tahlil qilganimizda bozor muvozanatining holati haqida mushohada qilgan edik. 6.4.3–rasmda tasvirlanganidek, uchta chizmada A mamlakat, B mamlakat va U uyushma uchun muvozanat holati keltirilgan. Yagona foiz stavkasi Uyushmada keltirilgan darjadagi IS va LM egri chiziqlari kesishmasi bilan aniqlanadi. Har bir mamlakatdagi muvozanat esa berilgan yagona foiz stavkasida IS egri chizig'i orqali aniqlanadi.

A mamlakatning kengayuvchi fiskal siyosatni amalga oshiradi deb hisoblaymiz, ya'ni bunda IS chizig'i o'ngga qarab siljiydi. B mamlakatdagi IS egri chizig'i ham o'ngga siljiydi (nisbatan kam miqdorda siljiydi) sababi B mamlakat A mamlakatga nisbatan eksportni oshishidan foyda ko'radi. Uyushmadagi yalpi IS egri chizig'i ham o'ngga siljiydi. Umumiy soliq stavkasi ko'tarilishi kuzatiladi. B mamlakat eksport hajmi ortishidan foyda ko'radi ammo foiz stavkasi ko'tarilishiga nisbatan esa salbiy ta'sir ko'radi.

Bir mamlakatdagi kengayuvchi fiskal siyosat boshqa mamlakatlar uchun

ijobiy talab tashqi ta'sirlarini yuzaga keltiradi. Agar markaziy bank foiz stavkasini nazoratini qo'lga olsa, salbiy foiz stavkasining tashqi ta'sirlariga ega bo'ladi.

Mazkur tahlillar Yevrozona uchun amalda tadbqiq qilinishi, yagona valyuta kelishuvi doirasida ijobiy natijalar keltirishini kuzatish mumkin. Biroq, nisbatan iqtisodiy zaif mamlakatlar fiskal siyosatidagi o'zgarishlar doim savol ostida qolishi ham bugungi haqiqatdir.



6.4.3-rasm. Monetar uyushmada fiskal kengayishning ta'sirlari

Yevro hududining umumiy fiskal pozitsiyasining yetarli bo'lishini ta'minlash uchun moliya siyosati muvofiqlashtirilishi lozim bo'ladimi degan markaziy savol o'rta qo'yadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, Mundell-Fleming modeli moslashuvchan valyuta kurslari va kapitalning mukammal harakatchanligi sharoitida (bu shartlarni odatda butun evro hududi uchun amal qiladi deb hisoblaymiz) fiskal siyosat samarasiz degan xulosaga kelishi mumkin. Iqtisodiyotini barqarorlashtirish vazifasi avvalambor, pul-kredit siyosatiga ko'proq bog'liq degan mulohaza yuzaga chiqadi va ishlab chiqarishni barqarorlashtirish bo'yicha fiskal siyosatni muvofiqlashtirish ikkinchi darajali vazifa sifatida ko'riladi. Biroq hududdagi umumiy iqtisodiy barqarorlik fiskal siyosatga bevosita bog'liqligini ta'kidlash lozim. Monetar siyosat foiz stavkasi orqali narxlarni barqarorlashtirishni maqsad qiladigan bo'lsa, byudjet siyosati esa umumiy siyosiy iqtisodiyotni

belgilashda muhim o‘rinni egallaydi.

Ushbu munozarali xulosalar orqali quyidagi siyosiy iqtisodiyot qoidalarini belgilashga olib keladi:

- Umumiy pul-kredit siyosati ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy zarbalar (to‘siqlar)ga javob berishi kerak (nosimmetrik zarbalar);
- Milliy moliyaviy siyosat mamlakatga xos bo‘lgan iqtisodiy qiyinchiliklarga javob berishi kerak yoki mamlakat ichkarisidagi boshqalarga nisbatan ta’sir ko‘rsatadigan to‘siqlarni yengishga sabab bo‘lishi lozim. (assimetrik zarbalar);
- Yevro hududi darajasidagi fiskal siyosat pul siyosatini samarasiz yoki yetarli emas degan xulosaga kelgan taqdirda, asosan monetar siyosat o‘rnatgan stavkasi nol pastki chegarada bo‘lganida, pul-kredit siyosatiga umumiy iqtisodiy barqarorlik maqsadlarida murojaat qilishi mumkin bo‘ladi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Davlat byudjeti – mamlakatning umumiy iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish, vazifalarini bajarishi uchun tuziladigan, daromadlar va xarajatlar tarkibidan iborat kelajakdagi davr uchun belgilanadigan moliyaviy rejasi, tasdiqlanadigan hujjat.

Byudjet daromadlari – soliqlar va boshqa majburiy yig‘imlar hisobiga shakllantiriladigan, davlatning bir yillik faoliyati uchun zaruriy mablag‘larni o‘zida aks ettiruvchi tushumlar.

Byudjet xarajatlari - mamlakatda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish maqsadida byudjet mablag‘larining sarflanishini anglatuvchi davlat asosiy davlat xarajatlari hisoblangan mablag‘lar.

Davlat sarflari – tasdiqlangan byudjet asosida davlatning o‘z vazifalarini amalga oshirish maqsadida pul mablag‘larini tasarruf etishi va yo‘naltirishi.

Kapital tushumlar – davlatga tegishli mulklarni sotish, davlat ulushi hisoblangan qimmatli qog‘ozlar savdosi yoki davlat xaridlari yoki hukumatga tegishli savdo aloqalari orqali tushadigan tushumlar.

Tashqi qarzlari – hukumat tomonidan xalqaro moliyaviy muassasalar,

xususiy va davlat banklari, investitsion fondlar orqali jalb qilinadigan qarz ko‘rinishidagi mablag‘lar.

Byudjet kamomadi - tasdiqlangan byudjet tushumlari va xarajatlari orasidagi farqni tashkil qiluvchi, byudjet xarajatlarining daromadlariga nisbatan ortganini ifodalovchi holati.

Byudjet profitsiti - byudjet daromadlarining xarajatlarga nisbatan tasdiqlangan miqdordan ko‘ra ortib qolganini bildiruvchi holati.

Fiskal qoidalar – byudjet agregatlarini cheklash orqali, qonuniy asosdagi chora tadbirlar hisoblanib, byudjet siyosatining ehtimoliy xatolarini hamda cheklovlarini kamaytirish uchun qo‘llaniladi.

O‘zgarmas ayirboshlash stavkasi – Markaziy bank tomonidan ayirboshlash stavkasiga ta’sir o‘tkazmasligi, erkin bozor munosabatlari asosida shakllanadigan ayirboshlash stavkasi.

O‘zgaruvchan ayirboshlash stavkasi – Markaziy bank tomonidan valyuta bozoriga aralashuvi natijasida, xalqaro valyutani sotish va sotib olish orqali shakllanadigan ayirboshlash stavkasi.

Mundell-Fleming modeli – to‘liq kapital harakatlanishi sharoitida, kichik iqtisodiyot misolida makroiqtisodiyotning samaradorligini o‘rganuvchi iqtisodiy model. Unga ko‘ra, to‘liq kapital harakati sharoitida mamlakatdagi foiz stavkasi jahon bozoridagi foiz stavkasi bilan katta farq qilmaydi.

Strukturali balans – YaIMning hajmi va o‘sishi ko‘rsatkichi bilan aniqlanadigan byudjet balansi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning real hajmi va ishlab chiqarish quvvatlarining imkoniyatlarini tahlil qilish orqali belgilanadi.

Fiskal institutlar – fiskal siyosat qoidalarini belgilaydigan, fiskal chora-tadbirlarni tadbiq etush vakolatiga ega davlat idoralari, nodavlat tadqiqot muassasalari.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Byudjet tushunchasi, uning mohiyati va tarkibiy qismlari haqida tushuntiring.

2. Byudjet daromadlari va xarajatlari qismlarining shakllantirilishi, sarflanishi va ushbu jarayonlarning siyosiy iqtisodiyotdagi ahamiyati nimalardan iborat?
3. Fiskal siyosat tarixi, shakllanish bosqichlari, asosiy tushunchalar va o'zgarishlarni yuzaga kelishi jarayonlarini keltiring. Fiskal siyosat borasidagi eski va yangi qarashlarni muhokama qiling.
4. Fiskal siyosatning monetar siyosat bilan aloqasi, o'zaro bog'liqlik, muhimlik jihatlari hamda bu mavzudagi ilmiy bahslarni tushuntiring?
5. Byudjet siyosatidagi fiskal o'lchovlar qanday tavsiflanadi? O'lchovlarni belgilash tajribalari va asosiy yo'nalishlarining tahlili qanday amalga oshiriladi?
6. Yalpi talab va Yalpi taklif modeli orqali Keynes fiskal kengayishining ta'sirini baholang va sabablarini tushuntiring.
7. IS-LM modeli orqali Keynes fiskal kengayishining ta'sirini baholang va sabablarini tushuntiring.
8. Fiskal kengayish tushunchasi, uning ahamiyati, sabablarini tushuntiring. Keynes fiskal kengayishi qaysi omillar orqali amalga oshadi?
8. O'zgaruvchan va o'zgarmas ayirboshlash stavka Mundell-Fleming modelining mohiyati, makroiqtisodiy tahlil uchun ahamiyati kapital harakatlanishiga ta'sirini tushuntiring.
10. Ekzogen ko'rinishdagi fiskal kengayish hamda endogen ko'rinishdagi monetar kengayishning o'zaro bog'liqligi ayirboshlash stavkalari orqali qanday ifodalaniladi?
11. Kopits va Sumanskiy mulohazalariga ko'ra, fiskal qoidalar uchun asosiy me'zonlar qaysi muhim xususiyatlardan iborat bo'ladi?

VAZIYATLI TOPSHIRIQ - KEYS

Davlat byudjeti samaradorligini oshirish maslasi

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti siyosati misolida

Mamlakatda davlat byudjeti samaradorligi masalasi birlamchi siyosiy iqtisodiyot mavzularidan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonning davlat xarajatlari (government expenditure) oshganligi, xarajatlarni optimallashtirish

vazifasini kun tartibidagi muhim vazifalardan biriga aylantirdi. Bundan tashqari mamlakatdagi YaIMga nisbatan davlat tashqi qarzining ortib borishi, samarali qarzlarni boshqarish rejasiga ega bo'lishni taqozo etadi. Bu o'z ichiga qarz mablag'laridan oqilona foydalanishdan tortib, qarzlarni qaytarish rejasini samaralai bajarish masalalarini qamrab oladi. Ushbu masalalarni umumlashtirgan holda, mazkur tadqiqot ikki maqsadni ko'zlaydi:

1. Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash va asosiy yo'nalishlarni belgilash. Fiskal islohotlar doirasida chora-tadbirlar belgilash masalasi.

2. Davlat tashqi qarzi masalasining fiskal siyosatga ta'sirini aniqlash hamda istiqbolli qarz samaradorlik rejasini ishlab chiqish.

Tadqiqot olib borishda ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish. Davlat byudjeti va byudjet sarflari samaradorligini o'rganishda qo'llanilishi lozim bo'lgan tahliliy metodlardan foydalanilishi lozim:

- Yalpi talab va yalpi taklif (AD va AS) hamda IS-LM modeli misolida Keyns fiskal kengayishi darajasi va ta'siri o'rganilishi;
- Mundell-Fleming modeli yordamida o'zgarmas va o'zgaruvchan ayirboshlash stavkasi orqali fiskal samaradorlik va o'zgarishlarni belgilash;
- AQSH federal byudjeti samaradorligi bo'yicha namunaviy xulosalarni shakllantirish va zaruriy tahliliy natijalarni o'zlashtirish;
- Yevro hududdagi fiskal siyosat tahlili va yagona pul uyushmasi misolidagi tahlillar;
- Milliy byudjet siyosatidagi asosiy kamchiliklarni aniqlash, byudjet prognozini hisoblash va kamomadni bashorat qilishning joriy usullarga baho berish. Mazkur yo'nalishda xalqaro metodlarni tadbiq etish va natijalarni baholash;
- Tashqi qarzni qoplash bo'yicha joriy hukumat rejasini tahlil qilish. Qarz mablag'larining sarflanishi samaradorligini o'rganish.

VII BOB. GLOBAL MIGRATSIYA SIYOSATI

Ushbu bobda o'rganiladigan mavzularning qisqacha tasnifi quyidagilardan iborat:

- Migratsiya tushunchasi, uning mohiyati, migratsiyaning asosiy ko'rinishlar hamda migratsion tizimlar faoliyati;
- Migratsiyani yuzaga keltiruvchi asosiy omillar va sabablar tahlili, aholining mobilizatsiyasi masalalari;
- Xalqaro migratsiya siyosatini boshqarishning rivojlangan mamlakatlar tajribalari;
- Global siyosiy qochqinlik muammosi, migratsiyaning salbiy oqibatlari, xalqaro boshpana olish amaliyoti;
- O'zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi masalalari, migratsiyaning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri, migratsiya bilan bog'liq muammolar tahlili;

7.1. Xalqaro ishchi kuchi bozorlari. Ishchi kuchining harakatlanishi

Migratsiya bu muhim iqtisodiy va ijtimoiy jarayondir. Bu jarayon ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, iqtisodiy jihatdan muhim tahlil va bahsli muzokaralarning markazida bo'lib keladi. Migratsiya odamlarning yangi joyga (geografik mintaqaga) doimiy yoki vaqtincha joylashish niyatida bir joydan ikkinchi joyga ko'chishini o'z ichiga oladi. Harakat ko'pincha uzoq masofalarda va bir mamlakatdan boshqasiga sodir bo'ladi, lekin ichki migratsiya (bitta mamlakat ichida) ham bo'lishi mumkin. Umuman migratsiya deganda ko'pincha bu global miqyosda odamlar oqimining ko'chishi hodisasi tushuniladi. Migratsiya, odatda, ham individual, ham uy xo'jaliklari darajasida inson kapitalining yaxshilanishi va migratsiya tarmoqlariga yaxshiroq kirish bilan bog'liq. Yosh ham mehnat, ham mehnat migratsiyasi uchun muhimdir. Odamlar alohida, oilaviy birliklar yoki katta guruhlar sifatida ko'chishi mumkin.

Migratsiyaning to'rtta asosiy shakli mavjud: siyosiy va harbiy hukmronlik, bosib olish, mustamlaka qilish hamda emigratsiya/immigratsiya jarayonlari.

Majburiy ko'chish (masalan, tabiiy ofat yoki fuqarolik tartibsizligi) tufayli o'z uyidan ko'chib kelayotganlarni ko'chirilganlar yoki o'z mamlakatida qolsa, ichki ko'chganlar deb ta'riflash mumkin. Boshqa mamlakatdan boshpana izlayotgan kishi, agar vatanini tark etishining sababi siyosiy, diniy yoki boshqa ta'qiblar bo'lsa, boshpana so'raladigan va odatda ta'riflanadigan mamlakatga rasmiy murojaat qilishi mumkin. Agar bu jarayonda ko'chish muvaffaqiyatli bajarilsa, bu shaxsning huquqiy maqomi qochqin maqomini oladi.

Migratsiya ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy va iqtisodiy hayotning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi, lekin migrantlar populyatsiyasining profili sezilarli darajada farq qiladi. Bu qisman migratsiya manbalarining xilma-xilligi bilan bog'liq. Masalan, Yevropaning ko'p qismida fuqarolar erkin harakatlanish huquqiga ega. Avstraliya, Kanada va Yangi Zelandiyada boshqariladigan mehnat migratsiyasi muhim rol o'ynaydi. Boshqa manbalarga oila va gumanitar migratsiyani misol qilish mumkin. Manba ya'ni odamlar jamoasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, migratsiya bizning jamiyatimizga muhim ta'sir ko'rsatadi va bu ko'plab bahsli mavzulardan biri hisoblanadi.

Nima uchun migratsiya jarayoni mamlakatlarning siyosiy iqtisodiyoti uchun, taraqqiyoti hamda xavfsizligi uchun muhim ekanligini tushunish uchun uning mohiyati va asosiy sabablarini tahlil qilish lozim bo'ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining ma'lum bir qismi boshqa mamlakatlarga vaqtincha yoki doimiy ko'chib o'tishi eng ko'p kuzatiladigan jarayondir. Odatda, ushbu ko'chishlarning eng asosiy sababi ish izlash va daromad topish hisoblanadi.

Ishchi migrantlarni qabul qiluvchi mamlakatlar asosan yirik iqtisodiy taraqqiyotga erishgan yoki tez rivojlanayotgan mamlakatlar hisoblanadi. Bundan tashqari, aholisining asosiy qismi malakali ishchi kuchini tashkil qiluvchi mamlakatlar, jismoniy ishlarni bajarish uchun qo'shimcha ishchilarga doim ehtiyoj sezadi.

Birinchi sababni aytib o'tganimizdek, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining hajmi kattaligi sababli, ishchi kuchi yetishmasligi muammosi paydo bo'lishi mumkin. Jumladan, Yevropa Ittifoqining eng taraqqiy etgan mamlakatlariga

janubiy va sharqiy Yevropadan ishchi migrantlari ish izlab borishadi. Jumladan, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Avstriya, Belgiya, Daniya, Skandinaviya mamlakatlarini misol qilib keltirish mumkin. Bundan tashqari, AQSH har yili bir necha o'n minglab migrantlarni qabul qiladi. Har yili o'tkaziladigan, Qo'shma Shtatlarda yashash va ishlash imkonini beruvchi Green Card lotereyasi ham shu maqsadlar uchun tashkil qilingan deyish mumkin. Kanada hukumati esa, 2022 yilgacha 1 million migrantni qabul qilish bo'yicha davlat dasturini ishga tushirdi. Ushbu dasturda butun dunyodan Kanadaga borib ishlamoqchi bo'lgan odamlar, ma'lum talablar asosida tanlab olinadi.


MDH mamlakatlariga qaraydigan bo'lsak, Sobiq Sovet Ittifoqi tarkibida bo'lgan mamlakatlarning bir-biriga o'zaro ishchi kuhchi oqimlarini harakatlanishi doimiy davom etadi. Xususan O'rta Osiyo mamlakatlaridan Rossiya Federatsiyasiga borib ishlaydiganlar shular jumlasidandir. Agar O'zbekiston misolida oladigan bo'lsak, rasmiy statistikaga ko'ra, 3.5 dan 4 milliongacha bo'lgan ishchi migrantlar Rossiya Federatsiyasida vaqtincha va doimiy ish bilan band hisoblanadi. Ushbu raqamlar shuni ko'rsatadiki, migratsiya O'zbekistondagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jihatdan muhim hodisalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari tez rivojlanayotgan Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya, Turkiya hamda migrantlar hisobiga infratuzilmani yaxshilashni maqsad qiladigan yaqin sharq mamlakatlari, jumladan BAA kabilar bugungi migratsiya jarayonlarida faol ishtirok etadilar.

Migratsiyaning birinchi va eng asosiy sababi bu iqtisodiy ahamiyatga ega sabablardir. Ya'ni bir mamlakatda ishsizlikning yuqori ekanligi, boshqa mamlakatda esa ishchi kuchi taqchilligi, hamda bir mamlakatda daromadlarning pastligi va narx navoning balandligi, odamlarni yuqori daromad topish imkoni mavjud va narxlar barqaror bo'lgan mamlakatlarga ko'chishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari migratsiyaga sabab bo'luvchi muhim omillardan biri bu siyosiy beqarorlik, ijtimoiy nizo va urushlardir. Yaqin sharq, Afrika va Osiyoning ba'zi mamlakatlarida yuz berayotgan siyosiy inqirozlar hamda nizolar aholining boshqa tinch va xavfsiz hududlarga ko'chishiga majbur qiladi.

Migratsiyaning yana bir muhim sabablari sifatida rivojlangan mamlakatlardagi aholi sonining o'sishining sekinlashishi hamda yosh, ishga layoqatli aholi qismining kamayishi hisoblanadi. Ortiqcha ishchi kuchiga ega mamlakatlardan ushbu mamlakatlarga ko'chishga bo'lgan harakatlar doimiy davom etishini kuzatish mumkin. Odatda, rivojlangan mamlakatlar ma'lum tizimlar orqali boshqa mamlakatlardan yosh va aqlli aholini jalb qilish dasturlarini ishlab chiqishadi. Eng keng tarqalgan usullardan biri bu yoshlarni sifatli ta'limga jalb qilish, natijada o'qishdan so'nga ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini taqdim etish.



7.1.1-rasm. Migratsiyaning yuzaga keltiruvchi asosiy omillar va sabablar tahlili

Migratsiyaning turlari deganda asosan uning geografik ko'lam va harakatiga qarab ajratish mumkin. Bunda umumiy qilib ikki turni ichki va tashqi migratsiyaning farqlash lozim. Biroq migratsiya tushunchasi bu xalqaro darajadagi hodisa hisoblanadi. Shuning uchun migratsiya deyilganda asosan xalqaro migratsiya

tushuniladi. Xalqaro migratsiya bu odamlarning butun dunyodagi mamlakatlar bo‘ylab harakatlanishi, ko‘chishi va mobilizatsiyasi tushuniladi.

Xalqaro migratsiya sanoati rivojlangan mamlakatlar hukumatlari orasida ham, turli xalqaro agentliklarda ham ko‘proq e‘tiborni tortmoqda. Savdo hukmronlikni davom ettirmoqda. Oxirgi simulyatsiyalar shuni ko‘rsatadiki, global migratsiyaning kichik bosqichlari savdo-sotiqdagi barcha siyosiy to‘siqlarni tugatgandan ko‘ra, jahon ishlab chiqarishni kuchaytirishga ancha chuqurroq ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun pul o‘tkazmalari ularning to‘lov balansini moliyalashtirishning muhim shakliga aylandi, chunki hozirda rivojlanayotgan mintaqalarga yuborilgan pul mablag‘lari taraqqiyotning rasmiy yordamidan oshib ketdi va jami pul o‘tkazmalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini cheklab qo‘ydi.

Xalqaro ishchi kuchi bozoridagi so‘nggi tendensiyalar quyidagilardan biroat bo‘ldi (OECD va Jahon Banki tadqiqotlari asosidagi xulosalar va statistik ko‘rsatkichlar:

- Oxirgi o‘n yil ichida AQShda ishchi kuchining 47%, Yevropada esa 70% migrantlar hissasiga to‘g‘ri keldi.
- Muhojirlar iqtisodiyotning tez rivojlanayotgan va pasayayotgan sohalarida muhim o‘rinlarni egallaydilar.
- Tug‘ilganlar singari yosh muhojirlar ham nafaqaga yaqin bo‘lganlarga qaraganda yaxshiroq ma’lumotga ega.
- Muhojirlar, ayniqsa Yevropada, mehnat bozorining moslashuvchanligiga katta hissa qo‘shadilar.
- Muhojirlar soliq va ijtimoiy badallarga nafaqa olgandan ko‘ra ko‘proq hissa qo‘shadilar.
- Mehnat muhojirlari jamoatchilik ijtimoiy tizimiga va taraqqiyotiga eng ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
- Migratsiya mehnatga layoqatli aholini oshiradi.
- Migrantlar malakaga ega bo‘lib, qabul qiluvchi mamlakatlarning inson kapitalini rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shadilar.

Agar jamiyatimiz migratsiyaning roli haqida foydali bahslashmoqchi bo'lsa, bu ta'sirlarni tushunish juda muhim. Bunday munozaralar, o'z navbatida, ta'lim va bandlik kabi sohalarda, ayniqsa migrantlarning bandlik holatini yaxshilash orqali, migratsiyadan maksimal foyda oladigan siyosatni ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu mavzudagi siyosiy tadbirlar, albatta, har bir mamlakatda turlicha bo'ladi. Qabul qilayotgan mamlakatlar uchun ham, muhojirlarning o'zi uchun ham migratsiyadan qanday foyda olish mumkinligi haqidagi asosiy savol yuzaga keladi va birlamchi o'rinda turadi. Kelgusi o'n yilliklar mobaynida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ko'plab mamlakatlari ishchi kuchi bozorini tahlil qilish natijasida, ayniqsa, aholining tez qarishi migrantlarga ishchi kuchining yetishmasligini qoplash talabini oshiradi.

7.2. Jahon mamlakatlarining milliy migratsiya siyosati

Iqtisodiy nazariya emigratsiyaning mahalliy mehnat bozoriga bir nechta aniq va faraz qilingan ta'sirini taklif qiladi. Emigratsiya, ehtimol, ishchi kuchi taklifini kamaytiradi va aniqrog'i, ishchilarni kamaytiradi buning ta'siri esa ketayotgan mehnat toifalarining mavjudligi, hatto uzoq muddatda ham saqlanib qoladi. Bu ishchilarning ish haqi oshishiga olib keladimi yoki ketayotganlar singari ishchilar bozorida ishsizlikni kamaytiradimi, bu bozorda ish haqining moslashuvchanligi uchun institutsional to'siqlarga, bu turdagi ortiqcha ishchi kuchining tarqalishiga, xalqaro savdoning o'rnini qanday bo'lishi haqidagi mulohazalar muhim ahamiyatga ega. O'zaro bozor ta'siri yanada noaniqligini aytish mumkin ya'ni: malakali ishchilarning ishdan bo'shatilishining ish haqiga yoki kam malakali ishchilarga ta'siri yoki ko'chishining oqibatlarini haqida aniq fikrlar keltirish murakkab jarayon hisoblanadi. Biroq, emigratsiya ortda qolganlarning mehnat bozori tajribasiga ta'sirining potensial ahamiyatiga qaramay, oldingi tadqiqotlarda juda kam tizimli dalillar to'plangan. Bu keng ko'lamli empirik adabiyotlar fonida, immigratsiyaning qabul qiluvchi mamlakat mehnat bozoriga ta'sirini o'rganish imkonini beradi. Bu bo'shliqni hisobga olgan holda, har qanday umumiy xulosalar chiqarish juda ko'p taxminlarni talab qiladi, lekin, ehtimol, ko'rib chiqish natijasida ikki toifadagi


ishlarni ajratish mumkin.

Birinchisi, ketayotgan ishchilarni ishlab chiqarishda sezilarli yo'qotish yoki ish haqining oshishi bilan almashtirish mumkin bo'lgan mamlakatlar to'plami. Bu emigratsiya umumiy mehnat bozoriga nisbatan juda kichik bo'lsa, ketayotganlar ilgari ishsiz bo'lgan yoki ketayotgan ishchilar ishchi sifatining sezilarli pasayishiga olib kelmasdan migratsiya yoki o'qitish orqali almashtirilishi mumkin. Bu, asosan, Bangladesh, Hindiston, Indoneziya va Shri-Lankaga tegishli siyosiy iqtisodiy islohotlar hisoblanadi.

Ishlarning ikkinchi guruhi - bu ish haqining sezilarli darajada oshib borayotgan bosimi aniqlanadigan holatlar. Pokiston malakali qurilish ishchilarining ish haqi va Fors ko'rfaziga emigratsiya o'rtasidagi aniq bog'liqlikni hisobga olganda, bu parametrga ma'lum darajada mos kelgandek tuyuladi, bu aloqa so'nggi o'ttiz yil mobaynida davom etib kelmoqda va malakasiz qurilish ishchilarining ish haqi to'g'risida zaifroq dalillar mavjud. Xuddi shunday, Filippindagi haqiqiy ish haqi migratsiyaga yaxshi ta'sir ko'rsatganligini ko'rish mumkin. Bu, ayniqsa, Filippin ishlab chiqarishi uchun to'g'ri keladi, lekin qishloq xo'jaligida ish haqining pasayishi, bu nuqtai nazardan kuchsiz dalillar bilan ifodalaniladi. Chunki qisman Pokistonga qaraganda qishloq xo'jaligining past daromadli hududlaridan jalb qilinadi.

Quyidagi rasm orqali asosiy uchta eng yirik ishchi kuchi migratsiyasi va ishchi kuchi bozoriga talab hosil qiluvchi hudud va mamlakatlarning ishchi kuchining tarkibiy tuzilishi hamda migratsiyaning ulushini kuzatish mumkin.

2024 yilda dunyo bo'ylab xalqaro migrantlar soni 304 millionga yetdi, bu esa 1990 yildagi 154 millionlik ko'rsatkichga nisbatan deyarli ikki baravarga oshganini ko'rsatadi (7.2.1-rasm). So'nggi o'n yilliklarda xalqaro migrantlarning umumiy soni sezilarli darajada oshgan bo'lsa-da, ularning jahon aholisidagi ulushi hali ham kichikligicha qolmoqda. 2024 yilda global miqyosda aholining atigi 3,7 foizi xalqaro migrantlardan iborat bo'lib, bu 1990 yildagi 2,9 foizdan faqat ozgina o'sish ko'rsatgan.



Manba: Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2025

7.2.1-rasm. 1990-2024 yillar davomida dunyo bo‘ylab xalqaro migrantlar soni va ularning jahon aholisi ulushidagi hissasi


Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining barcha mamlakatlarida bularning faqat kichik qismi ishchi kuchiga kiruvchilar boshqariladigan mehnat migratsiyasi (OYECHDga bo‘lgan barcha harakatlarning faqatgina bir qismini tashkil qiladi) orqali kelganlar va boshqa kanallar orqali kelganlarga qaraydigan bo‘lsak, shu jumladan asosan oilaviy, gumanitar va erkin harakat migratsiyasi hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yuqori malakali ishchi kuchining xalqaro harakatchanligi har xil shakllarga ega: doimiy yashash uchun murojaat etuvchilarga ma’lumot yoki kasb bo‘yicha ballar yoki imtiyozlar beriladi; vaqtinchalik ish vizalari kuchli mutaxassislik malakasiga va ko‘nikmalarga ega bo‘lganlarga beriladi; Bugungi kunga kelib, 4-rejim savdo qoidalari bilan cheklangan professional xizmatlar; to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bilan bir qatorda korxona ichidagi xodimlarning pul o‘tkazmalari kengaytirildi; Bu esa o‘qish va malaka oshirish maqsadida keluvchilar uchun ko‘proq imkoniyatlar taqdim etadi.

Bu jarayonlarda Yevropa Ittifoqi, Shimoliy Amerika davlatlari va Sharqiy Osiyoning boy iqtisodiyotlari juda ko‘p sonli yuqori malakali odamlarni jalb qilish amaliyotini yo‘lga qo‘ygan. Kanada va AQSH, ayniqsa, rivojlanayotgan mintaqalardan ko‘proq malakali kadrlarni jalb qilishdi, bu Kanada va AQShning

imkoniyatlari va qabul strategiyalarining birlamchi vazifalari hisoblanadi. Bundan farqli o'laroq, hech bo'lmaganda, yuqori malakali ishchi kuchlarini jalb qilishga bo'lgan so'nggi urinishlarga qadar, Yevropada an'anaviy ravishda malakasiz ishchilarni import qilish tajribasi ham doim saqlanib qolgan. Chunki oddiy va og'ir ishlarni, qo'l mehnatiga asoslangan jismoniy ishlarni qiluvchilar doim ko'proq kerak bo'lganligi sababli, hatto sobiq Sovet Ittifoqining qulashi ham Sharqiy Yevropadan Yevropa Ittifoqiga professionallarning katta migratsiyasiga olib kelishiga sabab bo'lgan omillardan deyish mumkin. Oldindan ortiqcha xodimlar va byudjetning keskin qisqarishiga qaramay, migratsiya Sharqiy Yevropadan kelgan malakali kadrlar deyarli avval xorijga chiqmagan yoki migratsiya ishtirokchisi bo'lmaganlar tashkil qilgan edi. Ilmiy xodimlarning emigratsiya darajasi sobiq ittifoq mamlakatlaridan rivojlangan davlatlarga ko'chish orqali ularning soni ko'pchilikni tashkil qilgan.

Oliy ma'lumotli odamlarning AQShga migratsiya qilishi juda ko'p mamlakatlar uchun muhim jarayonlardan biri bo'lib kelgan va kollejda o'qigan bitiruvchilarga qaraganda, bu past daromadli ba'zi mamlakatlar uchun ko'proq odam ishtirok etganligini ko'rsatadi. Biroq, hozirgi tahlillar va statistik raqamlar aqlli odamlarning oqishini potensial ahamiyatini to'liq aks ettira olmaydi. Agar kollejda o'qigan yoki Oliy ta'limga ega bo'lgan yosh va iqtidorli, intellektual salohiyati mavjud kadrlar migratsiya tarkibida ko'p bo'ladigan bo'lsa, ularning chiqib ketishining nisbatan ahamiyati aholi sonining katta qismidan ko'ra muhimroq ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.



Manba: Birlashgan Millatlar Tashkiloti (2025)

7.2.2-rasm. 1990-2024 yillarda mintaqalar bo'yicha xalqaro migrantlar soni

2024 yilda Yevropa 94 million xalqaro migrantga mezbonlik qilib, boshqa mintaqalarga nisbatan eng katta ko'rsatkichga ega bo'ldi (7.2.2-rasm). Shimoliy Amerika 61 million xalqaro migrant bilan ikkinchi o'rinni egalladi, undan keyin Shimoliy Afrika va G'arbiy Osiyo 54 million migrant bilan uchinchi o'rinda turdi.

Yevropa 1990-2024 yillarda sakkizta asosiy mintaqa orasida xalqaro migrantlar soni bo'yicha eng katta o'sishni qayd etdi – bu davrda 43 millionga ko'paydi. 2020-yildan keyin Yevropada xalqaro migrantlar sonining o'sish sur'ati tezlashdi, bu asosan Ukrainadan kelgan qochqinlar oqimi bilan bog'liq. Shimoliy Amerika esa 1990-2024 yillarda 34 million xalqaro migrant qo'shgan bo'lsa-da, bu mintaqadagi o'sish sur'ati vaqt o'tishi bilan pasayib bormoqda. 2020-2024 yillarda Shimoliy Amerikadagi xalqaro migrantlar soni yillik o'rtacha 1 foizdan kam o'sdi, bu esa 1990-2000 yillardagi yillik 3,8 foiz va 2000-2010 yillardagi 2,3 foizlik o'sish sur'atlari bilan solishtirganda ancha pastdir.

2024 yilda Okeaniya aholisi 46 million kishini tashkil etib, boshqa mintaqalarga nisbatan kichikroq bo'lsa-da, uning 21 foizini xalqaro migrantlar tashkil etdi. Aholiga nisbatan xalqaro migrantlarning eng yuqori ulushi bo'yicha Okeaniyadan keyingi o'rinlarni Shimoliy Amerika (2024 yilda 385 million aholining

16 foizi) va Yevropa (745 million aholining 13 foizi) egalladi. Boshqa tomondan, jahon aholisining yarmidan ko'p qismi yashaydigan Markaziy va Janubiy Osiyo hamda Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqalarida xalqaro migrantlar 2024 yilda umumiy aholi sonining 1 foizidan ham kamini tashkil etdi.

Umumiy qilib, muhojirlar va ishchi kuchi tarkibidagi o'zgarishlar barcha mamlakatlarning migratsion jarayonlarni boshqarishi va siyosiy dasturlar ishlab chiqishini taqozo etadi. Yevropa Ittifoqi qonuniy migratsiya oqimlarini boshqarish uchun turli qoidalar va tizimlarni qabul qildi, bular quyidagi asosiy qismlar hisoblanadi:

- boshpana izlovchilar
- yuqori malakali ishchilar
- talabalar va tadqiqotchilar
- mavsumiy ishchilar
- oilani birlashtirish

Boshqa migratsion oqimlarga kelsak, Yevropa Ittifoqi quyidagilarni qonunchilik va nazorat asosida tartibga soladi:

- boshpana so'rovlarini ko'rib chiqishning umumiy qoidalari
- noqonuniy muhojirlarni qaytarish uchun readmissiya shartnomalari

2015 yilda Yevropa Komissiyasi Yevropa Ittifoqining migratsion siyosatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini taklif qildi. Yevropa Ittifoqining dunyodagi mavjudligini (ya'ni aholi tarkibini saqlab qolish) kuchaytirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu qaror 2015–2020 yillarga mo'ljallangan migrantlar noqonuniy harakatiga qarshi harakatlar rejasi bilan mustahkamlandi: Natijada huquqni muhofaza qilish va sud faoliyatini rag'batlantirishni kuchaytirish, muhojirlar to'g'risida ma'lumot to'plash va almashishni takomillashtirish hamda Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan davlatlar bilan hamkorlikni to'xtatdi.

Migratsiya siyosatining asosiy tamoyillaridan biri - migratsiya muammosini hal qilishda siyosiy va ijtimoiy kuchlarni muvofiqlashtirishda tabiiy inson huquqlarini hurmat qilishda ifodalangan birdamlik prinsipidir. 2015 yildan boshlab Markaziy Yevropaning ko'plab davlatlari o'z chegaralarini bir tomonlama tartibda

yopib qo'ydi, odamlarni Yevropa Ittifoqi davlatlari chegaralarida qamab qo'ydi, bu ularning keyingi harakatlari niyatlarini qo'shimcha tekshirish uchun, shu bilan Shengen davlatlari birdamligiga putur yetkazdi va arizalarni ko'rib chiqish tartibini belgilaydigan Dublin qoidalarini buzdi.

Yevropa Ittifoqi G'arbiy Bolqon orqali migratsiya yo'lini to'sib qo'ydi va Yevropaga faqat Turkiyadan kelib chiqqan qonuniy yo'llar bilan boradigan muhojir va qochqinlarni qo'ydi. Shunday qilib, shunday taxmin qilingan edi: ishtirokchi davlatlar o'z hududlari orqali muhojirlar va qochqinlarning o'tishini abadiy to'xtatadilar; Yevropa Ittifoqining tashqi chegaralarida kirishning qattiq nazorati joriy etiladi; Gretsiya kuchli migratsiya oqimining qabul qilinishi tufayli katta moliyaviy yordam oladi, shuningdek, Anqara bilan Turkiya o'z chegarasi bo'ylab Yevropaga noqonuniy muhojirlarni qo'yib yubormasligi va Yevropa Ittifoqiga kiritilmagan muhojirlarni qaytarib olishi to'g'risida kelishuvga erishiladi.

7.3. Siyosiy qochqinlar muammosi

Global siyosiy iqtisodiyot sohasining birlamchi vazifalaridan biri bu iqtisodiy barqarorlikni va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga erishi ekanligini ta'kidlagan edik. Migratsiya mavzusini tadqiq etishda, aholining ko'chishi doim ham ijobiy natija emasligi, shuningdek, katta aholi oqimining harakatlanishi, kirib keluvchi va chiqib ketuvchi mamlakatlar uchun jiddiy oqibatlariga olib kelishi, ijtimoiy va iqtisodiy taranglikni oshirishi mumkin. Amaliyotga qaraydigan bo'lsak, migratsiya doim ham belgilangan xalqaro qoidalar va mamlaktlar ichki tartib intizomiga muvofiq ravishda kechmaydi. Ya'ni mamlakatga kirishda noqonuniy usullar, siyosiy inqirozlar natijasidagi qochoqlar va boshpana izlovchilar masalalari oxirgi yillardagi dolzarb ahamiyatga ega bo'ldi.

Jumladan, siyosiy qochoqlar bilan bog'liq vaziyatni tahlil qiladigan bo'lsak, ularning asosiy yuzaga keltiruvchi sabablari global siyosiy iqtisod sohasidagi muammolar bilan bog'liqligini ko'rish mumkin. Oxirgi o'n yillikda dunyo bo'ylab ko'plab qochoqlar harakati yuzaga keldi. Yaqin va O'rta Sharqdagi siyosiy inqirozlar, jumladan Suriya, Iroq, Falastindagi vaziyatlar, hamda Afg'oniston,

Pokiston, Birma kabi mamlakatlardagi qochoqlar sonining ortishini kuzatish mumkin.


"Qochqin", "boshpana izlovchi" va "muhojir" atamaları harakatda bo'lgan, o'z mamlakatini tashlab, chegarani kesib o'tgan odamlarni ifodalash uchun ishlatiladi. "Ko'chmanchi" va "qochqin" atamaları ko'pincha bir-birining o'rnida ishlatiladi, lekin yuridik jihatdan farq borligi uchun ularni farqlash muhimdir. Migrantning xalqaro miqyosda qabul qilingan qonuniy ta'rifi yo'q. Ko'pgina agentliklar va tashkilotlar singari, biz ham Xalqaro Amnistiya tashkilotida muhojirlarni o'z mamlakatidan tashqarida qolgan, boshpana izlayotgan yoki qochqin bo'lmagan odamlar deb tushunamiz.

Ba'zi muhojirlar, masalan, ishlashni, o'qishni yoki oilaga qo'shilishni xohlaganlari uchun o'z mamlakatlarini tark etishadi. Boshqalar esa, qashshoqlik, siyosiy tartibsizliklar, to'dalar zo'ravonligi, tabiiy ofatlar yoki boshqa jiddiy vaziyatlar tufayli ular tark etishlari kerak deb o'ylaydilar. Migratsiya orqali ko'chirish, himoyaga muhtoj qochqinlarga xavfli sayohatlar qilib, o'z hayotlarini xavf ostiga qo'ymasdan, qonuniy va xavfsiz tarzda Yevropa Ittifoqiga kirishga imkon beradi.

2015 yildan buyon Yevropa Ittifoqi homiyligida o'tkazilgan ikkita muvaffaqiyatli ko'chirish dasturi 70 000 dan ortiq himoyalanmagan, xalqaro himoyaga muhtoj odamlarga Yevropa Ittifoqida boshpana topishga yordam berdi: 19 452 kishi 2015 yil birinchi ko'chirish sxemasi bo'yicha Yevropa Ittifoqiga joylashtirildi. 2017 yilgi ikkinchi ko'chirish sxemasi bo'yicha deyarli 44000 kishi ko'chirildi va a'zo davlatlar 2020 va 2021 yillarda o'z va'dalarini bajarishda davom etishadi. Ikki sxema umumiy ko'chirish va'dalarining 86 foizini qamrab oldi. Bundan tashqari, 2020 yil sentabr oyining o'rtalariga kelib, 2016 yilgi Yevropa Ittifoqi Turkiya bayonotiga binoan 27000 dan ortiq odam boshqa joyga ko'chirilgan.

2019 yil iyul oyida o'tkazilgan 9-ko'chirish forumida Yevropa Komissiyasi a'zo davlatlarni ko'chirish harakatlari barqaror asos yaratilguncha davom etishini ta'minlash uchun 2020 yilga ko'chirish va'dalarini taqdim etishni taklif qildi. A'zo davlatlar atigi 29 500 ta garovni topshirdilar.

Biroq, koronavirus tarqalishi ko‘chirish ishlarining keskin buzilishiga olib keldi va dastlabki bir yillik dastur 2020-2021 yillarni qamrab oladigan ikki yillik dasturga aylantirildi. Yevropa Ittifoqining ko‘chirish harakatlarining uzluksiz davom etishini ta’minlash uchun 2022 yildan boshlab a’zo davlatlarning va’dalarini qo‘llab-quvvatlash uchun 2021-2027 yillardagi boshpana va migratsiya fondida ajratilgan moliyaviy resurslarni hisobga olgan holda yangi ko‘chirish dasturlarini ko‘rib chiqish kerak.



7.3.1-rasm. Yevropa Ittifoqidan boshpana so‘rab berilgan arizalarning jami miqdori. Manba: Eurostat, 2020

2015 yilda Suriya va unga qo‘shni mamlakatlarda, yuz bergan siyosiy inqiroz tufayli 1 milliondan ortiq odam siyosiy qochqin sifatida boshpana so‘ragan. Ushbu miqdordagi boshpana so‘rash jarayoni bevosita arizalar bilan emas, balki migrantlar yoki qochoqlar oqimining mintaqaga harakatlanishi orqali yuz berdi. Ushbu hodisa 2014-2015 yillarda sodir bo‘ldi va bu tarixda migratsiya inqirozi nomini oldi.

Umumiy Yevropa boshpana tizimi

Umumiy Yevropa boshpana tizimi (CEAS) boshpana izlovchilarning murojaatlarini o‘rganish uchun umumiy minimal standartlarni belgilaydi. Amalda,

boshpana izlovchilarga bir xil muomala qilinmaydi va a'zo davlatlar orasida tan olinish darajasi ham turlicha bo'ladi. Natijada, ko'p boshpana izlovchilar Yevropa Ittifoqi hududida boshpana so'rash uchun eng yaxshi mamlakatni qidirish uchun ko'chib o'tishadi. Bu hodisa "boshpana sotib olish" deb nomlanadi.

Migratsion inqiroz bu masalani yanada kuchaytirdi va boshpana berish tartib - qoidalari va standartlarini yaxshiroq uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Hozirda Kengash 2016 yilda Yevropa Komissiyasi tomonidan boshpana berish tizimini isloh qilish bo'yicha ilgari surilgan qonunchilik takliflarini, shuningdek, Komissiyaning migratsiya va boshpana to'g'risidagi yangi paktining 2020 yil sentabr oyida kiritilgan beshta yangi qonunchilik takliflarini ko'rib chiqmoqda. Qochqinlar inqirozi majburiy ko'chirilganlarning katta guruhlarini qabul qilishdagi qiyinchiliklar va xavfli vaziyatlarni ko'rsatishi mumkin. Bular ichki ko'chirilganlar, qochqinlar, boshpana izlovchilar yoki boshqa katta muhojirlar guruhlarini bo'lishi mumkin.

Inqiroz, mamlakatni tark etishga urinayotganda yoki xavfsiz mamlakatga ketayotganda yoki boshpana olgan mamlakatga kelganidan keyin ham yuz berishi mumkin. Vaziyatni majburan ko'chirilganlar nuqtai nazaridan yoki qabul qiluvchi davlat nuqtai nazaridan yoki ikkalasini ham inqiroz deb atash mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochoqlar bo'yicha Oliy Komissarligi ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yil yanvar holatiga ko'ra, butun dunyo bo'ylab 70,8 million (41,3 million ichki, 25,9 million ro'yxatga olingan).

2016 yilda taxminan 362 ming qochqin O'rta yer dengizidan o'tib, o'z mamlakatlaridagi xavf tufayli Yevropaga yetib borishga harakat qilgan. 2017 yilning birinchi yarmida Yevropaga O'rta yer dengizi orqali 105 mingdan ortiq qochqin va muhojir kirdi.

2019 yil holatiga ko'ra, 63 311 kishi O'rta yer dengizi orqali Yevropani kesib o'tdi va kamida 1028 kishi cho'kib ketish oqibatida vafot etdi. Dunyo miqyosida deyarli har bir qit'ada majburan ko'chirilgan odamlar soni rekord darajaga yetkanligini kuzatish mumkin. Misli ko'rilmagan 65,6 million odam o'z uylarini tashlab ketishga majbur bo'ldi, ulardan 22,5 millioni qochqinlardir. Hozirgi kunda

dunyodagi har 113 kishidan 1 nafari boshpana izlovchisidir, o'z uyini ko'chirgan yoki qochqin maqomida ekanligi ta'kidlanadi.

Majburiy joy almashish 1990 yillarning o'rtalaridan beri kuchayib bormoqda, lekin oxirgi besh yil ichida uning darajasi oshib bormoqda. Bugungi kunda har daqiqada yigirmadan ziyod odam ko'chiriladi. 2005 yilda bu ko'rsatkich 6 kishini tashkil qilayotgan edi.

Ko'chib yurishning o'sib borayotgan o sabablari juda ko'p va ular murakkab. Biroq, BMT QOKB uchta asosiy sababni aniqladi:


Birinchidan, ko'p sonli qochqinlarni keltirib chiqaradigan holatlar (shu jumladan fuqarolik, xalqaro va xalqaro urushlar) uzoq davom etadi;

Ikkinchidan, hozirda davom etayotgan bir qator yangi va qaytadan to'qnashuvlar mavjud (xususan, Suriya, Iroq, Janubiy Sudan va boshqalar);

Uchinchidan, qochqinlar va majburiy ko'chib kelganlar uchun yechimlarni topish tezligi Sovuq Urush tugaganidan beri pasayish tendensiyasida.

Ushbu majburiy harakatning ko'lami, shubhasiz, "inqiroz" atamasini qonuniylashtiradi. Biroq, bunday apokaliptik tilni ishlatish, siyosiy irodaning yoki harakatning etishmasligini yashirish uchun ishlatilishi mumkin, bunda muammoni hal qilish esa murakkabligicha qolishini ta'kidlash lozim.

2015 yildan beri bu amaliyot butun Yevropa bo'ylab yaxshi hujjatlashtirilgan. "Qochqinlar inqirozi" odatiy iboraga aylandi, uni siyosatchilar va ommaviy axborot vositalari vakillari doim tilga olishadi. Bu qit'ada boshpana izlagan va xavfsizlikka erishish uchun tartibsiz sayohat qilgan, ehtimol qayiqda yoki yuk mashinalarida yashiringan odamlar sonining ko'payishiga ishora qiladi. Ammo bu hikoya Yevropadagi vaziyatni tubdan noto'g'ri talqin qiladi: qochqinlar Yevropa inqirozining yaratuvchilari emas, balki ba'zida ular buning qurbonlaridir va bu inqiroz siyosiy xarakterga ega ekanligini ham unutmaslik lozim.



Manba: Birlashgan Millatlar Tashkiloti (2025) va BMT Qochqinlar Agentligi (UNHCR, 2024)

7.3.2-rasm. 1990-2024 yillarda xalqaro migrantlar soni va qochqinlar ulushi

Ta'qib, qurolli mojaro, zo'ravonlik va inson huquqlari buzilishlari sababli xalqaro chegaralarni kesib o'tishga majbur bo'lgan qochqinlar va boshpana izlovchilar soni misli ko'rilmagan darajaga yetdi. 2024 yilning o'rtalariga kelib, dunyo bo'ylab 38 millionga yaqin qochqin mavjud edi. Ulardan 32 millioni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha Oliy komissari (UNHCR) mandatiga, yana 6 millioni esa Falastinlik Qochqinlarga Yordam va Ishlar bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti Agentligi (UNRWA) mandatiga tegishli edi.

Bundan tashqari, 8 million boshpana izlovchi va xalqaro himoyaga muhtoj bo'lgan 6 millionga yaqin boshqa shaxslar ham mavjud edi. Umuman olganda, 2024 yilda dunyo bo'ylab 51,7 million kishi – har olti xalqaro migrantdan biri – xalqaro chegaralar orqali majburan ko'chirilgan (7.3.2-rasm). Bu 1950-yillardan beri qayd etilgan eng yuqori ko'rsatkich bo'lib, aynan o'sha davrdan boshlab global qochqinlar statistikasi yuritila boshlangan (Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 2024).

2020 yilda Xalqaro Migrantlar Statistikasi ma'lumotlar bazasining so'nggi nashri chop etilgandan beri, Afg'oniston, Venesuela, Suriya kabi mamlakatlardagi davom etayotgan gumanitar inqirozlar hamda Sudan va Ukraina kabi davlatlarda yuzaga kelgan yangi inqirozlar ba'zi mamlakatlar va mintaqalarda xalqaro migrantlar sonining sezilarli o'zgarishiga olib keldi. Global miqyosda, 2010-2024

yillar oralig'ida 18 million qochqin, boshpana izlovchilar va xalqaro himoyaga muhtoj boshqa shaxslarning qo'shilishi ushbu davrda xalqaro migrantlar sonining o'sishining beshdan bir qismini tashkil etdi. Aksincha, avvalgi ikki o'n yillik davomida ushbu toifalarga mansub xalqaro migrantlar soni kamaygan edi.

7.4. O'zbekistonda migratsiya siyosati. Xalqaro mehnat bozorlari bilan hamkorlik

Mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy iqtisodiyot samaradorligini baholash mezonlaridan biri bu ijtimoiy sohani rivojlantirish va aholini ish bilan ta'minlashdir. 2017-2020 yillar mobaynida O'zbekistondagi mehnat bozorida ba'zi o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev rahbarligida ish bilan ta'minlash va tashqi mehnat migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solishning huquqiy va institutsional mexanizmlari yaratildi.

Iqtisodiy o'sish, bandlik va kambag'allikni kamaytirish o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud edi. Bunga iqtisodiy o'sishni bandlikka aylantirish, sifatli ish bilan ta'minlash uchun imkoniyatlar yaratish, shuningdek xavfsiz, uyushgan mehnat migratsiyasini rag'batlantirish yordam berdi. Davlat aholining zaif qatlamlarini - ishsiz ayollar va yoshlarni, nogironlarni o'qitish va ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratdi. Inklyuziv bandlik koronavirus pandemiyasi sharoitida ijtimoiy himoyaning muhim elementiga aylandi.

O'zbekiston uchun mehnat migratsiyasi bilan bog'liq muammolarni hal qilishning mumkin bo'lgan yechimlaridan biri bu YEOII bilan hamkorlik qilish hisoblanadi. Ittifoqqa a'zo davlatlar fuqarolari ittifoq tarkibidagi umumiy mehnat bozorining afzalliklaridan foydalanadi, rasmiy mehnat shartnomasiga ega aholi esa ittifoq hududida muddatsiz qolishlari mumkin.

Dekabr oyida O'zbekiston YEOII'da kuzatuvchi maqomini oldi. Shu nuqtai nazardan, tashkilot doirasidagi mehnat migratsiyasining hozirgi holati va istiqbollari ko'rib chiqish alohida qiziqish uyg'otadi.

Ma'lumot uchun: Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YEOII) – bu mintaqaviy iqtisodiy integratsiya hisoblanib, faoliyati Ittifoq Shartnomasiga asosan tartibga

solinadi. Shartnomaning birinchi moddasida, a'zo davlatlar Ittifoq doirasida tovar va xizmatlar, kapital va ishchi kuchining erkin harakatini ta'minlashi lozimligi ko'rsatilgan.

Bugungi kunda YEOII tarkibiga quyidagi 5 ta mamlakat a'zo: Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi. Tashkilotga a'zo davlatlar hisobiga quruqlikning 14 foizi to'g'ri kelib, ularda 185 millionga yaqin aholi istiqomat qiladi.


YEOII doirasida mehnat migratsiyasi

Ittifoq shartnomasi a'zo davlatlarga ittifoq doirasida mehnat migratsiyasi siyosatini tartibga solish sohasidagi siyosatni hamkorlikda olib borish majburiyatini yuklaydi. Shu bilan birga, ishchi kuchining ijtimoiy ta'minoti, tibbiy xizmati, ish tajini hisobga olish va albatta pensiya tizimi bilan bog'liq masalalarni tartibga soladi.

YEOII davlatlari hududida O'zbekistonlik mehnat migrantlarining soni qanchani tashkil qiladi?

O'zbekiston uchun YEOII mehnat migratsiyasi jarayonlari jihatdan muhim tuzilma hisoblanadi. Sababi, O'zbekiston fuqarolarining aksariyat qismi YEOIIga a'zo davlatlar hududida mehnat qilishadi. Xususan, mehnat migratsiyasi masalalari agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilda Rossiya Federatsiyasida mehnat qilgan O'zbekiston fuqarolarining soni deyarli 1,6 million nafarni, Qozog'iston hududida esa 300 ming nafardan oshiqni tashkil qilgan.

Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2017-2019 yillar davomida O'zbekiston Fuqarolari Rossiya Federatsiyasi hududiga 13 million marta yaqin tashrif buyurgan. Ularning aksariyat (99 foizi) qismi vaqtinchalik yashash joyi, 1 foizga yaqini esa doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan.



Manba: O'zStat, 2024-yil

7.4.1-rasm. O'zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun borish mamlakatlari bo'yicha emigratsiya ko'lam, 2023-yil 1-choragi va 2024-yil 1-choragi (mutlaq raqamlar)

2024 yilning 1-choragida O'zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun ko'chib ketgan shaxslar soni 2,586 nafarni tashkil etdi. Bu 2023-yilning shu davridagi emigrantlar soniga nisbatan (4,063 kishi) deyarli 36 foizga kam ko'rsatgichdir.

2024 yilning 1-choragida ro'yxatga olingan O'zbekistondan eng yuqori emigratsiya Qozog'istonga bo'lib (2,125 kishi yoki 82.2%), undan keyingi o'rinlarda Rossiya Federatsiyasi (357 kishi yoki 13.8 %), Qirg'iziston (22 kishi yoki 0.9%), Koreya Respublikasi (20 kishi yoki 0.8%), Turkmaniston (8 kishi yoki 0.3%) va boshqa mamlakatlar (54 kishi yoki 2%) qayd etilgan.

Jinsiy tarkib nuqtai nazaridan, erkak va ayol emigrantlar orasida muvozanatli nisbat kuzatilib, ularning 1,323 nafari erkaklar (51.2%) va 1,263 nafari ayollar (48.8%) bo'lgan (O'zStat, 2024 yil; 2023 yil).

Mehnat migratsiyasi mamlakatdagi migratsiyaning asosiy omili bo'lib qolmoqda, chunki O'zbekiston hukumati xorijda ishlashni xohlovchi O'zbekiston fuqarolarining xavfsiz, muntazam va tartibli mehnat migratsiyasini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini davom ettirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2024 yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi

Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligiga (TMMA) 100 ming nafar ishchi va xorijiy tillarni biladigan malakali kasb egalarini tashkillashtirilgan tashqi mehnat migratsiyasi uchun

tayyorlash bo'yicha topshiriq bergan edi (Prezident matbuot xizmati, 2024 yil). Shundan so'ng, TMMA 2024 yilda Germaniyada xorijiy ish beruvchilar bilan hamkorlikda 50,000 ta bo'sh ish o'rinlari uchun tanlov o'tkazishini e'lon qildi, jumladan, hamshira, yuk mashinasi haydovchisi, yuk mashinalari va qishloq xo'jaligi texnikasiga texnik xizmat ko'rsatish, mehmonxona boshqaruvi, restoran, ish, turizm, hunarmandchilik, mexatronika, qurilish va boshqa sohalar (TMMA, 2024 yil (a)). 2024 yil mart oyida TMMA 2024 yilda Koreya Respublikasida 37,000 ga yaqin ish o'rinlari uchun tanlov asosida 100,000 ga yaqin kishi jalb etilishini e'lon qildi. Ishga qabul qilingan mehnat migrantlari ishlab chiqarish (22,248 kishi), qishloq xo'jaligi (6,858 kishi), xizmat ko'rsatish sohasi (5,403 kishi) va qurilish (2,898 kishi) sohalarida ish bilan ta'minlanadi (TMMA, 2024 yil(b)).

O'zbekistonlik mehnat migrantlari YEOII davlatlari hududida qanday sohalarda faoliyat olib boradi?

Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi ma'lumotlariga ko'ra, o'zbekistonliklar Rossiya hududida asosan qurilish, kommunal xizmat ko'rsatish, transport va logistika, chakana va ulgurji savdo, umumiy ovqatlanish sohalarida faoliyat yuritadi. Qozog'iston Respublikasida esa o'zbekistonliklarning aksariyati qurilish va qishloq xo'jaligi sohalarida mehnat qiladi.

Rossiya Federatsiyasi statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, ushbu sohalarda yollanma ishchining o'rtacha oylik ish haqi miqdori 300-700 AQSH dollari orasida o'zgaradi. Xususan, qurilish sohasida 485-625 AQSH dollari, kommunal xizmat ko'rsatishda 485-555 AQSH dollari oralig'ida bo'lsa, Tekstil sohasida esa 485 AQSH dollaridan boshlanadi.

Qozog'istonda esa qurilish sohasida o'rtacha oylik ish haqi 500 AQSH dollaridan, qishloq xo'jaligida esa 270 AQSH dollaridan boshlanadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, yuqorida keltirilgan raqamlar mehnat muhojirining geografik joylashuvi, texnik ko'nikmalari va boshqa ko'plab omillarga bog'liq hisoblanadi.

Mehnat muhojirlarining qolgan 20 foizga yaqin qismi esa ma'lum darajada yuqori ko'nikma talab qiluvchi sohalarda faoliyat yuritadi. Xususan, 7 foizga yaqini - iqtisodiyot, bank va moliya, 5 foizi - ta'lim, 3 foizi - tibbiyot, 3 foizi - muhandislik

va texnologiya, 2 foizi - huquq va boshqa sohalarda mehnat qiladi.

Yevropa Ittifoqi davlatlari

Yevropa Ittifoqi (YeI) mamlakatlarida yashash huquqiga ega bo'lgan O'zbekiston fuqarolari soni haqidagi so'nggi mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yil 31-dekabr holatiga ko'ra 40,406 nafar o'zbekistonlik migrant bunday huquqqa ega bo'lgan hamda hisobot tayyorlangan vaqtda bunday ma'lumot 2023 yil va 2024 yilning 1-choragi uchun hali yangilanmagan edi (Yevrostat, 2023-yil(a)).

2024 yilning oxiriga kelib Yevropa Ittifoqi hududini tark etish to'g'risida buyruq yuborilgan O'zbekiston fuqarolari soni 3,790 nafarni tashkil etgan. Ularning aksariyati shu davrda Shvetsiya (895 kishi) va Latviyada (840 kishi) istiqomat qilgan ((Yevrostat, 2023 yil(b)). 2024 yilning 1-choragida O'zbekiston fuqarolarining Yevropa Ittifoqi davlatlaridan boshpana so'rab murojaatlari soni 310 tani tashkil etib, ularning aksariyati (225 ta ariza yoki 75%) Shvetsiyada qabul qilingan. Shu bilan birga, 2023 yilda O'zbekiston fuqarolarining boshpana so'rab murojaat qilishlari umumiy soni 1,165 ta arizaga teng bo'lgan edi va bu arizalarning ham asosiy qismi (700 ta ariza yoki 60%) ham Shvetsiyada ro'yxatga olingan (Yevrostat, 2024 yil).

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Xalqaro migratsiya - odamlarning odatiy yashash joyidan uzoqlashishi va xalqaro chegara orqali fuqaroligi bo'lmagan mamlakatga ko'chishi.

Migrant (muhojir) - Xalqaro muhojirning rasmiy qonuniy ta'rifi bo'lmasada, ko'pchilik ekspertlar, xalqaro migrant, migratsiya sababidan yoki huquqiy maqomidan qat'iy nazar, odatiy yashash joyini o'zgartiradigan odam, degan fikrga qo'shiladilar. Umuman olganda, qisqa muddatli yoki vaqtinchalik migratsiya farqlanadi, bu uch oydan 12 oygacha bo'lgan harakatlarni o'z ichiga oladi va uzoq muddatli yoki doimiy migratsiyani o'z ichiga oladi.

Qochqinlar - ta'qiblar, ziddiyatlar, umumiy zo'ravonlik yoki jamoat tartibini jiddiy ravishda buzgan va buning natijasida xalqaro himoyaga muhtoj bo'lgan boshqa holatlar tufayli o'z mamlakatidan tashqarida bo'lgan shaxslar. Qochqinlar

ta'rifini 1951 yildagi Konvensiya va qochqinlarning mintaqaviy hujjatlari, shuningdek, Qochqinlar Qochqinlari Boshqarmasining Nizomida topish mumkin.

Immigratsiya - kelgan mamlakat nuqtai nazaridan, o'z fuqarosi yoki odatiy turar joyidan boshqa mamlakatga ko'chib o'tish, shuning uchun boradigan mamlakat uning yangi yashash joyiga aylanadi.

Emmigratsiya - ketish mamlakati nuqtai nazaridan, o'z fuqarosi yoki odatiy turar joyidan boshqa mamlakatga ko'chib o'tish, shuning uchun boradigan mamlakat uning yangi yashash joyiga aylanadi.

Ikki tomonlama mehnat migratsiyasi to'g'risidagi bitimlar - ikki davlat o'rtasida tuzilgan, qonuniy kuchga ega bo'lgan va asosan mehnat migratsiyasi bo'yicha davlatlararo hamkorlikka tegishli shartnomalar.

Ixtiyoriy qaytish va reintegratsiya yordami - qabul qiluvchi mamlakatda yoki tranzit mamlakatida qolishni istamagan yoki xohlamagan va o'z vataniga qaytishga qaror qilgan muhojirlarga reintegratsiya yordamini o'z ichiga olgan ma'muriy, moddiy yoki moliyaviy yordam.

Bandlik - 1. Ijara shartnomasi bo'yicha ish haqi yoki ish haqi uchun bajariladigan xizmat. 2. Iqtisodiyotdagi ish bilan band bo'lgan jami odamlar soni.

Ushab turishning muqobillari - shaxslarni migratsion maqomiga bog'liq sabablarga ko'ra keraksiz hibsga olishning oldini olishga qaratilgan har qanday qonun, siyosat yoki amaliyot, rasmiy yoki norasmiy tadbirlar.

Boshpana izlovchi (asylum seeker) - xalqaro himoyaga muhtoj shaxs. Shaxsiy tartib-tamoyillarga ega bo'lgan mamlakatlarda, boshpana izlovchi - bu da'vosi u bergan mamlakat tomonidan halizgacha hal qilinmagan shaxs. Har bir boshpana izlovchi oxir -oqibat qochqin sifatida tan olinmaydi, lekin har bir tan olingan qochqin dastlab boshpana izlovchidir.

Chegara boshqaruvi - shaxslarni aniqlash, qutqarish, ushlab qolish, skrining, intervyu, identifikatsiya qilish, qabul qilish, yuborish, hibsga olishni o'z ichiga olgan shtat hududiga odamlarning kirishi va chiqib ketishi bilan bog'liq qonunchilik, siyosat, rejalar, strategiyalar, harakat rejaları va tadbirlar, olib tashlash yoki qaytarish, shuningdek, ta'lim, texnik, moliyaviy va boshqa yordam, shu jumladan

boshqa davlatlarga ko'rsatiladigan yordamchi tadbirlar.

Kollektiv chiqarib yuborish - fuqarolik bo'lmaganlarni guruh sifatida mamlakatni tark etishga majbur qiladigan har qanday chora, agar bunday chora har bir shaxsning ishini oqilona va xolis tekshirish asosida amalga oshirilsa.

Ko'chirish (displacement) - bu qurolli to'qnashuvlar, umumiy zo'ravonlik holatlari, huquqlar yoki tabiiy yoki texnogen ofatlar, odamlarning huquqbuzarliklari oqibatida yoki undan qochish uchun majburan uylarini yoki odatiy yashash joylarini tark etishga majbur bo'lgan odamlarning harakati.

Gumanitar qabul - bu himoyalashga muhtoj shaxslar yoki shaxslar guruhiga vaqtincha yoki doimiy ravishda mamlakatga kirish yo'lini taklif etuvchi tezkor jarayon.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Migratsiya tushunchasi, migratsiyaning yuzaga kelishi va tarixiy omillarning ahamiyatini tushuntiring.
2. Nima uchun xalqaro migratsiya jarayonlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega, bu jarayonda asosiy omillar va sabablar nimalardan iborat?
3. Xalqaro migratsiyaning rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar munosabatlaridagi o'rnini baholang.
4. Rivojlangan mamlakatlarning migratsiya siyosati, ishchi muhojirlarni qabul qilish shart-sharoitlarini bayon qiling.
5. Siyosiy qochqinlik maqomi, siyosiy boshpana olish, qochoqlar inqirozini boshqarish modellarini tushuntiring.
6. O'zbekistonning migratsiya siyosati, tashqi migratsiyani tartibga solish chora-tadbirlari nimalardan iborat?
7. O'zbekistonda migratsiyaning milliy iqtisodiyotga va barqaror rivojlanishga ta'siri, hamda uning salbiy oqibatlarini baholang.
8. Xalqaro migratsiyani boshqarish va muhim sabablarni tahlil qilishning xorijiy tajribalaridan nimalarni bilasiz?

VAZIYATLI TOPSHIRIQ - KEYS

Migratsiya va rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik tajribalarining xilma-xilligini o'rganish uchun ushbu tadqiqotda alohida e'tibor uchun to'rtta migratsiya rejimi tanlab olindi. Ularning har biri alohida xususiyatlari, garchi barchasi past daromadli mamlakatlardan yuqori daromadli mamlakatlarga asosiy migratsiya oqimlarini aks ettirsada muhim tahliliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu to'rt rejim birgalikda migratsiya tajribalarining xilma-xilligini ifodalab, past daromadli mamlakatlardan yuqori daromadli mamlakatlarga global migratsiyaning katta qismini o'z ichiga oladi:

1. Yevropa Ittifoqiga migratsiya: a'zo davlatlar o'rtasida migratsiya siyosatini muvofiqlashtirish, tartibsiz migratsiyani nazorat qilish, qisqa muddatli mehnat muhojirlaridan keng foydalanish holati. Qochqinlar va boshpana izlovchilarga nisbatan strategiyalar birinchi o'ringa chiqadi.

2. Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyodan Fors ko'rfazidagi shartnoma bo'yicha ishchilar: oilaviy hamrohlik qilmasdan, ma'lum muddatga tuzilgan shartnomalar bo'yicha migratsiya hukmronlik qilmoqda, ayollarning mehnat migratsiyasi.

3. Aqlarning Shimoliy Amerikaga oqishi: bu mamlakatlarda an'anaviy joylashuvning qonuniy migratsiyasi, migrantlar ko'nikmalarining bimodal taqsimlanishi natijasida; yuqori malakali muhojirlar doimiy ravishda oilaviy hamrohlik bilan qabul qilinadi va malakasiz ishchilar qonuniy hujjatlar bilan ham, yoki ularsiz ham kirishadi.

4. Sharqiy Osiyoda migratsiyaning o'tishi: Mehnat bozorining tobora ko'proq integratsiyalashgan holati, daromad darajasi yuqori bo'lgan davlatlar migratsiyaning o'tishini boshdan kechirmoqda, qonuniy migratsiya deyarli qisqa muddatga to'g'ri keladi, shu bilan birga stajyorlar, talabalar va qonunbuzarlik bilan band bo'lganlarning bandligi, bunga Sharqiy Osiyo moliyaviy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ushbu keltirilgan to'rt yo'nalishdagi migratsiya oqimlarini hamda migratsiya markazlarini tahlil qiling. Tadqiqot uchun bitta yo'nalish tanlash va uni tahlil qilish yetarli hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy ilmiy farazlari, migratsiya jarayonlarining

vujudga kelishidan tortib bugungi kundagi holati bayon qilinishi lozim. Tadqiqot savollari esa, nima uchun migratsiya sodir bo'lishi sabablari va xususiyatlarini o'rganish, aholi mobilizatsiyasi tufayli yuzaga keladigan muammolar va salbiy oqibatlarni baholash talab qilinadi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda ekonometrik modeldan foydalanish tavsiya qilinadi. Xususan, SEM (Structural Equation Model) modelidan foydalanish migratsiyaga ta'sir qiluvchi bevosita va bilvosita omillarning ta'siri va o'zaro munosabatlarni baholanishi lozim bo'ladi.

Migratsiya jarayonlari bo'yicha ma'lumotlar, hisobotlar hamda statistika ma'lumotlari uchun quyidagi havoladan foydalanish mumkin:

<https://www.migrationdataportal.org/>

https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/events/coordination/3/docs/P22_AnnexIII.pdf

VIII BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MIKROSIYOSIY IQTISODIYOT TALQINI

Ushbu bobda o'rganiladigan mavzularning qisqacha tasnifi quyidagilardan iborat:

- Mikrosiyosiy iqtisodiyotning mazmun-mohiyati
- Innovatsion g'oyalar, startaplar uchun bizes muhiti va imkoniyatlari
- Monopoliya va oligopoliya haqida umumiy tushuncha
- Monopoliyaga qarshi kurashish amaliyoti
- Erkin bozor va sof raqobat muhiti
- Shaffolik va inklyuziv iqtisodiyot

8.1. Mikrosiyosiy iqtisodiyotning mazmun-mohiyati

Mikrosiyosiy iqtisodiyotning asosiy maqsadlari samaradorlik, tenglik va o'sishdir. Iqtisodiy o'sish ko'pincha makroiqtisodiy muammo sifatida qaraladi, lekin u iqtisodiyotning mikro-xatti-harakati va bozorlarning ishlashi bilan chambarchas bog'liqdir.

Shuningdek, mikrosiyosiy iqtisodiyot doirasida amalga oshiriladigan islohotlar iqtisodiyotning alohida tarmoqlarida buzilishlarni yo'q qilish, kamaytirish yoki soliq siyosati va raqobat siyosati kabi siyosiy iqtisodiyotni isloh qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish singari maqsadlarda amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mikrosiyosiy iqtisodiyotini olib borish mexanizmini, turli mulkchilikka asoslangan korxonalarining (firmalarning) xo'jalik yuritish faoliyatini, ularning bozor sharoitidagi harakatini, cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish yo'llarini va shu asosda ularni samarali faoliyat yuritishlarini o'rgatuvchi bilimga bo'lgan ehtiyoj ortib boradi. Bu masalalarni hal qilishda mikrosiyosiy iqtisodiyotning ahamiyati katta, chunki bu fan iqtisodiyot fanining tarkibiy qismi bo'lib, u korxonalar, firmalar, birlashmalar, uy xo'jaliklari va bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotining quyi kismida amal qiladigan barcha bozor subyektlarning faoliyatini keng miqyosda tahlil etish asosida tegishli xulosalar chiqarib, qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Bozor

subyektlari deganda iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar (har xil mulkchilikka asoslangan korxonalar), yollanma ishchilar, mablag' qo'yuvchilar, yer egalari – umuman iqtisodiyotni ishlashiga va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan har qanday shaxs va xo'jalik yurituvchi subyekti tushuniladi. Bu yerda davlat, xususiy va shu kabi boshqa sektorlarning ayrim korxonalari (subyektlari) olinib, ulardagi daromadlar va xarajatlar, ishchilarning soni va ularning ish bilan ta'minlanishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori, ularning bahosi va shu kabi qator boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil etiladi.

Bozor iqtisodiyoti subyektlari faoliyatini tahlil etishda ularning faoliyatiga bevosita ta'sir etuvchi talab va taklif, foydalilik va iste'molchilarning bozordagi narxlarga munosabati, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot bahosi, raqobat shakllari, ishlab chiqarish omillari va ulardan oqilona foydalanish yo'llari, umumiy muvozanat va davlatning bozorni boshqarishdagi roli va shu kabi qator boshqa masalalar o'rganiladi.

Yuqorida aytilganidek, mikrosiyosiy iqtisodiyot korxonalar, firmalar va shu kabi iqtisodiyotining quyi bo'g'inidagi obyektlar faoliyatiga taalluqli bo'lganligi uchun, u shu korxonalarda cheklangan resurslardan maqsadga muvofiq tarzda foydalangan holda kishilar ehtiyoji uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni ko'paytirishni tashkil yetishda muhim rol o'ynaydi.

Korxonalar mavjud cheklangan imkoniyatlar sharoitida o'z faoliyatlari yo'nalishlarini belgilashda 3 ta asosiy vazifani hal qilishlariga to'g'ri keladi.

- birinchidan, nima ishlab chiqarishi;
- ikkinchidan, qanday ishlab chiqarishi;
- uchinchidan, kimga va qancha ishlab chiqarishi lozimligini aniqlashi lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mikrosiyosiy iqtisodiyot mamlakat iqtisodiyotini asosiy bo'g'ini bo'lgan korxonalar faoliyatini tartibga solishda, rivojlantirishda, mamlakat milliy boyligini ko'paytirishda, bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarini ishlab chiqarishga tatbiq qilishda, mavjud iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi.

Mikrosiyosiy iqtisodiyot asosan korxonalar, alohida ishlab chiqaruvchi va

iste'molchilar faoliyatiga bog'liq hisoblanadi.

Mikrosiyosiy iqtisodiyotni olib borishda iqtisodiy subyektlarni ikkiga bo'lib qaraladi; iste'molchilar (uy xo'jaliklari) va ishlab chiqaruvchilar (firmalar).

Iste'molchining maqsadi – mumkin darajada o'zining ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish bo'lsa, ishlab chiqaruvchilarning maqsadi – foydani yoki boshqa bir faoliyat ko'rsatkichlarini maksimallashtirishdan yoki minimallashtirishdan iboratdir.

Jamiyatda vujudga keladigan yana bir muammo – bu iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar faoliyatini muvofiqlashtirishdir:

1) ishlab chiqaruvchilar faoliyatini (kim qaysi mahsulotdan qancha ishlab chiqaradi) muvofiqlashtirish;

2) iste'molchilar faoliyatini (kim, qaysi mahsulotdan, qancha iste'mol qiladi) muvofiqlashtirish;

3) ishlab chiqarish va iste'mol qilish bo'yicha qabul qilingan qarorlarni muvofiqlashtirish.

Yuqoridagi muvofiqlashtirishga oid masalalardan kelib chiqsak, asosiy urg'uni tovarlarga qaratish kerak bo'ladi. Tovarlarni aylanmasida iqtisodiyot ikki sektorga bo'linadi: uy xo'jaliklari va firmalar. Uy xo'jaliklari o'z resurslarini (ishchi kuchi, kapital va yerni) firmalarga sotib daromad oladilar va bu daromadlarini firmalardan tovarlar va xizmatlar olishga ishlatadilar. Firmalar o'zlarining tovar va xizmatlarini sotib undan tushgan daromadni uy xo'jaliklaridan resurslarni sotib olishga ishlatadilar.

Ko'rinib turibdiki, haqiqatan ham nima iste'mol qilish kerak, demak, nima ishlab chiqarish kerak degan masalani uy xo'jaliklari hal qiladi. Uy xo'jaliklarining bunday qarori, firmalarning ishlab chiqarish rejalarini tuzish uchun asos bo'lishi kerak. Firmalar, o'z navbatida, noyob resurslardan foydalanish qarorlarini bir-biri bilan muvofiqlashtirishi lozim. Nihoyat, uy xo'jaliklari iste'mol qilish uchun rejalashtirgan ne'matlarni olishlari kerak, ya'ni ular iste'mol qilish bo'yicha qarorlarini bir-biri bilan moslashtirishi kerak bo'ladi.

Bozor tizimida muvofiqlashtirish masalalarini ikkita bozor hal qiladi: ishlab

chiqarish resurslari bozori va iste'mol ne'matlari bozori.

Talab va taklif modeli tadbirkorlar sektori bilan uy xo'jaliklari sektori o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tushuntirishga xizmat qiladi. Agar bu ikki sektor tovarlar bozorida oldi-sotdi bo'yicha o'zaro munosabatda bo'lsa, talab va taklif modeli tovar narxini va sotiladigan tovar hajmini aniqlaydi. Agar ular resurslar bozorida oldi-sotdi bo'yicha o'zaro munosabatda bo'lsalar model sotiladigan resurslar narxini va miqdorini aniqlaydi.

Har bir bozor o'zining ikkita qaror qabul qiluvchi subyektiga ega: sotuvchilar va xaridorlar. Bozorda qabul qilinadigan qarorlarning muvofiqligi har bir ne'matning muvozanat narxi va muvozanat miqdori bilan ta'minlanadi. Narx, talab va taklif munosabatlari natijasi sifatida, uy xo'jaliklari va firmalar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni muvofiqlashtirish uchun muhim axborot bo'lib hisoblanadi. Bunday axborot bir vaqtning o'zida jamiyatlardagi noyob ne'matlarni taqsimlash muammosini yechish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, non narxining oshishi xaridorlar uchun nonni iste'mol qilishni cheklash to'g'risida signal bo'lsa, firmalar uchun nonni ishlab chiqarishni oshirish va non bozoridagi muvozanatni tiklash to'g'risida muhim axborot bo'lib xizmat qiladi.

Bozor muvofiqlashtirishdan tashqari ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar qarorlarini vaqt bo'yicha tartiblashtiradi. Bu kelajakdagi ne'matlar (fyuchers) bozorining vujudga kelishi bilan bog'liqdir. Kelajakdagi ne'matlarning oldi-sotdisi, ularning narxlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishga, ularning kelajakda nisbatan noyobligi to'g'risida axborot beradi. Iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar bunday narx axborotlariga ko'ra, o'zlarining joriy xo'jalik rejalarini qayta ko'rib chiqadilar va o'zlarining iqtisodiy harakatlarini tartibga soladilar.

8.2. Global dunyoda innovatsion g'oyalar, startaplar uchun biznes muhiti va imkoniyatlari

Bugungi kunda jahon taraqqiyoti informatsion-innovatsion davrida kechmoqda. Bu jarayonning harakatlantiruvchi kuchi – bu ilmiy yutuqlar, yangi texnologiyalarni jadal o'zlashtirish va samarali boshqarishga asoslanadigan

o'zgarishlardir. Natijada iqtisodiy faoliyat subyektlari o'rtasida innovatsiyalarni ayirboshlash va amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlar tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda. Iqtisodiy jarayonlardagi tub o'zgarishlar (bozorning globallashuvi, axborot texnologiyalardan keng foydalanish, rivojlanishni boshqarish, biznesni tashkil etishdagi tarkibiy o'zgarishlar) turli korxonalarda islohotlar ko'lamini o'sishiga sabab bo'lmoqda.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning asosi bo'lib tashkilotning har xil sohalarida qo'llaniladigan va innovatsiyalarni yaratilishiga sabab bo'ladigan ixtirolar va kashfiyotlar xizmat qiladi. Amaliy qo'llanilishidan so'ng ixtirolar innovatsiyalarga aylandi. Ular jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarining faol bo'g'ini hisoblanmoqda. Zamonaviy makonni bunday o'zgarishlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. «Innovatsiya» tushunchasi deyarli barcha sohalarida qo'llaniladi, uy sharoitida ham, professional darajada ham, shu jumladan davlat rahbarlari va xalqaro tashkilotlar darajasida ham dolzarb mavzu hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish innovatsiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilayotganiga qaramay, ushbu jarayonning o'tgan asrdagi sekinlik bilan kechishi uni to'liq sinab ko'rishga imkon bermadi. Postindustrial davridagi jadal iqtisodiy rivojlanish sifat jihatdan yangi xususiyatlarga ega bo'ldi: innovatsion jarayonlar taraqqiyot shartiga aylandi; innovatsiyalar ishlab chiqarishning yetakchi omiliga aylanmoqda; o'zgarishlar tezligi oshmoqda. Innovatsion faoliyat asosiy faoliyat maqomiga da'vogarlik qilmoqda va korxonaning strategik rivojlanishi uchun zarur shartidir. Adabiyotlarda «innovatsiya» tushunchasining turli xil ta'riflari mavjud bo'lib, ular ko'pincha «yangilik» tushunchasi bilan chalkashtirib tavsiflanadi. Shu munosabat bilan ularning o'ziga xos farqlariga e'tibor qaratish lozim.

«Innovatsiya» atamasi lotincha «novatio» so'zidan olingan bo'lib, «yangilanish» (yoki «o'zgarish»), «in» qo'shimchasi esa lotinchadan «yo'nalishida» deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit «Innovatsiya» ko'rinishida tarjima qilsak «o'zgarishlar yo'nalishida» deb izohlanadi. Innovatsiya tushunchasi birinchi bo'lib XIX asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'ldi.

«Innovatsiya» tushunchasi o'zining yangi hayotini «innovatsion

kombinatsiyalar»ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida XX asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900 yillarda iqtisodda ushbu terminni ilmiy qo'llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi. Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yangilish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi.

Bugungi kunda «innovatsion g'oyalar» atamasi keng tarqalib bormoqda, bunga sabab esa, dunyo iqtisodiyotini va jamiyatni modernizatsiya qilishning obyektiv ehtiyojiga borib taqaladi. Keling endi aynan, innovatsion g'oya tushunchasiga alohida to'xtalib o'tsak, Innovatsiyalar ilm-fan va ilg'or tajribaga asoslangan texnologiya, mehnatni yoki menejmentni tashkil etish sohasidagi yangilik sifatida baholanadi. Bundan tashqari, aniq maqsadga yo'naltirilgan va potensial ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi asl g'oya degan ma'noni anglatadi.

Yuqoridagi ta'riflardan yangi g'oyalarning ko'pchiligi innovatsion elementlarni o'z ichiga oladi. Biroq, buning ta'rifi innovatsion g'oya sifatida yetarli emas. Innovatsion g'oyaning asosiy xususiyati shundaki, g'oya tegishli biznes sohasi va iqtisodiyotda dolzarblik darajasi yuqori bo'lsa rivojlanishining hozirgi tendensiyasiga (trend) muvofiq hisoblanadi.

Novation – (sinonimi – innovatsiya) – ilgari mavjud bo'lmagan yangi turdagi yangilik: kashfiyot, ixtiro, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishning yangi usuli.

Innovator – yangilik (yangilik) kashf etgan yoki biron-bir sohada yangi g'oyalarni kashf etgan shaxs.

Odatda yirik korporatsiyalarning kamharakatligi va sustkashlikka duch keladi va ular o'zlari yo'lga qo'ygan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan band bo'lib, yangi mahsulotlarni yaratish bilan shug'ullanmaydilar. Ayni shu damda biznes loyihalar sirasiga kiruvchi bir turdagi loyihalar muvaffaqiyatga erisha boshlaydi, ular Startaplar deb ataladi.

Startapni inglizchadan so'zma-so'z tarjima qilganda «jarayonning boshlanishi»ni bildiradi.

Startup – bu biznesning istalgan turi, undagi farq bozorga avval foydalanilmagan uslubda (o‘z-o‘zidan qonun bilan taqiqlanmagan) tovarlar yoki xizmatlar taqdim etishda ifodalanadi. Uning uchun asos – bu g‘oya, ijro va moliyalashtirishga ko‘paytirilgan uning dolzarbligi va o‘ziga xosligi. Pirovardida bu biznes loyihaning muvaffaqiyatini ta‘minlashi mumkin.

Misol uchun, startaplar vatani bo‘lmish AQShda 24 yoshli Rob Raynxart taomni o‘rnini bosadigan hamda organizm uchun barcha zarur moddalar – yog‘lar, oqsillar, tuzlar, mikroelementlar, uglevodlarga ega Soylent ichimligini o‘ylab topdi. Bu betakror mahsulotga allaqachon qariyb million dollar sarflangan.

Investor g‘oyaga mablag‘ sarflar ekan, muvaffaqiyatli biznes kelajakda keltiradigan foydaning bir qismiga umid bog‘laydi. Teskari natijada u o‘zi kiritgan mablag‘larni yo‘qotish xavfida bo‘ladi. Savodli investorlar hali bozorda yo‘q yangi xizmat yoki tovarlarni taklif qiladigan loyihalar eng ko‘p foyda keltirishini tushunishadi. Shu munosabat bilan startup o‘zida bozorda talab qilinadigan hamda foyda keltiradigan mahsulot yoki xizmatlarning yangi konsepsiyasini jamlashi kerak.

Ko‘pincha startup-loyiha – bu birlashtiruvchi bo‘g‘indir. Masalan, qandaydir original mahsulotni taklif qilayotgan internet-do‘kon bozorga chiqdi, bunda internet-do‘konning asosiy vazifasi sotuvchi va xaridorni to‘g‘ridan-to‘g‘ri uchrashtirib qo‘yish hisoblanadi.

«Keling original tovarlar internet-do‘konini ochaylik» g‘oyasidan oldin biznes-reja ustida anchagina ish qilingan. Axir to‘g‘ri tuzilgan biznes-reja loyiha muvaffaqiyatining yarmi hisoblanadi hamda investorlarni jalb qilishi mumkin. Internet-do‘kon ochishni niyat qilganlar avval sayt yoki mobil ilova yaratishadi hamda o‘z mijozlari bazasini barpo etish uchun o‘zlariga o‘zi 3-4-5 oy muddat berishadi. Shu muddat mobaynida uni barpo etishgan taqdirda, loyihani muvaffaqiyatli deb hisoblash mumkin, u monetizatsiyalashadi, ya‘ni to‘lov kiritiladi hamda loyiha foyda keltira boshlaydi. Shuningdek, internet-do‘kon reklamadan pul olishi, tovarlarni yetkazib berish ko‘rinishida qo‘shimcha xizmatlarni kiritishi, marketing tadqiqotlari o‘tkazishi, tranzaksiyalar uchun bankdan ajratmalar olishi

ham mumkin.

Startup – bu «jamoaviy o‘yin» ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. Har bir shunday jamoada g‘oyalar asoschisi (agar sport terminini qo‘llasak – trener) bo‘ladi, uni ijrochi (sportchi) va investorlarni izlash bo‘yicha agent qo‘llab-quvvatlaydi.

Startupni moliyalashtirish manbalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- biznes-angellar;
- venchur fondlar.

Biznes-angellar (ingl. angel, business angel, angel investor va boshqalar) – biznesga, odatda, g‘oyaning shakllanishi bosqichidan boshlab investitsiya kirituvchi xususiy shaxslar. Ular kompaniyaning ishiga aralashmaydilar, o‘zlari kiritgan mablag‘larni ham zudlik bilan qaytarilishini talab etmaydilar. Kompaniya startupiga qo‘yilgan investitsiya biznes-angellarning asosiy daromad manbai emas. Shunga ko‘ra, ularning maqsadi uzoq muddatli istiqbolda foyda olish hisoblanadi.

Venchur fondlar biznes-angellardan farqli holda, startupga o‘z omonatchilari (sug‘urta kompaniyalari, pensiya fondlari, xususiy shaxslar)ning mablag‘larini investitsiya qiladilar. Ularning loyihalarni moliyalashtirishdagi ishtiroki yuqori yoki o‘rta darajadagi risk hisoblanadi, biroq olinadigan daromad darajasi ham yuqori bo‘ladi.

Bizning mamlakatimizda startaplar o‘zlarining ilk odimlarini boshlashmoqda, yaqin vaqtlarda bu biznes shakllanishining ushbu juda amaliy va qiziqarli mexanizmi rivojlanishiga olib keladi. Bizda startaplar hali Yevropa mamlakatlari va Amerikadan farqli o‘laroq yangilik hisoblansa-da, O‘zbekistonda yosh tadbirkorlar g‘oyalariga o‘zlarining mablag‘larini kiritishga tayyor investorlar bor. Bu ishda birlashtiruvchi bo‘g‘in hisoblanadigan loyihalar ham mavjud. Agar sizda investitsiyaga ehtiyoji bo‘lgan startap bo‘lsa yoki siz o‘z mablag‘ingizni startupga kiritmoqchi bo‘lsangiz, u holda quyidagilarga murojaat qilish mumkin:

Idea Lab – IT-startaplarni erta bosqichda qo‘llab-quvvatlaydigan konsultativ dastur, u startapni baholash va tahlil qilishga yordam beradi hamda investorlarni izlashda ko‘mak ko‘rsatadi. Bu loyihada ishtirok etish uchun siz tashlashdan o‘tishingiz kerak va eng yaxshi startaplarga «g‘oya» bosqichida bepul konsultatsiya

va investorlarni izlashda ko‘mak beriladi.

StartupFactory.uz – IT-loyihalar uchun akselerator, u barcha boshlovchi IT-ishlab chiquvchilarga o‘z g‘oyalarninigi ro‘yobga chiqarish hamda investorlarni izlashda yordam beradi. Har qanday xohlovchi mazkur dasturda ishtirok etishi mumkin.

Startaplarning paydo bo‘lishi va ularni ro‘yobga chiqarish imkoniyati, ularni foyda keltiradigan biznes-loyihaga aylantirish tadbirkorlarimizning zamonaviy biznes-tafakkurlarining rivojlanishi belgisidir. Bunday turdagi loyihalarning ro‘yobga chiqarilishi tufayli mavjud tadbirkorlar avlodi o‘rniga xizmatlar va tovarlar bozoriga yangi g‘oyalar kiritadigan yangi yosh tadbirkorlar keladi.

8.3. Monopoliya va oligopoliya. Monopoliyaga qarshi kurashish amaliyoti

Iqtisodiyotda bozor mexanizmining samarali amal qilishi va raqobat muhitining ta‘minlanishi monopoliyalar, ularning kelib chiqish sabablari va amal qilish xususiyatlarini ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Monopoliya tushunchasiga turli o‘quv adabiyotlarida turlicha ta‘rif beriladi. Jumladan, ba‘zi o‘rinlarda uni «davlat, korxonalar, tashkilotlar, sotuvchilarning qandaydir xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishdagi mutlaq huquqi»⁵ sifatida qaralsa, boshqa holatlarda «faoliyatning u yoki bu sohasida shaxs yoki kishilar guruhining har qanday (ba‘zi adabiyotlarda – yakka) hukmronlik holati»⁶ deb ta‘riflanadi. Bu ta‘riflardagi monopoliyaning «mutlaq huquq» yoki «har qanday yoki yakka hukmronlik holati» kabi tavsiflari uning mohiyatini aniq yoritib berolmasligi sababli, uni quyidagicha ta‘riflash o‘rinli deb hisoblaymiz: monopoliya – monopol yuqori narxlarni o‘rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari «Monopoliya» atamasining kelib chiqishi bozorga oid tushunchalardan (ya‘ni, grekcha «monoc» – yagona, bitta va «poleo» – sotaman)

⁵ Экономическая теория: Учебник. – Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добринина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 121-б.

⁶ Куликов Л.М. Экономическая теория: учеб. – М.: ТК Вебли, Изд-во Проспект, 2005, 191-б.; Тожибоева Д. Иқтисодиёт назарияси: Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. – Т.:«Ўқитувчи», 2002, 246-б

tarkib topsa-da, biroq uning iqtisodiy asoslari aslida ishlab chiqarishga borib taqaladi.

Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to'planishi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning to'planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to'planishini namoyon etadi. Ishlab chiqarish to'planishining asosiy sababi bo'lib olinayotgan foyda hajmining ko'payishi hisoblanadi.

Foydani muntazam ravishda ko'paytirib borish maqsadida tadbirkor olingan qo'shimcha mahsulot (foyda)ning bir qismini kapitallashtiradi, ya'ni unga qo'shimcha ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi sotib oladi.

Bu esa ba'zi bir korxonalarning o'sishi hamda ishlab chiqarish miqyoslarining kengayishiga olib keladi. Shu bilan birga raqobat amaldagi kapitallarning ixtiyoriy yoki majburiy birlashtirish, markazlashtirish tendensiyasini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, ishlab chiqarish to'planishining moddiy asosi bo'lib kapitalning to'planishi va markazlashuvi hisoblanadi.

Kapitalning to'planishi – bu qo'shimcha qiymatning bir qismini jamg'arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishidir. Bu jarayon quyidagi ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi: korxonadagi ishlovchilar soni, korxonaning ishlab chiqarish quvvati, qayta ishlanayotgan xomashyo miqdori, tovar aylanmasi hajmi, foyda hajmi.

Kapitalning to'planishi kapitalning markazlashuvi jarayoni bilan yanada to'ldiriladi.

Kapitalning markazlashuvi – bu bir kapital tomonidan boshqa birining qo'shib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitallarning aksiyadorlik jamiyati shaklida ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o'sishidir. Ishlab chiqarishning gorizontal va vertikal to'planishi farqlanadi. Ishlab chiqarishning gorizontal to'planishi – bu milliy iqtisodiyotning ma'lum tarmog'i doirasidagi korxona va firmalarning yiriklashuvidir. U erkin raqobat davri, shuningdek, XX asrning boshlarida ishlab chiqarish to'planishining asosiy shakli sifatida maydonga tushgan edi. Ishlab chiqarishning vertikal to'planishi – bu milliy iqtisodiyotdagi bir necha

o‘zaro bog‘liq tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarishning to‘planishidir. U ilmiy-texnika inqilobi sharoitlarida keng rivojlandi.

Ishlab chiqarishning to‘planishi o‘z rivojining ma’lum darajasida monopoliyalarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Ishlab chiqarishning to‘planishi hamda monopoliyalarning paydo bo‘lishi o‘rtasidagi ichki aloqalar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Tarmoqlarda bir necha yirik korxonalarning hukmron mavqega ega bo‘lishi ularning bir-biri bilan kelishuviga hamda monopolistik birlashmalar tuzishiga imkon yaratadi.

2. Yirik korxonalar o‘rtasidagi raqobat juda qaltis bo‘lib, ular uchun katta miqyosdagi yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

Shunga ko‘ra, raqobatni cheklash, tovarlarga yuqori narxlar belgilash va yuqori foyda olish uchun yirik ishlab chiqaruvchilarning monopolistik ittifoqlarga birlashishi lozim bo‘ladi.

Monopoliyalarning vujudga kelishida ishlab chiqarishning to‘planishidan tashqari yana bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- 1) davlatning proteksionistik bojxona siyosati. U chet eldagi raqobatchilarning ichki bozorga kirish imkoniyatini yo‘qotib, monopoliyalarning pay- do bo‘lishiga sharoit yaratadi;

- 2) banklarning faoliyati va moliyaviy siyosati. Banklar sanoat monopoliyalarining jadal o‘shishiga imkon beradi.

Monopoliyalarning mohiyatini ochib berishda uning turlarini ko‘rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Monopoliyalarning turlarini bir necha mezonlarga ko‘ra ajratish mumkin.

1. Bozorni qamrab olish darajasiga ko‘ra: sof monopoliya, oligopoliya va monopsoniya.

Sof monopoliya – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. O‘zbekistonda sof monopoliyalar sifatida «O‘zbekiston havo yo‘llari» DAK, «O‘zbekiston temir yo‘llari» DAK, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish

birlashmasini misol keltirish mumkin. Darhaqiqat, ular o'z tarmoqlaridagi tegishli faoliyatlarning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadilar. Shuningdek, ba'zi hollarda tarmoqdagi monopolist ishlab chiqaruvchilar sonining ko'payib borishi monopolistik raqobat holatining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Monopolistik raqobat – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko'p hamda ular o'rtasida ma'lum darajada raqobat mavjud bo'lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o'z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma'lum darajada hukmronlik holati hisoblanadi. Bunga misol tariqasida ko'plab mebel, kiyim-kechak turlari, kir yuvish vositalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarini keltirish mumkin. Oligopoliya – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati hisoblanadi. Oligopolist — ishlab chiqaruvchilarga O'zbekistonda sement (asosan Bekobod, Quvasoy, Ohangaron, Navoiy shaharlarida joylashgan), ko'mir (Angren shahri, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo (Sharg'un) va Boysun (To'da) tumanlarida joylashgan) ishlab chiqarishni misol keltirish mumkin. Monopsoniya – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko'p bo'lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste'molchisi yoki xaridori mavjud bo'lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. Bunga «O'zDEU- avto» korxonasi yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur yirik korxona mamlakatimizdagi yengil avtomobillarni ishlab chiqarishda zarur bo'lgan ko'plab ehtiyot va butlovchi qismlarni ularning nisbatan mayda ishlab chiqaruvchilaridan sotib olishda yakkahukmronlik mavqeiga ega bo'ladi.

2. Monopoliyaning vujudga kelishi sababi va tavsifiga ko'ra: tabiiy monopoliya, legal monopoliya, sun'iy monopoliya.

Tabiiy monopoliya tarkibiga kamyob va ishlab chiqarishning erkin tarzda takror hosil qilib bo'lmaydigan unsurlari (masalan, nodir metallar, foydali qazilmalar va h.k.)ga ega bo'lgan mulkdorlar va xo'jalik tashkilotlari kiradi. Shuningdek, mazkur monopoliya tarkibiga o'ziga xos texnologiyaning qo'llanishi sababli raqobatni rivojlantirib bo'lmaydigan ba'zi bir tarmoqlar va ishlab chiqarish

turlari ham kiritiladi.

Tabiiy monopoliya – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo‘lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo‘lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati. Bunday samaradorlik ishlab chiqarish hajmining ko‘payib borishi bilan tovar birligiga to‘g‘ri keluvchi xo‘jalik xarajatlarining ahamiyatli darajada pasayib borishida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste’molini boshqa turdagi mahsulotlar bilan almashtirib bo‘lmaydi.

Legal (qonuniy) monopoliya – bu qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holat. Ular tarkibiga raqobatdan himoya qiluvchi quyidagi monopoliya shakllarini kiritish mumkin:

1) patent tizimi – bu ixtirochi va mualliflar tomonidan yaratilgan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalarini tasdiqlovchi hamda ularga mutlaq huquqni taqdim etish tizimi. Bu jarayon maxsus guvohnomalar – patentlar orqali amalga oshiriladi;

2) mualliflik huquqi – ilmiy, badiiy va san’at asarlari, ijro san’ati fonogrammalari, ko‘rsatuvlar, efir to‘lqini yoki kabel orqali tasvir uzatish kabilarni yaratish va ulardan foydalanish munosabatlarini qonuniy tarzda tartibga solish shakli. Mualliflik huquqi faqat mualliflar tomonidan o‘z mahsulotlarini ma’lum vaqtga yoki butunlay sotish, ulardan nusxa olish va ko‘paytirishga ruxsat berish imkonini ta’minlaydi;

3) tovar belgilari – bu savdo belgilari, nishonlari, maxsus ramzlari, nomi va boshqalarni ro‘yxatga olish, huquqiy jihatdan himoya qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha paydo bo‘lgan munosabatlarni qonuniy tarzda tartibga solish shakli.

Sun’iy monopoliya – monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvchi birlashmalarning shartli (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish uchun) nomi.

Sun’iy monopoliya o‘z manfaatlari yo‘lida bozor muhiti tuzilishini ataylab o‘zgartiradi, ya’ni:

– bozorga yangi raqiblarning kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun turli to‘siqlar hosil qiladi (xomashyo va energiya manbalarini egallab oladi; banklarning

yangi korxonalarga kredit berishini taqiqlashga harakat qiladi va boshqalar);

- ishlab chiqarishning eng yuksak darajadagi texnologiyasiga erishib, qolgan raqiblarining bu darajaga chiqishiga imkon bermaydi;

- ishlab chiqarish miqyosi samarasidan unumliroq foydalanish imkonini beruvchi nisbatan yirik hajmdagi kapitalni qo‘llaydi;

- o‘z faoliyatini yuqori darajada reklama qilish orqali boshqa raqobatchilarni bozordan siqib chiqarishga harakat qiladi.

Sun’iy monopoliyalar kartel, sindikat, trest, konsorsium, konsern kabi aniq shakllarda namoyon bo‘ladi.

Kartel – bitta sanoat tarmog‘idagi bir necha korxonalarning uyushmasi bo‘lib, uning ishtirokchilari ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga o‘z mulkiy egaligini saqlab qoladi, yaratilgan mahsulotlarni sotish esa kvota, ya’ni mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmidagi har bir ishtirokchining ulushi, sotish narxlari, bozorlarning bo‘lib olinishi va h.k. bo‘yicha kelishuv asosida amalga oshiriladi.

Sindikat – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarning birlashmasi. Bunda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarining o‘zida saqlanib qolgani holda, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish maxsus tashkil etilgan yagona savdo tashkiloti orqali amalga oshiriladi.

Trest – ishlab chiqarish vositalari va tayyor mahsulotga birgalikdagi mulkiy egalikni ta’minlovchi ishlab chiqaruvchilarning yuridik shaxs ko‘rinishidagi birlashmasi.

Konsorsium – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi (masalan, yirik miqyosli loyihalarga juda katta miqdorda va uzoq muddatli kredit berish yoki investitsiyalar qo‘yish).

Konsern – rasmiy jihatdan mustaqil bo‘lgan, ko‘p tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank kabi turli soha korxonalari)ning majmuini o‘z ichiga oluvchi birlashma. Odatda bunday birlashma ma’lum ishlab chiqarish faoliyatini bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan turli soha korxona va tashkilotlaridan tuziladi. Bunda bosh tashkilot qolgan ishtirokchilar

faoliyati ustidan moliyaviy nazorat olib boradi. Hozirda sun'iy monopoliyalarning sanab o'tilgan shakllari orasida konsernlar keng tarqalgan.

Monopoliyaning iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy tomoni mavjud. Uning ijobiy tomoni asosan quyidagi ikkita jihat orqali namoyon bo'ladi.

Birinchidan, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, u ma'lum tarmoqlarda nisbatan samarali amal qiladi va xarajatlarning tejalishiga olib keladi.

Ikkinchidan, monopolist bo'lmagan, mayda, raqobatlashuvchi soha korxonalariga nisbatan monopolistik korxonalarda ishlab chiqarishga ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish uchun ko'proq rag'bat va imkoniyat mavjud bo'ladi. Chunki, uncha yirik bo'lmagan raqobatlashuvchi korxonalarning odatda moliyaviy jihatdan imkoniyatlari cheklangan bo'lib, ular ishlab chiqarishga yangiliklarni tatbiq etish orqali kelgusidagi daromadlarni oshirishdan ko'ra, ko'proq joriy daromadga e'tibor qaratadilar. Bundan tashqari, yangi g'oyalar raqiblar tomonidan juda tez o'zlashtirib olinadi va, buning oqibatida, bu g'oyalarni amalga oshirish xarajatlarini bir tomon qilgani holda, uning samarasidan barcha foydalanadi. Yirik monopolistik firmalarda moliyaviy imkoniyatlar keng bo'lib, innovatsiyadan olingan foyda ularning mualliflariga tegishi aniq kafolatlanadi.

Monopoliyaning salbiy tomoni sifatida quyidagi jihatlarni ko'rsatish mumkin:

1. Resurslarning oqilona taqsimlanmasligi. Bu holat monopoliyalarning yuqori foyda ketidan quvib, sun'iy ravishda ishlab chiqarishni cheklash vositasida narxlarni ko'tarishi, mahsulotlarning u qadar yaxshi bo'lmagan turlarini, past texnikaviy darajasini, past sifati hamda sotishning yomon sharoitlarini vujudga keltirishi orqali namoyon bo'ladi. Natijada, raqobat sharoitida amal qiluvchi iqtisodiyot samaradorligini bozor vositasida tartibga solish mexanizmi ishdan chiqadi.

Monopoliyalar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyatlar erkin hamda oqilona tanlov imkoniyatidan mahrum bo'ladi, monopoliyalarning iqtisodiy jihatdan asoslanmagan shart-sharoit va narxlari tazyiqiga chiday olmaydi, ish faolligini pasaytirib, ba'zi hollarda xonavayron bo'ladilar. Oqibatda ishlab chiqarish qisqarib, ishsizlik va inflyatsiya o'sadi, xo'jalikning izdan chiqishi kuchayadi. Jamiyat boyligi

resurslarning oqilona raqobatli-bozor taqsimoti sharoitida qo‘lga kiritilishi mumkin bo‘lgan miqdoriga qaraganda kamayib ketadi;

2. Daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi. Bu holat ham narxlarning monopol tarzda oshirilishi (pasaytirilishi) hamda yuqori foyda olinishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu aholi qolgan qismi daromadlarining nisbatan kamayishiga olib keladi;

3. Iqtisodiy turg‘unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi. Bunday holatning vujudga kelishi monopolistlarning raqobatchilar bosimini sezmasliklari hamda aksariyat hollarda yuqori foydani qo‘shimcha urinishlarsiz o‘zlarining bozordagi hukmronliklari hisobiga olishlari mumkin. Bu esa ularni ishlab chiqarishni ratsionallashtirish, uning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini qidirish, mahsulot sifatini oshirish, uning assortimentini kengaytirish, FTTni rivojlantirish va xaridorlar manfaatlari to‘g‘risida qayg‘urish kabi xatti-harakatlardan qaytaradi;

4. Iqtisodiyotda demokratik harakatlarning to‘siq qo‘yilishi. Monopolistlar iqtisodiyotdagi erkin va halol raqobatga to‘sqinlik qilib, nisbatan kuchsiz bo‘lgan korxonalarni o‘zlariga bo‘ysundirishlari, jamiyatga o‘z ishchilarining mehnatiga pasaytirilgan miqdorda haq to‘lash, past sifatli tovarlarni ishlab chiqarish, o‘ta darajada oshirib yuborilgan sotish narxlari (yoki pasaytirilgan xarid narxlari), o‘z mahsulotini iste‘mol qilishga bilvosita usul orqali majburlash kabi o‘zlarining kamsituvchi shartlarini ko‘ndalang qo‘yishlari mumkin.

Bundan ko‘rinadiki, monopolistik faoliyat iqtisodiy rivojlanishiga ancha jiddiy ta’sir ko‘rsatishi, taraqqiyot yo‘liga g‘ov bo‘lishi ham mumkin. Shunga ko‘ra, bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari qo‘llanilib, bu monopoliyaga qarshi siyosat deb ataladi. Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati asosini monopoliyaga qarshi qonunchilik tashkil etib, u turli mamlakatlarda turli darajada rivojlangan bo‘ladi.

Odatda AQShdagi monopoliyaga qarshi qonunchilik nisbatan ilgariroq va mukammalroq ishlab chiqilgan deb hisoblanadi. U quyidagi uchta qonunchilik hujjatlariga asoslanadi:

1. Sherman qonuni (1890 yilda qabul qilingan). Bu qonun savdoni yashirin monopollashtirish, u yoki bu tarmoqdagi yakka nazoratni qo'lga olish, narxlar bo'yicha kelishuvlarni taqiqlaydi.

2. Kleyton qonuni (1914 yilda qabul qilingan). Bu qonun mahsulot sotish sohasidagi cheklovchi faoliyatlarni, narx bo'yicha kamsitish, ma'lum ko'rinishdagi birlashib ketishlar, o'zaro bog'lanib ketuvchi direktoratlar va boshqalarni taqiqlaydi.

3. Robinson-Petmen qonuni (1936 yilda qabul qilingan). Bu qonun savdo sohasidagi cheklovchi faoliyatlar, «narxlar qaychisi», narx bo'yicha kamsitishlar va boshqalarni taqiqlaydi.

1950 yilda Kleyton qonuniga Seller-Kefover tuzatishi kiritildi. Unda noqonuniy birlashib ketishlar tushunchasiga aniqlik kiritilib, aktivlarni sotib olish orqali birlashib ketish taqiqlandi. Agar Kleyton qonuni yirik firmalarning gorizontaal ravishdagi birlashib ketishlariga to'siq qo'ygan bo'lsa, Seller-Kefover tuzatishi vertikal ravishdagi birlashib ketishlarga cheklov kiritdi.

8.4. Erkin bozor va sof raqobat muhiti. Shaffoflik va inklyuziv iqtisodiyot

Raqobat muammosi bugungi kunda eng ko'p muhokama qilinadigan mavzulardan biriga aylanib bormoqda. Chunki ichki va tashqi bozorlarda raqobat muhiti kundan-kunga kuchayib, raqobatlashish chegarasi firmalararo raqobatdan tarmoq, mamlakatlar va hududlar doirasigacha kengayib ketdi. Keyingi yillarda raqobat nazariyasi bilan jahonning ko'pgina taniqli olimlari shug'ullanib kelmoqda, ularning ichida amerikalik iqtisodchi Maykl Porterning (1947) raqobat nazariyasiga qo'shgan hissasi eng beqiyosdir va u bu sohada eng yirik olim sanaladi. Ta'sirchan va rag'batlantiruvchi, erkin iqtisodiy raqobatni rivojlantirish evaziga ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar ustidan xaridorlarning hukmronligi o'rnatilib, bu bozor munosabatlarining mohiyatini belgilovchi sharoit hisoblanadi.

Sof raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. Yuqori darajada tashkil qilingan bozorda ko'plab sotuvchilar o'zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar. Ayni paytda, ushbu mahsulot xaridor va iste'molchilarining soni ham juda ko'p bo'ladi. Sof raqobatli bozorda

alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan nazorat o'rnata olmaydi yoki nazorat sezilarsiz 20 darajada bo'ladi. Chunki har bir korxonada umumiy ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo'lmaydi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko'payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak mahsulot narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Sof raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo'lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan, yangi korxonalarning paydo bo'lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga huquqiy, texnologik, global moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to'siqlar bo'lmaydi.

Erkin bozor tushunchasiga esa quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin, narxlar biron-bir tashqi omillar ta'siriga bog'liq bo'lmagan holda faqat talab va taklifga ko'ra shakllanadigan bozor. Odatda tashqi omillar deganda ko'plab vaziyatlarda ko'z oldimizga iqtisodiyotga davlatning aralashuvi keladi.

«Iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda davlatning roli muhimmi yoki bozorning?» degan savol global siyosiy iqtisodiyotning fundamental masalalaridan biri. Erkin bozor iqtisodiyotining ashaddiy yoqlovchilari bo'lmish neoklassiklar «davlat» tushunchasini har doim samarasizlik va korrupsiya bilan bog'lashadi. Ularning nazdida davlatning bozorga har qanday aralashuvi (bozorni tartibga solish, qonun-qoidalarini belgilash va hokazo) uning samarali ishlashiga zarar yetkazadi. Bu samarasizlikdan qutulishning oson yo'li esa butun iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni bozor qatnashuvchilari izmiga topshirib, davlat faqatgina hakamlik vazifasini bajarishi kerak.

Biroq bozor munosabatlariga o'tgan davlatlarning tajribasini o'rganadigan bo'lsak, bozor munosabatlariga o'tish jarayoni ular da'vo qilganidek «davlatdan voz kechish» bilan hal bo'lmagani, balki aksincha, davlat bu o'tish bosqichining muhim qismi bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Xo'sh, davlat bozor munosabatlarining shakllanishi uchun nega muhim?

Davlatning roli

1. Davlat boshqaruvi va bozor munosabatlari

Mashhur sotsiolog Veber bozor munosabatlarining ishlashi uchun albatta

zamonaviy davlatchilik va mustahkam boshqaruv bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Veber masalani tushuntirish uchun davlat boshqaruvi yoki hokimiyatning qonuniyligi (legitimac) masalasiga murojaat qiladi, davlat kuchini qo'llashda 3 xil usulni bahs etadi: huquqiy-mantiqiy (legal-rational), patrimonial va xarizmatik. Unga ko'ra, haqiqiy bozor munosabatlari faqatgina huquqiy-mantiqiy boshqaruvga asoslangan davlatdagina vujudga keladi. Bunday davlatda boshqaruv aniq belgilab qo'yilgan va qat'iy qonunlar asosidagina shakllanadi. Ya'ni davlat idoralarining barcha xatti-harakatlari qonunga asoslanib, uning xaqqoniy ijrosi davlat ishchilarini shaxsiy manfaatni xalq manfaatidan ustun qo'yishdan tiyib turadi, fuqarolik institutlari bunda davlat va jamiyatga yordam beradi. Ijro etuvchi hokimiyat qonun chiqaruvchi hokimiyatdan ajralgan va ular vakolatlari qonunlar doirasida chegaralangan bo'ladi. Bunday davlatda «qonun hamma uchun barobar» bo'lib, mulk huquqi himoyasi davlat tomonidan qat'iy ta'minlanadi va uni himoya qiladigan mustaqil sud hokimiyati mavjud bo'ladi.

Ikkinchi turdagi, patrimonial yoki uning zamonaviy ko'rinishi bo'lmish neopatrimonial boshqaruvga asoslangan davlatning kuchi esa faqat avtoritar hukmdor yoki bir toifa shaxslarning o'zboshimcha xohishiga bog'liq bo'ladi. Bunday davlatda boshqaruv qat'iy qonunlar, universal prinsiplar asosida emas, balki shaxsiy aloqalar va hukmron qatlamga sadoqatlilikka asoslanadi, qonun ustuvorligi prinsipi ma'lum manfaatlarga bo'ysundiriladi. Qonuniylikning ustuni bo'lishi kerak bo'lgan sud tizimi esa ijro hokimiyatiga sodiq bo'ladi va undan mustaqil faoliyat yurita olmaydi. Iqtisodiy masalalar shaxs huquqlarining ajralmas qismi emas, balki hukmdor hokimiyatining xohishi doirasidagi bir masala sifatida ko'riladi.

Uchinchi turi – xarizmatik. Bu tur asosiy mavzuga kirmasligi uchun uni bu yerda yoritmaymiz.

Demak, yuqoridagi huquqiy-mantiqiy jamiyatdan farqli o'laroq bunday patrimonial/neopatrimonial jamiyatda shaxsning iqtisodiy erkinligi va mulkining himoyasi og'ir ahvolda qoladi, bozor iqtisodiyotining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan erkin iqtisodiy munosabatlar zavolga uchraydi.

Bozor munosabatlari shakllanishi uchun muhim bo'lgan institutlar mavjud.

Kapitalizmning vujudga kelishida davlat boshqaruvi muhimligini keyinchalik iqtisodiyotdagi «institutsional» yoʻnalishni ham maʼqullab chiqdi. Institutsional yoʻnalish otasi boʻlmish Nobel mukofoti sovrindori Doglaz Norz bozor munosabatlarining haqqoniy shakllanishi va ishlashi uchun maʼlum institutlarning zaruratini koʻrsatib berdi. Xoʻsh, bu institutlar nimalar?

Institut deganda jamiyatdagi noaniqlikni kamaytiradigan hamda insonlar xatti-harakatini tartibga soladigan turli norma va qonun-qoidalarni tushunamiz. Oddiygina chorrahadagi svetofor yoʻlda harakatlanadigan barchaning xatti-harakatini tartibga solib turadi – qizilda toʻxtaysiz, yashilda yurasiz. Yoʻl harakatiga oʻxshab, bozor munosabatlarini ham tartibga soluvchi muhim institutlar mavjud. Shulardan biri mulk huquqi hisoblanadi.

Mulk huquqi nafaqat bozor munosabatlarining asosi, balki iqtisodiy rivojlanish uchun ham muhim omildir. Umumiy maʼnoda mulk huquqi deganda maʼlum shaxs oʻziga tegishli boʻlgan moddiy neʼmatdan hech qanday toʻsiqlarsiz oʻz xohishicha tasarruf qila olishi tushuniladi.

Mulk egasi qachonki mulkning jamiyatning boshqa aʼzolari tajovuzidan omonda va uning himoyasi davlat qaramogʻida ekanligiga ishonch hosil qilsa, u oʻz mulkini qoʻshimcha qiymat yaratishga ishlatadi. Shuningdek, mulk egasi oʻz mulkidan qoʻshimcha qiymat yaratishda turli shartnomalar tuzar ekan, ularning ijro etilishini taʼminlaydigan va nizolar vujudga kelganda ularni betaraf hal qila oladigan odil sud mavjudligiga ishonch hosil qilishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, qonunlarning betaraf tatbiq yetilishiga ishonch boʻlmagan jamiyatdagi mulk aslida qoʻshimcha qiymat yaratish jihatidan «oʻlik» mulk hisoblanadi. Mulkimizdan erkin foydalana olmasak, uning kafolati evaziga bankdan kredit olib erkin tadbirkorlik qila olmasak, bu mulkdan bizga va jamiyatga naf yoʻq. Demak, mulk turli shartnomalar orqali qiymat yaratishi uchun dastavval davlat jamiyat manfaatidan kelib chiqqan holda huquqiy muhit shakllantirishi, turli mulk shakllarini belgilashi va uni muhofaza qiladigan betaraf va odil sud tizimini yaratishi zarur. Eng muhimi, oʻzgalar mulkini tortib olish kuchiga ega boʻlgan davlatning xatti-harakatlari albatta qonun doirasida chegaralanishi shart.

Yuqoridagi institutlardan tashqari, davlatning bozor munosabatlarini shakllantirishda boshqa muhim vazifalari ham mavjud. Angliyada erkin bozorning (*laissez faire*) kelib chiqishi tarixini muhokama qilarkan, mashhur iqtisodiyot tarixchisi Polani «agar davlat bo‘lmaganida, bozor iqtisodiyoti ham bo‘lmas edi», deydi ishonch bilan. Uning fikricha, erkin iqtisodiyotning o‘z-o‘zidan hech qanday davlat aralashuvisiz vujudga kelishi bu – mifologiya. Nima uchun? Sababi shuki, agarda quyidagi 3 ta xayoliy kapital (*fictitious*) – yer, ishchi kuchi va pul bo‘lmasa hech qachon bozor munosabatlari vujudga kelmaydi. Bularning har biri davlatning bozor munosabatini yo‘lga qo‘yuvchi muhim bir vazifasini aks ettiradi. Davlat yer ta’minotini tartiblash bilan birga unga kim egalik qilishini ham belgilab beradi. Mehnat huquqlarini tartibga solish vositasida ishchi va ish beruvchi munosabatlarini mayorlaydi, pul muomalasini qoidalab, iqtisodiyotning yurishini belgilaydi.

Davlat kuchi: zaiflik va kuchlilik

Iqtisodiy rivojlanishga olib keladigan bozor munosabatlari uchun davlatning roli muhim ekan, nega unda mustaqilligini ancha oldin qo‘lga kiritgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ayrim davlatlari hamon qashshoqlikdan chiqib keta olishmayapti?

Muammo shundaki, bozor munosabatlari uchun muhim bo‘lgan bu institutlarni shakllantirish kuchi va imkoniyati hamma davlatlarda ham mavjud emas. Xo‘sh, qanday kuchga ega bo‘lgan davlat buning uddasidan chiqa oladi? Davlatning imkoniyati deganda uning samarali va qonuniy boshqara oladigan kuchini tushunsak, bu kuchni uch o‘lchamda (*dimension*) ko‘rishimiz mumkin: institutsional, siyosiy va ijroiya.

Institutsional o‘lcham davlat siyosiy institutlari mustaqilligi, kuchi, yakdilligidir. Davlat qay darajada mulk huquqini shakllantiradi, uni himoya qiladi va bozorda raqobatni ta’minlay oladi – bular institutsional muhitning sifatiga bog‘liq. Bu yerda muhim omil – davlat qay darajada boshqa ichki guruhlardan mustaqilligi va ajralganligidir. Agar davlat qarorlariga ma’lum manfaatdor guruhlar ta’sir yetsa yoki davlatni bunday guruhlar egallab olgan bo‘lsa, davlatning xatti-harakatlari xalqning emas, o‘sha guruhlarning manfaatini ko‘zlasa, bu davlat institutsional

o'lchamda juda zaif hisoblanadi. Bunday davlat samarasiz bo'lib, tabiiyki, korrupsiya va boshqa ko'plab illatlarning o'chog'iga aylanadi. Institutsional tarafdin kuchsiz bo'lgan bunday davlatda qarorlar xalq manfaatini ko'zlasa-da, ularning ijrosi ichki guruhlar tomonidan ta'sirsiz holga keltiriladi.

Siyosiy o'lchamda davlat bilan jamiyatning uzviy bog'liqligi davlatning kuchini belgilaydi. Ya'ni davlatning jamiyat bilan hamkorligi qay darajada kuchli bo'lsa, davlat jamiyatdan ayri bir institut bo'lmasa davlatning ijtimoiy kuchi ham mustahkam bo'ladi. Buni tom ma'nodagi fuqarolik jamiyati deb atasa bo'ladi.

Jamiyat kuchsiz bo'lsa davlat jamiyatdan mustaqil holatga keladi. Natijada mamlakat boyligi faqat kuchli guruhlar orasida bo'linib, davlat ularga siyosiy manfaat uchungina bog'lanadi. Bu degani davlat va jamiyatning aloqasi faqat yuqoridagi elita qism qo'lida jamlanadi va bu siyosiy-iqtisodiy oligarxiyani keltirib chiqaradi.

Nihoyat, davlatning ijroiya o'lchamdagi kuchi u qay darajada qonunchilik, ta'lim, infrastrukturaga o'xshash umumiy tizimni ta'minlay olishi bilan o'lchanadi. Bu albatta uning ma'muriy tizimi qay darajada to'g'ri shakllanganiga, ijro organi qay darajada topshiriqlarni vaqtida bajara olishiga, byudjet mablag'larining samarali istifoda etilishiga (talon-toraj etilmasligiga) bog'liq. Kuchli davlat yuqorida keltirilgan omillarning barchasiga javob bera oladigan davlatdir.

Ijroiya hokimiyat, sud, prokuratura, OAV kabi hokimiyat turlari bir-biridan ayri bo'lmasa, bir-biridan mustaqil bo'lmasa, davlatning kuchi bir toifaning manfaati yo'lida xizmat qilsa, jamiyat davlatga butkul qaram bo'lsa, bunday davlat kuchsiz davlat hisoblanadi. Bunday davlatning bozor munosabatlarini shakllantirish uchun ko'zlagan har qanday aralashuvi samarasizlik, erkinliklarning cheklanishi va korrupsiyani urchitish bilan yakun topadi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Innovatsion faoliyat – tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishda yangi shakllar qo'llanilishiga asoslangan faoliyat.

Innovatsion salohiyat – innovatsion jihatdan istiqbolni o'ylab belgilangan maqsadlarga erishish imkoniyatlari.

Innovatsion texnologiyalar – iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo'llaniluvchi usul va vositalar majmui bo'lib, o'z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabilarni oladi.

Innovatsiya – yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etish; yangi texnologiyaning birinchi marta tijorat asosida qo'llanishi. Intensiv iqtisodiy o'sish resurslardan yanada samarali foydalanishga asoslangan iqtisodiy o'sish. Uning asosiy omili fan-texnika taraqqiyoti.

Innovatsiya investitsiyalari – texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o'zlashtirishga qo'shiladigan investitsiyalar.

Innovatsiya jarayoni – yangilik g'oyasini rivojlantirishdan uning pirovard iste'molchi tomonidan iste'mol qilinishigacha bo'lgan mantiqiy izchillikda harakatlanuvchi jarayon.

Legal monopoliya – o'zining mahsulotiga egalik qilish va sotish huquqini olgan monopoliya. Ko'pgina hollarda davlat fan va texnikadagi ishlarni rag'batlantirish uchun ongli ravishda kashfiyot egalariga monopol huquqlarni beradi. Legal monopoliyalar cheklangan vaqt davomida mavjud bo'ladi. Masalan, patent yoki litsenziyaga egalik qilish vaqti mobaynida. Bundan so'ng boshqa firmalar ham bu yo'nalishda faoliyat ko'rsata boshlaydi.

Monopoliya (yun. tanho sotaman) – iqtisodiyotning biron-bir sohasidagi tanho hukmronlik. Monopoliya ishlab chiqarish vositalari, ish kuchi va yaratilgan mahsulotlar asosiy qismining yagona yoki ozchilik korxonalar, tadbirkor shaxslar yoki davlat qo'lida to'planishi natijasida paydo bo'ladi.

Monopoliyadan chiqarish – raqobat munosabatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat tomonidan tartib-qoidalarining joriy etilishi. Bunda yirik korxonalar va xo'jalik tuzilmalari maydalashtiriladi yoki parallel tuzilmalar tashkil

etiladi. Shu bilan birga, tarmoqqa yangi ishlab chiqaruvchilar kirishi uchun turli xil rag‘batlantiruvchi sharoitlar yaratiladi.

Monopsoniya – bozor holati. Bunda bozorda bir nechta o‘zaro raqobat qiladigan korxonalar tovar ishlab chiqaruvchilar bo‘lib, xaridor esa tanho bo‘ladi. Natijada xaridor hukmini o‘tkazib, bozorda yetakchi mavqeni egallaydi, ishlab chiqaruvchilarni narxni pasaytirishga majbur qiladi.

Sof raqobat – yuzlab, minglab mustaqil sotuvchi, xaridorlar mavjudligi hamda ularning erkin ravishda bozorga kirishi va undan chiqa olishi bilan tasniflanadigan bozor strukturasi. Ishlab chiqaruvchilarning har biri bozorda bir xil mahsulot sotishning kichik ulushiga ega bo‘lganlari sababli bozor narxiga ta’sir eta ololmaydigan, shuningdek, unda bir xil mahsulot sotilgani uchun g‘ayrinarxiy raqobat usulidan foydalanilmaydi.

Sof raqobat bozori – yakka sotuvchi yoki sotib oluvchi joriy bahoga katta ta’sir ko‘rsata olmaydigan, jarayondagi sotuvchi va xaridorlar yig‘indisi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Mikrosiyosiy iqtisodiyotning asosiy maqsadlarini tushuntiring.
2. Mikrosiyosiy iqtisodiyotni olib borishda iqtisodiy subyektlarni necha turga bo‘lib qaraladi va ularni izohlang.
3. «Innovatsiya» tushunchasi ilk bor qaysi olimning ilmiy ishlarida ishlatilgan?
4. Startapni moliyalashtirish manbalarini sanab bering.
5. Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi bo‘lib nima xizmat qiladi?
6. Monopoliya bozorni qamrab olish darajasiga ko‘ra qaysi turlarga bo‘linadi?
7. Erkin bozor tushunchasiga ta’rif bering.
8. Bozor munosabatlari shakllanishi uchun muhim bo‘lgan institutlarni sanab bering.

VAZIYATLI TOPSHIRIQ – KEYS

Yuqoridagilarni o‘qib, mamlakat iqtisodiyotida mikrosiyosiy iqtisodiyotning o‘rni yaxshi tushunib yetdingiz degan umiddamiz, va shundan kelib chiqib quyidagi keysda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan mikrosiyosiy iqtisodiyotning AQShda olib borilayotga mikrosiyosiy iqtisodiyot bilan qiyoslagan holda o‘xshash va farqli tomonlarini keltirishingiz so‘raladi, har biridan 5 tadan kam bo‘lmagan holatda.

IX BOB. INVESTITSIIYA SIYOSATI

Ushbu bobda o'rganiladigan mavzularning qisqacha tasnifi quyidagilardan iborat:

- Investitsiyaning mohiyati, shakllari va investitsiya oqimlari
- Investitsiya muhitini yaratish masalalari
- Ichki resurslarning investitsion samaradorligi
- Tashqi investitsiya manbalari
- Milliy investitsion dasturlarning ahamiyati
- Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyati
- Fond birjasining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni

9.1. Investitsiyaning mohiyati, shakllari va investitsiya oqimlari

Bozor munosabatlarining rivojlanib borishi, uni tashkil etuvchi subyektlar iqtisodiy faoliyatlari moddiy bazasining rivojlanishiga bog'liq, chunki moddiy resurslardan samarali foydalanish har qanday iqtisodiy o'sishning sharti va bosh omili hisoblanadi. Respublikamizda mikrodarajadagi iqtisodiy o'sishni ta'minlash va mavjud resurslardan samarali foydalanish, investitsion faoliyatni amalga oshirish birlamchi ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi. Investitsion faoliyatning eng muhim elementi «investitsiya»ning mohiyati va mazmunini aniqlashdir.

«Investitsiya» so'zi ingliz tilidan (investments) olingan bo'lib, «kapital qo'yilma» degan ma'noni bildiradi. Hozirgi kunda investitsiya mohiyati haqida turlicha qarashlar mavjud bo'lib, bu qarashlar uning mohiyatini turlicha ifodalaydi. Investitsiya mohiyati qandaydir samara yoki daromad olish uchun turli shakllarda kapital qo'yish jarayonini ifodalaydi. Bunday tushuncha birmuncha umumiy xarakterga ega.

Yana investitsiyaning mohiyatiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: investitsiya – bu uzoq muddatli va kapital qo'yilmalarni xavf-xatarga qo'yib (tavakkal qilib), tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga takror ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida va buning natijasida foyda olish yoki resurslar potensialining cheklangan sharoitida kelajakda boshqa foydali samaraga erishish

maqsadidagi iqtisodiy kategoriyadir.

Keyingi, unchalik muhim bo'lmagan, investitsiyalar mazmunini aniqlashtiradigan ta'rif – bu investitsiya faoliyatidir.

Investitsiya faoliyati – bu investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmuidir.

Investitsiya faoliyati quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin: yuridik shaxslar tuzish yoki ularning ustav jamg'armalarida (kapitallarida) ulushli ishtirok etish, shu jumladan, mol-mulkni yoki aksiyalarni olish; qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini olish;

konsessiyalarni, shu jumladan, tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan konsessiyalarni olish; mulk huquqini, shu jumladan, ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda savdo va xizmat ko'rsatish sohalari obyektlariga, turar joylarga mulk huquqini, shuningdek, yerga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish (shu jumladan, ijara asosida foydalanish) huquqini qonun hujjatlariga muvofiq olish;

qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shakllarda. Har qanday mol- mulk, shu jumladan, xalq xo'jaligining barcha sohalaridagi asosiy fondlar va aylanma mablag'lar, qimmatli qog'ozlar, maqsadli pul qo'yilmalari, ilmiy-texnika mahsuloti, intellektual qimmatliklar, boshqa mulkiy obyektlar hamda mulkiy huquqlar investitsiya faoliyatining obyekti hisoblanishi mumkin. Barpo etilishi va foydalanilishi qonun hujjatlarida belgilangan sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablarga javob bermaydigan, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan obyektlarga investitsiya kiritish taqiqlanadi.

Quyidagilar investitsiya faoliyatining subyektlari (investorlar va ishtirokchilar) bo'lishlari mumkin: O'zbekiston Respublikasining rezidentlari – fuqarolari (jismoniy shaxslari), yuridik shaxslari; mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruvi organlari; xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va chet ellik yuridik shaxslar hamda fuqarolar, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan

shaxslar va O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashovchi fuqarolari; hamkorlikda investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, davlatlar va xalqaro tashkilotlar.

Investorlarning iqtisodiyot sohalarni isloh qilish sharoitida, xorijiy investorlarning u yoki bu mamlakat iqtisodiyotiga sarmoyasini sarflashga tayyor bo'lishi undagi mavjud investitsion iqlimga bog'liqdir. Investitsion iqlim siyosiy, iqtisodiy, qonuniy, ijtimoiy, mintaqaviy omillar va boshqa omillar mushtarakligini aks ettiradi. Mazkur omillar asosiy kapitalga investitsiyalarning risk darajasini va ulardan samarali foydalanish imkoniyatini belgilab beradi.

Iqtisodiyot sohalarni isloh qilish sharoitida, mamlakatda makro va mikro muhit omillarining bir-biriga mos kelishida asosiy kapitalga investitsiyalarga shakllanishi mumkin bo'lgan investitsiya resurslarining yetarli darajada mavjud bo'lishi iqtisodiyotning real sho'basiga asosiy kapitalga investitsiyalar oqimini ta'minlashning zarurligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va chet el investitsiyalarini jalb qilishning kengayib borishi darajasiga qarab investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, bevosita chet el investitsiyalarini yangi loyihalarga, shuningdek, xususiy tadbirkorlik subyektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jalb qilishni ham nazarda tutadi. Bunda chet el investitsiyalar oqimini rag'batlantirish, shu bilan birga milliy iqtisodiyot subyektlarining bu faoliyatda ishtirok etishini taqdirlash muhim o'rinda turadi.

Shunday qilib davlat tomonidan investitsiya munosabatlarini tartibga solishning vazifasi, bir tomondan, bevosita chet el investitsiyalari oqimini oshirishdan, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotdagi xususiy mulkchilik subyektlarining qo'yilmalarini kengaytirishdan iborat bo'ladi.

9.2. Investitsiya muhitini yaratish. Ichki resurslarning investitsion samaradorligi

Dunyo hamjamiyatining hozirgi taraqqiyot bosqichida biror mamlakat investitsiyalarsiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erisha olmaydi. Investitsiya

resurslarini o'z vaqtida milliy iqtisodiyotiga jalb qila olmagan, pul mablag'lari tanqisligini boshidan kechirayotgan davlatlar, ijtimoiy- iqtisodiy jihatdan orqada qolib ketishi hech gap emas.

Bunday holatda muammoning eng yaxshi yechimlaridan biri moliyaviy mablag'lari ortiqcha bo'lgan rivojlangan mamlakatlardagi kapital resurslarni, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga jalb etishdir. Investitsiyalar yordamida quyidagi vazifalarni hal etish mumkin:

Birinchidan, investitsiya ichki bozorda xaridorgir bo'lgan, import tovarlari o'rni bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaradigan yangi korxonalar qurish, yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi.

Ikkinchidan, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ishlab chiqarish hajmini kengaytirib, ularning xususiy kapital miqdorini oshiradi.

Uchinchidan, milliy iqtisodiyotda texnologik yangilanish yuz beradi, korxonalarga yangi texnika va zamonaviy uskunalar o'rnatiladi. Natijada jahon bozorida raqobatlasha oladigan milliy mahsulotlar ishlab chiqarila boshlaydi.

To'rtinchidan, milliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan kredit mablag'lari hisobidan istiqbolli loyihalarni amalga oshirish imkoni yaratiladi.

Beshinchidan, milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi amalga oshadi.

Investorlarning milliy iqtisodiyotga mablag' kiritishi ko'p jihatdan nafaqat korxonalar reytingi yoki xo'jalik faoliyati natijalariga, balki mamlakatning geosiyosiy joylashuvi va davlat tomonidan yuritilayotgan ichki siyosatga ham bog'liq. Investorlar mablag' yo'naltirish uchun eng barqaror mamlakatlarni tanlaydilar. Shuning uchun dunyoning barcha mamlakatlari imkon qadar investitsion riskni kamaytirishga oid ishlarni bajarishga harakat qiladilar. Shunday ekan har bir mamlakat o'z investitsion muhitini yarata olish va uning jozibadorligini oshirib borishi zarurdir.

Jahonda xorijiy kapitalni jalb etish bo'yicha mamlakatlar o'rtasida keskin kurash ketmoqda. Xorijiy investitsiyalar hajmi, uning sifati va qulay shartlaridan foydalanish borasida rivojlangan mamlakatlarda yildan yilga investitsion muhit

jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiladigan innovatsion instrumentlarning turli ko'rinishlari yuzaga kelmoqda. Mamlakatimizning ichki iqtisodiyotida shakllangan jamg'arma mablag'larining miqdori yalpi ichki mahsulot hajmi va iste'mol darajasiga bog'liqdir.

Xorijiy mamlakatlar, xususan, yangi industrial davlatlar, Gonkong, Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy o'sish darajasi 10 foizdan yuqori ko'rsatkich qayd qilingan davrda mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar salmog'i yalpi ichki mahsulot (YaIM)ga nisbatan 35–40 foizni tashkil etgan bo'lib, ularning katta qismi ichki investitsiyalar hisobiga to'g'ri kelgan. Bir so'z bilan aytganda, mazkur davrda oddiy fuqarolardan tortib, to milliy iqtisodiy subyektlarning barchasi «belni mahkam bog'lab» ish tutishni lozim topgan, ya'ni iste'mol qilish hajmini kamaytirib, jamg'armalar salmog'ini oshirishga o'z hissalarini qo'shishgan.

Respublikamizda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlariga erishilishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning yuqori o'sish sur'atlari asosiy omil bo'ldi. Ular 2018 yilga nisbatan 3,9 marta o'sib, jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining 31,0%ini, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 19,6% (yoki 3,6 marta o'sishni) tashkil etdi⁷.

Ammo mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida strategik maqsadlarni belgilab olgan ekan, ularni amalga oshirish uchun milliy iqtisodiyotga investitsiyalar hajmini oshirish zarur bo'ladi. Buni, birinchidan, ichki investitsiyalar hajmini ko'paytirish, ikkinchidan, tashqi investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etish negizida amalga oshirish mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, ichki iqtisodiyotda shakllangan jamg'arma mablag'larining miqdori YaIM va iste'mol hajmi bilan cheklangan. Milliy iqtisodiyotga investitsiyalar hajmini ichki investitsiyalar asosida ko'paytirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- jamg'armalarni investitsiyaga aylantirish bilan bog'liq mavjud mexanizmlarni takomillashtirish;

⁷ www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2019 yildagi ma'lumotlari asosida.

– tijorat banklari tomonidan aholi qo‘lida mavjud pul resurslarini, xoh u milliy, xoh xorijiy valyutada bo‘lsin, jalb qilish va ularni tadbirkorlik subyektlariga kredit mablag‘lari sifatida berish;

– aholi qo‘lida yig‘ilgan pul mablag‘larini «Toshkent» fond birjasi orqali investitsiya jarayoniga jalb qilish va hokazo.

Ko‘rinib turibdiki, ichki investitsiya mablag‘larini milliy iqtisodiyotga yanada jadal jalb qilish, mamlakatimizda mavjud kapital resurslarni iqtisodiyot tarmoqlariga yo‘naltirish mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liq bosqichni bosib o‘tishni taqozo etadi. Milliy iqtisodiyotga investitsiyalar kiritish hajmini oshirishda ichki investitsiyalarga muqobil omil – bu faqat xorijiy investitsiyalar va kredit mablag‘lari hisoblanadi. Shunday ekan, bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish bilan bog‘liq mavjud barcha resurs va zaxiralarni o‘rganish va qaytadan ko‘rib chiqish, chet el kapitalini milliy korxonalarga yo‘naltirish mexanizmini takomillashtirish borasida ish olib borish lozim bo‘ladi. Investitsiya qabul qilayotgan (retsipiyent) mamlakat uchun TTXIlarning asosiy ahamiyati quyidagi yo‘nalishlarda o‘z ifodasini topadi: TTXI kapital to‘planishning qo‘shimcha manbasi sifatida iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini tezlashtiradi va iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi; TTXI oqimi boshqa shakldagi kapital importi, ya‘ni portfel investitsiyalar va bank ssudalarining kirishini rag‘batlantiradi; TTXI oqimi mamlakatga yangi texnika va texnologiyalar kirishini rag‘batlantiradi va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali yuqori malakali ishchilarga bo‘lgan talabni oshiradi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, islohotlarni chuqurlashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarni yaratish, mamlakat iqtisodiyotining tarmoq va sohalarida amalda faoliyat yuritayotgan texnika va texnologiyalarni yangilash, ularni qo‘llab-quvvatlash investitsion jarayonlarni nechog‘lik to‘g‘ri va samarali amalga oshirishga bog‘liq.

9.3. Tashqi investitsiya manbalari

Tarmoqlar va xo‘jalik yuritish subyektlarida hozirgi kunda olib borilayotgan investitsiya va innovatsiya faoliyati iqtisodiyotni transformatsiya qilish talablariga

to'liq javob bera olmaydi. Chunki qator muammolar borki, ularning yechimi bu masalalarga bog'liq.

Misol uchun, mamlakatda investitsiyalar oqimi yetarli emas; to'g'ridan-to'g'ri jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi past va manbalari xilma-xil emas; hududiy investitsiya siyosatida barqarorlik yetishmaydi, investitsiyalar hududlar kesimida notekis joylashgan; ishlab chiqarishni transformatsiya qilish, zamonaviylashtirish, texnik va texnologik qayta jihozlash uchun investitsiyalarni jalb qilish darajasi yetarli emas; investitsiya resurslari tarkibi rivojlangan mamlakatlarda mavjud tuzilishga mos kelmaydi; iqtisodiyotda davlat ulushining yuqori darajada qolishi; inflyatsiyaning o'sishi; soliq yuki o'zgarishi; infratuzilma va kommunikatsiyalarning rivojlanish darajasi yetarli emas; asosiy vositalarni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari, ayniqsa ishlab chiqarish tarmoqlarida faollik darajasi pastligi; muhandislik va ilmiy tadqiqot ishlanmalari hamda texnologiyalari yetishmasligi; ishlab chiqarish past darajadaligi; mahalliyashtirishning past darajasi va import qilinadigan tarkibiy qismlarga kuchli bog'liqlik masalalari saqlanib qolmoqda.

Alohida qayd etish lozimki, avvalgi xomashyo realizatsiya qilish siyosatidan jahon bozoriga tayyor iste'mol mahsulotlari chiqarish, shu asosda mamlakatimizga xorijiy valyuta va investitsiyalar oqimini yanada ko'paytirish dolzarb hisoblanadi. Aytish mumkinki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash ko'lamini yanada kengaytirish, buning uchun tashqi va ichki investitsiyalarni, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini ko'paytirish va ulardan samarali foydalanishni rag'batlantirish masalalari o'z yechimini kutayotgan ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Binobarin, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va investitsiyalash jarayonlarini bir medalning ikki tomoni sifatida qarash va ularning o'zaro ta'sirini kuchaytirish hamda uyg'unligini ta'minlash asosida hududlar, tarmoqlar va xo'jalik yurituvchi subyektlari kesimida investitsiya faolligini oshirishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga samarali tatbiq etish dolzarb ahamiyatga ega ekanligi shubhasiz.

Mamlakatga jalb etilgan investitsiyalar kelib chiqish manbalariga ko'ra ikki turga bo'linadi: ichki manbalar, tashqi manbalar.

Jalb etilgan investitsiyalarning ichki manbalari:

- amortizatsiya ajratmalari;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar daromadi;
- aholi mablag'lari;
- byudjetdan ta'minlash;
- bank kreditlari;
- qimmatli qog'ozlarning ichki bozori;
- soliqlar;
- lizing;

Jalb etilgan investitsiyalarning tashqi manbalari:

- hukumatlararo kreditlar;
- xorijiy investitsiyalar;
- qimmatli qog'ozlarning xalqaro bozori.

Moliyalashtirishning tashqi manbalarini jalb etish, investitsiya faoliyatini tartibga solish obyektiv zaruratga aylanadi. Bu amaldagi qonunchilikni soddalashtirish va barqarorlashtirish tomon takomillashtirish, mamlakatga yangi loyihalar va qo'shma korxonalar tashkil qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari kelishini rag'batlantirishni talab qiladi. To'g'ridan-to'g'ri chet el sarmoyalari oqimini kengaytirish maqsadida chet ellik investorlarni ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirgunlariga qadar barcha ko'rinishdagi bojxona to'lovlari, soliqlar, yig'imlardan imtiyoz va preferensiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq.

Har bir to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni kiritishda imtiyozli soliqqa tortish tartibini alohida qo'llagan holda ular ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq o'zlashtirgandan keyin amalga oshirish ma'qul bo'ladi. Rag'batlantirish mexanizmlari valyuta xarajatlarini qoplovchi loyihalarni va mahalliy xomashyo resurslari bazasidagi loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilishi zarur.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini kengaytirish maqsadida xorijlik investorlarning ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq o'zlashtirgunlariga qadar

barcha ko‘rinishdagi soliqlar, bojxona to‘lovlari, yig‘imlardan imtiyoz va preferensiyalar qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni kiritishda imtiyozli soliqqa tortish tartibini alohida qo‘llagan holda ular ishlab chiqarish quvvatlarini to‘liq o‘zlashtirgandan keyin amalga oshirish ma’qul bo‘ladi. Pirovardida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘z faoliyat yo‘nalishlarini innovatsiyalar asosida mustaqil va erkin belgilash muammolari bozor munosabatlariga mos holda hal etiladi.

Investitsiya faoliyatini tartibga solishda soliqlarning rag‘batlantiruvchi funksiyalaridan samarali foydalanish investitsiyalarni moliyalashtirishda bozor mexanizmlari rolini kengaytirishga olib keladi.

Investitsiya siyosatining faoliyatini tartibga solishda samarali iqtisodiy mexanizmlar orqali chet el kapitalini tarmoq ustuvorligini ta’minlagan holda yo‘naltirish tushuniladi. Ayni vaqtda ushbu mexanizm soliqlarning tartibga soluvchi funksiyasi orqali amalga oshiriladi. Bunda davlat va ham nodavlat sektoridagi ishlab chiqarish korxonalarining asosiy kapitalini yangilashga qaratilgan investitsiyalarni rag‘batlantirishga e’tibor qaratilishi mumkin.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish uchun tashqaridan mablag‘ jalb qilish hajmlarida xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va boshqa markazlashtirilmagan manbalar mablag‘lari hisobidan ko‘paytirish yuqori samara beradi.

9.4. Milliy investitsion dasturlar. Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyati. Fond birjasi

Odatda mamlakatlar umumiy, ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni amalga oshirish uchun moliyaviy va boshqaruv kuchlarini strategik yo‘nalishga jamlashni talab qiladigan milliy loyihalardan foydalanadi. Shu bilan birga, milliy loyiha doirasi markaziy va mintaqaviy hokimiyatlarning say-harakatlarini birlashtirilib, turli bo‘limlar va faoliyat sohalari rahbariyati, davlat va biznes o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlanadi.

Resurslarning keskin cheklanganligi va bozorni investitsiyalash

mexanizmlarining yetuk emasligini hisobga olgan holda, investitsiya faoliyati sohasidagi davlat siyosati ustuvor yo‘nalishlarni tanlash va «sarmoya nuqtasi» tamoyillarini shakllantirish, investitsiya jarayoni ustidan nazorat darajasini oshirishi kerak. Ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlarning asoslilikini, izchilligini va murakkabligini mustahkamlashi zarur.

Milliy investitsiya loyihalari moliyaviy resurslarni iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlariga, tadbirkorlik subyektlariga, hayot uchun xavfsiz bo‘lgan asosiy tarmoqlar, ijtimoiy soha va alohida davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan tarmoqlarning rivojlanishini ta’minlaydigan maqsadli dasturlarga kiritishni ko‘zda tutadi. Xususiyl investorlar faoliyati uchun qulay rejimni yaratishga qaratilgan investitsiya jarayonini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi.

Dunyo mamlakatlari tajribasidan kelib chiqib, milliy investitsiya loyihalarini tanlashning asosiy mezonlariga quyidagilar kiritiladi:

iqtisodiyotga raqobatbardoshlik darajasini oshirish, iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishdan iborat tizimli ta’sir;

muhiim tarmoqlararo multiplikatorning mavjudligi, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga ko‘maklashish;

uzoq muddatli amalga oshirish va yerishilgan samaraning davomiyligi;

ijtimoiy rezonans: fuqarolarning muhiim qatlamining hayot sifatini yaxshilash bo‘yicha loyiha natijalarining aniqligi;

ushbu sohalarda zarur islohotlarni amalga oshirish orqali loyiha maqsadlariga erishishni talab qiladigan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy tizimlarni modernizatsiya qilishga yo‘naltirish.

Loyihaning milliy iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlashga yo‘nalishini belgilaydigan, kapitalizatsiya va ichki resurslardan foydalanishni rag‘batlantirish, uning jahon iqtisodiy vaziyatidagi o‘zgarishlarga nisbatan nisbiy avtonomligini ta’minlaydi, davlat va biznesning say-harakatlarini loyihani amalga oshirish doirasida integratsiya qilish uchun keng imkoniyatlarning mavjudligi, buning uchun potensial mavjud bo‘lishini talab qiladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish yirik

hajmdagi investitsiyalarni talab etadi. Ushbu jarayonda moliya bozorlari, xususan, qimmatli qog'ozlar bozori muhim rol o'ynaydi. Qimmatli qog'ozlar bozorining taraqqiy etish darajasi mamlakat moliya bozori rivojlanishini belgilab beruvchi muhim bo'g'inlardan biridir. Tizim rivojida uning tarkibidagi savdo tuzilmalarining kapitallashuv darajasi, aylanma hajmi yuqoriligi, qimmatli qog'ozlarning daromadlilik darajasi hamda muomaladagi instrumentlar likvidligi asosiy ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi va xalqaro integratsiyalashuvi mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga ko'maklashuvchi muhim omildir. Shu bois ham, iqtisodiyoti taraqqiy etgan barcha mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozori rivojiga alohida e'tibor qaratiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozori yoki fond birjasi kapitalizatsiyasining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi (QQB/YAIM ko'rsatkichi) juda yuqori bo'lib, bu ko'rsatkich Nyu-York va Tokio fond birjalarida 70–90 foizni, Koreya va London fond birjasida 100–120 foizni, Gonkong fond birjasida 1000–1200 foizni tashkil etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 1 foizga ham yetmay kelyapti. Faqatgina o'tgan 2015 yilda ushbu ko'rsatkich 2,04 foizni tashkil etdi. Ushbu raqamlar qimmatli qog'ozlar bozori mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda yetarlicha o'ringa ega emasligini ko'rsatadi.

Qimmatli qog'ozlar bozori taraqqiy etishida ikkilamchi bozorning rivojlanganlik darajasi va barqaror amal qilishi muhim o'rin tutadi.

2009–2015 yillarda umumiy qimmatli qog'ozlar bozorining juda katta qismi birlamchi bozor hissasiga to'g'ri kelgan.

Faqatgina 2011 yilda umumiy qimmatli qog'ozlar bozorida ikkilamchi bozorning ustunligi kuzatilgan. So'nggi yillarda ikkilamchi bozorning hissasi keskin pasayib, umumiy qimmatli qog'ozlar bozoridagi ulushi 2013 yilda 16,9 foiz, 2014 yilda 9,1 foiz va o'tgan 2015 yilda 7,5 foizni tashkil etgan. Bu holat fond bozorida muomalada mavjud bo'lgan qimmatli qog'ozlarning daromadlilik darajasi va

likvidligi pastligini ko'rsatadi. Qimmatli qog'ozlarning daromadlilik darajasi va likvidligi pastligi investorlar qiziqishini kamaytiradi, natijada, fond bozorining jalb etish xususiyati kamayadi.

2009–2015 yillarda qimmatli qog'ozlar bozorining umumiy aylanmasida uyushmagan bozor mutlaq ustunlikka ega bo'lgan. Uyushmagan bozorda uyushgan bozor («Toshkent» Respublika fond birjasi va «Elsis-savdo» birjadan tashqari uyushgan bozori)ga nisbatan savdo hajmi yuqoriligining asosiy sababi, davlatga tegishli korxonalar aksiyalari xususiylashtirish yo'li bilan bozorga chiqarilganligi jarayoni bilan bog'liq. Uyushmagan bozorning umumiy bozor hajmida uyushgan bozorga nisbatan gipertrofirlashgan darajada ustunligining yana bir sababi uyushmagan bozorda transaksion (komission) xarajatlar minimal darajada ekanligi va ularni rasmiylashtirish osonligidir.

2009–2015 yillarda qimmatli qog'ozlar bozori umumiy aylanmasi hajmida aksiyalar bozori obligatsiyalar bozoriga nisbatan juda katta farq bilan ustunlik qilgan. So'nggi yillarda obligatsiyalar bozori aylanmasida keskin pasayish kuzatilib, bu holat uning umumiy bozor hajmidagi ulushi tushib ketishiga olib keldi.

Umumiy qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyalar bozorining hajmi tahlil qilingan so'nggi ikki yilda 99 foizni tashkil etgan. Aksiyalar bozorining obligatsiyalar bozoriga nisbatan ustunligi umumiy qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish darajasi yuqori ekanligini anglatmaydi.

Umuman olganda, muomalada faqatgina aksiyalar va obligatsiyalarning mavjudligi mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozori moliyaviy instrument turlari va xilma-xillik nuqtai nazaridan u qadar boy emasligini ko'rsatadi. Bu esa investorga instrumentlar jihatidan diversifikatsiya qilish imkonini bermaydi.

Yuqoridagi muammolarni hal qilishning eng asosiy yo'li – bu mamlakatimiz iqtisodiyotida yuqori ulushga ega bo'lgan yirik korxonalarning davlat ulushi sifatida turgan qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish (hech bo'lmaganda bir qismini) va investorlarga erkin sotish hisoblanadi. Muhimi, bu jarayon allaqachon boshlab yuborilgan. Yuqorida tilga olingan masalalarning hal etilishi likvidli instrumentlar taklif etilishiga, qimmatli qog'ozlarning daromadlilik darajasi o'sishiga, aholining

fond bozoriga ishonchi ortishiga olib keladi. Eng asosiysi esa bu orqali bozorning jalb qilish xususiyati ortishi hamda qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishini ta'minlashga erishish mumkin.

«Toshkent» Respublika fond birjasi mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar savdosi amalga oshiriladigan asosiy savdo majmuasi bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur fond birjaning ahamiyati aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan qimmatli qog'ozlar joylashtirish orqali moliyaviy resurslar jalb qilishida tobora oshib bormoqda.

Mamlakatimizda fond birjalarining rivojlanishi bir tomondan aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan kapital jalb qilish va korporativ boshqaruvni samarali tashkil etishga erishilsa, boshqa tomondan aholi qo'lidagi bo'sh mablag'larning birja savdolariga jalb qilishga va ular daromadlilikini oshirishga zamin yaratadi.

Shu boisdan ham so'nggi yillarda mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyati yuzasidan iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017 yil 10 mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

«Fond birjasida aksiyalarni ommaviy taklifini o'tkazishni tashkil etish to'g'risida»gi 268-sonli qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorda asosiy e'tibor davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida xususiylashtirish jarayonlarini samarali tashkil etish hamda aksiyalarni ommaviy tartibda birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) bozorlarda savdosini tashkil etishga keng e'tibor qaratilgan. Bunda «Kvars» AJda IPO, «Shahrisabz vino-arok»AJ va «Qo'qon mexanika zavodi» AJlarda SPO operatsiyalarini tashkil etishga e'tibor qaratildi. Shunday qilib mamlakatimizda ilk bor mazkur zamonaviy moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga yo'l qo'yildi. Bu o'z navbatida qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Real investitsiya – ishlab chiqarishni kengaytirishga noishlab chiqarishni rivojlantirishga qilingan investitsiyalar.

Reinvestitsiya – investorlar tomonidan korxonalar faoliyatidan olingan

foydani ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida uni shu korxonaga qayta kiritishdir.

Xususiylashtirish investitsiya fondlari (xif) – investitsiya fondlarining bir turi hisoblanadi. Ular aholining keng qatlamini xususiylashtirish jarayoniga jalb etish maqsadida tashkil etiladi.

Davlat qimmatli qog‘ozlari – O‘zbekiston Respublikasining g‘azna majburiyatlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari.

Diskont – qimmatli qog‘ozning amaldagi narxi bilan qiymat qoplanishi paytidagi narxi yoki belgilangan qiymati o‘rtasidagi farq; moliyaviy vositani qiymat qoplanishi paytiga qadar belgilangan qiymatidan past narxda xarid qilish.

Egasining nomi yozilgan qimmatli qog‘ozlar – mulkiy huquqlarning realizatsiya qilinishi o‘z egasining ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lishini talab etadigan qimmatli qog‘ozlar.

Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar – bitta chiqarilish doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo‘lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo‘ladigan qimmatli qog‘ozlar. Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reestri – ro‘yxatdan o‘tkazilgan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarining ro‘yxati.

Emitent – qimmatli qog‘ozlarni muomalaga bosib chiqaruvchi yuridik va to‘lovga qobiliyatli jismoniy shaxslar.

Fond birjasi – bozor iqtisodiyoti va kapital bozorining muhim elementi. Fond birjasida bozor bahosi asosida qimmatbaho qog‘ozlar, ya’ni hissadorlik kompaniyalari aksiyalari va obligatsiyalari, shuningdek, davlat zayomlarining obligatsiyalari erkin sotiladi va sotib olinadi: dividend va foizlar miqdori, talab va taklif o‘rtasidagi nisbat ssuda foizi va darajasiga qarab qimmatli qog‘ozlar kursi (bozor narxi) belgilanadi. FBning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: vaqtincha bo‘sh mablag‘larga qimmatbaho qog‘ozlar sotib olib, ularni muomalaga kiritish; qimmatbaho qog‘ozlarning bozor narxini aniqlash; turli tarmoqlar, korxonalar

o'rtasidagi kapital aylanishini ta'minlash va boshqalar. Qimmatli qog'ozlar kursi harakatining umumiy ko'rsatkichi bu Dau-Djons indeksi hisoblanadi. U Nyu- York fond birjasidagi qimmatli qog'ozlar kursini o'zida aks ettiradi. O'zbekistonda 1994 yildan fond birjasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Fond bozori – qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalarning oldisotdi jarayonlari amalga oshiriluvchi maxsus tashkillashtirilgan bo- zor.

Fond operatsiyalari – banklar tomonidan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish va sotish, qimmatli qog'ozlarni garovga olib ssuda berish.

Fond qaytimi – asosiy ishlab chiqarish fondlarining bir so'miga to'g'ri keluvchi mahsulot miqdori.

Fond samaradorligi – ishlab chiqarish fondlaridan iqtisodiy foydalanish samaradorligini ifodalaydi. Fond samaradorligi, odatda, ishlab chiqarishda band bo'lgan ishlab chiqarish fondlarining bir so'miga natural ko'rinishda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmida (masalan, kg) yoki ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy qiymatini so'mda asosiy ishlab chiqarish fondlarining umumiy qiymatiga bo'lgan nisbati bilan belgilanadi.

Fond sig'imi – fond qaytimiga teskari bo'lgan nisbat. Asosiy ishlab chiqarish fondlari o'rtacha qiymatining ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati sifatida hisoblanadi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Investitsion faoliyatning eng muhim elementi nima hisoblanadi?
2. Investitsiya faoliyati qaysi shakllarda amalga oshiriladi?
3. Investitsiyalar yordamida asosan qaysi vazifalarni hal etish mumkin?
4. Mamlakatga jalb etilgan investitsiyalarning ichki manbalarini sanab bering.
5. Mamlakatga jalb etilgan investitsiyalarning tashqi manbalarini sanab bering.
6. Milliy investitsiya loyihalarini tanlashning asosiy mezonlariga qaysilar kiradi?
7. Qimmatli qog'ozlar bozori taraqqiy etishida qaysi omillar katta rol

o‘ynaydi?

VAZIYATLI TOPSHIRIQ – KEYS

Mamlakatimizdagi investitsion muhit holatidan kelib chiqib, aynan qaysi sohalarga ko‘proq investitsiya kiritilayotganini aniqlang. Bundan tashqari qaysi sohalarda tashqi va ichki investitsiyaga muhtoj ekanligini va qay yo‘lida ushbu sohalarga investitsiya oqimini oshirish mumkinligi to‘g‘risida taklif bering.

X BOB. GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ATROF-MUHIT HIMOYASIGA QARATILGAN SIYOSIY IQTISODIYOT

Ushbu bobda o'rganiladigan mavzularning qisqacha tasnifi quyidagilardan iborat:

- Atrof-muhit muhofazasining dolzarblik darajasi
- Milliy va xalqaro mezonlarning tasnifi
- Global ekologik nazoratning asosiy maqsadi
- Atrof-muhit holatini global baholash jarayonlari
- Atrof-muhit muhofazasi sohasida xalqaro hamkorlik

Bugungi kunga kelib sayyoramizning global ekologik holati ko'pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarni birdek tashvishga solmoqda. Atrof-muhit muhofazasi, uning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish masalalari dolzarb global ekologik muammo bo'lib qolmoqda. Hozirgi global ekologik inqirozning asosiy sababchisi inson bo'lib, atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish ko'p jihatdan insonlar qaysi jamiyatda yashashlaridan qat'i nazar ularning ekologik savodxonligi va madaniyatiga bog'liq.

Hozirgi paytda ko'plab shaharlar, sanoat markazlari joylashgan hududlarda ekologik vaziyat keskin yomonlashgan. Ayniqsa, hududning geografik, ekologik va iqtisodiy xususiyatlarini, iqlim sharoitlarini hisobga olmagan holda, tabiat qonunlariga, jumladan atmosfera havosini muhofaza qilish qoida va talablariga zid ravishda turli xil sanoat korxonalarining qurilishi, ularning ishlab chiqarish quvvatini to'g'ri baholamaslik, texnologik jarayonlardagi nuqsonlar, shuningdek, eski texnologik vositalaridan foydalanish atrof-muhitning, ayniqsa atmosfera havosining ifloslanishiga olib kelmoqda.

10.1. Atrof-muhitning global muhofazasi: milliy va xalqaro mezonlar

Ilmiy izlanishlar olib borilgan va davlat dasturlari qabul qilingan bo'lishiga qaramasdan, mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda sayyoramizda turli xil yoqilg'ilarni yoqish sababli yiliga 10,1 mlrd. tn kislorod sarf bo'lmoqda, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 70%, chuchuk suvlarning 20%

o'zlashtirilmoqda, o'rmonlar yildan-yilga kamaymoqda, cho'l zonalarining maydoni oshayotgani sababli havo harorati yildan-yilga ko'tarilayapti.

Shuningdek, oxirgi 50 yilda yer yuzi aholisi deyarli uch marotaba o'sgan, texnikaning, sanoat korxonalarining rivojlanishi natijasida transport vositalarining soni 900 milliondan ortgani, hosil qilingan elektr energiyasining 80% an'anaviy uglevodorod xomashyosi asosida ishlab chiqarilayotgani atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazmoqda.

Bularning oqibati o'laroq, dunyoda global ekologik muhitning yomonlashuvi bilan bog'liq turli xil kasalliklar kelib chiqmoqda. Global ekologik ta'lim va tarbiya atrof-muhit xavfsizligini ta'minlash yuzasidan ko'plab tavsiyalar ishlab chiqilgan, shuningdek, O'zbekistondagi ekologik vaziyat va uning ijtimoiy muammolari mavzusida doktorlik dissertatsiyasi himoya qilingan.

XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asrning boshida O'zbekistondagi global ekologik vaziyatni zamonaviy yondashuvlar asosida xolisona o'rganilgan. Masalan, tut O'zbekistonda deyarli har ikki xonadonning birida o'stirilar edi. Oq tut va shotutlar qadimdan ko'plab ekilib kelingan. Buning ildizidan tortib bargiyu cho'pi ham dorivorlik xususiyatiga ega ekanligini buyuk hamyurtimiz Abu Ali ibn Sino yozib qoldirgan. Ana shunday noyob va shifobaxsh mevali daraxtni ham ekologiya­ning ifloslanishi o'z domiga tortib yuborayapti.

Bu muammoning bir tomoni. Uning ikkinchi tomoni, qadimdan ipakchilikning yaxshi rivojlanganidir, pilla qurti yetishtirish ko'rsatkichi yildan-yilga pasayib bormoqda.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining tadqiqot natijalariga ko'ra, inson salomatligi:

20% – nasldan-naslga o'tadi;

20% – atrof-muhit ifloslanishidan; 50% – og'ir turmush sharoitidan;

10% – tibbiyot — oqibatida solomatligi xavf ostida qolar ekan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 59-sessiyasida Barqaror taraqqiyot maqsadlari uchun ta'limni (BTT) amalga oshirish bo'yicha xalqaro sxema tasdiqlangan. BTT fanlararo yondashuvi asosida ta'lim

olish, tarbiya, o'z-o'zini rivojlantirish va namoyon etish, mustaqil va tanqidiy fikrlash, ma'nan shakllangan, ijtimoiy faol, o'z xatti-harakalarida axloqiy va ekologik me'yorlarga asoslanadigan, o'zbek xalqi qadriyatlariga mos bo'lgan, ekologik bilimga chanqoq, atrof-muhit holati haqida qayg'uradigan va yangi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik muammolarni oldindan ko'ra olish xususiyatlarini shakllantirishga da'vat etadi. BTT jamiyatning barcha a'zolarini mintaqaviy va global muammolarni hal etish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Agar ekologik ta'lim ko'proq ekologik mavzularga e'tibor qaratsa, BTT siyosat, iqtisodiyot, jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalalariga alohida yondashadi. BTTning asosiy g'oyalari quyidagi strategik va dasturiy hujjatlarda o'z aksini topgan:

— «Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish muammolari bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro hamjamiyatning Nukus deklaratsiyasi» (5 sentabr 1995 yil);

— YUNESKOning «Ta'lim barcha uchun» loyihasi doirasida qabul qilingan Milliy harakatlar dasturi.

BTTning asosiy maqsadi – barqaror taraqqiyotning g'oyalari va tamoyillarini ta'limning barcha shakllari va bosqichlari bilan integratsiyalash hamda mustaqil dunyoqarashga ega, tanqidiy fikrlay oladigan, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik yo'naltirilgan va faol fuqarolik munosabatini bildiradi oladigan shaxslarni tayyorlash. BTT faoliyatining bosh yo'nalishi strategik vazifalarni ta'lim, atrof-muhit muhofazasi va ijtimoiy-iqtisodiyot sohasidagi qonunchilikka joriy qilish, davlat dasturlarida BTTning strategik vazifalarini hisobga olish, ta'lim sifatini yaxshilashdan iboratdir. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni optimallashtirish tub ma'noda har bir davlatning tabiat muhofazasi sohasida tutayotgan ekologik siyosatiga bog'liq. Ekologik siyosat iqtisodiy rivojlanishni belgilaydi, ishlab chiqarish jarayonida tabiiy resurslardan qanchalik oqilona foydalanilsa, tayyor moddiy mahsulot miqdori jihatdan mo'l-ko'l, sifat jihatdan oliy navli yoki darajaligi bilan ajralib turadi. Tabiiy boyliklardan ekstensiv usulda foydalanish, isrofgarchilikka yo'l qo'yish, atrof-muhit ifloslanishini oldini olmaslik

hudud iqtisodiyotini inqirozga yuz tutishiga olib keladi.

Binobarin, mamlakatning barqaror rivojlanishi ekologik-iqtisodiy omillar birlari bilan uzviy bog‘liq. Zamonaviy texnika taraqqiyoti va uning muvaffaqiyatlari ikki xil ijtimoiy natijalarga olib kelmoqda. Bir tomondan, texnikasiz insoniyat taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin bo‘lsa, ikkinchi tomondan, texnika qudratli kuch sifatida salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.

Inson og‘irini yengil qilishga qaratilgan texnika yoshlarni ish bilan ta‘minlashni qiyinlashtirmoqda. Xususiyl transportlarning ko‘payishi, bir tomondan yaxshi, ikkinchi tomondan, shaharlarning ekologik holatiga salbiy ta‘sir etmoqda. Shovqin-suronlar inson asabiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Insoniyat oldida texnikaga oid juda katta muammolarni hal qilish masalalalari turibdi. Atrof-muhitning sanoat chiqindilari bilan ifloslanishi, tabiat resurslarining tugab borishi, tabiat muvozanatining buzilishi, radioaktiv fojining o‘ta xavfli ekanligi kabi masalalarni hal qilmasdan turib, insoniyat kelajagini tasavvur qilish qiyin. Bularning barchasi texnikani qanday va nima maqsadlarda ishlatish kerakligi to‘g‘risida chuqur va atroflicha fikr yuritishni taqozo etadi.

O‘tgan asrning 1960 yillarida texnikaning rivojlanishi jamiyatni inqirozga olib kelayotgani haqida fikrlar, mulohazalar paydo bo‘la boshladi. Bu davrda texnikaning yangilanish jarayoni yuz berayotgan edi. «Jamiyat-texnika-tabiat» munosabatlarida yangi muammolarning vujudga kelishi odamlarni tashvishga sola boshladi. 1972 yilda Rim klubining birinchi ma‘ruzasi e‘lon qilindi. Bu juda katta shov-shuylarga sabab bo‘ldi.

Bugungi kunda Rim klubi dunyoga mashhur xalqaro tashkilotga aylangan. Rim klubining ma‘ruzasi dunyodagi yirik olimlarning ilmiy izlanishlariga suyangen va ayniqsa, Massachuset (AQSH) texnologik institutida D.Medouz rahbarligi ostida yaratilgan «Insoniyatning murakkab holati» loyihasiga asoslangan edi. Bu ma‘ruzada insoniyat kelajagi haqidagi masala an‘anaviy fikrlardan voz kechgan hamda masalaga yangicha qarashgan. Ma‘ruza mazmuni dunyo olimlarini hayratga soladi. Unda insoniyat taqdiridan xavotirlanish bayon qilingan edi. Ma‘ruza paydo bo‘lgan fojining oldini olishga chaqiribgina qolmay, ularni hal qilinish loyihasini

ham maydonga tashlagan edi. Ommaviy chiqishlar, munozaralar «yashillar» harakati kuchayib ketdi. Massachuset texnologik instituti (AQSH) D.Medouz rahbarligida yaratilgan.

«Insoniyatning murakkab holati» loyihasini keltirib o'tish kifoya. Mazkur ma'ruza dunyo olimlarini hayratga soldi.

Insoniyat taqdiridan xavotirlanish, paydo bo'lgan fojining oldini olishga chaqiribgina qolmay, ularni hal qilinish loyihasini ham asoslab bergan edi. «Bugungi kunda odamlarning son jihatdan o'sishi, g'amlab qo'yilgan tabiiy resurslar yetarlimi?», «Planetani ta'minlash, yashab qolishi uchun qancha miqdorda odam kerak?», 2025 yilga borib yer sharida 8 mlrddan ortiq inson bo'lishi kutilmoqda, Sayyoramiz aholisi soni 2019 yilda 7,7 mlrd kishini tashkil qilmoqda, 2050 yil oxiriga kelib esa 9,7 mlrd kishiga etadi. Bu haqda BMTning Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida boshlangan aholi va taraqqiyot komissiyasining 52-sessiyasida ma'lum qilindi.

Xususan, dunyo aholisi soni asr oxirida 11 mlrd kishigacha yetadi, bu kabi savollarga D.Medouz va uning safdoshlari bundan chorak asrdan oldinroq «Insoniyat fojia tomon ketmoqda, uni hal qilish chorasini topish kerak», – deb aytgan. Ularning fikricha, ishlab chiqarishni ma'lum miqdorda chegaralash, aks holda kelgusi avlodga «Obod va ozod Vatan» qolmaydi. XXI asrda insoniyat oldida turgan muammolar o'ta murakkab va o'ta muhim ekanligini sayyora odamlari ongiga yetkazish. Insonlarning tirik qolishi, global fojining oldini olish uchun yangi munosabatlarni shakllantirish kabi o'ta muhim g'oyalarni ilgari surishgan edi.

Rim klubining eng asosiy yo'nalishlaridan biri insoniyat oldida turgan muammolar, klub tashabbusi bilan qilingan ishlar, uning kelajagi, ilmiy-texnik, sanoat, iqtisodiyotning sotsial oqibatlari haqida odamlarni xabardor qilib turish va shu orqali muammolarni hal qilishda odamlarning faol ishtirokini ta'minlashdir. Fan va texnika taraqqiyoti rivojlangan bugungi XXI asrda insoniyatning tabiatga va ekologiyaga ta'siri o'zini salbiy oqibatlarini keltirib chiqarmoqda. Butun biosfera miqyosida sezilayotganligi har bir davlatni maqsadga muvofiq holda global ekologik siyosat yurgizishga majbur etadi.

Chunki, atmosfera havosiga, dunyo okeaniga chiqarilayotgan turli chiqindilar oz-ozdan ko‘payib bormoqda, demak, har bir fuqaro, jamiyat o‘zaro kelishgan holda tabiat muhofazasi uchun faol kurash olib borishini hamda ilmiy izlanish olib borishi va ommaviy axborot vositalari yordamida ko‘proq yoritish zarurligini davrning o‘zi taqozo etmoqda.

10.2. Global ekologik nazorat

Global ekologiya nazorati – atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash qoida talablarini barcha vazirlik, davlat qo‘mitalari va idoralari, korxonalar, tashkilotlar, muassasa, mansabdor va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini tekshirish, tabiiy muhit holatini o‘rganish va kuzatish, chora-tadbirlarni qo‘llash bilan bog‘liq siyosiy huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘naviy-ma‘rifiy chora-tadbirlar yig‘indisini o‘z ichiga oladi. Ekologik nazoratning asosiy maqsadi atrof tabiiy muhit barqarorligini saqlashdan iborat bo‘lib, davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirgan holda olib borilishini taqozo etdi.

Global ekologik nazoratning vazifalari;

- atrof tabiiy muhit holatini hamda xo‘jalik yuritish va boshqa faoliyat ta‘siri ostida unga bo‘ladigan o‘zgarishlarni kuzatib borish;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof tabiiy muhitni sog‘lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlar talablari va atrof tabiiy muhit sifatining normativlariga rioya etish borasidagi dasturlar hamda ayrim tadbirlar bajarilishini tekshirish.

Global ekologik nazorati murakkab jarayonni o‘z ichiga oladi va turli xil chora-tadbirlar tizimini amalga oshiradi:

- atrof tabiiy muhitda bo‘ladigan o‘zgarishlarni kuzatish, axborot jamlanmasini shakllantirish;
- atrof tabiiy muhit holatiga antropogen ta‘sirlarni o‘rganish;
- ishlab chiqarish va xo‘jalik yuritish jarayonining barcha jabhalarida ekologik qonunchilik qoida talablariga rioya etilishini tekshirish;

- ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarning belgilangan amalga oshirilishini tekshirish;
- tabiiy resurslardan foydalanish bo‘yicha ruxsatnomalar berish;
- ekologik qoida talablarni buzgan yuridik va jismoniy shaxslarni aniqlash, ogohlantirish, javobgarlikka tortish;
- aholi orasida ekologik qonunchilik qoida-talablarni targ‘ib va tashviqot qilish va boshqalar.

Global ekologiya nazorati bilan bog‘liq murakkab faoliyatini olib borishda ekologiya nazorati subyektlari tomonidan quyidagi asosiy tashkiliy-huquqiy usullar qo‘llaniladi.

1. Kuzatish – atrof tabiiy muhitda bo‘ladigan o‘zgarishlarni o‘rganish va ma’lumotlarni to‘plash.
2. Umumlashtirish – atrof tabiiy muhit holatiga zararli va xavfli ta’sirlarni aniqlash, tahlil qilish asosida ma’lumotlarni tasniflash.
3. Baholash – antropogen faoliyat ishlarining zararli, xavfli va noqonuniyligini aniqlash.
4. Ruxsatnoma berish – yuridik va jismoniy shaxslarga yer, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi, yer osti boyliklari va atmosfera havosidan foydalanish uchun litsenziya berish.
5. Ogohlantirish, cheklash va to‘xtatish-ekologik xavfli va zararli xo‘jalik va boshqa faoliyatni cheklash, vaqtincha to‘xtatib qo‘yish va bekor qilish.
6. Javobgarlikka tortish – ekologik qoida talablarini buzgan, yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ma’muriy-huquqiy javobgarlik choralarini qo‘llash.

Global ekologiya nazorati ekologik – huquqiy mexanizmning muhim tarkibiy qismi sifatida atrof tabiiy muhit barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

2. Ekologiya nazorati tizimi O‘zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 29-moddasiga asosan quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Atrof tabiiy muhit holatini kuzatib borish davlat xizmati;

2. Davlat ekologiya nazorati;
3. Idoraviy ekologiya nazorati;
4. Ishlab chiqarish ekologiya nazorati;
5. Jamoatchilik ekologiya nazorati.

Atrof tabiiy muhit holatini kuzatib borish davlat xizmati muhim ahamiyatga ega bo'lib, tabiatda bo'ladigan fizikaviy, kimyoviy-biologik, gidrologik, seysmologik va boshqa o'zgarishlarni kuzatish, ma'lumot to'plash, yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, yerosti boyliklari va atmosfera havosi hamda aholi hayoti va sog'lig'iga xavfli va zararli ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, atrof tabiiy muhitda bo'ladigan o'zgarishlarni davlat organlari va keng aholi qatlamlariga yetkazish kabi faoliyatini o'z ichiga oladi.

Davlat ekologiya nazorati – atrof tabiiy muhitni, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash qoida talablarini barcha vazirlik, davlat qo'mitalari, idoralar, yuridik shaxslar, mansabdor shaxslar va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi yuzasidan maxsus vakolatli organlarning tekshirish va choralarni ko'rish bilan bog'liq faoliyatini o'z ichiga oladi.

Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazorati, davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari, maxsus vakolatli davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

Quyidagilar:

- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;
 - O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;
 - O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi;
 - O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
 - O'zbekiston Respublikasining sanoat va konchilik nazorati agentligi
- maxsus vakolatli davlat organlari hisoblanadi.

Global ekologiya sohasida idoraviy nazorat – barcha vazirlik, davlat qo'mita va idoralarda ushbu faoliyat bilan maxsus shug'ullanuvchi ekologiya xizmati tuzilmalari mavjud bo'lib, tegishli vazirlik ichki tizimi doirasida tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish jarayonining ekologik qoida-talablariga mosligini kuzatish, tekshirish, chora-tadbirlarni belgilashdan iboratdir.

Global ekologiya sohasida ishlab chiqarish nazorati – idoraviy nazorat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini oqib borayotgan korxona, muassasa, tashkilotlarda olib boriladi.

Global ekologiya sohasida jamoat nazorati – jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari, siyosiy partiyalar, turli uyushma va jamiyatlar, fuqarolar tomonidan amalgam oshiriladi.

3. Global ekologik ekspertiza – ekologik huquqiy mexanizmning tarkibiy qismi sifatida atrof tabiiy muhitning barqarorligini saqlash, tabiiy boyliklardan unumli va samarali foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Ekologik ekspertizaning huquqiy holati konstitusiyaviy qoidalarda, O‘zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi, «Ekologik ekspertiza to‘g‘risidagi qonunlarda, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining ekologik ekspertizani o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi me‘yoriy hujjatlarida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi «Ekologik ekspertiza to‘g‘risida»gi qonunning 3-moddasiga asosan ekologik ekspertiza quyidagi maqsadlarda o‘tkaziladi:

- mo‘ljallanayotgan xo‘jalik va boshqa xil faoliyatni amalga oshirish to‘g‘risida qaror qabul qilinishidan oldingi bosqichlarda bunday faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash;

- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha nazarda tutilayotgan tadbirlarning yetarliligi va asosliligini aniqlash;

- rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik va boshqa xil faoliyat atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar sog‘ligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, bunday faoliyatning ekologik xavfsizlik darajasini aniqlash.

Ekologik ekspertizaning eng asosiy vazifasi atrof tabiiy muhit va aholining hayoti va sog‘lig‘iga xavfli va zararli ishlab chiqarish va xo‘jalik obyektlarining ta‘sirilarini oldini olish, bartaraf etish bilan bog‘liq preventiv chora-tadbirlarni

amalga oshirishdan iboratdir.

Ekspertiza obyekti sifatida qaralayotgan loyihalarga baho berishda atrof tabiiy muhit barqarorligi, aholining hayoti va sog'lig'iga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga e'tibor berish ustunligini ko'zda tutadi.

Navbatdagi tamoyil ham global ekologik ekspertizasining o'ziga xos tamoyillardan biri bo'lib, har bir xo'jalik va ishlab chiqarish obyekti belgilangan tartibda o'tkazilgan ekspertiza xulosasi asosidagina ekologik jihatidan xavflilik darajasi aniqlanadi.

Ekspertiza natijalari to'g'ri, oqilona bo'lishi uchun biologiy kimyoviy, fizikaviy, texnologik, demografik, agro-ekologik, iqtisodiy va boshqa jabhalardagi bilimlarni jamlagan holda keng qamrovli ijodiy mehnat mahsuli bo'lishi va tekshirilayotgan obyektga nisbatan real, obyektiv xulosa berish mumkin.

Ekologik ekspertiza jarayonida turli shakldagi quyidagi usullardan foydalangan holda ko'zda tutgan maqsadga erishadi:

- ma'lumotlar to'plash – ekspertizadan o'tayotgan muayyan obyektga tegishli bo'lgan barcha axborot ma'lumotlarni yig'ish va to'plash;

- umumlashtirish – obyekt haqidagi to'plangan iqtisodiy, texnologik, ekologik, gidrologik, kimyoviy va boshqa ma'lumotlarni o'z yo'nalishlari bo'yicha ma'lum tizimga keltirish;

- tahlil qilish – umumlashgan ma'lumotlar bankini o'z yo'nalishi va xususiyatlari bo'yicha alohida o'rganish, tasniflash;

- baholash – ekspertiza o'tkazilayotgandan obyekt yo'nalishlari, bo'limlari, tashkil etuvchi qismlari bo'yicha xavfli va zararli darajasini aniqlash;

- xulosa berish – ekspertiza o'tkazilayotgandan obyektning ekologik jihatidan zararli yoki zararsiz, xavfli yoki xavfsiz, ekologik qoida talablariga mosligi yoki ushbu qoidalarga zid ekanligi haqida yakuniy, adolatli, obyektiv xulosaga kelish.

10.3. Global ekologik holatni baholash

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash mo'ljallanayotgan faoliyatning

ekologik oqibatlarini tizimli ravishda tahlil qilish va baholashni, manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlarni, tahlil va maslahatlashuvlar natijalarini mo'ljallanayotgan faoliyatni rejalashtirish, loyihalash, tasdiqlash va amalga oshirishda hisobga oluvchi jarayondir.

Mazkur ta'rifga muvofiq atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash:

baholash natijasida olingan oddiy ma'lumotlar yoki hujjatlargina bo'lib qolmay, balki butun bir jarayondir;

ma'lum bir qoidalarga amal qiluvchi tizimli jarayondir;

mo'ljallangan faoliyatning faqat rejalashtirish bosqichlari bilan chegaralanmaydi, balki ushbu faoliyatni amalga oshirish bosqichlarini ham o'z ichiga oladi;

atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayoni bu mo'ljallanayotgan faoliyatning atrof-muhitga bo'ladigan potensial ta'sirlarini tahlil qilish va ularni e'tiborga molikligini baholash;

barcha uchun maqbul bo'ladigan qarorlarni izlash maqsadida manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashishni;

mo'ljallanayotgan faoliyatga tegishli qarorlarni qabul qilish jarayonida ta'sirlarni bashorat qilish va maslahatlashuvlar natijalaridan foydalanish kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

Ko'pincha, atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning odatiy sxemalarida ushbu tarkibiy qismlar jarayonning ketma-ket keluvchi bosqichlari sifatida qaraladi. Ushbu jarayon ta'sirlarning bashorati, uning natijalarini manfaatdor tomonlar bilan muhokama qilish va mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirish borasidagi qarorlarni bashorat va muhokama qilish natijalarini hisobga olgan holda qabul qilishni o'z qarorlar qabul qilishda ta'sirlarni bashoratlash va maslahatlashuvlar natijalaridan foydalanishi ichiga oladi. Lekin bunday «chiziqli» modelga mahkam yopishib olish yaxshi samara bermaydi va unga amalda rioya qilinmaydi. Masalan, atrof-muhitga faoliyat natijasida bo'ladigan ta'sirlarni aniqlash yoki faoliyatning atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarini baholash zaruriyati bor-yo'qligini aniqlash davridayoq jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish

yaxshiroq samara beradi.

Shuning uchun AMBTB tarkibiy qismlariga izchil ketma-ket keladigan bosqichlar sifatida emas, balki AMBTB jarayonining zaruriy qismlari sifatidagina yondashish lozim.

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashni o'tkazishning turli mamlakatlardagi tartiblari faoliyatning qaysi turlari uchun AMBTB o'tkazilishi, uni kim o'tkazishi, uning natijalari qanday qarorlarda va qay tarzda hisobga olinishi kabi jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash natijalarini qarorlar qabul qilishda hisobga olishning majburiylik darajasi ham turli mamlakatlarda turlichadir. Lekin ushbu turlichalikka qaramay barcha joylarda AMBTBning samarali tizimi uchta asosiy tamoyilga amal qiladi. Bular birlamchilik, komplekslik va demokratiklik tamoyillaridir.

Birlamchilik tamoyiliga ko'ra, atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash ishlari mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirish yuzasidan asosiy qarorlar qabul qilinguniga qadar o'tkaziladi, hamda uning natijalaridan qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishda foydalaniladi. Qabul qilingan qarorlar oqibatini tahlil qilish AMBTB vazifasiga kirmaydi.

Birlamchilik tamoyiliga asosan, AMBTBni nafaqat mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirish mumkinligi borasida qarorlar qabul qilingunga qadar, balki faoliyatning loyihasi to'g'risidagi asosiy qarorlar chiqarilishidan oldinoq o'tkazilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Mo'ljallanayotgan faoliyatning muqobil variantlarini tahlil qilish birlamchilik tamoyiliga amal qilishning eng muhim yo'llaridan hisoblanadi. Mazkur faoliyat maqsadiga yetishish yo'lida faoliyatni amalga oshirishning bir necha muqobil variantlarini ko'rib chiqish va ularni taqqoslash, atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash natijalari bo'yicha qarorlarni erkin qabul qilinishiga imkoniyat yaratadi.

Komplekslik tamoyili mo'ljallanayotgan faoliyat ta'sirlarning barcha omillarini hisobga olish va ularni ta'sirlar natijasida tabiiy muhitning barcha komponentlari (havo, suv va tuproq), shuningdek ijtimoiy muhitda yuz beradigan o'zgarishlar bilan birgalikda ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Bu tamoyil tabiiy

muhitni komponentlarga bo'lish asosida real muhitni tasavvuriy soddalashtirishga asoslanadi. Aslida esa biz jamiyat bilan uzviy bog'liq hisoblangan yagona tabiiy tizimga egamiz. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning vazifasiga nafaqat tabiiy muhit ayrim komponentlarining «standart va me'yorlar»iga qanchalik rioya qilinayotganligini nazorat qilish, balki mo'ljallanayotgan faoliyatning ta'siri oqibatida umuman tabiiy-ijtimoiy tizim qanday javob berishini tushunish ham kiradi.

Mo'ljallangan faoliyatning turli ta'sirlarini bir ish tartibi doirasida ko'rib chiqilishi hamda ular haqidagi ma'lumotlarni yagona hujjatda tasvirlanishi komplekslilik tamoyilining amaldagi ifodasidir.

AMBTB jarayonining ilmiy-texnik tadqiqot bo'lmay, balki maqbul qarorlar qabul qilish vositasi ekanligi demokratiklik tamoyilining ifodasidir. Mo'ljallanayotgan faoliyatning atrof-muhitga bashorat qilinayotgan ta'sirlari cheklanmagan miqdordagi odamlar va tashkilotlarning manfaatiga dahl qiladi, ular ko'pchiligining esa mazkur faoliyatga nisbatan hech qanday rasmiy aloqasi yo'q. Bunday holatda turli ko'rinishdagi ruxsatnoma, litsenziya va loyihalashtirish me'yorlari tomonlarning manfaatlarini himoya qilish vositalari bo'lib xizmat qilishi mumkin. Demokratiklik tamoyili esa qarorlarni qabul qilish jarayonida manfaatdor tomonlarning bevosita ishtirok etishi huquqini tan olinishi lozimligini nazarda tutadi. Shunday qilib, demokratiklik tamoyiliga asosan barcha manfaatlar tomonlar AMBTB jarayonida ishtirok etish imkoniyatlariga ega bo'lishlari va ularning fikri xulosasini ishlab chiqish va AMBTB natijalaridan foydalanishda ekspertlarning xulosalari bilan bir qatorda hisobga olinishi lozim.

Demokratiklik tamoyilining yana bir muhim jihati shundaki, manfaatdor tomonlarning ishtirokini ta'minlash uchun AMBTB barcha ishtirokchilar uchun ma'lum va tushunarli qoidalarga muvofiq o'tkazilishi majburiydir, ya'ni atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning reglamentli ish tartibi hamda mazkur ish tartibi doirasida jarayon qatnashchilarining huquq va burchlari aniq belgilangan bo'lishi lozim.

Odatda nodemokratik AMBTB protseduralari, qarorlar qabuli yopiq holda

amalga oshiriladiganda «Texnokratik» tartibga qarama-qarshi qo'yiladi.

Bunday tizimlarda, mo'ljallanayotgan faoliyatning atrof-muhitga ta'siri aksariyat ilmiy texnik xarakterga ega deb qabul qilinadi va uni ko'rib chiqishda ekspert fikri asosiy deb hisoblanadi va qaror qabul qiluvchi mutaxassis fikri asosiy deb hisoblanadi. Qarorlar qabul qilishda demokratiklik tamoyiliga amal qilinmasligi, jarayonning yopiqqligi bunday tizimlarda qarorlar norasmiy muzokara va kelishuvlar asosida, ayrim nufuzli manfaatdor tomonlarning bosimi ostida qabul qilinishiga olib keladi. Oqibatda AMBTBning rostmanaligiga putur yetkaziladi.

Mo'ljallanayotgan faoliyatning atrof-muhitga ta'siri atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning predmeti hisoblanadi.

Ta'sir deganda mo'ljallanayotgan faoliyatning amalga oshirilishi oqibatida atrof-muhitda to'liq yoki qisman sodir bo'ladigan o'zgarishlar tushuniladi.

Ta'sirlar bashoratlari va ushbu ta'sirlarni yumshatish uchun bajarilishi lozim bo'lgan tadbirlarni ishlab chiqish AMBTB jarayonining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning tizimli tabiati ayrim muhit va ta'sir manbalari uchun belgilangan standartlar yordamida hisobga olinishi mumkin bo'lmagan to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmaydigan va yig'ilib boruvchi xususiyatga ega ta'sirlarni ham aniqlash imkonini beradi. Boshqa tarafdin esa bunday tizimli tahlil va uning natijasini amaliyotda qo'llash mumkin bo'lishi uchun AMBTB muhim va asosiy ta'sirlarga yo'naltirilishi lozim. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash doirasidagi ta'sirlar nafaqat fizik miqdorlar, balki ularni jamiyatdagi ayrim ijtimoiy guruhlar va fuqarolar uchun ahamiyatli ekanligi nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqilishi lozim.

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash kontekstida atrof-muhit deganda nima tushuniladi? AMBTB jarayonida ko'rib chiqish predmeti sifatida birinchi navbatda atrof-muhitga, ya'ni tabiiy muhit, atrof-muhitning komponentlari, landshaft kabilarga bo'ladigan ta'sirlar tan olinadi. Tarixiy-madaniy qadriyatlar AMBTB jarayonida ko'pchilik hollarda ko'rib chiqilsa, mo'ljallanayotgan faoliyatning atrof-muhitga ta'siri bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'lgan tabiiy,

ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari AMBTB jarayonida doimo ko'rib chiqiladi.

Atrofdagi tabiiy muhit sifatining yomonlashuvi mahalliy aholi sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ijtimoiy (masalan, rekreatsiya imkoniyatlari qisqarishi oqibatida hayot kechirish sifatining yomonlashuvi) hamda iqtisodiy (masalan, ko'chmas mulklar narxlarining pasayishi) xarakterdagi oqibatlarga olib keladi. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash davomida bunday oqibatlarni ko'rib chiqish, hatto buning uchun qonuniy asoslar bo'lmagan taqdirda ham o'ta muhimdir. Shuning uchun ham AMBTB ta'sirlarni jamiyat, fuqarolar va ularning ayrim guruhlar uchun ahamiyatli ekanligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqishi lozim. AMBTB doirasida atrof-muhit va ijtimoiy-iqtisodiy muhitga bo'ladigan ta'sirlarni alohida-alohida qilib ajratib ko'rsatish ancha murakkab hisoblanadi. Shuning uchun hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy muhitga bo'ladigan ta'sirlar atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarning ajralmas qismi bo'lishi lozimligi to'g'risidagi tasavvurlar rivojlanib bormoqda. Ushbu muammo AMBTB sohasidagi mutaxassis va tadqiqotchilarning faol muhokama predmetiga aylangan bo'lsa-da bu borada aniq bir tizim va qoidalar hali hanuz ishlab chiqilmaganligi ko'p hollarda bahsli vaziyatlarga ham olib kelmoqda. Shuning uchun qaror qabul qiluvchi idoralar mazkur masalaga alohida e'tibor qaratishlari muhimdir. Faoliyatning qaysi turlari AMBTBning predmeti bo'lishi mumkin? Mo'ljallanayotgan faoliyat loyihasi, ya'ni xo'jalik obyekti loyihasi AMBTBning predmeti hisoblanadi. Lekin odatda loyihalar biri-biridan atrof-muhitga ko'rsatiladigan ta'sirlarning ko'lam va xarakteri jihatidan farq qiladi. Avval ta'kidlanganidek, AMBTB tizimining maqsadi inson faoliyatining atrof-muhitga ko'rsatadigan salbiy ta'sirlarini kamaytirish hisoblanadi. Tizimning samarali bo'lishi uchun asosiy e'tibor ta'sir darajasi yuqori bo'lgan loyihalarga yo'naltirilishi lozim. To'liq miqyosdagi AMBTBni barcha turdagi loyihalar uchun o'tkazish yaxshi samara bermaydi, shuning uchun uni yirik loyihalar uchungina o'tkazilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Vaholanki, yirik loyihalarning ta'sirlarida atrof-muhitning turli tarkibiy qismlari orasidagi bog'liqliklar yaqqol ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari yirik loyihalar o'ziga xos darajada noyob sanaladi va amaldagi meyor hamda standartlar bunday loyihalarni baholash uchun odatda

yetarlicha imkon bermaydi.

Kichik miqyosdagi loyihalarni baholash uchun esa o'sha belgilangan me'yor va standartlarni qo'llash yetarli sanaladi. Bunday loyihalarga nisbatan soddalashtirilgan ko'rinishdagi AMBTBni qo'llash ham mumkin. Nostandart sharoitda amalga oshirilishi mo'ljallangan standart ko'rinishdagi kichik loyihalar odatda maxsus ko'rib chiqiladi, masalan, noyob tabiiy kompleks yaqinida amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan kichik miqyosli loyihalardir. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashni o'tkazish uchun tub aholining jiddiy xavotiri ham asos bo'lishi mumkin.

Yirik loyihalardan tashqari sezilarli ekologik oqibatlariga olib keladigan yuqori darajadagi tashabbuslar, ya'ni turli reja va dasturlar, sohaviy rivojlanish sxemalari, me'yoriy aktlar loyihalari ham atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning predmeti bo'lishlari mumkin.

10.4. Atrof-muhit muhofazasi sohasida xalqaro hamkorlik

Xalqaro huquqiy tajriba, zamonaviy fan, texnika va texnologiyalar asosida ekologik xavfsizlikning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ekologik xavfsizlik sohasidagi siyosat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik konsepsiyasi, shuningdek, atrof-muhit va barqaror rivojlanish bo'yicha Rio-de-Janeyro va Yoxannesburg deklaratsiyalarining tamoyillari asosida xalqaro konvensiyalar va shartnomalardan hamda yetakchi davlatlarning qonunchilik sohasidagi tajribalaridan kelib chiqadigan davlat majburiyatlarini hisobga olgan holda olib boriladi.

Milliy siyosat va xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari mamlakatning ekologik salohiyatini saqlashga va mustahkamlashga asoslangan. Shu maqsadda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti bilan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida faol hamkorlikni yo'lga qo'yib, atrof-muhit va barqaror rivojlanish bo'yicha o'nlab xalqaro

konvensiyalarni ratifikatsiya qildi. Xalqaro, mintaqaviy muammolarni hal etish uchun Barqaror rivojlanish konsepsiyasi va Milliy strategiyasi «XXI asr kun tartibi», atrof-muhit, aholi salomatligi muhofazasi, biologik xilma-xillikni saqlash, cho‘llanishga qarshi kurash, ozon qatlamini yemiruvchi moddalardan foydalanishni to‘xtatish, chiqindilarni boshqarish bo‘yicha Milliy harakat rejalari, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish Milliy strategiyasi va boshqalar qabul qilindi.

Atmosfera havosini transchegaraviy muhofaza qilish umumjahon ekologik muammolardan sanalib, 1979 yilda qabul qilingan BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining (YEIK) Atmosfera havosining uzoq masofalarida transchegaraviy ifloslanishi to‘g‘risidagi konvensiyasi atmosfera havosini ifloslantirishga qarshi kurashishda hamkorlikdagi harakatlar uchun asos yaratdi. Konvensiya atmosfera havosini ifloslantirish, uning mintaqaviy darajadagi oqibatlarini o‘rganish va monitoringi hamda chiqindilarni kamaytirish strategiyasini ishlab chiqish sohasida say-harakatlarni birlashtirishni ta‘minlovchi asosiy xalqaro kelishuvlardan biri hisoblanadi. 1984 yildan boshlab to hozirgi davrga qadar oltingugurt (oltingugurt dioksidi), azot oksidlari, uchuvchan organik birikmalar, og‘ir metallar va barqaror organik ifloslantiruvchi chiqindilar hamda transchegaraviy oqimlarning qisqartirilishiga qaratilgan sakkizta protokol qabul qilingan.

Atmosfera havosining transchegaraviy ifloslanishining oldini olish bugungi kunning ham dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. O‘zbekistonning havo ifloslanishiga qarshi kurash va havoning sifatini nazorat qilish sohasidagi o‘z strategiyasi bor. Davlatimiz 1992 yil 8 fevralda MDH davlat boshliqlari imzolagan bitimga muvofiq tuzilgan MDH mamlakatlari Davlatlararo ekologiya kengashining to‘laqonli a‘zosi. O‘zbekiston hukumati tomonidan ekologik muammolarni bartaraf etish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Biroq, O‘zbekiston tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar bilangina umummintaqaviy ekologik muammolarni to‘la yechib bo‘lmaydi. Buning uchun Markaziy Osiyo davlatlarining barchasi birdek harakat qilmog‘i talab etiladi. Kezi kelganda ta‘kidlash lozimki, 36 yildan buyon qo‘shni Tojikistondagi «Tojikiston alyuminiy kompaniyasi» davlat unitar korxonasining atmosfera havosiga zararli

tashlanmalarining bevosita ta'sir doirasida Surxondaryo viloyatidagi bir milliondan ortiq aholi yashaydigan Sariosiyo, Uzun, Denov, Oltinsoy, Sho'rchi, Qumqo'rg'on tumanlari hududi aholisi endokrin va suyak-bo'g'in tizimi, nafas olish yo'llari, tug'ma nogironlik, flyuoroz va onkologik kasalliklardan borgan sari ko'proq aziyat chekmoqdalar. Chunki, bu tumanlarning aholisi sutkaning 18-19 soati davomida ekologik nuqtai nazardan zaharli – zavod mo'rilaridan tashlanayotgan, tarkibida inson salomatligi uchun xavfli bo'lgan ftorli vodorod va boshqa qo'shilmalar mavjud havodan nafas olishga majbur bo'lmoqdalar.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Ekologik monitoring – atrof, tabiiy muhit va uning resurslari holatini ma'lum dastur asosida muntazam kuzatish, baholash, prognozlash (bashoratlash)ning ma'lum tizimi bo'lib, iqtisodiy-ekologik boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilish jarayonlarini axborot bilan ta'minlashga xizmat qiladi. U antropogen faoliyat ta'sirida atrof-muhit holatidagi o'zgarishlarni aniqlash va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Global ekologik muammolar – insoniyat xatti-harakatlari va xo'jalik faoliyati natijasida atrof-muhitga yetkazilgan zarar.

Ekologik resurslar – biosferada ekologik muvozanatni ta'minlaydigan muhitni shakllantiruvchi komponentlarning majmui bo'lib, ular insonning ijtimoiy-biologik mavjudot sifatidagi hayotiy normal muhiti hisoblanadi. Ekologik resurslar hayotiy muhim funksiyani bajaradigan tabiiy tizimlarga kiradi. Bu resurslarning xarakterli xususiyati shundaki, ular, asosan, jamiyatni zaruriy ne'mat shaklidagi xizmat bilan ta'minlaydi. Ekologik resurslarga havo, suv, yer (tuproq) kiradi.

Ekologiya – tabiat va jamiyat o'zaro ta'sirining umumiy qonuniyatlari to'g'risidagi fan; atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiat resurslarini ishlatishning maqsadga muvofiqligiga qaratilgan jamiyat faoliyatining maxsus sohasi.

Iqtisodiy – ekologik boshqaruvning ma'muriy nazorat instrumentlari – yuridik (korxonalar, tashkilotlar) va jismoniy shaxslarning iqtisodiy ekologik faoliyati natijalariga ushbu shaxslar amal qilishi va erishishi kerak bo'lgan

maqsadlar, standartlar, reglamentlarni qonunlar va boshqa tartibga solish vositalarini qo'llash orqali bevosita ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan.

Iqtisodiy-ekologik siyosat – siyosiy iqtisodiyotning o'ziga xos turi va yo'nalishidir. Iqtisodiy-ekologik siyosat – davlatning tabiiy muhit va tabiiy resurslardan foydalanish, ularni saqlash, asrash, muhofaza qilish hamda tabiatdan foydalanishga asoslangan ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol sohalarida maqsadga muvofiq yo'naltirilgan tadbirlar tizimidir. U mamlakatning iqtisodiy-ekologik manfaatlarini aks ettirishi va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga yo'naltirilishi lozim.

Iqtisodiy-ekologik tizimlar – ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiatdagi tabiiy jarayonlarning o'zaro bog'liq va o'zaro shartlangan harakatini ifodalaydigan iqtisodiyot va tabiat integratsiyasidir.

Iqtisodiy-ekologik munosabatlar – insonlar o'rtasida tabiatdan foydalanish, ekologik tizimlarni tiklash va muhofaza qilish, foydali qazilmalarni qazib olish va ularni qayta ishlash, ishlab chiqarishni ekologiyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlardir.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Bugungi kundagi global ekologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'layotgan eng asosiy omillarni sanab o'ting,
2. Global ekologik nazoratning asosiy vazifalariga qaysilar kiradi?
3. Global ekologik nazorat amalda aynan qaysi chora-tadbirlarni amalga oshirishni o'z bo'yniga oladi?
4. Atrof-muhit holatini baholash qaysi bosqichlarni o'z ichiga oladi?
5. Atrof-muhit holatini baholashning tarkibiy qismlarini sanab bering.
6. Milliy siyosat va xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini tushuntiring.

VAZIYATLI TOPSHIRIQ – KEYS

Yuqorida olgan bilimlaringizdan foydalanib, O'zbekiston Respublikasidagi ekologik vaziyatni baholang. Ekologik nazoratning aynan qaysi tarkibiy qismlari

yaxshi ishlamayotganini tahlil qiling va ushbu ekologik muammolarga o'z yechimlaringizni taklif qiling.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil, 22 dekabr.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. – Т.: "Ўзбекистон", 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: «Ўзбекистон», 2017.
4. Paul R. Krugman. International Economics theory & policy eleventh edition global edition. Princeton University Maurice Obstfeld University of California, Berkeley Marc J. Melitz Harvard University.
5. Paul R. Krugman, International Economics: Theory and Policy, Pearson a Text, Global Edition. The Graduate Center, City University of New York, Princeton University, University of California, Berkeley. Maurice Obstfeld, University of California, Berkeley. Marc Melitz, Harvard University. 2018.
6. Paul R. Krugman, International Economics: Theory and Policy, 10th Edition. The Graduate Center, City University of New York, Princeton University, University of California, Berkeley Maurice Obstfeld, University of California, Berkeley Marc Melitz, Harvard University, 2015.
7. B.E. Mamaraximov. Global iqtisodiy rivojlanish. Darslik. –Т.: «INNOVATION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI» –2021.
8. Three Worlds: the West, East and South and the competition to shape global order G John Ikenberry. 2024.
9. Q.A. Isayev. Xalqaro iqtisodiyot. // Xalqaro iqtisodiyot [Matn]: darslik /– Т.: «Ma'naviyat», 2021.
10. Alimov A.M. "Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari. - Т.: Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti nashriyoti, 2016.
11. Q.A. Isayev. Xalqaro iqtisodiyot. // Xalqaro iqtisodiyot [Matn]: magistratura uchun darslik /– Т.: 18.08.2021.

12. Мировая экономика: учебник / под ред. Б.М.Смитиенко. –М.: Высшее образование, Юрайт-Издат, 2009. –581 с.
13. Q.A. Isayev. Makroiqtisodiyot. // Makroiqtisodiyot. Darslik -T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 301 b.
14. Isadjanov A.A. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. –T.: JIDU, 2008, - 185 b.
15. Q.A. Isayev. Moliya bozorlari va institutlari. // Moliya bozorlari va institutlari. Darslik. -T.: “Zaminnashr”, 2022.-272b.
16. Исмаилова Н.С., Шагазатов У.У. Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар. Дарслик. –Т.: IQTISODIYOT, 2019.
17. Q.A. Isayev. Xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar. // Xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar. [matn] -T.: “Ilm-fan va innovatsiya”, 2022, 332 b.
18. Q.A. Isayev. Xalqaro Moliya. // Xalqaro Moliya. Darslik -T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023 – 244 b.
19. Jovid Ikromi. International Economic Integration: The Educational and Methodological Guide. Dushanbe.: Technological university of Tajikistan, 2022.
20. Q.A. Isayev. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning jahon tajribalari // “Iqtisodiy islohotlar jarayonida O‘zbekistonda bojxona ma’murchiligini takomillashtirish istiqbollari” ilmiy- amaliy anjuman materiallari to‘plami (2020 yil 23 yanvar).
21. UNCTAD HANDBOOK OF STATISTICS, 2024
22. Dilip Ratha; De, Supriyo; Eung Ju Kim; Ganesh Kumar Seshan; Nadege Desiree Yameogo. Migration and Remittances: Recent Developments and Outlook.
23. Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot (IOM) Global ma’lumotlar instituti (GDI) 2024.
24. World Development Report 2024, World Bank.
25. Киреев А.П. Международная экономика. В 2-х ч. – Ч. I. Международная микроэкономика: движение товаров и факторов производства. Учебное пособие для вузов. – М., 416 с.

26. Киреев А. П. К43 Международная экономика. В 2-х ч. – Ч.П. Международная макроэкономика: открытая экономика и макроэкономическое программирование. Учебное пособие для вузов. – М.: Междунар. отношения, 2001. – 488 с.

27. Мисько О.Н. Международная экономическая интеграция. – СПб.: Университет ИТМО, 2015. – 174 с.

28. Николаевой И.П. Мировая экономика и международные экономические отношения. Учебник. – Москва: Дашков и К, 2014. – 244 с.

29. Экономическая теория: Учебник. – Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добринина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 121-б.

30. Куликов Л.М. Экономическая теория: учеб. – М.: ТК Вебли, Изд-во Проспект, 2005, 191-б.; Тожибоева Д. Иқтисодиёт назарияси: Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. – Т.:«Ўқитувчи», 2002, 246-б

Internet resurslar

31. <https://www.gov.uz>
32. <https://edu.uz/>
33. <https://www.tseu.uz>
34. <https://jahon.mfa.uz>
35. <https://www.cer.ru>
36. <https://www.imv.uz/>
37. <https://stat.uz/uz/>
38. <https://www.bilimdon.uz>
39. <https://www.review.uz>
40. <https://www.ebrd.com>
41. <https://www.wto.org>
42. <https://www.worldbank.org>
43. <https://cbu.uz/uz/>
44. <https://www.statista.com/>
45. <http://eastwest.com.ua/content/kitai>

46. <http://www.aseansec.org>
47. <http://www.asean.or.id>
48. <http://www.aseanenergy.org>
49. <http://www.asean-tourism.com>